O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

INSON KAPITALI VA TEXNOLOGIK INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH, IQLIM MUAMMOLARI YECHIMI HAMDA RESURSLAR SAMARADORLIGI ORQALI UZOQ MUDDATLI BARQAROR IQTISODIY O‘SISHGA ERISHISH

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

27-28-sentabr 2024yil

Farg‘ona-2024

UO‘K: 372.3
KBK: 74.262.21

Inson kapitali va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish, iqlim muammolari yechimi hamda resurslar samaradorligi orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg‘ona.; “Classic” nashriyoti, 2024. – 548 bet.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son qarori 9-bandida belgilangan topshiriq ijrosini o’z vaqtida va samaralari bajarilishini ta’minlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug’ining 1- ilovasidagi, “2024-yilda o’tkaziladigan xalqaro miqyosdagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi”ga ko’ra 2024-yil 27-28–sentyabr kunlari Farg‘ona politexnika institutida **“Inson kapitali va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish, iqlim muammolari yechimi xamda resurslar samaradorligi orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. 1100 b.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta’lim muassasalarida hamda ilmiytadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Farg‘ona politexnika instituti, 2024-yil

©“Classic” nashriyoti, 2024.

ISBN: 978-9910-676-41-3

Konferensiyaning tashkiliy qo‘mitasi:

O`.R. Salomov - FarPI rektori, tashkiliy qo‘mita raisi;

Sh.M. Davlyatov - FarPI II va IB prorektori, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari;

I.J. Jaxongirov - FarPI O‘IB prorektori, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari;

Z.A. Yunusov - FarPI XHB prorektori, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari;

Sh.A. Dexkanov - FarPI YOMMIB prorektori, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari;

A.A. Salimov - FarPI MIIB prorektori, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari.

Qo‘mita a'zolari:

O.T. Nurmatov - Ishlab chiqarishda boshqaruv fakulteti dekani,

R.X Mirzasharipov - Mexanika-mashinasozlik fakulteti dekani;

M.O. Uzbekov - Energetika fakulteti dekani;

G.R. Mirzaqulov - Kimyo-texnologiya fakulteti dekani;

Sh.A. Umarov - Qurilish fakulteti dekani:

I.A.Toshpo‘latov - Yengil sanoat va to‘qimachilik fakulteti dekani:

M.Q. Toxirov - Kompyuterlashgan loiyhalash tizimlari fakulteti dekani;

I.N. Ismanov - Iqtisodiyot kafedrasi mudiri:

A.M. Kadirov - Menejment kafedrasi mudiri

A.S. Xodjaev - Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi mudiri v.b

U.I. Nishonov - O‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrasi mudiri.

Anjuman o‘tkazish uchun mas’ul: “Menejment” kafedrasi

Mas’ul muharrir:

N.A. Yuldasheva - Menejment kafedrasi dotsenti, i.f.d.

Kirish so‘zi

Assalomu alaykum, aziz do‘stlar! Hurmatli konferensiya qatnashchilari!

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy o‘zgarishlarning asosiy vazifasi respublikaning raqobatbardosh ustunliklarini hisobga olgan holda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishdan iborat. Shu munosabat bilan, nafaqat yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash, balki iqtisodiyot tarkibidagi qayta ishlash tarmoqlari foydasiga sifat jihatidan o‘zgarishni ta’minlash zarur bo‘lib, bu o‘sishning yangi manbalarini izlash zarurligini anglatadi.

Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarini kuchaytirish va ularni ijrosini ta’minlash bilan bir qatorda, yashil texnologiyalarga talabni rag‘batlantirish uchun narxlash vositalaridan foydalanishni kengaytirish, yashil xaridlar va ekologik belgilar dasturlarini tarqatish kerak, va barqarorlikni ta’minlash zarurligini hisobga olgan holda bandlik va mehnat bozori to‘g‘risidagi axborot bazasini takomillashtirish kerak.

Shu munosabat bilan institutimizning Ishlab chiqarishni boshqarish fakultetida **“Inson kapitali va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish, iqlim muammolari yechimi xamda resurslar samaradorligi orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazilmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘sish sifatini belgilovchi eng muhim omillar sifatida iqtisodiy o‘sishning ma’lum bir mezonlarga javob beradigan foydali ta’sirini hisobga olish kerak. Hozirgi vaqtda samarali, resurs tejovchi va ekologik havfsiz iqtisodiyotni rivojlantirish jahon va milliy iqtisodiyotlarning ajralmas qismiga aylanmoqda, bu milliy qonun hujjatlariga yangi ishlab chiqarish va tabiatni muhofaza qilish standartlari joriy etilishini rag‘batlantiradi, “yashil iqtisodiyot” asosida barqaror taraqqiyota o‘tishga va sifat jihatidan yangi raqobatbardosh muhitni shakllantirishga ko‘maklashadi. “Yashil iqtisodiyot” – bu ertangi kun iqtisodiyoti va aynan u XXI asr iqtisodiy taraqqiyotining harakatga keltiruvchi kuchi bo‘lishi kerak. Yashil iqtisodiyot nazariyasi quyidagi uchta aksiomaga asoslanadi:

- cheklangan makonda ta’sir sohasini uzluksiz kengaytirib bo‘lmaydi;
- resurslar cheklangan sharoitda uzluksiz oshib borayotgan ehtiyojni qondirishni talab qilish mumkin emas;
- yer yuzasida hamma narsa bir-biri bilan bog‘liq.

Iqtisodiy o‘sishning an’anaviy modelidan “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish – bu umumjahon trendi bo‘lib, u nafaqat alohida milliy iqtisodiyotlarning, balki umuman butun jahon iqtisodiyotining barqarorligini belgilab beradi, “yashil iqtisodiyot”ni ilgari surish esa taraqqiyotning asosiy yo‘lidir.

Yangi O‘zbekiston qisqa davr ichida ilg‘or davlatlar safiga qo‘shilishni strategik maqsad sifatida belgilagan. Shu maqsadda salohiyatli, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash zamirida fundamental tadqiqotlar, innovatsion ishlanmalar zarur.

Bu boradagi islohotlar mamlakatimizda kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ilmiy-tadqiqot muassasalarini modernizatsiya qilish, innovason texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga jadal tatbiq etishda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Farg‘ona politexnika instituti - muhandislik sir-asrorlarini o‘rgatishga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasasi. Ammo, insoniyat zimmasidagi aksariyat og‘ir yumushlar robotlarga yuklanayotgan, o‘ta mas’uliyatli vazifalarning bir qismi sun’iy intellekt ixtiyoriga ishonib topshirilayotgan bugungi globallashuv davrida an’anaviy ta’lim yondashuvlari bilan peshqadamlikka erishib bo‘lmaydi. Shundan kelib chiqib, institut mas’ullari xalqaro talablarga mos raqobatdosh kadrlar tayyorlash uchun ilg‘or va zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishga kirishishgan.

Shu maqsadda institutimizda ulkan yutuqlarga erishilmoqda-ki, “InnoWeek-2023” innovasion haftalik doirasida oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy tashkilotlarning 2022-yildagi faoliyati natijalariga ko‘ra milliy reytingi e’lon qilindi. Ushbu reyting natijalariga ko‘ra Farg‘ona politexnika instituti Top-5 talikdan o‘rin egalladi.

Bularning bari bugungi kunda institutimiz professor o‘qituvchilari zimmasiga katta ma’suliyat yuklaydi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Men shu fursatdan foydalanib, konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman. Shuningdek, albatta Farg‘ona politexnika institutining professor – o‘qituvchilariga kuch quvvat, ulkan salohiyat tilab qolaman.

Farg‘ona politexnika instituti
rektori t.f.d., professor O‘.R.Salomov

TABRIK SO‘ZI

Assalomu alaykum aziz ustozlar, qadrli konferensiya ishtirokchilari!

Avvalambor, Sizlarni bugungi Farg‘ona politexnika institutida **“Inson kapitali va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish, iqlim muammolari yechimi xamda resurslar samaradorligi orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning o‘tkazilayotganligi bilan tabriklayman.

Bugungi anjuman mintaqalarning iqtisodiy muammolarini o‘rganish, ishga tushirilmagan zahiralarini izlab topish va ulardan samarali foydalanish masalalari har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. 2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning strategiyasida yanada rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi – Taraqqiyot strategiyasi tamoyila asosida “...hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko‘lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo‘li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish” masalalariga jiddiy e’tibor qaratilayotgan bir davrda o‘tkazilmoqda deb o‘ylayman.

Xozirgi sharoitda mamlakatimizda olib borilayotgan izchil iqtisodiy islohotlarni ro‘yobga chiqarish, iqtisodiy barqarorlik, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, bitiruvchilarning samarali ish bilan bandligining amalga oshishini ta’lim va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyalashuvisiz tasavvur qilish qiyin.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqabotbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ko‘zda tutadi. Uning asosini uzluksiz ta’lim va amaliyot birligi tashkil etib, ularning integratsiyalashuvi orqali malakali, har tomonlama takomillashgan kadrlar tayyorlanadi. Sanoati va intellektual salohiyati rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro aloqa qanchalik mustahkam bo‘lsa, shunchalik yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ularning samarali bandligini ta’minlash va nihoyat, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkin bo‘ladi. Shu boisdan mamlakatimizda oliy va kasbhunar ta’limida olib borilayotgan islohotlar mazmuni hamda bitiruvchilarning oqilona bandligini ta’minlashdagi ustuvor yo‘nalishlar ham aynan shuni

tashkil qiladi. Iqtisodiy faol aholi tarkibida mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslar ichida bitiruvchi yoshlar yuqori ulushga ega bo‘lmoqdaki, bu hol ta’lim va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyalashuvini takomillashtirishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Yana bir fikr, insoniyatning bugungi yashash sharoitida erishgan yutuqlari bir necha ming yillar davomida shakllandi. Shu davr ichida inson uzining aql-idroki bilan, aqliy mehnati bilan yashash darajasini yaxshilashi uchun og‘ir mehnatni texnika texnologiyalar zimmasiga yukladi, albatta, ular ixtiro qilindi, yaratildi va amalda keng qo‘llanilmoqda. Shuningdek, tobora ko‘payib borayotgan insonlarning cheksiz ehtiyojlarini qodirish uchun mavjud resusrlardan foydalanish hajmi va imkoniyatlarini ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida iqtisodiyotni rivojlantirib, uni kengaytirib bordi. Albatta, bugungi taraqqiyot talofatlarsiz bo‘lmadi. Ushbu rivojlanish darajasi, ixtirolaru-kashfiyotlarning natijasi inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni qay darajada o‘zgartirdi? Inson tabiat bilan yashaydi, tabiiy resurslar insonni oziqlantiradi, kiyintiradi, xavodan nafas oladi, ulardan samarali, me’yorida foydalanib yashash darajasini, uzoq umr ko‘rishini ta’minlaydi. Tabiatning rivojlanish qonuni va qonuniyatlari bor va ularni inson doim inobatga olishi lozim. Insonning ham yaxshi yashashi uchun o‘zining qonunlari va qonuniyatlari mavjud. Inson va tabiat shu ikki guruh qonunlari, me’yoriy hujjatlar asosida yashashi, faoliyat ko‘rsatishi lozim.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilash bilan birga shuni aytish mukinki, mazkur oliy ta’lim muassasasining so‘ngi yillardagi olib borayotgan o‘quv –uslubiy va ilmiy- tadqiqot sohasidagi ishlarining natijalari davlatimiz raxbari, muxtaram yurtboshimiz tomonidan e’tirof etildi.

Bu albatta Farg‘ona politexnika institutining professor – o‘qituvchilari zimmasiga yanada ma’suliyat yuklaydi.

O‘ylaymanki, mana shunday anjumanlarning yuqori darajada ilmiy saloxiyat bilan o‘tkazilishi davlat va jamiyat taraqqiyotiga sezilarli darajada xizmat qiladi.

Farg‘ona viloyati hokimi
X.X.Bozarov

3-SHO‘BA

MAMLAKAT IQTISODIYOTINI INNOVATSIYALAR VA YASHIL ENERGIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

РОЛЬ ИННОВАЦИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Мирзошехова Дильбар Иркинджановна

ассистент кафедры экономики и предпринимательства
Института экономики и торговли Таджикского государственного университета коммерции в г. Худжанд
Адрес: 735700, Таджикистан, Худжанд, проспект И.Сомони 169
Телефон: 92-726-77-47

Аннотация: В статье рассматривается понятие эффективности предпринимательской деятельности. Определение роли инноваций в повышении эффективности предпринимательской деятельности является одними из приоритетных направлений изучения, формирование которых позволит определить их состояние и развитие в дальнейшей перспективе.

Ключевые слово: инновации, экономическая эффективность, предпринимательская деятельность.

Annotation: The article discusses the concept of business efficiency. Determining the role of innovation in increasing the efficiency of entrepreneurial activity is one of the priority areas of study, the formation of which will make it possible to determine their condition and development in the future.

Keywords: innovation, economic efficiency, entrepreneurial activity.

Предпринимательская деятельность – это самостоятельная, осуществляемая на свой риск деятельность, направленная на систематическое получение, прибыли от пользования имуществом, продажи товаров, выполнения работ или оказания услуг лицами, зарегистрированными в этом качестве в установленном законом порядке.

В отличие от любой хозяйственной деятельности предпринимательскую характеризуют отличительные ее признаки, которыми являются риск, инициатива, предприимчивость, самостоятельность, ответственность и активный поиск.

Субъектами предпринимательства могут быть частные лица, различно города ассоциации (акционерные общества, арендные коллективы, кооперативы) и государство. Объектами предпринимательства могут стать любые виды хозяйственной деятельности, коммерческое посредничество, торгово-закупочная, инновационная, консультационная деятельность, операции с ценными бумагами. В условиях рыночных отношений одной из первостепенных задач оценки предпринимательской деятельности является повышение эффективностей функционирования. Эффективность является одной из важнейших, фундаментальных, ключевых экономических категорий. В экономической науке вопросы эффективности считаются одними из наиболее общих и сложных. Рассмотрим социальную и экономическую эффективность предпринимательской деятельности.1

Социальная эффективность предпринимательской деятельности – это активность предпринимательской деятельности в жизни общества, направленная на удовлетворение социальных потребностей, улучшение его благосостояния. Социальная эффективность предпринимательской деятельности – это интегральный показатель инновационной экономических взаимодействий и «меры новизны», устанавливаемой социумом. Социальная эффективность предпринимательской деятельности заключается в построении таких систем социально-экономических коммуникаций, которые могут быть успешно интегрированы в социум, повышая уровень его потенциальных возможностей отвечать на «вызовы» времени.

Социальная эффективность предпринимательской деятельности направлена на прямое действие по реализации социальной программы и имеет специфическую

двойственность в оценке результативности. Результатом будет являться смесь финансовой и социальной отдачи. Прибыль остается

[1] См.: *Берлин С.И.* Финансово-экономическая политика и рекреационная экономика: модели взаимодействия // Экономические науки. 2007. № 4.

целью, но это – не единственная цель, прибыль реинвестируется в реализацию социальной миссии.2

Показатели социальной эффективности предпринимательской деятельности можно разделить на внутренние и внешние.

Внешние показатели социальной эффективности предпринимательской деятельности характеризуют результат общественной деятельности. Если говорить конкретней, насколько активно предпринимательская деятельность участвует в жизни социума, реализация общественной деятельности, направленной на развитие местного сообщества, например,

содержание объектов жилищно-коммунального сектора;

участие в инвестировании объектов культурного и социального назначения;

поддержка инновационных проектов;

экологическая безопасность;

поддержка незащищенных слоев населения.

Одной из перспективных форм реализации социальных функций предпринимательской деятельности является развитие частной государственного партнерства. В ряде развитых, а в последние десятилетия и развивающихся стран форма взаимодействия бизнеса и власти обозначается обычно термином Public-Private Partnership (PPP). 3

Ход общественных дискуссий разного формата и уровня, проведенных в последние годы по проблемам социальной ответственности бизнеса, показывает заинтересованность государства в активизации участия компаний в решении социальных проблем общества. Бизнес готов к взаимодействию с государством в решении актуальных и перспективных социальных проблем и развитию в этой связи различных форм частной государственного социального партнерства. Одновременно он стремится к повышению своей роли как производителя социальных услуг.

Государственно-частное партнерство представляет собой институциональный и организационный альянс государственной власти и частного бизнеса с целью реализации общественно значимых проектов в широком спектре сфер деятельности – от

[2] Базаров Ш.Ш. Основы предпринимательства. Учебник для вузов. Душанбе: «ЭР-граф», 2017г.137с-140с.

[3] Hayek F. New studies in philosophy, polities, economics and history of ideas.-L.,1978.-c180.

развития стратегически важных отраслей экономики до предоставления общественных услуг в масштабах всей страны и отдельных территорий.

Проекты государственно-частного партнерства представляют собой не простое сложение ресурсов, а совершенно особую конфигурацию интересов и соответствующих правомочий партнеров. Во-первых, государство как одна из сторон партнерства выступает в роли носителя общественно значимых интересов и целей, причем исполняет не только целеполагающую, но и контрольную функцию.

Во-вторых, выступая в роли участника хозяйственного оборота, оно заинтересованно как в эффективности общих результатов государственно-частного партнерства, так и в обеспечении собственного коммерческого эффекта. Наконец, частный партнер, как всякий нормальный предприниматель, преследует цель максимизации прибыли. Поэтому с мента коммерческих (в отличие от сегмента реализуемых государством общетенных) интересов между партнерами вполне уместен и даже необходим торг о возможном разделе возникающих рисков, о характере делегируемых правомочий и условиях их передачи и использования.

Степень участия частного сектора в государственно-частном партнерстве может повышаться и понижаться в зависимости от форм взаимодействия (государства и бизнеса), а также от масштабов правовых полномочий, переданных частному бизнесу со стороны государства.

Внутренние показатели социальной эффективности предпринимательской деятельности характеризуют социальную деятельность внутри предприятия, направленную на развитие человеческого потенциала. Результатом можно назвать полученный эффект от:

развития персонала труда (повышение квалификации работников предприятия);

охраны здоровья (создание благоприятных условий труда, медицинские осмотры, программы, направленные на оздоровление персонала);

деловой практики компании (создание имиджа социально ответственного предприятия);

ресурсосбережения.

Экономическая эффективность – это результативность экономической системы, выражающаяся в отношении полезных конечных результатов ее функционирования к затраченным ресурсам. Экономическую эффективность предпринимательской деятельности можно оценивать не только размерами полученной прибыли, но и изменением стоимости бизнеса (рыночной стоимости, гудвилла).4

На степень экономической эффективности предпринимательской деятельности влияет целая система факторов внутренней и внешней среды. Факторы внутренней и внешней среды могут классифицироваться по следующим признакам: по степени воздействия (основные, второстепенные); по степени количественного измерения (поддающиеся измерению, не поддающиеся измерению); по времени воздействия (постоянные, временные); по охвату воздействия (общие; специфические); по степени детализации (простые – одна причина; сложные – комплексные причины); по характеру действия (объективные; субъективные); по способу определения (прямые; кос- венные); по степени действия (1-го; 2-го; 3-го и т.д. порядка).

Оценить экономическую эффективность предпринимательской деятельность можно с помощью комплексного подхода к оценке эффективности, основанного на трех аспектах предпринимательской деятельности: производственный, коммерческий и финансовый.

Коммерческий аспект позволяет оценить эффективность реализации продукции. про Финансовый аспект характеризует эффективность управления внешними и внутренними финансовыми потоками производственно-предпринимательских структур.

Характеризуя финансовые результаты деятельности, можно использовать, например:

доходы от основной деятельности;

себестоимость реализованной продукции;

чистый доход без учета доли в прибылях ассоциированных компаний;

чистый налог до налогообложения и др.

[4] Камилов С.Д. Махмадаминов М.Б. Инновационное развити совершенствование антикризисного управления предприятием. Душанбе: Фонд им.ср.Эберта, 2011с.32.

Соотнеся эти показатели с показателями затрат, можно сформировать представление об эффективности финансовой деятельности.

Этот подход позволяет решить ряд задач:

выбирать оптимальные стратегические ориентиры;

обосновать цели и задачи предпринимательства;

прогнозировать результаты деятельности;

анализировать рыночные возможности организации и характеризовать его позиции в конкурентной среде;

сочетать результирующие характеристики, реализуя принципы взаимодополняемости целевых характеристик;

использовать принцип стратегической гибкости и адаптивности производственно-строительных систем.

Литература.

1. См.: Берлин С.И. Финансово-экономическая политика и рекреационная экономика: модели взаимодействия // Экономические науки. 2007. № 4.

2. Базаров Ш.Ш. Основы предпринимательства. Учебник для вузов. Душанбе: «ЭР-граф», 2017г.137с-140с.

3.Hayek F. New studies in philosophy, polities, economics and history of ideas.-L.,1978.-с180.

4. Камилов С.Д. Махмадаминов М.Б. Инновационное развитие и совершенствование антикризисного управления предприятием. Душанбе: Фонд им.ср.Эберта, 2011с.32.

5.Джукер П. Бизнес и инновации. – М., Изд.Вилямс 2007г.

“YASHIL” ENEGRIYA QUVVATLARINI BARPO ETISH IQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASH ASOSI SIFATIDA

Muminova Elnoraxon Abdukarimovna
FarPI “Iqtisodiyot”kafedrasi professori
Umarova Dilnoza Oybek qizi
FarPI “Iqtisodiyot” yo‘nalishi 78-23 I guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil energiya manbalaridan foydalanishning ahamiyati va zarurati yoritilgan. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda elektr-energiyasini ishlab chiqarish va iste’molchilarni elektr-energiyasi bilan ta’minlash ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Xalqaro energiya agentligi (International Energy Agency – IEA) ning hisobotida aks ettirilgan qayta tiklanadigan energiya manbalarining prognoz ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida “yashil” enegriya quvvatlaridan foydalanish zarurligi borasida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil o‘sish, iqtisodiy barqarorlik, qayta tiklanuvchi energiya, gidronegetika shamol energetika, energiya resurslari, tabiiy resurslar.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность и необходимость использования экологически чистых источников энергии. В целях развития зеленой экономики изучены меры, реализуемые в нашей стране по использованию возобновляемых источников энергии. Также были проанализированы показатели производства электроэнергии и поставок электроэнергии потребителям Узбекистана. Изучены прогнозные показатели возобновляемых источников энергии, отраженные в отчете Международного энергетического агентства (МЭА). Сделаны выводы и предложения относительно необходимости использования зеленых энергетических ресурсов в устойчивом развитии экономики страны.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленый рост, экономическая стабильность, возобновляемые источники энергии, гидронетика, ветроэнергетика, энергетические ресурсы, природные ресурсы.

Abstract: This article highlights the importance and necessity of using environmentally friendly energy sources. In order to develop a green economy, measures implemented in our country to use renewable energy sources have been studied. The indicators of electricity production and electricity supplies to consumers in Uzbekistan were also analyzed. The forecast indicators of renewable energy sources reflected in the report of the International Energy Agency (IEA) were studied. Conclusions and proposals are made regarding the need to use green energy resources in the sustainable development of the country's economy.

Key words: green economy, green growth, economic stability, renewable energy sources, hydronetics, wind energy, energy resources, natural resources.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, uning tarmoq va sohalarining kengayishi, aholi turmush darajasini ortib borishi iqtisodiy resurslarda yanada oqilona foydalanishni taqazo etadi. Ishlab chiqarish hajmini ortishi, yangi ishlab chiqarish korxonalarining paydo bo‘lishi energiya va energiya resurslarini ko‘plab sarflanishiga sabab bo‘lmoqda. Soha mutaxassislari va olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda aniqlangan mavjud tabiiy yoqilg‘i-energiya resurslari (tabiiy gaz, neft) 60–150-yil ishlatishga yetadi. Shu sababli, ko‘plab mamlakatlarda energiya resurslaridan samarali foydalanish masalalariga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish asosida yashil energiya manbalarini joriy etish, ulardan samrali foydalanish, energiya ishlab chiqarishda muqobil energiya manbalarining ulushini ko‘paytirish, “yashil energetika” siyosatini amalga oshirish bugungi kunning asosiy dolzarb masalalridan hisoblanmoqda. Mamlakatimiz xukumati tomonidan ushbu masala yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022-yildagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori doirasida 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha harakatlar rejasi ishlab chiqilgan bo‘lib, tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotni tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash, milliy iqtisodiyot, xususan sanoatning “yashil”va kam uglerordli rivojlanishini ta’minlash, innovatsiyalarni joriy etish va samarali “yashil” investitsiyalarni jalb qilish, barqaror va inklyuziv “yashil” urbanizatsiyani rivojlantirish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish

davrida katta ta’sir kuchiga ega bo‘lgan aholi qatlamlarini va ularning yashash joylarini qo‘llab-quvvatlash, “Yashil” o‘sish bo‘yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun qulay siyosiy muhit yaratish, samarali institutlarni joriy qilish, tashqi va ichki “yashil” moliyalashtirish oqimlarini ko‘paytirish masalalari belgilangan**.**

Tadqiqot ishida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda “yashil” enegriya quvvatlariddan foydalanish masalalarini yoritish, ma’lumotlarni topish, aniqlash va tahlil qilish davomida bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Jumladan, O‘zbekistonda elektr energiyasini ishlab chiqarish qo‘rsatkichlari statistik ma’lumotlari asosida qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Mamlakatimizda muqobil energiyalardan foydlanish masalalari o‘ranilgan va muhokama qilingan.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi bosqichida barqaror rivojlantirishni takomillashtirish energetika tarmog‘ining raqobatdoshligini oshirishda asosiy omillardan biriga aylanmoqda. “Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash hamda “yashil” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish asosiy masalalardan sanaladi. 2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko‘rsatkichini qo‘shimcha 30 milliard kVt.soatga oshirib, jami 100 milliard kVt/soatga yetkazish, 2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash” vazifalari belgilab berilgan. Respublikada iqtisodiyot barqaror o‘sishini ta’minlashga va aholining farovonlik darajasini oshirishga,yoqilg‘i-energetika resurslariga bo‘lgan talab-ehtiyojni uzluksiz qanoatlantirishga qaratilgan neft-gaz, elektr energetika, ko‘mir, kimyo, qurilish industriyasini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi amalga oshirilmoqda. 22.08.2019-yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4422-sonli Qarorida yuqoridagi masalalarni amalga oshirish maqasadida “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini yanadaoshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish” bo‘yicha yo‘l xaritasi belgilangan.

“2020–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiyasi”ni amalga oshirish jarayonida O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan yangi vazifalari va ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq kengaytirilishi ta’minlanadi. Konsepsiyada 2030 yilgacha erishilishi kerak bo‘lgan bir qancha ko‘rsatkichlar qayd etilgan, jumladan:

- quvvatni 12,9 GVt dan 29,3 GVt ga oshirish3;
- elektr energiyasini ishlab chiqarishni 63,6 mlrd. kVt/s.dan 120,8 mlrd. kVt/s.gacha oshirish
- tabiiy gaz iste’molini 16,5 milliard kub metrdan 12,1 milliard kub metrgacha kamaytirish;
- elektr energiyasini uzatishda yo‘qotishlarni 2,35 foizga va taqsimlashda yo‘qotishlarni 6,5 foizga kamaytirish (2019-yilga nisbatan 1,85 barobar kam).

Ushbu rejalarning amalga oshirilishi O‘zbekistonda 10-yil ichida energiya iste’moli qariyb ikki baravar oshishi haqidagi prognozlarni hisobga olgan holda mamlakatning energetik havfsizligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, 2030-yilga kelib IES ning 15,6 GVt yangi va modernizatsiya qilingan ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish rejalashtirilgan. Yuqoridagi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda energiya ishlab chiqarish quvvatlari yildan yilga ortib bormoqda. 2016-yilda energiya ishlab chiqarish quvvati 59,0 mlrd kVt/soatni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 74,3 mlrd kVt/soatni tashkil etganlishini ko‘rishimiz mumkin.

Quyidagi diagrammada esa O‘zbekistonda iste’molsilarni elektr energiyasi bilan ta’minlash ko‘rsatkichining tahlilini ko‘rish mumkin.

Xalqaro energiya agentligi (International Energy Agency – IEA)5ning hisobotiga ko‘ra 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiyaning global quvvati 510 gigavatt (GVt) ga yetdi. Bu qo‘rsatkich 2022-yilga nisbatan qariyb 50 foizga ko‘p ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Hisobotda prognoz qilinishiga ko‘ra:

■ 2024-yilda shamol va quyosh energiyasi birgalikda gidroenergetikadan ko‘ra ko‘proq elektr energiyasi ishlab chiqara boshlaydi.

■ Shamol elektr stansiyalari 2025-yilda atom elektr stansiyalarini, 2026-yilda esa quyosh elektr stansiyalarini ortda qoldiradi.

■ 2028-yilda qayta tiklanadigan energiya global elektr energiyasi ishlab chiqarishning 42 foizdan ortig‘ini, shamol va quyosh ulushi esa 25 foizini tashkil qiladi.

Mamlakatimizda energetika tizimi barqarorligini ta’minlash uchun yangi quvvatlarga mos tarmoqlarni qurish, elektr saqlash qurilmalarini o‘rnatish, zarur materiallarni ishlab chiqarishni maqsadida O‘zbekistonda 2024-yilda elektr ishlab chiqarishda “yashil energiya” ulushi 15 foizga yetishi kutilmoqda.

Energiya resurslariga tobora talab ortib borayotgan bir vaqtda enegriya resurslaridan samarali foydalanish, yashil energiya manbalarini izlaz va ularni iqtisodiyotning tarmoq va sohalariga joriy etish, energetika tizimining barqarorligini ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari ekologik toza yashil energiya manbalari bo‘lganligi sababli muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. “yashil” iqtisodiyotni ta’minlash maqsadida atrof- qazib olinadiga yoqilg‘ilardan (CO2) foydalanishni kamaytirish, energo reruslarini tejash, iste’molini to‘g‘ri tashkil etishda qayta tiklanuvchi enegriya manbalari muhim rol o‘ynaydi. QTEMlari birinchidan, havoni ifloslamasdan

energiya xizmatlarini taqdim etadi, ikkinchidan, tog‘li va chekka hududlarda energetika sohasini barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Jumladan:

● “yashil” energiya quvvatlarini barpo etishda tabbiy resurslardan foydalaniladi. Ular quyosh, shamol, suv va boshqa resurslardir.

● “yashil” enegriyadan foydalanishdagi innivatsion texnologiyalar yashil energiya generatsiyasi, batareyalar, energiya iste’molini kuchaytirish usullari energiya iste’moli va iqtisodiy bo‘shliqlarning o‘zlashtirishiga yordam beradi.

● “yashil” enegriya resurslari, masalan, quyosh va shamol kabi tabiiy manbalardan foydalanish narxlarning pastligini ta’minlashga yordam beradi. Bu esa energiya narxlari ustida yengilgi ko‘rsatkichi bo‘lib, energiya iste’molchilar uchun arzon va maqbul narxlarga ega bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шадиметов, Ю. Ш., & Айрапетов, Д. А. (2023). Зеленая” энергетика: опыт зарубежных стран, проблемы и перспективы. “yashil” energetikani amaliyotga tatbiq etish: yutuqlar va muammolar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to ‘plami, 247-253.

2. Chau, K. Y., Moslehpour, M., Tu, Y. T., Tai, N. T., Tien, N. H., & Huy, P. Q. (2022). Exploring the impact of green energy and consumption on the sustainability of natural resources: Empirical evidence from G7 countries. Renewable energy, 196, 1241-1249.

VILOYAT TARMOQLARIDA “YASHIL” IQTISODIYOTNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHN

Maxammadjon Tuychiyevich Butaboev
i.f.d., professor, Farg‘ona politexnika instituti
Arziyev Mo‘ydinjon Abduraxmonovich
Farg‘ona politexnika instituti
“Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahonda va O‘zbekistonda issiqxona gazlarining atmosfera chiqarilishi, ekologik vaziyat hamda uning salbiy oqibatlari bayon etilgan. Shuningdek, hududlarda yashil iqtisodiyotning

rivojlantirish masalalari: atrof-muhitning ifloslanishi, ekologik tanglik va uning bartaraf etish bo‘yicha takliflar

Kalit so‘zlar: issiqxona gazlari, atmosfera, iqlim o‘zgarishi, global isish, ekologik xavf-xatar, yashil makon**.**

Аннотация: В данной статье описаны выбросы парниковых газов в атмосферу, экологическая ситуация и ее негативные последствия в Узбекистане и в мире. А также вопросы развития зеленой экономики в регионах: загрязнение окружающей среды, экологический стресс и предложения по его устранению.

Ключевые слова: парниковые газы, атмосфера, изменение климата, глобальное потепление, экологический риск, зеленые насаждения.

Abstract: This article describes the atmospheric release of greenhouse gases, the environmental situation and its negative consequences in Uzbekistan and in the world. Also, issues of green economy development in the regions: environmental pollution, environmental stress and proposals for its elimination.

Key words: greenhouse gases, atmosphere, climate change, global warming, ecological risk, green space.

Bugungi kunda dunyoda issiqxona gazlarining atmosferaga chiqarishning me’yorlashtirish, yashil energetika tizimlariga investitsiyalar kiritish, ko‘mirga va mazutga ishlaydigan elektr stansiyalarini bosqichma-bosqich to‘xtatish, muqobil energiya iste’moliga o‘tish, shamol, quyosh energiya manbalaridan to‘la foydalanishni rag‘batlantirish hamda “yashil” texnologiyalardan keng foydalanish, energiya samaradorligini oshirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Hozirgi kunda iqlim o‘zgarishi eng katta ekologik xavf-xatar tug‘dirmoqda. Shu bilan birgalikda global qazib olinayotgan yoqilg‘i (ko‘mir yiliga 32 millyard tonna) va neft mahsulotlaridan (Osiyo davlatlarida 0.7 millyard tonna, gaz 221 millyard kub metr) foydalanish hozirgi vaqtda iqlimni 4ºC dan 6 ºC gacha ko‘tarilishi mumkin. Bu esa oziq-ovqat ishlab chiqarish, inson salomatligi va biologik xilma-xillik uchun fojiali halokatlarni keltirib chiqaradi.

Chorvachilikda, parrandachilikda va o‘simlik chiqindilarini qayta ishlash natijasida olingan biogaz qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda ahamiyatlidir. Ularni qayta ishlash natijasida hosil qilingan tabiiy mineral o‘g‘itlardan foydalanish tuproq unumdorligi oshiradi. Shu bilan birgalikda, sun’iy intelekt yordamida yerni melorativ xolatini, ya’ni

sho‘rlanish, zahlanish, quriqlanish, yemirilganlik darajalari o‘rganiladi va “tashhis” qo‘yadi[1, 480 b]. O‘zbekistonda har yili tuproq quriqshab, yemirilish oqibatida 15 ming gektar yer ishdan chiqmoqda.

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi va global isish, tuproq tabiiy unumdorligini pasayib ketayotganligi, bioxilma-xillikni kamayib ketayotganligi, tabiiy kapital zahiralarining tugab borayotganligi, ichimlik suvi tanqisligi, atrof-muhitni ifloslanishi, oziq-ovqat inqirozi, energiya muammosi, qayta tiklanadigan energiya iste’moliga ommaviy o‘tish, atmosferaga chiqarilayotgan issiqxonalar gazlari, transport vositalaridan chiqayotgan CO_2 uglerod oksidi gazlari normadan yuqoriligi, avtomobil parklarining elektrlashtirish va boshqalar asosiy ekologik muammolar hisoblandi[2, 4-15 b].

Iqlim o‘zgarishi avlodlararo yuk bo‘lib, O‘zbekiston kelajak avlod oldidagi majburiyatini oshirishi lozim, chunki global energiyaga talab 2020 yildagi 20 TVt 2040 yilga kelib 25 TVt ga oshadi va 2050 yilga kelib hozirgi (2024 yil) darajadan ikki barobar ko‘payadi. O‘zbekiston past uglerodli, iqlimga chidamli energetika infratuzilmasiga erishish uchun yashil moliya portfelini taklif qilishi zarur. Agar hech qanday moliyaviy chora ko‘rilmasa qazib olinayotgan neft, mazut, gaz va ko‘mirlardan ishlab chiqarishda foydalanishni kengaytirsak atmosferadagi CO_2 konsentratsiyasini yuqoriligi sababli 2050 yilga kelib 2,5 º C dan 4,5º C gacha global isishga olib keladi. Iqlim o‘zgarishi natijasida mamlakatimiz 20 foiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yo‘qotadi.

Hozirgi vaqtda yer osti (O‘zbekiston) qazilma boyliklarini qazib olishda 60 million tonna chiqindilar atrof muhitga tashlab yuboriladi, konlarni portlatishda 250 ming tonna chang, 10 ming tonna zaharli gazlar shamolning tezligi sekundiga 15-20 metr bo‘lgani uchun chang va zaharli gazlar 70-120 km.gacha uchib borib atrof-muhitni zaharlamoqda.

Bizga ma’lumki, O‘zbekistonda energiya ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash uchun katta imkoniyatlar mavjud. Uning ekologik yukini kamaytirish uchun ko‘mirni iloji boricha “yashil” texnologiya asosida yoqish zarur, lekin hozir ham rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qo‘llaniladigan eski usullar saqlanib qolmoqda, bu esa ekologik xavfsizlik talablariga mos kelmaydi.

O‘zbekistonda yiliga 320 million tonna uglerod chiqindilari atmosfera havosini zaharlamoqda. Har bir fuqaroga 12,2 ming tonna uglerod chiqindisi to‘g‘ri keladi, bu Evropa fuqarolarga nisbatan 14 % ga ko‘p demakdir.

Davlat statistika qo‘mitasining 2022 yil 10 iyun kuni e’lon qilgan ma’lumotiga ko‘ra respublikada bir yilda atmosfera havosiga 909 ming tonna turli xil ifloslantiruvchi moddalardan iborat tashlamalar tashlangan.

Bu ko‘rsatkich 2019 yilga nisbatan 43,8 ming (4,6 %) hamda 2020 yilga nisbatan 15,4 ming (2 %) tonnaga kamayganligini ko‘rish mumkin. 2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasida har yili sanoat tashlamalarini 1 foizga kamaytirish belgilangan. Birgina, o‘tgan 2021 yil davomida jami 131 ta korxonada 230 ta chang-gaz tozalash uskunalari modernizatsiya qilinib, 22 ta korxonada 60 ta yangi uskunalar o‘rnatilgan. Ushbu tadbirlar uchun jami 33,7 mlrd.so‘m mablag‘ sarflangan.

Ayniqsa, ushbu tadbirlar Andijon, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent, Farg‘ona viloyatlari va Toshkent shahrida keng ko‘lamda amalga oshirilganligi bois ushbu hududlardagi tashlamalar miqdori oldingi yilga nisbatan mos ravishda 6,5, 13,7, 25,8, 5,0, 3,5 va 4,7 ming tonnaga kamaygan.

Viloyatda xozirgi kunda 933 ta maktab, 205 ta kolledj, 3270 ta maktabgacha ta’lim muassasalari mavjud bulib, ulardan 2370 tasini xususiy bog‘chalari 897 tasini davlat bog‘chalari tashkil kiladi.

Yilning sovuq mavsumlarida ularda mavjud xonalarni isitishda yoqilg‘i sifatida ko‘mirdan foydalaniladi.

Agar 1 ta maktabda o‘rtacha hisobda 6 ta mini koteldan foydalanilsa ko‘mirni yonishi natijasida 1 ta maktabdan atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar quyidagilardan tashkil topadi.

1ta pech uchun sarf bo‘ladigan gaz sarfi –1,4 nm^3/soatga teng.

Gazning sekunddagi sarfi 1,4/3600 = 0,000389 m^3/sek.

Kichik yonish- pechlari uchun 1000 m^3 gaz yonganda atmosferaga quyidagi miqdorlarda tashlamalar chiqariladi: ugleroda oksidlari–12,9 kg, azot oksidlari (azota (II)-oksidga nisbatan)-2,15 kg, oltingugurt dioksid-0,0037 kg.

Bunda quyidagicha tashlamalar hosil bo‘ladi:

M_{SO} = 12,9 * 0,000389 = 0,00502 g/sek.

M_{NO} = 2,15 * 0,000389 = 0,000836 g/sek.

M_{SO} = 0,0037 * 0.000389 = 0,00000 g/sek .

M_{SO} = 0,00502 * (3600 x 3,6 x 10^3) = 0,00502 * 12,96 = 0,0651 t/yil.

M_{NO} = 0,000836 * 12,96 = 0,0108 t/yil.

M_{SO} = 0,00000 t/yil.

Oltita isitish qozoni (kotyol) uchun:

M_{SO} = 6 * 0,00502 = 0, 0301g/sek.

M_{SO} = 6 * 0,0651 = 0,3906t/yil

M_{NO} = 6 * 0,000836 = 0,005g/s

M_{NO} = 6 * 0,0108 = 0,065t/yil.

Viloyat bo‘yicha 933 ta maktabdan gazdan foydalanilganda quyidagi miqdordagi tashlamalar hosil bo‘ladi.

M_{SO} = 933x0,3906t/yil=339t/yil-339000kg/yil

M_{NO} = 933x 0,065t/yil-56,4t/yil=56400kg/yil

Agar yoqilg‘i sifatida ko‘mirdan foydalanilsa quyidagicha tashlamalar hosil bo‘ladi.

Ko‘mir va o‘tin sarfi 3kg/soat. Yillik sarfi V=3x24x150=10800 kg/yil=10,8 t/yilni tashkil qiladi.

Kul

933x1,4856/yil =1488t/yil

Is gazi

M_{SO}=933x0,2094t/yil=182t/yil=192000kg/yil

Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan)

M_{NO}=933x0,1074 t/yil=94t/yil

Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan)

M=933x0,17t/yil=147,4t/yil

Viloyat bo‘yicha 205 ta kollejda gazdan foydalanilganda quyidagi miqdordagi tashlamalar hosil bo‘ladi. Har bir kollejda o‘rtacha 16 tadan kichik isitish qozoni (minikotel) ishlatiladi

M_{SO} = 12,9 * 0,000389 = 0,00502 g/sek.

M_{NO} = 2,15 * 0,000389 = 0,000836 g/sek.

M_{SO} = 0,0037 * 0.000389 = 0,00000 g/sek –

M_{SO} = 0,00502 * (3600 x 3,6 x 10^3) = 0,00502 * 12,96 = 0,0651 t/yil.

M_{NO} = 0,000836 * 12,96 = 0,0108 t/yil.

M_{SO} = 0,00000 t/god – .

16 ta isitish qozoni (kotyol) uchun:

M_{SO} = 16 * 0,0651 = 1,04t/yil

M_{NO} = 16 * 0,0108 = 0,17t/yil.

205 ta kollejda gazdan foydalanilganda quyidagi miqdordagi tashlamalar hosil bo‘ladi**.**

M_{SO} = 205x1,04t/yil=213,2 t/yil

M_{NO} = 205x0,17t/yil=34,85 t/yil

Agar yoqilg‘i sifatida ko‘mirdan foydalanilsa quyidagicha tashlamalar hosil bo‘ladi.

1ta kichik isitish qozoni(minikotel)da qattiq yoqilgi uchun o‘rnatiladigan me’yorlar

Kul chiqindisi

M_{tv} =AxVxfx(1-η) (t/yil, g/sek)

M = 16*13,1*0,0035*(1-0,5)=0,3668t/yil

yoki 0,3668/3600*3,6*10^{-3}=0,0283g/sek

Q=(0,0283/0,106)*10^3=266,981mg/m^3

205 ta kollejda 205x16x 0,3668=1209,5t/yil kul

b) uglerod monooksid tashlamalari

M=205x16x 0,05174=170,2t/yil

v) Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan)

M=205x16 x 0,0265=87t/yil

g) Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan)

M=205x16x 0,0416=138t/yil

3270 ta maktabgacha ta’lim muassasalarida hosil bo‘layotgan chiqindilar miqdori quyida keltirilgan

Ushbu muassasalarda o‘rtacha 4 tadan kichik isitish qozon(minikotel)lardan foydalaniladi. Yoqilgi sifatida gazdan foydalanilganda 3270 ta MTM da atmosferaga tashlanayotgan tashlamalar miqdori quyidagicha:

M_{SO} =3270x 4 x 0,0651 = 851,6 t/yil

M_{NO} = 3270x4 * 0,0108 = 235,44t/yil.

Ko‘mirdan foydalanilganda quyidagi tashlamalar hosil bo‘ladi kul

3270 x 4x0,2476=3239 t/yil

a) uglerod monooksid tashlamalari

M_{SO}=3270x0,001x3,25x10,8x(1-0,5/100)=114,123 t/yil

4 ta isitish qozoni (kotel) dan chiqayotgan tashlama

M_{SO}=3270x4x0,0349=456,5t/yil

b) Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan)

M_{NO}=3270x4x0,0179=234,132 t/yil

g) Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan)

M=3270x4x0,02801=366,24 t/yil

Ushbu muassasalarda gazdan foydalanilganda hosil bo‘layotgan tashlamalarning umumiy miqdori

M_{SO} = 339+213,2+851,6=1403,8 t/yil

M_{NO} = 56,4+34,85+235,44=326,69 t/yil

Ko‘mirdan foydalanilgandagi quyidagicha hosil bo‘ladigan tashlamalar

Kul

1288+1209,5+3239=5736,5t/yil

Is gazi

M_{SO}=182+170,2+114,123=466,323t/yil

Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan)

M_{NO}=94 +87+234,132 =415,132t/yil

Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan)

M=147,4+138+366,24=651,64t/yil

Shu bilan bir qatorda, Marg‘ilon shahrida hozirgi kunda 741ta umumiy ovqatlanish shohobchalari, 801 ta somsaxonalar, 683 ta nonvoyxonalar va 496 ta kabobxonalar, jami 2731 ta obyekt faoliyat olib bormoqda. Hosil bo‘ladigan tashlamalarning faqatgina Marg‘ilon shahridagi umumiy ovqatlanish shohobchalari, somsaxonalar, nonvoyxonalar va kabobxonalar misolida oladigan bo‘lsak, ularning hosil bo‘lish miqdori quyidagicha:

gazdan foydalanilganda quyidagi miqdordagi tashlamalar hosil bo‘ladi**.**

M_{SO} = 2731x1,04t/yil=2840,24 t/yil

M_{NO} = 2731x0,17t/yil=464,27 t/yil

Agar yoqilg‘i sifatida ko‘mirdan foydalanilsa quyidagicha tashlamalar hosil bo‘ladi.

Kul chiqindisi

2731 ta obyektda 2731x16x 0,3668=16028t/yil kul

a) uglerod monooksid tashlamalari

M=2731x16x 0,05174=2261t/yil

b) Azot oksidlari tashlamalari (azot (II)-oksidga nisbatan)

M=2731x16 x 0,0265=1158t/yil

g) Oltingugurt oksidlari tashlamalari (oltingugurt (II)-oksidga nisbatan)

M=2731x16x 0,0416=1818 t/yil

Viloyatda 933 ta maktab faoliyat olib boradi va qishki mavsumda bir yilda 4,8 tonna ko‘mir yoqadi. Viloyat bo‘yicha 933 ta maktabdan 51 ming tonna ko‘mir yoqiladi. Bir yilda viloyat maktablaridan 4,3 tonna is gazlari chiqariladi va 0,207 tonna kul changgi chiqadi.

Viloyatda 205 ta kollejlar ishlaydi va qish mavsumida har bir kollej 5,5 tonnadan ko‘mir yoqadi. Ko‘mir yoqish natijasida 4,5 tonnaga yaqin is gazlari va 0, 93 tonna kul chiqindisi chiqadi.

Hozirda mamlakatimizda “Yashil makon” milliy loyihasi ishlab chiqildi va bu loyihada yiliga 200 million tupdan ortiq daraxt va ko‘chatlarni ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 % dan 30 % gacha oshirish rejalashtirildi. Shu bilan birgalikda O‘zbekistonda 2 noyabrdan 10 dekabrgacha daraxt ekish bo‘yicha “Dolzarb 40 kunlik” e’lon qilindi. Hududlar kesimida Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Surhondaryo va Toshkent viloyatlarida 16 million tupdan, Andijon, Buxoro, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida 15 million tupdan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida esa 14 million tupdan ko‘chat ekish rejalashtirildi. Loyiha bo‘yicha muassasalar hovlisi, mahallalarga, yo‘l va dala chetlariga ham daraxtlar ekilishi belgilandi.

Mutaxassislarning tavsiyalariga asosan, hududlarda ekish uchun 27 turdagi daraxt ko‘chatlarini ekish taklif etildi. Masalan, kashtan, oqqayin, eman, yapon saforasi, shumtol, qayrag‘och, pavloniya, terak, akatsiya, chinor, tut, jiyda, yong‘oq, behi, olma, uzum va virtin archasi bizning mintaqalar uchun mosdir. Har bir viloyatning iqlimi va tuproq tarkibi inobatga olinib, qaysi ko‘chat unib, ko‘karib ketishiga jiddiy e’tibor qaratiladi.

Fikrimizcha, Farg‘ona viloyati hokimligi tumanlar kesimida, mahallalarda, dala chekkalariga tutlar, daraxtlar, archalar, chinor va mevali daraxtlarni hashar yo‘li bilan 1 mln tupi o‘tkazilsa, 200 ming tonna CO_2 zaxarli gazlarni zararsizlantirish mumkin, O‘zbekiston bo‘yicha esa 20 mln tupi o‘tkazilsa, 4-5 mln tonna uglerod gazlari zararsizlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иминов Т.К., Вахабов А.В., Тешабоев Т.З., Бутабоев М.Т. «Зеленая экономика» как основа устойчивого развития. Монография. – Т.: «Алокачи», 2019. – 480 с.

2. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X. Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda “yashil iqtisodiyot”ning o‘rni /“Jahonda barqaror iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalarini amalga oshirish mexanizmi va dastaklari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. -.: Toshkent. “Universitet”. 2018. 4-15 b.

3. Зелёная экономика. Санкт-Петербург 2023год. Монография. Авторский коллектив.

4. В.А.Ваганова. Основой зеленой экономики.Учебное пособие.Санкт-Петербург. 2023 г.

5. Бабенко.М.В-др. Зелёная экономика: Опеределения и понятия. Москва 2018 г.с36, 87,91

6. Голованов.Г. Новое массовое вымирание: за 500 лет планета потеряла до 260 тысяч всех видов. Электронный ресурс URP:https://hitps plus 2022 u.

7. Вийнстекепс. В. Защита исчезающих видо флоры и фауны. Москва 2020 г.с 189.

8. В.Г.Кревер. Всемирный фонд дикой природы.(W.W.F) 2020 г. С 238.

Xitoy, shuningdek, eng yirik quyosh uskunalari ishlab chiqaruvchisi ham hisoblanadi. Ushbu mamlakat 2011 yildan yangi fotoelektrik tizimlar ishlab chiqarish quvvatlariga 50 milliard dollardan ziyod sarmoya kiritgan. Ushbu raqam butun Yevropa qit'asi tomonidan huddi shu sohaga kiritilgan summadan o‘n baravar ko‘pdir.

Umuman olganda, dunyoda quyosh panellarini ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida Xitoyning ulushi 80 foizdan oshadi. Bundan tashqari, mamlakat 2025 yilga qadar elektr energiyasining 33 foizini qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali ishlab chiqarishni rejalashtirgan. Shuningdek, mamlakat hukumati 2030 yilgacha 1200 gigavattga teng quyosh va shamol energiyasini olish rejasini e'lon qildi.[4]

Hozirgi kunda aholining kamida 2-3 milliard kVt soat elektr energiyasiga qo‘shimcha talabi mavjudligi, kelgusi besh yilda esa bu ehtiyoj yana 10 milliard kVt soatga oshishi ta'kidlandi. Bunday vaziyatda eng samarali yo‘l – muqobil va qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan foydalanishni ko‘paytirish hisoblanadi. O‘zbekiston – yilning deyarli barcha kunlari quyoshi porlab turadan serquyosh diyor. Bu biz so‘z yuritayotgan muqobil, shu jumladan, quyosh energiyasidan foydalanishda katta tabiiy imkoniyat taqdim etadi. Kezi kelganida, quyosh nuridan elektr energiyasi olish borasidagi ishlar tarixiga bir nazar tashab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi, albatta. Yorug‘likni elektr energiyasiga aylantirish effekti 1839 yilda fransuz fizigi Aleksandr Edmon Bekkerel'

tomonidan kashf qilingan. Keyinchalik olimlar yorug‘likni elektr energiyasiga aylantirishda selendan foydalana boshladi. Quyosh panellarining birinchi prototiplariga esa 1912 yilda italiyalik foto-kimyogar Jakomo Luidji Chamichan tomonidan asos solingan.

1954 yilda “Bell Laboratories” kompaniyasi kremniyga asoslangan birinchi quyosh paneli yaratganini e'lon qildi. Ammo bu quyosh batareyasining samaradorligi atigi 6 foizni tashkil etardi.[5]

Bugungi kunda esa tarmoqqa ulangan quyosh panellari tizimi uyni o‘rtacha bir necha soat davomida to‘liq quvvat bilan ta'minlay oladi. Elektr o‘chirilgan taqdirda ham, batareyalar ishlashda davom etaveradi. Quyosh panellarining ishlashi maxsus moddalarni elektr tokiga aylantirish tamoyiliga asoslanadi. Xususan, ikkita kremniy plastinasi erkin elektronlarni hosil qiluvchi turli xil moddalar, asosan bor va fosfor bilan qoplangan. Quyosh nurlari ta'sirida bu elektronlar harakatlana boshlaydi va elektr tokini hosil qiladi. Keyin hosil bo‘lgan elektr quvvati quyosh energiyasini yig‘uvchi batareyalarga uzatiladi. Umuman olganda, bu boradagi samaradorlik bulutli yoki yog‘inli ob-havoga nisbatan quyoshli kunlarning ko‘p bo‘lishiga bevosita bog‘liq. O‘zbekistonda esa quyoshli kunlar yiliga o‘rtacha 300 kundan ziyod bo‘ladi, bu quyosh elektroenergiyasini rivojlantirishning asosiy omili va afzalliklaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda dunyoda rivojlanishning bugungi bosqichida energiyaga bo‘lgan talabning ortishi, energiya narxlarining doimiy oshib borishi tufayli zamonaviy, ekologik toza, energiya tejamkor texnologiyalar hamda qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalangan holda yashil energetika rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Buni inobatga olgan mamlakatimiz hukumati tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga Quyosh panellarini o‘rnatish sharoitlarini yaratmoqda hamda uni jadallashtirish uchun imkoniyatlar yaratib bermoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish har bir mamlakat va har bir inson uchun iqtisodiy rag‘batlanishni olib keladi. Bu iqtisodiyotning uzoq muddatli nuqtai nazarini ko‘rib chiqadi, resurslar jamiyatga qanday foyda keltirishi va ekologik chegaralar ichida qolgan holda hozirgi va kelajak avlodlar uchun boylik, chidamlilik va farovonlikni oshirish uchun samaradorlik va resurslarning etarliligidan qanday foydalanish mumkinligini ta’kidlaydi. sayyoradan. Yashil iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatidan tortib farovonlikka investitsiyalargacha bo‘lgan inklyuziv va kamsituvchi xatti-harakatlarga ega. Ekologlar bu iqtisodiy nazariyani insoniyatni saqlab qolishning yagona vositasi sifatida ta’kidladilar. Globus yashil

rangga bo‘yalganida, u boshqacha ko‘rinadi va barqarorroq, qamrab oluvchi va global isish jiniga qarshi kurashishga qodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ваҳобов А.В., Хажибакиев Ш.Х. Яшил иқтисодиёт. Дарслик. –Тошкент.: “Universitet”, 2020. -262 б.
2. Gaybullayeva G. M. (2022). Promotion and prospects of green economy in central asia. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(9),
3. Mamayusupova M. Elektrotexnika sanoati korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish. – 2023.
4. G.Gaybullaeva. Sanoat iqtisodiyotini rivojlanitirishda xorijiy usullardan foydalanish ko‘nikma va tamoyillari // SAI. 2022. №A6.
5. А. Костюченко. Quyosh panellari: energetik barqarorlikka erishishning eng maqbul yo‘li. Yangi O‘zbekiston. https://www.yuz.uz

KIMYO SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA INNOVATSIYALARNING ROLI VA O‘RNI

Nazarova Latofat Toirjon qizi
O‘zbekiston, Farg‘ona Politexnika Instituti
Assistent

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarining barqaror iqtisodiy rivojlanishida innovatsion faoliyatining tutgan o‘rni va ahamiyati, shuningdek, raqamli innovatsion faoliyatning ayrim jihatlari tahlil qilinadi. Maqola raqamli innovatsion faoliyatni kuchaytirish uchun muhim jihatlarni va imkoniyatlarni aniqlaydi. Tadqiqot yakunida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda raqamli innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, robotlashtirish.

Аннотация: в этой статье будет проанализирована роль и значение инновационной деятельности промышленных предприятий в устойчивом экономическом развитии, а также некоторые аспекты цифровой инновационной деятельности. В статье определены важные аспекты и возможности для активизации деятельности в области цифровых инноваций. По итогам исследования были разработаны предложения, направленные на

развитие цифровой инновационной деятельности в целях обеспечения устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: инновации, инновационная деятельность, цифровые технологии, искусственный интеллект, робототехника.

Abstract: This article will analyze the role and importance of innovative activities of industrial enterprises in sustainable economic development, as well as some aspects of digital innovation. The article identifies important aspects and opportunities for enhancing activities in the field of digital innovation. Based on the results of the study, proposals were developed aimed at developing digital innovation activities in order to ensure sustainable economic growth.

Keywords: innovations, innovative activity, digital technologies, artificial intelligence, robotics.

Bugungi kunda jahon va milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 70-90 foizi aynan innovatsiya faoliyatini rivojlantirish hisobiga yaratilmoqda. Sanoat jihatidan taraqqiy etgan mamlakatlarda korxonalarga ilmiy-texnologik va istiqbolli innovatsion loyihalarni joriy etish orqali yetakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiyalash, ishlab chiqarish jarayonlariga ilm-fan sohasidagi yangiliklarni muntazam tatbiq etish, texnik va texnologik yangilash, mahalliy innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga mamlakatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichi sezilarli darajada yuqori hisoblanadi.

Korxonaning innovatsion faoliyati samaradorligiga doimiy ravishda ichki va tashqi omillar o‘z ta‘sirini ko‘rsatib turadi. [4] Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida ichki omillar qatoriga tadbirkorlik qobiliyati, korxona personali, o‘zaro kommunikatsiya samaradorligi, korxonaning tashkiliy strukturasi, innovatsion faoliyatning bozorga yo‘naltirilganligi va innovatsiyalar uchun zaruriy resurslarning mavjudlik darajasi kabi omillar kiradi. Korxonaning innovatsion faoliyati samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi tashqi omillarga esa mamlakatda maslahat va konsalting xizmatlari, moliyaviy jihatdan qo‘llab quvvatlash, uni rag‘batlantirish va qonunchilikda belgilash kabi omillar inobatga olinishi zarur.

Xususan, bozor iqtisodiyoti sharoitida kimyo sanoati korxonalari o‘rtasida vujudga keladigan raqobat kurashida ustun kelishning muhim shartlaridan biri ham bu korxonalarning ishlab chiqarayotgan

mahsulotlari, ularning nomenklaturasi, ishlab chiqarish jarayonlarini innovatsion raqamli texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. Ushbu holat raqamli iqtisodiyot sharoitida kimyo sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarini takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Innovatsion jarayonda jiddiy rol o‘ynaydigan va innovatsiyalarni korxonalar uchun strategik resursga aylantiradigan xalqaro kapital bozori kengayishi vujudga kelib, unga yangi moliyaviy tuzilmalar yordam bermoqda. [2] Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalar iqtisodiy o‘sish va uning barqarorligini ta’minlashning asosiy shartiga aylanmoqda.

So‘nggi yillar davomida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish vektori axborot tizimidan raqamli transformatsiyaga o‘tdi. Jahon iqtisodiy munosabatlari rivojlanishining zamonaviy sharoitida sanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishni joriy etish orqali ishlab chiqarish sanoatida sezilarli samara olish mumkin. Raqamlashtirish - ishlab chiqarish jarayonining barcha qismlarida, samaradorlikni oshirishda, xarajatlarni kamaytirishda, boshqaruv jarayonida to‘g‘ri qaror qabul qilishda, hamda bugungi iqlim inqirozi davrida ekologik toza mahsulotlar yaratilishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Keng ma’noda raqamlashtirish raqamli avlod texnologiyalarini inson faoliyatining barcha sohalariga, shu jumladan iqtisodiyot tarmoqlariga ma'lumotlarni uzatish, saqlash, qayta ishlash, vizualizatsiya qilishda joriy etish jarayoni sifatida qaralishi kerak. Tor ma’noda, sanoat korxonalarini raqamlashtirish natijasida ishlab chiqarish jarayonlari va yangi biznes modellarini joriy etish, sun’iy intellekt, robotlashtirish, mobil qurilmalar hamda raqamli elektron platformalardan foydalanish orqali inson o‘rnini bosuvchi yoki to‘ldiruvchi vositalar hisoblangan ilg‘or axborot texnologiyalarni tadbiq etishni o‘z ichiga oladi.

Kimyo sanoati korxonalarini raqamlashtirish bir vaqtning o‘zida bir nechta strategik maqsadlarga erishishga yordam beradi. Bozorda mahsulot yoki xizmatlar sifati oshadi, mahsulot tannarxi pasayadi, atrof-muhit ifloslanishiga sabab bo‘ladigan chiqindilarni kamaytiradi, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish va bozorga chiqarish vaqti kamayadi natijada esa samaradorlik ko‘rsatkichlari oshishiga olib keladi.

Sanoat korxonalarining, jumladan, kimyo sanoati korxonalarini raqobatbatdoshligini oshirish, iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda samaradorlik

ko‘rsatkichlarini oshirish maqsadida hukumatimiz tomonidan ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston –

2030” dasturida - “sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarni texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg‘unlashtirish, korxona ta’minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta’minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish, zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish, 2025-yilda korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo‘jalik yurituvchi subektlarning ulushini 90 foizga yetkazish”[5] kabi ustuvor yo‘nalishlari belgilab qo‘yilgan.

Kimyo sanoati korxonalarida innovatsion jarayonlarni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, kimyo sanoati ishlab chiqarishning eng muhim tarmog‘i bo‘lib, u nafaqat turli xil tovarlarni ishlab chiqaradi, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, qora va rang metallurgiya, qurilish va mashinasozlik, qishloq xo‘jaligi va boshqa ko‘plab sohalar uchun ham mahsulot etkazib beradi.

Ikkinchidan, yuqori texnologiyali industriya va murakkab texnologik jarayonlarga ega bo‘lgan sanoat, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy qilmasdan turib, ushbu sanoatning rivojlanishi mumkin emas.

Uchinchidan, kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarida inson omili ta’siri ostida yo‘l qo‘yilgan har qanday xatoliklar jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin, bunday hatoliklar ko‘p hollarda texnologiya (sun’iy intellekt) yordamida chiqarib tashlanadi.

To‘rtinchidan, jahon miqyosida kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirishda ishlab chiarish va texnologik jarayonlarga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni zaruratini o‘z ichiga oladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda kimyo sanoati korxonalarida innovatsion jarayonlarni joriy etish hamda ushbu faoliyatni raqamli texnologiyalar asosida tashkillash uning yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishining muhim sharti hisoblanadi. Kimyo

[5] “RAQAMLI O‘ZBEKISTON — 2030 Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 05.10.2020 yildagi PF-6079-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni

sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish korxona raqamli transformatsiyasining strategik rivojlanish maqsadlarida innovatsion faoliyatga oid rivojlanish yo‘nalishlarini shakllantirish, raqamli innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan bir qatorda, korxonaning innovatsion rivojlanishining barqarorligini ta’minlash uchun zamin yaratadi. Mazkur vaziyatni inobatga olgan holda, korxonaning ishlab chiqarish jarayonlarida, boshqaruvi amaliyotida innovatsiyalarni uzluksiz ravishda amaliyotga joriy etib borish orqali uzoq muddatli istiqbolda nafaqat korxona, balki mamlakat iqtisodiyotini barqarorligini ta’minlashga erishish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “raqamli o‘zbekiston — 2030 Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 05.10.2020 yildagi PF-6079-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni
2. Фатхутдинов Р.А. Инновационной менеджмент. / учебник для вузов. 6-е изд. — СПб.: Питер, 2015. — 448 с
3. Трифилова А.А. Оценка эффективности инновационного развития предприятия. — М.: Финансы и статистика, 2005. — 304 с. 10.
4. Xikmatullayevna, K. G. (2023). Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish jarayonida innovatsion samaradorligini oshirishning asoslari. *So ‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, *6*(6), 212-217.

ZAMONAVIY SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISH MASALALARI.

Qodirov Sardorbek Isroiljon o‘g‘li
Farg‘ona politexnika instituti, assistent

Annotatsiya. Zamonaviy korxonalar, ayniqsa global iqtisodiyotda faoliyat yuritayotganlari, doimiy ravishda innovatsiyalarni joriy etishlari kerak, chunki bu ularga raqobatbardosh ustunlikni saqlab qolish va bozorning uzoq muddatli o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi. Innovatsiyalar korxonalarni raqobatchilardan ajratib turishga xizmat qilishi bilan birga, davlat va ijtimoiy tashkilotlar kabi turli manfaatdor tomonlar kutganlariga moslashishga ham yordam beradi. Innovatsiyani boshqarishning strategik, taktik va operatsion darajalarda amalga oshirilishi korxonalarning yangi mahsulotlar, jarayonlar va marketing strategiyalarini ishlab chiqib, raqobatchilardan oldinda bo‘lishiga imkon yaratadi. Innovatsiyalarning roli, masalan, gibrid va vodorod bilan ishlaydigan avtomobillar yoki grafen ishlab chiqish kabi yutuqlar, korporativ muvaffaqiyat va ijtimoiy talablarni qondirishga qanday hissa qo‘shishini namoyish etadi. Inson ijodkorligi va hamkorlik orqali amalga oshiriladigan tizimli innovatsiya siyosatlarini joriy etish, global iqtisodiyotda barqaror raqobatbardosh ustunlikni yaratishda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: Innovatsiyani boshqarish, raqobatbardosh ustunlik, global iqtisodiyot, tizimli innovatsiya, tashkilotiy o‘zgarishlar, barqaror rivojlanish.

Abstract. Modern enterprises, especially those engaged in the global economy, must constantly innovate to maintain their competitive advantage and secure a long-term position in the market. Innovations not only help companies to differentiate themselves but also to align with the expectations of various stakeholders, including government and social organizations. Managing innovation at three distinct levels-strategic, tactical, and operational-ensures that companies develop new products, processes, and marketing strategies that keep them ahead of competitors. The role of innovations, such as hybrid and hydrogen-powered vehicles or graphene development, exemplifies how innovation contributes to both corporate success and social expectations. The implementation of systematic innovation policies, driven by human creativity and

collaborative efforts, plays a crucial role in building a sustainable competitive advantage in the global economy.

Key words: Innovation management, competitive advantage, global economy, systemic innovation, organizational changes, sustainable development.

Аннотация.Современные предприятия, особенно те, которые вовлечены в мировую экономику, должны постоянно внедрять инновации, чтобы поддерживать свое конкурентное преимущество и обеспечивать долгосрочное положение на рынке. Инновации не только помогают компаниям дифференцировать себя, но и соответствовать ожиданиям различных заинтересованных сторон, включая государственные и общественные организации. Управление инновациями на трех различных уровнях - стратегическом, тактическом и операционном - гарантирует, что компании разрабатывают новые продукты, процессы и маркетинговые стратегии, которые позволяют им опережать конкурентов. Роль инноваций, таких как гибридные и водородные транспортные средства или разработка графена, является примером того, как инновации способствуют как корпоративному успеху, так и социальным ожиданиям. Реализация систематической инновационной политики, движимой человеческим творчеством и совместными усилиями, играет решающую роль в создании устойчивого конкурентного преимущества в мировой экономике.

Ключевые слова*:* Инновационный менеджмент, конкурентное преимущество, глобальная экономика, системные инновации, организационные изменения, устойчивое развитие.

Zamonaviy korxonalar, global iqtisodiyotda o‘z missiyasini amalga oshirayotgan paytda, doimiy ravishda innovatsiyalar yaratishga majburdirlar[2]. Ularning bu yo‘nalishdagi faoliyati ikki asosiy maqsadga yo‘naltirilgan: bir tomondan - raqobatbardosh ustunlikni qo‘lga kiritish va bozorda uzoq muddatli o‘rinni mustahkamlash[13], ikkinchi tomondan esa - davlat muassasalari va ijtimoiy nohukumat tashkilotlari kabi turli manfaatdor tomonlar tomonidan ularning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini qabul qilishini ta’minlashdir[12]. Ba’zan korxonalar faoliyati ushbu tashkilotlarning maqsadlari bilan to‘qnash kelishi mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlar fonida qarshi choralar ko‘rish - bu korxonalarning barcha manfaatdor tomonlar kutganidek faoliyat yuritishini talab qiladigan vazifa bo‘lib, bunda bozor o‘rni va kelgusidagi iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga

oshiriladi[14]. Innovatsiyalar bunday holatda iqtisodiyotni innovatsion yechimlar bilan rag‘batlantiradigan va ijtimoiy kutishlarni qondirishga hissa qo‘shadigan asosiy omil hisoblanadi[3]. Ushbu innovatsion yondashuvlarga qiziqarli misollar - masalan, gibrid va vodorod bilan ishlaydigan avtomobillar yaratish[5], yoki “grafen” ishlab chiqarish usulini ishlab chiqish[14], bu esa ko‘plab sohalarda inqilobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday innovatsiyalar kompaniya imijini yaxshilashda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va bunday rivojlangan korxonalar uchun global bozor raqobatida sezilarli ustunlikka erishishda o‘z hissasini qo‘shadi.

Har qanday korxonada - boshqa faoliyat sohalari singari - innovatsiyalarni boshqarish bilan bog‘liq uch daraja mavjud:

1. **Strategik daraja**
2. **Taktik daraja**
3. **Operatsion daraja**

Innovatsiyalarni boshqarishning strategik darajasi asosan iste’molchilar baholari va kutishlari hamda raqobatchilar va hamkorlarning harakatlari tahliliga asoslanib, kompaniyaning o‘zgarishlar yo‘nalishini belgilash bilan bog‘liq. Bu bosqichda kompaniyaning barcha sohalarida innovatsiyalarni qanchalik ko‘p yoki kam joriy qilishni belgilaydigan asosiy maqsadlar ishlab chiqiladi[3]. Ushbu yondashuv kompaniyaning innovatsiyaga moyil ekanligini aks ettiradi va kompaniyani bozor raqobatida ustunroq qiladi hamda zamonaviy korxonalar rivojlanishining asosiy tamoyillariga mos keladi. Bu darajada quyidagi masalalarga alohida e’tibor beriladi:

1. Yangi mahsulot va xizmatlarni loyihalash maqsadlari yoki mahsulot innovatsiyalarini yaratish,
2. Jarayon innovatsiyalari shaklidagi yangi texnologiyalar yoki sezilarli o‘zgarishlar,
3. Marketing innovatsiyalari uchun asosiy tamoyillar yoki marketing sohasidagi faoliyatlar,
4. Korxonaning samarali va tejamkor faoliyatiga hissa qo‘shadigan tashkiliy innovatsiyalarni yaratish usullari va kontseptsiyalari[16].

Mahsulot innovatsiyalari sohasida kompaniya strategiyasini ishlab chiqish uning bozorga kirishdagi ustunligini ta’minlashning asosi hisoblanadi. Ushbu harakatlar kompaniyaning barcha sohalarida olib borilgan ishlar bilan bog‘lanishi kerak[7]. Yangi mahsulot faqat ishlab chiqaruvchi uning samarali va tejamkor texnologiyasini tashkil etganida

hamda tegishli marketing strategiyasini ishlab chiqqan taqdirdagina bozorga chiqadi[10].

Taktik darajada innovatsiyalarni boshqarish kompaniyaning joriy faoliyatini barcha sohalarda samarali tashkil etish uchun rejalashtirilgan[14]. Bu darajada yangi mahsulotlar va xizmatlarni batafsil ishlab chiqish, ularni ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni takomillashtirish orqali korxona nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan o‘lchovli tejamkorlikka erishadi hamda innovatsion va samarali yechimlarni amalga oshiradi[16].

Operatsion darajada innovatsiyalarni boshqarish asosan ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonlar xodimlarning intellektual salohiyati va tajribasidan foydalangan holda yangi yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan[8]. Bu darajada kompaniyaning faoliyatini takomillashtirish jarayonlari asosiy vazifa hisoblanadi, bu orqali har qanday tashkilot raqobatbardosh ustunlikka ega bo‘lishi va moliyaviy jihatdan ijobiy natijalar ko‘rsatishi mumkin.

Innovatsiyani boshqarishda har qanday tashkilotning o‘ziga xos bilim va ko‘nikmalari borligini unutmaslik kerak. Har qanday tashkilot - biznes sohasida bo‘lsin yoki boshqa sohada - innovatsion ko‘nikmaga ega bo‘lishi zarur. Innovatsiyalarni amalga oshirish va rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish hamda joriy qilish kompaniya faoliyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega[9].

Zamonaviy tashkilotlar ochiq tizimlar bo‘lib, ular inson kapitali bilim va intellektual salohiyatidan foydalanish orqali doimiy o‘zgarishlarga duch keladi. Ushbu tizim ichida innovatsiyalarni amalga oshirish jarayonlari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta yordamchi tizimlar orqali amalga oshiriladi. Ammo boshqaruv va integratsiyani amalga oshiradigan asosiy rol, odatda, eng faol va malakali xodimlardan tashkil topgan maxsus guruhlar (yordamchi tizimlar) tomonidan bajariladi. Ushbu guruhlar muammoni aniqlab, unga yechim izlaydi va bu orqali butun tizimga yangi sifat bag‘ishlaydi.

Bunday holat ko‘pincha innovatsiya jarayoni quyidagi umumiy sxema bo‘yicha olib borilganda yuz beradi:



1-rasm. Innovatsiya shakllanishining umumiy sxemasi

Inson faoliyatining asosi - u ongida paydo bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga intilishdir. Inson o‘’z bilimidan va atrof-muhitda mavjud bo‘lgan “ishlab chiqarish omillaridan” foydalangan holda o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun bir qator urinishlar qiladi. “Inkubatsiya” jarayonlarida inson o‘zining tug‘ma qobiliyatlari va bilimidan foydalanib, atrof-muhitni ijodiy o‘zgartirishga harakat qiladi. Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasi bo‘yicha ba’zi ehtiyojlarni amalga oshirish guruh bilan hamkorlikni talab qiladi, bu esa “xabarlarni guruh ichida ichkilashtirish” jarayoniga olib keladi. Guruh a’zolarining individual bilimlari sinergetik yig‘indiga aylanadi, ya’ni guruh a’zolari birgalikda eng yaxshi ekologik yechimni tanlaydi va harakat rejasini tayyorlaydi. Ekologik yechimlarni tanlash bugungi kunda ekotizim uchun to‘liq xavfsizlikni ta’minlash sharti bilan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi mulohazalarni yakunlaydigan bo‘lsak, inson eng ijodkor innovatsiya tashabbuskori bo‘lib qoladi. Inson tabiatan ijodkor va ijtimoiy mavjudotdir – guruh bilan hamkorlik qiluvchi mavjudot bo‘lib, yangiliklarga ochiqdir, bu esa kollektiv innovatsiyalar jarayonini o‘zgartiradi. Innovatsiyalar faqat erkin fikr va mulohazalarni bildirishga imkon bor joylarda, tolerantlik va ifoda erkinligi mavjud bo‘lgan madaniyatda yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begg D., Fischer S., Dornbusch R., Makroekonomia, PWE, Warszawa 2007.

2. Drucker P.F., Innowacje i przedsiębiorczość. Praktyka i zasady, PWE, Warszawa 1992.
3. Drucker P.F., Zarządzanie w XXI wieku, Muza SA, Warszawa 2000.
4. Leonardo da Vinci, [in:] Suchodolski B., Narodziny nowożytnej filozofii człowieka, PWN, Warszawa 1968.
5. Horizon 2012, The EU Framework Programme for Research and Innovation: https://ec.europa.eu/programmes/horizon2020/
6. Kopaliński W., Słownik wyrazów obcych i zwrotów obcojęzycznych, Wiedza Powszechna, Warszawa 1989.
7. Kotarbiński T., Traktat o dobrej robocie, Zakład Narodowy im. Ossolińskich, Wrocław 1982.
8. Kunert O., Budowa kompetencji innowacyjnych wyzwaniem rozwojowym polskich przedsiębiorstw, Monografie Politechniki Łódzkiej 2008.
9. Steinmann H., Schreyogg G., Zarządzanie, Oficyna Wydawnicza Politechniki Wrocławskiej, Wrocław 1995.
10. Marciniak St. (ed.), Makro i mikroekonomia dla inżynierów, Warszawa 1995.
11. Griffin R.W., Podstawy zarządzania organizacjami, PWN, Warszawa 1996.
12. OECD, Podręcznik Oslo Zasady gromadzenia i interpretacji danych dotyczących innowacji, MNiSW, wyd. 3, Zakład Wydawnictw Statystycznych, Warszawa 2008.
13. Porter M., Porter o konkurencji, Warszawa 2001.
14. Schumpeter J.A., Capitalism, Socialism, Democracy, PWN, Warsaw 1995.
15. Schumpeter J.A., The Theory of Economic Growth, PWN, Warsaw, 1960.
16. Suchodolski B., Narodziny nowożytnej filozofii człowieka, PWN, Warszawa 1968.

GIDRO ENERGIYANING MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDAGI ROLI

X.I.Isroilov Farg‘ona politexnika instituti
“Iqtisodiyot” kafedrasi tayanch doktoranti

Anotasiya: Ko‘p olimlarning fikricha qayta tiklanuvchi energiya manbalari barqaror rivojlanishning asosiy omili bo‘lib hisoblanadi. Ishning maqsadi - “yashil” energiyaning sifatida gidroelektro stansiyalarni shakllanishi va ommalashishi jarayonini tahlil qilish, uning hozirgi holati, istiqbollari va milliy iqtisodiyotlar va jahon iqtisodiyoti uchun ahamiyatini baholash. Umumiy miqyosda “yashil” energiyaning rivojlanish darajasini tavsiflovchi miqdoriy ma’lumotlar keltirilgan, sabab-oqibat munosabatlari o‘rganilgan, qayta tiklanadigan energiyaning hozirgi holati va istiqbollari to‘g‘risida xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil energiya, gidroenergetika, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya manbalari, jahon iqtisodiyoti, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация: По мнению многих ученых, возобновляемые источники энергии являются основным фактором устойчивого развития. Цель работы – проанализировать процесс становления и популяризации гидроэлектростанций как «зеленой» энергетики, оценить ее современное состояние, перспективы и значение для национальных экономик и мировой экономики. Представлены количественные данные, характеризующие уровень развития «зеленой» энергетики в общем масштабе, изучены причинно-следственные связи, сделаны выводы о современном состоянии и перспективах возобновляемой энергетики.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленая энергетика, гидроэнергетика, устойчивое развитие, возобновляемые источники энергии, мировая экономика, экономическое развитие.

Abstract: According to many scientists, renewable energy sources are the main factor of sustainable development. The purpose of the work is to analyze the process of formation and popularization of hydroelectric power stations as "green" energy, to assess its current state, prospects and importance for national economies and the world economy. Quantitative data describing the level of development of "green" energy on a general scale are presented, cause-and-effect relationships are studied, conclusions are drawn about the current state and prospects of renewable energy.

Key words: green economy, green energy, hydropower, sustainable development, renewable energy sources, world economy, economic development.

Elektr energiyasi iste'molining o‘sishi muqarrar va iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liqdir. Aholining o‘rtacha o‘sish sur’atlari va energiyaga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda, hozirgi vaqtda birlamchi energiya iste'molining 86% gacha bo‘lgan uglevodorodlar va boshqa an'anaviy manbalar bir necha o‘n yil ichida tugashi mumkin. Energiya manbalarining cheklangan va tugaydigan tabiati muqobil yechimlarga ehtiyoj tug‘diradi. Ulardan biri "yashil" energiya.

“Yashil” energiya energiya ishlab chiqaruvchi tizimning bir qismi bo‘lib, uning asosini inson miqyosida tugamaydigan yoki qayta tiklanadigan tabiiy resurslar tashkil etadi. “Yashil” energiya manbalariga shamol, quyosh nuri, suv oqimlari, geyzerlar va bioyoqilg‘i kiradi. Bunday energiya manbalarining cheksizligidan tashqari, ularning ekologik tozaligi hamdir. Yashil energiya global megatrendlar - urbanizatsiya va iqlim o‘zgarishining salbiy ta'sirini yumshatishga yordam beradi, deb taxmin qilinadi.

Ba'zi tadqiqotlar qayta tiklanadigan energiya iste'moli iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Ushbu yangilik qayta tiklanadigan energiya iste'moli boshqa energiya iste'molini to‘liq almashtirishi va iqtisodiy o‘sishga yordam berishi mumkinligi bilan tasdiqlandi.

Bugungi kunda iqtisodiy o’sishning energetika sanoati negizida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va fan-texnika taraqqiyoti ta’sirida o’zgarishiga qaratilgan taraqqiyotning asosini moddiy ishlab chiqarishning o’zi emas, balki unga zaruriy sharoitlar yaratuvchi xizmatlar birgalikda tashkil etadi.

Bu esa energetika tizimini barqaror shart – sharoitlarda yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi. Ushbu tadqiqotdan ko‘zlagan maqsadi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida milliy iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan energetika sanoatini hozirgi ekologik talablarga mos ravishda takomillashtirish va sanoat korxonalar o‘rtasida ushbu tizimni samarali joriy etishning amaliyoti va unda mavjud muammolar sabablarini tahlil qilish hisoblanadi.

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki Osiyo mintaqasida oxirgi 60 yillikda eng tez rivojlangan qayta tiklanuvchi elektr manbai suv bo‘lib qolmoqda. Eng yaqin taqibchisi shamol elektro stansiyalaridan ko‘ra deyarli 2 barobar ya’ni 1990 TW/s elektr energiyasi ishlab chiqildi.

Milliy energetika tizimini mavjud potensiali holatini baholash va yuqori texnologik jayaronlarni amalga oshirishdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir necha quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- Energiya olish va uzatish jarayonlarini amalga oshirish va uni takomillashtirishning dunyodagi yetakchi mamlakatlari tajribasini o‘rganish va mamlaktimiz potensialiga mos tomonlarini o‘zlashtirish;
- neoindustrial rivojlanishning ekologik sof energiya ishlab chiqarish bo‘yicha xalqaro tajribasining aniqlangan o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mahalliy iqtisodiyotni o‘zgartirishning joriy tendensiyalari va istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash.
- energetika sanoatini innovatsion rivojlantirishga va ishlab chiqarishni sifat va son jihatdan yaxshilashga xizmat qiluvchi omillarni o‘rganish va o‘zlashtirish.

Mamlakatimizda ham aynan shu xususda bir qancha katta ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda va davlat dasturlariga kiritilmoqda.

Xususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston respublikasi Prezidentining farmonida «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026 yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralari ko‘rilishi ta’kidlangan.

2023-yil 19-sentabr kuni Nyu-York shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohida BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasining umumsiyosiy munozaralari davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutqida O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va “yashil” energetika ulushini keskin oshirish strategik vazifa bo‘lib qolishi ta’kidlandi.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2030-yilgacha O‘zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida qarorida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish va sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish kabi masalalalr ko‘rilgan [11]

Gidroenergetika avzalliklariga quyidagilar kiradi: Gidroenergetika qayta tiklanadigan energiya manbai hisoblanadi. Gidroenergetika orqali

ishlab chiqariladigan energiya quyosh tomonidan boshqariladigan suv aylanishiga tayanadi va uni qayta tiklanishi tayanadi.

Gidroenergetika ichki energiya manbai bo‘lib, har bir davlatga xalqaro yoqilg‘i manbalariga qaram bo‘lmagan holda o‘z energiyasini ishlab chiqarish imkonini beradi.

To‘plangan gidroenergetika baliq ovlash, suzish va qayiqda sayr qilish kabi dam olish imkoniyatlarini taklif qiluvchi suv omborlarini yaratadi. Aksariyat gidroenergetika inshootlari aholining ushbu imkoniyatlardan foydalanishiga imkon berish uchun suv omboriga ba'zi aholi kirishini ta'minlashi kerak.

Gidroelektr energiyasi moslashuvchan. Ba‘zi gidroenergetika inshootlari tezda nol quvvatdan maksimal ishlab chiqarishga o‘tishi mumkin. Afzalliklaridan tashqari bu sohadagi imkoniyatlar ham qolganlariga nisbatan sezilarli darajada ustunroq.



1-rasm. Osiyo davlatlarida qayta tiklanadigan elektr energiyasi ishlab chiqarish [12]

Gidroelektrostantsiyalar tarmoqqa zudlik bilan elektr energiyasini ishlab chiqarishi mumkinligi sababli, ular elektr energiyasining katta uzilishlari yoki uzilishlari paytida zaruriy zaxira quvvatni ta'minlaydi.

Gidroenergetika suv toshqinlarini nazorat qilish, sug‘orishni qo‘llab-quvvatlash va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash orqali elektr energiyasi ishlab chiqarishdan tashqari foyda keltiradi.

Gidroenergetika arzon. Gidroenergetika boshqa energiya manbalariga nisbatan arzon elektr energiyasi va vaqt o‘tishi bilan mustahkamlikni ta'minlaydi. Qurilish xarajatlarini hatto ko‘priklar, tunnellar va to‘g‘onlar kabi oldindan mavjud tuzilmalardan foydalanish orqali kamaytirish mumkin.

Gidroenergetika boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalari birga ishlatilishi mumkin. Pumped storage hydropower (PSH) kabi texnologiyalar energiyani talab yuqori bo‘lganda shamol va quyosh energiyasi kabi qayta tiklanadigan manbalar bilan birgalikda ishlatish uchun ham juda qulay.

Gidroenergetika qishloq joylarida ish o‘rinlarini yaratadi va mahalliy iqtisodiyotni rag‘batlantirad5 [13].

Global isish va davom etayotgan zahiralarning kamayishi natijasida bir nechta variant va barqaror energiya manbalari ishlab chiqildi. Elektr energiyasining asosiy qismi qazib olinadigan yoqilg‘idan ishlab chiqariladi, bu esa kelajakda zaharli chiqindilarning asosiy manbai bo‘lib qoladi; shuning uchun qazib olinadigan yoqilg‘idan foydalanishni qisqartirish choralari ko‘rilmoqda. Barqaror energiya manbai bo‘lgan gidroenergetikadan foydalanish atrof-muhitga ham, insoniyat sivilizatsiyasiga ham bir necha jihatdan foyda keltirdi. Elektr energiyasini suv bilan ta'minlanishni kamaytirmasdan gidroenergetika orqali ishlab chiqarish mumkin. Gidroelektrik inshootlardagi suv omborlari misli ko‘rilmagan operatsion moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Uzilishlar bilan bog‘liq muammolar cheklanadi va ular talab qilinadigan quvvatdagi o‘zgarishlarga darhol javob berishi mumkin. Moslashuvchanligi va saqlash imkoniyatlari tufayli gidroenergetika energiyadan foydalanishning boshqa vositalariga qaraganda yaxshiroq ishlash imkonini beradi.

Shuni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasida elektr energiyasi sifati masalasini o‘rganish va ilmiy asoslarni yaratish ustuvor masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. " Nautiyal, H., & Goel, V. (2020). Sustainability assessment of hydropower projects. *Journal of Cleaner Production*, *265*, 121661.

2. " Kaygusuz, Kamil. (2009). The Role of Hydropower for Sustainable Energy Development. Energy Sources. Part B. 365-376. 10.1080/15567240701756889.

3. Исроилов , Х. 2023. Роль природного капитала в обеспечении экономической стабильности. Общество и инновации. 4, 4/S (май 2023), 50–55. DOI:https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss4/S-pp50-55.

4. O.N.Teshaboyeva, Moliyaviy mexanizm va uning suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishdagi roli.Results of National Scientific Research International Journal, 1(3), 66-74.

5. O.N.Teshabaeva, X.O‘. Isroilov, (2022). O‘zbekistonda suv xo‘jaliklari tizimini boshqarish iqtisodiy-moliyaviy mexanizmidagi o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlari. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 4(4), 103-110.

6. Isroilov, X. I. (2023). Gidroenergetika “yashil iqtisodiyot” va iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida. Qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 8, 81-84.

7. Isroilov, X. I. (2023). The Importance Of Natural Capital Consumption In A Sustainable Economy. Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities, 11(5), 593-602.

8. Isroilov, X., & Tojiyev, E. (2023). Inson kapitali xududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish omili. " Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to ‘plami., 331-333.

9. X. I. Isroilov. (2023). The importance of innovative technologies in sustainable development. European Journal of Emerging Technology and Discoveries, 1(9), 8–14. Retrieved from https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/325

10. Energy Production and Consumption (statistics) // Our World in Data. URL: https://ourworldindata.org/energy-production-consumption

11. https://lex.uz/docs/-6303230

12. https://ourworldindata.org/renewable-energy

13. https://www.energy.gov/eere/water/benefits-hydropower

ADVANCED SOLAR, SHADING, DAYLIGHTING ANALYSIS TOOLS FOR ENERGY-EFFICIENT AND PASSIVE RESIDENTIAL BUILDING DESIGN

Abdulaziz Azamatov
Turin Polytechnic University in Tashkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror, energiya tejaydigan binolarni loyihalash mavzularidagi dolzarb masalalarni qisqacha ko‘rib chiqilgan. Talabalar, tadqiqotchilar, arxitektorlar va dizaynerlar tomonidan uyning passiv dizaynini yaxshilash uchun loyihalash jarayonida samarali foydalanish mumkin bo‘lgan dasturiy vositalar muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Quyosh yo‘li diagrammasi; Passiv uy; Quyoshdan himoya qiluvchi qurilmalar; kunduzgi yorug‘lik; Energiya samaradorligi.

Abstract. This paper provides a short review of current issues in sustainable, energy-efficient building design topics. Discussed the software tools that can be efficiently used during the design process by students, researchers, architects, and designers to improve their understanding of passive house design aspects.

Keywords: Sun-path diagram; Passive house; Sun shading devices; Daylighting; Energy efficiency.

Абстракт. В этой статье представлен краткий обзор текущих проблем в области устойчивого и энергоэффективного проектирования зданий. Обсуждались программные инструменты, которые могут эффективно использоваться в процессе проектирования студентами, исследователями, архитекторами и дизайнерами, чтобы улучшить их понимание аспектов проектирования пассивного дома.

Ключевые слова: Диаграмма пути солнца; Пассивный дом; Солнцезащитные устройства; Дневное освещение; Энергоэффективность.

Climate change and resource depletion are the main challenges that mankind has to face in the 21st century. Through its impact on ecology, rainfall, temperature and weather systems, global warming will directly affect all countries. Nobody will be immune to its consequences. However, some countries and people are more vulnerable than others [1]. Mitigating and adapting to climate change are key challenges of the 21st century. At the core of these challenges is the question of energy – more precisely, our overall energy consumption and our dependence on fossil

fuels. To succeed in limiting global warming, the world urgently needs to use energy efficiently while embracing clean energy sources to make things move, heat up and cool down [2].

Developing countries are going to play a decisive role in the future world energy scenario, as a consequence of their economic development. Industrial energy consumption will grow, and a dramatic increase in energy consumption for transport can be expected, with the growth in the number of vehicles on the roads - if the currently accepted worldwide approach to mobility does not change. The increase in energy consumption in the building sector can be expected to be even more dramatic, not only because air conditioning will spread and the number of domestic electric and electronic appliances will grow, but also because of the increase in the number of buildings [1].

Nowadays, the needs for energy and for the reduction of conventional energy sources in the building sector are high. Shading devices (SD) can be considered as valuable machines of energy balance. Their geometric characteristics are a result of the avoidance of incident solar radiation in the interior, reduction of cooling, thermal and electricity loads and the maximization of energy production through the integrated PV. The way that SDs are used to be designed has to be changed. It is a new parameter that should be developed further on by buildings' industries, PVs' industries and research institutes, in order to enter the building market [3].

The use of shading devices (Pic. 1) is essential for south oriented facades, especially in hot climates. Fixed shading devices can reduce increasing thermal loads during summer and at the same time control intense summer daylight, improve vision and reduce glare [4].



Pic. 1 Main features of passive house

Highly-glazed facades are widely utilized in contemporary buildings, given their favourable architectural suitability and potential of providing natural light and external views [5]. The preference for such facades, however, may lead to the risk of high heating and cooling loads

in those buildings [6]. In order to prevent the shortcomings of the highly-glazed envelope, different shading devices are used to improve the energy performance of the buildings.



(a) (b)

Pic. 2 Thermography shows the temperature reducing by trees almost twice comparing to road without tree: (a) Jan. 2017 heatwave show the impact of urban heat islands in Melburn (b) opposite Queen Victoria Market in Melburn

Green spaces in and around cities, and around the houses collectively known as urban forests, can mitigate regional and local flooding from storms, reduce water scarcity, improve air and water quality, regulate temperature, and aid soil nutrient cycling, all while sequestering carbon.

Each tree in that forest is important. With all of their steel, asphalt, and concrete, cities are typically a few degrees hotter on average than the surrounding undeveloped land, a phenomenon known as the urban heat island effect. The same phenomenon occurs on a subcity scale to a degree that depends on a neighborhood's green space [7]. Thermography (Pic.2) shows the temperature reducing by trees almost twice comparing to road without tree in Melburn, Australia.

Sun path diagram

Sun path diagrams or sun charts are projections of the sky dome onto a surface. Sun path diagrams are a metric for designing a home and act as a visual aid to convey the architect's design decisions to the homeowner. Great tools for creating these diagrams are readily available online. For example, suncalc.org, anrewmarsh.com and shadowcalculator.eu provides the solar data of a site and tracks the sun as it moves across the sky from dawn to dusk (Pic. 3, 4). The length of shadows can be determined for any specific day and time (Pic. 6), simulated and analysed.

Understanding the position of the sun allows us to build passive measures into the design of a home. Passive measures for sun control include a consideration of the proper placement, orientation, and shape of

a home. Architectural features like sun shading and overhangs are likewise established early, during the planning stage of design. The goal is to shade the home during the hottest days of the year while allowing light to warm the home during colder, shorter days (Pic. 1).



Pic. 3 Sun path in different seasons



Pic. 4 Stereographic sun path diagram for Tashkent

The Stereographic (or Polar) Sun Path Chart is used to represent the angle of the sun at various times (a month during the year, hours during the day) of the year (Pic. 3, 4).

Timetable plot

The timetable plot is a graphic plot of average monthly temperatures based on Energy Plus Weather data [8]. In Pic. 5 shown timetable plot for Tashkent city, Uzbekistan. Very hot time recommended to have a shade is from 12:00 to 17:00, from 1-June to 31-August in summer season. The “Blue” times are too cold for thermal comfort, the “Red” times are very hot for thermal comfort and “Turquoise” color times are times which are comfortable.



Pic. 5 Time plot for Tashkent city [8].

Effective standalone software for solar radiation and shading assessment for architectural projects are used for analysis: Google SketchUp Pro with Extensions (Curic Sun, Sun Hours, Sun UV) shown in Pic. 6 (a), Energy 3D (Pic. 6, b), Design Builder (Pic. 6, c). Online based, free, open tools are used: Andrew Marsh 3D Sun Path Simulator, Andrew Marsh Dynamic Daylighting (Pic. 9).



(a) (b)



(c)

Pic. 6 Sun path simulation in different software:
(a) Google SketchUp Pro (b) Energy3D (c) Design Builder

The thermal envelope of a house is the most prominent measure required to meet the energy efficiency criteria. Super insulation and maximal air tightness minimize the heat loss through the envelope. Applied U-values in common practice for the European countries range from 0.16 to 0.39 W/m^{2}K. Scandinavian countries show best thermal insulation in their construction and the performance of the thermal envelope comes close to passive house criteria. In other cases the thermal envelope performance is far from Passive House standards and a catch up with respect to thermal performance of the envelope is needed (Pic. 7).

(a) (b)

Pic. 7 Maximizing solar gains [9]: (a) South elevation windows with U-value 0.7W/m²K (b) North Elevation windows with U-value 1.6W/m²K

Shading devices

External shading devices (Pic. 8) can reduce solar heat gain through glazing by up to 80%. By designing shading devices according to the sun's seasonal path, both summer shading and winter solar gain can be achieved in climates with seasonal variations.

Incorporate the following shading strategies: (1) Horizontal overhangs or louvers for solar orientations (facing the equator); and (2) Vertical fins and egg-crate designs for other orientations.



Pic. 8 Types of external shading devices [10]

Adjustable shading devices can be repositioned to allow for seasonal temperature variations or user control during unusually warm or cool periods. Additional shading strategies include recessing glazed openings, and incorporating porches, balconies, and mature vegetation to shade east and west walls as well as outdoor areas.



(a) (b)

Pic.9 Annual Sunlight Exposure (ASE) for room with (a) horizontal sun shading device and (b) without shading device.

As an example of using the tool Andrew Marsh Dynamic Daylighting for comparison of a room with shading device and without it shown in Pic. 9.

Conclusion and discussions. Various available through internet tools analyzed in this research. Passive solar heating in its simplest form requires no more than a good window facing the equator. An appropriate horizontal shading device could provide shading in the summer but allow the entry of solar radiation in the winter (see Pic. 1, 9). Adjustable shading could also be considered. The performance of such a system would also depend on the available thermal storage mass. In a lightweight building the solar heat input would overheat the interior, which may lead to discomfort, but also to a large heat loss [11]. An interactive results could be received, validated through solar radiation and shading assessment tools. These tools helps to architects and designers to choose right decisions in order to design more efficient, greener solutions.

The number of panes can significantly influence the performance of multi pane windows, meaning that increasing pane number results in more energy saving. In this regard, Julián et al. [12] claimed that replacing clear single pane windows with double-pane windows was reduced the heat flux by 50-72.6%. Painting exterior building envelopes with light-colored coatings also reduce the transferred heat remarkably thanks to the high reflectivity of these coatings against solar rays.

Acknowledgment

This research was supported by EU's ERASMUS+ programme DEBSEUz Project (ERASMUS-EDU-2023-CBHE).

References

1. Sustainable building design for tropical climates. Principles and Applications for Eastern Africa. United Nations Human Settlements Programme 2014 Nairobi

2. Web-source: https://www.eea.europa.eu/signals/signals-2017/articles/energy-and-climate-change

3. M. Mandalaki et al. Assessment of fixed shading devices with integrated PV for efficient energy use. J. Solar Energy 86 (2012) 2561-2575 Elsevier

4. M. Fontoyont, 1998. Daylight Performance of Buildings. James (Science) Publications Ltd., London.

5. A. Kirimtat, B.K. Koyunbaba, I. Chatzikonstantinou, S. Sariyildiz, 2016. Review of simulation modeling for shading devices in

buildings. Renew. Sustain. Energy Rev. https://doi.org/10.1016/j.rser.2015.08.020

6. H. Poirazis, A. Blomsterberg, M. Wall, 2008. Energy simulations for glazed office buildings in Sweden. Energy Build. 40, 1161–1170. https://doi.org/10.1016/j.enbuild.2007.10.011

7. Web-source: https://eos.org/features/growing-equity-in-city-green-space

8. Web-source: https://climate-consultant.informer.com/6.0/

9. Dr. Paola Sassi. Department of Architecture, Oxford Brookes University. Passivhaus monitoring. (Presentation)

10. New CIBSE guide for building in tropical environments

11. Steven Szokolay. Introduction to Architectural Science: The Basis of Sustainable Design. Burlington, MA: Architectural Press, 2nd edition 2008.

12. E. González-Julián, J. Xamán, N.O. Moraga, Y. Chávez, I. Zavala-Guillén, E. Simá, Annual thermal evaluation of a double pane window using glazing available in the Mexican market, Appl. Therm. Eng., 143 (2018) 100–111.

MAMLAKATIMIZDA “YASHIL” ENERGIYA MANBALARI VA ULARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Maxkamov Saidafzal Saidkamol-o‘g‘li
Farg‘ona Politexnika instituti M 24-23 I guruh magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil energiya ishlab chiqishning ahamiyati, hozirgi kunda mamlakatimiz tomonidan yashil energiya manbalarini yaratish va ulardan samarali foydalanish, bugungi kundagi yashil energiya quvvatlari va sarflari yoritilgan. Shuningdek bugungi kunimizda mamlakatimiz hududida foydalanilayotgan yashil energiya manbalari va uning natijasida kutilayotgan samaradorlik yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yashil energiya, quyosh panellari, yashil iqtisodiyot, atrof-muhit ifloslanishi, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, yashil texnologiyalar, ekologiya.

Аннотация: В данной статье освещается важность развития зеленой энергетики, создания и эффективного использования источников зеленой энергии в нашей стране, текущие возможности и затраты зеленой энергетики. Также выделены источники

«зеленой» энергии, используемые сегодня в нашей стране, и ожидаемая в результате эффективность.

Ключевые слова: зеленая энергетика, солнечные панели, зеленая экономика, загрязнение окружающей среды, солнечная энергетика, ветроэнергетика, зеленые технологии, экология.

Abstract: This article highlights the importance of green energy development, the creation and effective use of green energy sources by our country, the current green energy capacities and costs. Also, the green energy sources used in our country today and the efficiency expected as a result are highlighted.

Key words: green energy, solar panels, green economy, environmental pollution, solar energy, wind energy, green technologies, ecology.

So‘nggi yillarda davlatimiz tomonidan mamlakatni rivojlantirish uchun innovatsiyalarni jalb etish va “yashil” energiya manbalarini barpo qilish sohalariga katta e’tibor qaratilib, huquqiy zamin yaratildi. “Yashil” energiya manbalarini barpo qilish bo‘yicha katta dasturlar boshlandi. Investorlar uchun jozibador muhit tashkil etilmoqda.

Prezidentning 2023-yil 16-fevraldagi «2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-57-son qarori[1], Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-yanvardagi «Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida energiya ta’minotini tashkil etish sohasini tartibga solish va rivojlantirish to‘g‘risida»gi 13-son qarori qabul qilindi[2]. Ushbu qarorlarga muvofiq 2023-yilda mamlakatimizda ko‘p qavatli uylarning 50 %iga quyosh panellari o‘rnatilishi joriy qilindi. 2024-yil oxirigacha esa 765 ta ko‘p qavatli uylarda umumiy quvvati 15,3 MVt bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatilishi rejalashtirilgan[3].

Yashil iqtisodiyot - bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq, lekin ko‘proq siyosiy jihatdan qo‘llaniladigan yo‘nalishga ega. Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari barchasi “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun harakat qilmoqda.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning dolzarbligi va zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

● atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslar tugashining salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida iqtisodiyotda texnologik modernizatsiyalashni amalga oshirishni zarurligi;

● uglevodorod xom-ashyosi va uning pirovard mahsulot qiymatidagi ulushiga bog‘liqligini qisqartirish asosida iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish;

● katta multiplikativ samaraga ega bo‘lgan yuqori texnologiyali tarmoqlarni yangilash imkonini beruvchi yashil innovatsiyalarni qo‘llash;

● past uglerodli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida uglevodorodga bog‘liqlikni qisqartirish.

2023-yil davomida qayta tiklanadigan energiyaning global quvvati 2022-yilga nisbatan 50 foizga oshib, qariyb 510 GW'ga yetgan. Bu so‘nggi 20 yildagi eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichlaridan biridir. Xalqaro energiya agentligi hisobotiga ko‘ra kelgusi 5 yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari bo‘yicha bir nechta muhim natijalarga erishilishi rejalashtirilmoqda:

- 2024 yilda shamol va quyosh energiyasi birgalikda gidroenergetikadan ko‘ra ko‘proq elektr energiyasi ishlab chiqara boshlaydi;
- 2025 yilda barcha qayta tiklanadigan energiya manbalari quvvati ko‘mirda ishlaydigan quvvatlarni ortda qoldiradi va eng yirik elektr energiyasi manbaiga aylanadi;
- Shamol va quyosh elektr stansiyalarining har biri mos ravishda 2025 va 2026 yillarda atom elektr stansiyalarini ortda qoldiradi;
- 2028 yilda qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushi global elektr energiyasi ishlab chiqarishining 42 foizdan ortig‘ini tashkil qiladi, shamol va quyosh energiyasining ulushi esa 25 foizga yetadi[4].

Ushbu hisobotdan ko‘rinib turibdiki, “yashil” energiya manbalarini yaratish va undan foydalanish butun dunyo uchun juda muhimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni har bir mamlakatda yo‘lga qo‘yish mamlakat aholisi uchun ham, uning iqtisodiyoti uchun ham juda katta foyda keltirishi va hayot darajasini yaxshilash uchun katta imkoniyatga ega ekanligini bilishimiz mumkin.

Hisob-kitoblarga tayangan holatda shuni aytishimiz mumkinki, 2028-yilga borib jahon miqyosida ishga tushirilishi kutilayotgan yangi qayta tiklanadigan quvvatlarning deyarli 60 foizi Xitoy hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu mamlakatda 2020 va 2021-yillarda milliy subsidiyalar bosqichma-bosqich to‘xtatilishiga qaramay, texnologiyalarning iqtisodiy jozibadorligi sababli shamol va quyosh stansiyalarini qurish tezlashib bormoqda.

2023-yilda quyosh panellarining narxi yillik hisobda qariyb 50 foizga pasaygan va ularning dunyoda ishlab chiqarish hajmi 2021-yilga nisbatan uch barobarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi kunda ishlab chiqarishning umumiy quvvati shuni ko‘rsatmoqdaki, 2024-yil oxirida quyosh stansiyalarining global ta’minoti 1100 GW’ga yetishi va potensial ishlab chiqarish talabning joriy prognozidan uch baravar ko‘p bo‘lishi prognoz qilinmoqda.

Shu bilan bir qatorda, 2023-yilda yangi quyosh va shamol quvvatlarining 96 foizi yangi ko‘mir va gaz elektr stansiyalariga qaraganda ishlab chiqarish xarajatlari pastligini ko‘rsatmoqda.

Hozirgi kunimizgacha, mamlakatimiz O‘zbekistonda “yashil” energiya sohasiga 2,1 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya kirib keldi, yana 13 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilayapti. Deyarli barcha viloyatlarda zamonaviy quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etilmoqda.

Shu jumladan, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryoda 1,6 gigavattli 9 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushdi. Andijon, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatida 183 megavattli 6 ta yirik va kichik GESlar foydalanishga topshirildi.

Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy soha obyektlari, korxona va tashkilotlar, tadbirkorlarga tegishli binolar va aholi xonadonlarida umumiy quvvati 457 megavattli quyosh panellari o‘rnatildi va yana yangidan yangi obyetktlarga ham quyosh panellarini o‘rnatish bo‘yicha shartnomalar amalga oshirilmoqda. Bu ishlarga banklar tomonidan qariyb 2 trillion so‘m resurs ajratildi.

Buning natijasida qo‘shimcha 5 milliard kilovatt-soat ekologik toza elektr ishlab chiqarish va 1,5 milliard kub metr gaz tejash imkoniyati yaratilgani bejiz emas. Bu sohadagi keng qamrovli ishlar mahalliy korxonalarda transformator, har xil turdagi kabellar, isitish kollektorlari, quyosh paneli, izolator, metall ustunlar kabi mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishga ham katta turtki bermoqda[5].

2024-yilda “yashil” energiya hajmi 13 milliard kilovatt-soatga, uning mamlakatimizdagi jami ulushi 15 foizga yetadi. Qisqa davr uchun bu juda katta ko‘rsatkich hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev sohadagi tajribaga tayanib, bu yildan yirik “yashil energiya” quvvatlarini yaratish bo‘yicha uch yillik dasturga o‘tish zarurligini ta’kidlab o‘tdi. Buning natijasida aholi va iqtisodiyot tarmoqlari talabidan kelib chiqib, kelgusi uch yilda 8 gigavattli

28 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilishi va 944 kilometr yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari va 6 ta yirik podstansiya qurilishi rejalashtirilmoqda. Jami 2,2 gigavatt bo‘lgan 18 ta elektr saqlash quvvati o‘rnatilishi kutilmoqda.

Yashil energiya O‘zbekistonning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Mamlakat quyosh, shamol va bioenergiya resurslariga boy, bu esa uni energetik mustaqillik va barqaror iqtisodiy o‘sish yo‘lida yondashuvlar ishlab chiqishga undaydi[6]. Quyidagi takliflar asosida mamlakatda “yashil” energiya manbalari asosida mamlakatni rivojlantirish mumkin:

Quyosh energiyasi: O‘zbekistonning iqlimi quyosh energiyasini samarali foydalanishga imkon beradi. Katta quyosh elektr stansiyalarini qurish va ularni energiya tarmog‘iga ulash orqali energiya iste'molini diversifikatsiya qilish mumkin.

Shamol energiyasi: O‘zbekistonning ayrim hududlari shamol energiyasini ishlab chiqarish uchun juda mos keladi. Shamol energiyasi stansiyalarini rivojlantirish orqali mamlakatning energiya ta’minotini yanada mustahkamlash mumkin.

Energiya samaradorligini oshirish: Mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish va energiya sarfini kamaytirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish zarur. Energiya tejash texnologiyalarini joriy etish orqali iqtisodiyotning turli sohalarida samaradorlikni oshirish mumkin.

Yashil texnologiyalarni rivojlantirish: Yashil texnologiyalarni qo‘llash orqali yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish mumkin. Ushbu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash ham muhimdir.

Xalqaro hamkorlik: Yashil energiya sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, investitsiyalarni jalb qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish mumkin.

Ta'lim va xabardorlik: Yashil energiya sohasida ta'lim dasturlarini kuchaytirish va aholining xabardorligini oshirish orqali yoshlarni ushbu sohada ishlashga undash kerak.

O‘zbekistonning yashil energiya sohasidagi potensiali uni kelajakda energetik jihatdan barqaror va iqtisodiy jihatdan mustaqil mamlakatga aylantirishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz O‘zbekistonda yashil energiya sohasini rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun qilinayotgan harakatlar barchasi iqtisodiyot

sohasini rivojlantirishga qaratilgan. Yuqoridagi fikrlarni jamlagan holda, “yashil” energetika – ham iqtisodiyotimiz drayverlaridan biriga, ham chinakam umummilliy harakatga aylanayotgani va bu sohani rivojlantirish uchun bir nechta investitsiya loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/yashil_energiya_sohasi_qanday_tartibga_solinadi
2. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/yashil_energiya_sohasi_qanday_tartibga_solinadi
3. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/yashil_energiya_sohasi_qanday_tartibga_solinadi
4. IEA (2024), Renewables 2023, IEA, Paris https://www.iea.org/reports/renewables-2023, Licence: CC BY 4.0
5. Ilyosov A., Maxkamov S., No‘manov J. Hududlarni rivojlantirish va" yashil iqtisodiyot" ni shakllantirishning ekologik muammolari //Nashrlar. – 2023. – C. 431-434.
6. Maxkamov S., Yigitaliyeva D. Hududlarni rivojlantirish va “yashil iqtisodiyot” ni shakllantirishning ekologik muammolari. – 2024.

KAM UGLERODLI IQTISODIYOT O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING ASOSIY OMILI

Tuxtarov Elyor Ismatulloevich – mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning asosiy omili sifatida kam uglerodli iqtisodiyotning roli tahlil qilingan. Global iqlim o‘zgarishi sharoitida kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish O‘zbekistonning uglerod izini kamaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Maqolada hukumat tomonidan qayta tiklanadigan energiya manbalarini (QTEM) rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, ushbu tashabbuslarning ijobiy natijalari ko‘rib chiqiladi. Kam uglerodli iqtisodiyotning afzalliklarini tahlil qilish, shu jumladan ekologik yukni kamaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: kam uglerodli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, qayta tiklanadigan energiya manbalari, O‘zbekiston, barqaror rivojlanish, uglerod izi, ekologik javobgarlik, xalqaro investitsiyalar.

Аннотация: Статья посвящена анализу роли низкоуглеродной экономики как основного фактора перехода к зеленой экономике в Узбекистане. В условиях глобальных климатических изменений переход к низкоуглеродной экономике стал приоритетом государственной политики Узбекистана, направленной на снижение углеродного следа и достижение целей устойчивого развития. В статье рассматриваются меры, предпринимаемые правительством по развитию возобновляемых источников энергии (ВИЭ), а также положительные результаты этих инициатив. Особое внимание уделяется анализу преимуществ низкоуглеродной экономики, включая снижение экологической нагрузки, создание новых рабочих мест и привлечение международных инвестиций.

Ключевые слова: низкоуглеродная экономика, зеленая экономика, возобновляемые источники энергии, Узбекистан, устойчивое развитие, углеродный след, экологическая ответственность, международные инвестиции.

Annotation. The article analyzes the role of low-carbon economy as the main factor in the transition to green economy in Uzbekistan. In the context of global climate change, the transition to a low-carbon economy has become a priority of Uzbekistan's public policy aimed at reducing its carbon footprint and achieving sustainable development goals. The article examines the measures taken by the government to develop renewable energy sources (res), as well as the positive results of these initiatives. Analysis of the benefits of a low carbon economy, particular attention is paid to reducing the environmental burden, creating new jobs and attracting international investment.

Keywords: low-carbon economy, green economy, renewable energy sources, Uzbekistan, Sustainable Development, carbon footprint, Environmental Responsibility, international investments.

O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakat sifatida barqaror rivojlanish yo‘lida ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Global iqlim o‘zgarishi sharoitida kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. O‘zbekiston uglerod izini kamaytirishga intilmoqda, bu ayniqsa issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va Parij bitimi maqsadlariga erishish bo‘yicha xalqaro majburiyatlar kontekstida muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘ldagi asosiy qadamlardan biri kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha milliy strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Bugungi kunda O‘zbekiston hukumati mamlakat energiya balansida qayta tiklanadigan

energiya manbalari (QTEM) ulushini oshirish bo‘yicha faol choralar ko‘rmoqda. Masalan, 2023-yilda O‘zbekistonda umumiy quvvati 1 GVt dan ortiq quyosh elektr stansiyalarini qurish bo‘yicha qator loyihalar ishga tushirildi. Ushbu loyihalar CO_2 chiqindilarini yiliga mln lab tonnaga kamaytirishga imkon beradi [8, 4-bet]. Taqqoslash uchun, qo‘shni Qozog‘istonda 2021 yilda o‘rnatilgan qayta tiklanadigan energiya manbalarining quvvati taxminan 2 GVtni tashkil etdi, bu chiqindilarni 4,8 mln tonna CO_2 ga kamaytirdi. Bu misol shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston nisbatan kech boshlanganiga qaramay, kam uglerodli texnologiyalar sohasida qo‘shnilari bilan faol shug‘ullanmoqda. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston gidroenergetikadan foydalanish imkoniyatlarini ham ko‘rib chiqmoqda, bu esa uglerod chiqindilarini yanada kamaytirishga olib keladi.

Kam uglerodli iqtisodiyotni rivojlantirish katta moliyaviy investitsiyalarni va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi. Bu borada O‘zbekiston Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va Global atrof-muhit fondi (GEF) kabi xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari bilan faol hamkorlik qilmoqda. Ushbu tashkilotlar moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va maslahat xizmatlarini ko‘rsatadilar, bu esa qayta tiklanadigan energiya manbalarini jadal joriy etish va mavjud energiya tizimlarini modernizatsiya qilishga yordam beradi. Masalan, Osiyo taraqqiyot banki Navoiy viloyatida 110 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasini qurish uchun 100 mln doll kredit ajratdi [6, 5-bet]. Ushbu loyiha CO_2 chiqindilarini yiliga 160 ming tonnaga kamaytiradi, bu uglerod izini kamaytirish maqsadlariga erishishda katta hissa qo‘shadi. Shunga o‘xshash loyihalar mintaqaning boshqa mamlakatlarida ham amalga oshirilmoqda, bu esa O‘zbekiston dasturlarini qo‘shnilari bilan solishtirish imkonini beradi. Masalan, Tojikistonda loyiha quvvati 3600 MVt bo‘lgan Rogun GESining qurilishi ham Markaziy Osiyodagi yondashuvlarning o‘xshashligini ko‘rsatadigan kam uglerodli energiya tizimini yaratishga qaratilgan.

O‘zbekistonda kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish allaqachon o‘z samarasini bermoqda. 2023 yilda qayta tiklanadigan energiyaning mamlakatning umumiy energiya balansidagi ulushi 10% ga yetdi, bu 2018 yilga nisbatan ancha yuqori, chunki shu yili atigi 3% ni tashkil etgan. O‘zbekiston energetika vazirligining prognozlariga ko‘ra, 2030 yilga kelib qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushi 25 foizgacha oshishi mumkin, bu esa uglerodni ko‘p talab qiladigan energiya

manbalariga bog‘liqlikni sezilarli darajada kamaytirib, uglerod izini 30 mln tonna CO2 ga pasaytiradi. Shu bilan birga, ushbu ulkan maqsadlarga erishish uchun infratuzilmani yanada rivojlantirish, me’yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish va institutsional salohiyatni mustahkamlash zarur. Masalan, qayta tiklanadigan energiya sohasida yetakchi davlatlardan biri bo‘lgan Germaniyada 2023 yilda qayta tiklanadigan energiya ulushi qariyb 50 foizni tashkil etdi [10].

Kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish O‘zbekiston uchun barqaror iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy taraqqiyot uchun katta imkoniyatlar ochadi. Birinchidan, tabiiy gaz va ko‘mir kabi qazib olinadigan yoqilg‘iga qaramlikni kamaytirish atrof-muhitga ekologik yukni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, Toshkentda havoning ifloslanish darajasi har m^3 ga 50 mkg ni tashkil etadi, bu JSST tomonidan tavsiya etilgan me’yorlardan ikki baravar ko‘pdir [9]. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining (QTEM) joriy etilishi demografik o‘sish va yosh mutaxassislarni ish bilan ta’minlash zarurati sharoitida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yangi ish o‘rinlari yaratilishiga ham hissa qo‘shadi. O‘zbekiston mehnat va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, mehnatga layoqatli aholining yillik o‘sishi qariyb 500 ming kishini tashkil etadi, bu esa ko‘p sonli yangi ish o‘rinlarini yaratishni talab qiladi. Navoiy viloyatida 3000 dan ortiq vaqtinchalik va doimiy ish o‘rinlari yaratilgan quyosh elektr stansiyasini qurish loyihasi qayta tiklanadigan energiyaning mehnat bozoriga ijobiy ta’siriga misol bo‘la oladi [3, 7-bet].

Xitoyda, xalqaro qayta tiklanadigan energiya agentligi (IRENA) ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda QTE sohasida 4,5 mln ga yaqin kishi ish bilan ta’minlangan. Bundan tashqari, kam uglerodli texnologiyalarni joriy etish energiya samaradorligini oshirishga va energiya sarfini kamaytirishga yordam beradi. O‘zbekistonda eng yirik energiya iste’molchilaridan biri metallurgiya sanoati bo‘lib, u umumiy elektr energiyasining qariyb 25 foizini iste’mol qiladi. Energiya tejamkor uskunalardan foydalanishga o‘tish Uzmetkombinat kabi korxonalarga energiya sarfini 2023 yilda 15 foizga kamaytirish imkonini berdi, bu pul ko‘rinishida qariyb 10 mln dollarni tashkil etadi [11].

Aytish kerakki, Kam uglerodli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali O‘zbekiston "yashil" investorlar uchun jozibador maqsadga aylanishi mumkin. Masalan, 2023-yilda O‘zbekiston London Fond birjasiga qiymati 870 mln dollarlik birinchi "yashil obligatsiyalar" ni

muvaffaqiyatli joylashtirdi va bu xalqaro kapitalni jalb qilishda muhim qadam bo‘ldi.

Aytish kerakki, erishilgan yutuqlarga qaramay, O‘zbekiston kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Birinchidan, energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni rivojlantirishga katta sarmoyalar zarur. Osiyo taraqqiyot banki hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekiston uglerodni kamaytirish maqsadlariga erishish uchun 2030 yilga qadar 20 mlrd dollarga yaqin sarmoya kiritishi kerak. Ushbu investitsiyalarga yangi qayta tiklanadigan energiya ob’ektlarini qurish va mavjud elektr stansiyalari va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish kiradi. Ikkinchidan, kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish uchun institutsional asos va me’yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash talab etiladi. 2019 yilda "qayta tiklanadigan energiya manbalari to‘g‘risida" gi Qonunning qabul qilinishi bu boradagi muhim qadam bo‘ldi, ammo uni amalga oshirish huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirish va qo‘shimcha me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Uchinchidan, aholining xabardorligini oshirish va aholi va biznes o‘rtasida ushbu tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash zaruriyati muhim jihatdir. Biroq, kam uglerodli iqtisodiyotning afzalliklari to‘g‘risida jamoatchilikni xabardor qilish darajasi nisbatan pastligicha qolmoqda. Osiyo taraqqiyot banki tomonidan 2022 yilda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston aholisining atigi 40 foizi qayta tiklanadigan energiya manbalarining ahamiyati va ularning uglerod izini kamaytirishdagi rolini tushunadi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun ekologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan ta’lim dasturlari va axborot kampaniyalari zarur.

O‘zbekiston uchun kam uglerodli iqtisodiyotning afzalliklari yaqqol ko‘rinib turibdi, ammo o‘tish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish kompleks yondashuvni va bir qator qiyinchiliklarni yengib o‘tishni talab qiladi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va huquqiy bazani mustahkamlash barqaror iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik yo‘lidagi muhim elementlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son. https://lex.uz/docs/6303230

2. Jahon banki ishtirokida «Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. https://lex.uz/docs/6561845

3. O‘zbekiston qanday qilib «yashil» iqtisodiyotga o‘tadi. https://senat.uz/oz/post/post-1673

4. O‘zbekistonning «Yashil iqtisodiy strategiyasi» qanday amalga oshiriladi? https://davr24.uz/oz/archives/5445

5. O‘zbekiston ilk bor “yashil” suveren xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. https://sputniknews.uz/20231006/ozbekiston-yashil-obligatsiyalar-9692541.html

6. Osiyo taraqqiyot banki O‘zbekistonga 100 mln dollar ajratdi. https://qalampir.uz/news/osiye-tarak-k-iyet-banki-uzbekistonga-100-mln-dollar-azhratdi-47347

7. Buxoroda quyosh elektr stansiyasi qurilgan. https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan/2016/04/160402_cy_bukhara_solar_power_station

8. Iqtisodiyotni "yashillashtirish" O‘zbekistonga nima beradi — Jahon banki tadqiqoti. https://sputniknews.uz/20231213/iqtisodiyot-yashillashtirish-ozbekiston-jahon-banki-tadqiqot-41546192.html

9. https://daryo.uz/k/2023/12/22/toshkent-havosining-iflosligi-boyicha-dunyoda-4-oringa-chiqdi

10. https://yandex.ru/search/?text=10336

11. https://www.reuters.com/article/business/environment/one-million-green-jobs-projected-by-2030-in-china-eu-and-us-experts-idUSKBN0MR00A/

ЗЕЛЕНЫЙ БИЗНЕС В УЗБЕКИСТАНЕ: ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Юсупов М.Х., Помощник хокима г. Кувасая

Аннотация. Ўзбекистонда яшил бизнес жадал ривожланаётган соҳадир. Мақолада мамлакатда яшил бизнеснинг истиқболлари, шу жумладан қайта тикланадиган энергия манбаларини ривожлантириш, экологик тоза ишлаб чиқариш ва барқарор қишлоқ

хўжалигини ривожлантириш масалалари муҳокама қилинади. Яшил тадбиркорликни ривожлантиришни қўллаб-қувватловчи ҳуқуқий ва иқтисодий воситаларга, шунингдек, яшил бизнес салоҳиятини тўлиқ рўёбга чиқариш йўлида юзага келиши мумкин бўлган тўсиқларга алоҳида эътибор қаратилади.

Калит сўзлар: яшил бизнес, Ўзбекистон, барқарор ривожланиш, қайта тикланадиган энергия манбалари, экологик сиёсат, иқтисодий воситалар.

Аннотация. Зеленый бизнес в Узбекистане представляет собой быстроразвивающееся направление. В статье обсуждаются перспективы зеленого бизнеса в стране, включая развитие возобновляемых источников энергии, экологически чистого производства и устойчивого сельского хозяйства. Особое внимание уделяется правовым и экономическим инструментам, поддерживающим развитие зеленого предпринимательства, а также барьерам, которые могут возникнуть на пути к полной реализации потенциала зеленого бизнеса.

Ключевые слова: зеленый бизнес, Узбекистан, устойчивое развитие, возобновляемые источники энергии, экологическая политика, экономические инструменты.

Annotation. Green business in Uzbekistan is a rapidly developing area. The article discusses the prospects for green business in the country, including the development of renewable energy sources, environmentally friendly production, and sustainable agriculture. Special attention is paid to legal and economic instruments supporting the development of green entrepreneurship, as well as barriers that may arise on the way to the full realization of the potential of green business.

Keywords: green business, Uzbekistan, sustainable development, renewable energy, environmental policy, economic instruments.

Экономические возможности и потенциал для роста
Зеленый бизнес в Узбекистане обладает значительным потенциалом для стимулирования экономического роста, особенно в таких секторах, как сельское хозяйство, энергетика и промышленность. Развитие зеленых технологий способствует созданию новых рабочих мест, повышению энергоэффективности и привлечению иностранных инвестиций.

1. **Возобновляемая энергетика:** Узбекистан обладает значительными ресурсами для развития возобновляемой энергетики. Общий потенциал возобновляемых источников энергии составляет

117 984 млн т.н.э., из которых основную долю занимает солнечная энергия с техническим потенциалом 177 млн т.н.э. Этот потенциал почти в четыре раза превышает текущее потребление первичной энергии в стране [6, 10-стр.];

2. **Сельское хозяйство:** В условиях изменения климата и деградации почв развитие зеленого бизнеса в сельском хозяйстве имеет ключевое значение. Внедрение экологически чистых методов производства, таких как органическое земледелие и капельное орошение, способствует повышению устойчивости сельского хозяйства и увеличению экспорта.

3. **Промышленность:** В промышленности зеленый бизнес включает внедрение энергоэффективных технологий и переход к более чистым видам производства. За последние три года Узбекистан привлек 8 миллиардов долларов, что способствует снижению выбросов парниковых газов и повышению конкурентоспособности продукции.

Политическая и законодательная поддержка

1. **Законодательные инициативы:** Важными шагами стали принятие Закона «О возобновляемых источниках энергии» (2019) [1,6-стр.] и Закона Республики Узбекистан «Об экономии энергии, её рациональном использовании и повышении энергоэффективности» (2024), которые создают правовую основу для развития зеленого бизнеса. Эти законы предусматривают налоговые льготы, субсидии и обязательное проведение энергетических аудитов для крупных промышленных предприятий.

2. **Государственные программы:** Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на "зеленую" экономику до 2030 года» [2,стр-8] предусматривает комплексную поддержку предпринимателей, занимающихся разработкой и внедрением зеленых технологий. Правительство также активно привлекает финансирование и техническую помощь от международных организаций, таких как Всемирный банк и Европейский банк реконструкции и развития.

3. **Государственное регулирование:** Законодательная палата Олий Мажлиса Республики Узбекистан приняла в первом чтении проект закона «Об ограничении выбросов парниковых газов», окончательное принятия которого способствует созданию правовой базы для регулирования экологически значимых вопросов.

Проблемы и вызовы

1. **Ограниченный доступ к финансированию:** Зеленый бизнес в Узбекистане сталкивается с проблемой ограниченного доступа к финансированию. Лишь около 30% малых и средних предприятий имеют доступ к льготным кредитам и грантам, что затрудняет развитие инновационных проектов.
2. **Дефицит квалифицированных кадров:** Нехватка специалистов в сфере возобновляемой энергетики и энергоэффективных технологий остается серьёзной проблемой. Отсутствие специализированных образовательных программ и недостаточный уровень подготовки кадров ограничивают возможности для роста зеленого бизнеса.
3. **Модернизация инфраструктуры:** Устаревшая инфраструктура, включая энергетические сети и транспортные системы, требует значительных инвестиций для приведения в соответствие с международными стандартами экологической устойчивости. Без модернизации инфраструктуры невозможно обеспечить устойчивый рост зеленого бизнеса.

Перспективы развития

1. **Природные ресурсы и возобновляемая энергия:** Узбекистан обладает богатыми природными ресурсами, которые могут быть эффективно использованы для развития зеленого бизнеса. Развитие возобновляемой энергетики создает возможности для привлечения иностранных инвестиций и расширения экспорта зеленой энергии.
2. **Международное сотрудничество и финансирование:** Активизация международного сотрудничества открывает новые возможности для привлечения финансирования и реализации крупных проектов в области зеленой экономики. Узбекистан может воспользоваться международными программами и фондами, такими как Зелёный климатический фонд (ЗКФ), для поддержки зеленого бизнеса.
3. **Внутренние реформы и развитие законодательства:** Для успешного развития зеленого бизнеса в Узбекистане необходимо продолжать проводить реформы, направленные на улучшение инвестиционного климата и развитие законодательной базы. Принятая Национальная стратегия по развитию зеленой экономики до 2030 года предусматривает комплекс мер по

стимулированию зеленого бизнеса и развитию инфраструктуры [4, 9-стр.].

4. **Конкурентоспособность и экономическое развитие:** Развитие зеленого бизнеса способствует усилению конкурентоспособности Узбекистана на международной арене и созданию новых рабочих мест, особенно в сельских районах. Это способствует решению проблемы безработицы и повышению уровня жизни населения.

Таким образом, зеленый бизнес в Узбекистане обладает значительным потенциалом для стимулирования экономического роста и устойчивого развития. Богатые природные ресурсы, активное международное сотрудничество и поддержка со стороны государства создают прочную основу для дальнейшего роста зеленой экономики. Важно продолжать развивать инфраструктуру, привлекать инвестиции и проводить реформы, направленные на создание благоприятных условий для предпринимателей, чтобы Узбекистан мог занять лидирующие позиции в области устойчивого развития.

Список использованной литературы:

1. Закон РУ «Об использовании возобновляемых источников энергии». https://lex.uz/docs/4346835

2. Закон Республики Узбекистан «Об экономии энергии, её рациональном использовании и повышении энергоэффективности» (от 07.08.2024 г.). https://lex.uz/uz/docs/7052217

3. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на "зеленую" экономику до 2030 года». https://lex.uz/docs/6303233

4. Программа по переходу на "зеленую" экономику и обеспечению "зеленого" роста в Республике Узбекистан до 2030 года (Приложение N 1 к Постановлению Президента РУз от 02.12.2022 г. N ПП-436)

5. Ашурзода Л.М. «Приоритетные направления перехода Республики Узбекистан к зеленой экономике». https://reu.uz/wp-content/uploads/2020/02/prioritetnye-napravlenija-perehoda.pdf

6. Зокиров ш. Возобновляемая энергия для устойчивого развития. НИЦ «Научные основы и проблемы развития экономики

Узбекистана» https://review.uz/post/vozobnovlyaemaya-energiya-dlya-ustoychivogo-razvitiya

7. Хамдамов, Ш.-Д. (2020). Проблемы и перспективы перехода к зеленой экономике в Узбекистане. *Экономика И Образование*, *1*(1), 29–35. https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4210

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O`RNI

Kuchkarova Maxliyo Rustambek qizi
“Ipoteka-bank” OTP group Ohangaron filiali yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib borayotganligi va bozor rivojlanishini tezlashtiruvchi omil sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada bugungi kunning rivojlanishi uchun hamda taraqqiy topishida innovatsiyalarning nechog‘lik muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi imtiyozlar haqida keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, modernizatsiya, infratuzilma, kredit, investitsiya, bank, foiz, resurs, kashfiyot, moliyalashtirish.

Аннотация*:* В данной статье анализируется тот факт, что инновации становятся одной из наиболее характерных особенностей экономического развития и фактором, ускоряющим развитие рынка. В статье также упоминается, насколько важны инновации для сегодняшнего развития и прогресса, а также преимущества финансирования инновационных проектов.

Ключевые слова: инновации, модернизация, инфраструктура, кредит, инвестиции, банковское дело, процент, ресурс, открытие, финансирование.

Abstract: This article analyzes the fact that innovation is becoming one of the most characteristic features of economic development and a factor that accelerates market development. The article also mentions how important innovations are for today's development and progress, as well as the benefits of financing innovative projects.

Key words: innovation, modernization, infrastructure, credit, investment, banking, interest, resource, discovery, financing.

Hozirgi vaqtda innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda. Yaqinda bu nom ekzotik, noma'lum va hatto professionallar orasida ham unchalik aniq bo'lmagan narsani eslatardi, ammo endi innovatsiyaning o'zi ham, uning tushunchalari ham dunyoni tezda zabt etmoqda. Innovatsion jarayonda jiddiy rol o'ynaydigan va innovatsiyalarni korxonalar uchun strategik resursga aylantiradigan xalqaro kapital bozori kengayib bormoqda, bu borada unga yangi moliyaviy tuzilmalar unga yordam bermoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarga ko'pincha odamlarning bevosita salbiy munosabati va pozitsiyasi to'sqinlik qiladi. Biroq, O'zbekistonda paradoksal vaziyat rivojlanmoqda, ya'ni butun jamiyat innovatsion jarayonlarga ijobiy munosabat va qo'llab-quvvatlashni bildirayapti. Xususan, O'zbekistonda qabul qilingan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar va ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamaga qo'yilgan qonun loyihalarida o'z aksini topgan. Innovatsion faoliyat to'g'risida 2020 yil 27 iyuldagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida"gi prezident farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 26 martdagi PF-5975- son Farmoni , «O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2020 yil 26 martdagi PQ-4653-son, «Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4862-son qarorlari, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida " 2021 yil 17 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori kabi myoriy hujjatlar shular jumlasidandir.

Ushbu hujjatlarni qabul qilishdan maqsad tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, innovatsion tizimning salohiyati va

samaradorligini oshirishga ko‘maklashish, innovatsiyalar uchun qulay bo‘lgan normativhuquqiy, moliyaviy va axborot muhitini yaratishdan iborat. Shuningdek, sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ishlab chiqarish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg‘or boshqaruvni qo‘llashni kengaytirishdir. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish orqali tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko‘maklashish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi.

Darhaqiqat, zamonaviy dunyoda innovatsiyalar ishlab chiqarish omiliga aylangani haqiqatdir. Ma’lumki, an’anaviy ravishda ishlab chiqarishning uchta omili mavjud: yer, mehnat va kapital. Ularni birinchi bo‘lib J. B. Sey tahlil qilgan edi.[1] Hozirgi vaqtda bu omillar odatda tadbirkorlarning qobiliyatini va ba’zi mualliflarning fikriga ko‘ra, axborot omilini ham o‘z ichiga oladi va shu bilan iqtisodiyotni rivojlantirishda axborotning rolini ta’kidlaydi.Bizning fikrimizcha, tadbirkorlar imkoniyatlarini innovatsiyalar bilan almashtirish yoki ikkala yangi omilni ham an’anaviy omillar bilan bog‘lash to‘g‘riroq bo‘ladi. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish omillarini o‘rganish orqali tahlil chuqurroq olib boriladi va har bir omil parchalanadi.

Agar mamlakatimizdagi innovatsion jarayonlar bilan rivojlangan mamlakatlardagi holatni taqqoslasak, hozirgi vaqtda dunyoning rivojlangan mamlakatlari 15 yildan ortiq vaqt mobaynida innovatsion iqtisodiyot va beshinchi texnologik tsikl (uzoq to‘lqin) ta’sirida bo‘lib kelmoqda. Shunchaki beshinchi to‘lqinga kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan davlatlar, hatto undan keyin ham nima qilishlari kerak? Ular birinchi navbatda yangi yuqori texnologiyali yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlarini boshlab, bu mamlakatlarga yetib olishadimi? Ko‘rinib turibdiki, bu juda muammoli. Biroq, bu ushbu mamlakatlarning, xususan mamlakatimizda boshqa davlatlar tomonidan yaratilgan texnologiyalardan foydalanishiga ва ulardan o‘z iqtisodiyotlarini rivojlantirishda foydalanishga, chet el investitsiyalariga mamlakatga kirib kelishi uchun imkon qadar ko‘proq shart- sharoit yaratish rivojlangan mamlakatlardan o‘zib ketishga harakat qilishga to‘sqinlik qilmaydi. Bir muncha vaqt oldin bu tajriba Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan[2]. Darhaqiqat, innovatsiyalar tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar va globallashuvning ijobiy tomonlari, birinchi navbatda, Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur kabi Janubi-Sharqiy Osiyo (ko‘pincha

"yo‘lbarslar" deb ataladi) davlatlari tomonidan qo‘lga kiritildi, shuningdek, Keltlar "yo‘lbars"i - innovatsiyalar sohasida etakchilardan biri bo‘lgan Irlandiya ҳисобланади. Bu davlatlar O‘zbekiston uchun paradigma bo‘lib xizmat qilishi mumkin, chunki bizning mamlakatimiz o‘zining kichik bozori, kambag‘al an’anaviy resurslari bilan o‘zining raqobatbardosh noyob noan’anaviy manbalaridan foydalangan holda innovatsion yo‘lni tanlasagina muvaffaqiyatli rivojlana oladi. Mamlakatning raqobatbardoshligi alohida korxonalarning raqobatbardoshligi asosida rivojlanadi. Har bir korxona raqobatbardoshlik bilan ta’minlangan afzalliklarga erishish uchun o‘z strategiyasini qo‘llaydi. Biroq, muvaffaqiyatli kompaniyalarning evolyutsiyasi va rivojlanishi tabiati o‘xshash bo‘ladi, chunki kompaniyalar innovatsiyalarga asoslangan raqobatdosh ustunliklarni yaratadilar. Mamlakatimiz korxonalaridagi innovatsion jarayonlar kuchsizligining sababi quyidagi omillar ta’siridandir[3]:

➢ sanoat sohasida ishlaydigan olimlar sonining kamligi, shuningdek, ishchi kuchida olimlar va tadqiqotchilar ulushining pastligi;

➢ yuqori texnologiyalarni patentlash sohasiga kirmaslik;

➢ ishlab chiqarish sektori va universitetlar o‘rtasidagi zaif hamkorlik;

➢ innovatsiyalarni rag‘batlantirishning nisbatan muvaffaqiyatsizligi va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari faoliyati;

➢ biznesni boshlash uchun murakkab protseduralar; texnologik ta’lim sifatining yetarli emasligi.

Jahon tajribasidan "Yevropa innovatsion paradoksi" deb ataladigan tushunchani ham ta’kidlash kerak - bir tomondan, ta’lim va ilm-fanga kiritilatotgan investitsiyalarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini baholaganda, shuningdek, Evropa Ittifoqining aksariyat mamlakatlarida aholi sonidagi oliy ma’lumotli odamlarning foizi, AQSh yoki Yaponiyadan ham yaxshiroq. Yevropa ilmiy salohiyat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham ulardan ustundir (masalan, Nobel mukofoti sovrindorlari, SCI nashrlari, doktorlik ilmiy darajasiga ega olimlar soni). Shunga qaramay, Evropa Ittifoqida iqtisodiyotning unumdorligi AQShnikiga qaraganda ikki baravar past, uning AQSh bilan savdo balansi salbiy. Dunyoning turli burchaklaridan kelgan talabalar AQSH oliy ta’lim muassasalarida o‘qishga harakat qilmoqda. Qo‘shma Shtatlarning o‘zi innovatsiyalardan foydalanishda juda muvaffaqiyatli mamlakat

hisoblanadi, nafaqat o‘z mamlakatida yaratilgan, balki butun dunyoda yaratilgan bilimlarni tijoratlashtiradi[5].

Oliy ta’lim va tadqiqot sohasidagi eng yaxshi mutaxassislar (loyiha menejerlari, tadqiqotchilar, oliy ma’lumotli texnologiya mutaxassislari) AQShga ko‘chib ketishadi. Evropa AQSh korxonalarida malaka oshirish va oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olish uchun pul tikmoqda. Shu va shunga o‘xshash faktlarga ko‘ra, "Yevropa innovatsion paradoksi" atamasi ham paydo bo‘ldi. Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, innovatsiyalar asosiy harakatlantiruvchi kuchdir. Shunday qilib, innovatsiyalar raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatini beradi. So‘nggi yillarda buni nafaqat iqtisodchilar, balki siyosatchilar ham tushunishmoqda. Asosiy maqsadlarga erishish uchun yalpi ichki mahsulotning 3 foizini ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltirish, bandlik darajasini 70 foizga yetkasish, byurokratiyani qisqartirish, korrupsiyani yo‘qotish va tadbirkorlikni rag‘batlantirishni amalga oshirish kerak.

Bu muammolar hal etilsa, mamlakatimizda iqtisodiyotimiz innovatsion jihatdan rivojlanishda katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Ilmiytadqiqot va innovatsiyalar uchun davlat byudjetlaridan mablag‘ ajratish va uni ta'minlash hajmini oshirish nazarda tutilgan. Xususan, uchta asosiy yo‘nalish ustuvorlik kasb etadi:

➢ ta’limga va intelektual mulkni shakllantirish va ko‘paytirishga sarmoya kiritish;

➢ sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasida raqobatbardoshlikni kuchaytirish;

➢ mehnat bozorida monomarkazlar tashkil etish .

Ko‘rinib turibdiki, yuqorida aytib o‘tilgan barcha holatlarda raqobatbardoshlikni oshirish innovatsiyalar bilan bog‘liq. Mamlakatlar va alohida korxonalar o‘rtasida samarali bilim almashinuvi uchun tadqiqot o‘tkazish hamda bilimlarni kengaytirish uchun muvofiqlashtirilgan va umumiy makonni yaratish zarurat hisoblanadi. Gap nafaqat texnologiyalarni tadqiq etish va ishlab chiqarishni, intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni qo‘llab-quvvatlash, balki innovatsiyalarning tarqalishi va tarqalishini ta’minlash haqida ketmoqda, chunki innovatsiyalar joriy etilgan joyda samara kutilgandek bo‘ladi. O‘zbekiston sanoatida innovatsiyalardan foydalanish borasida yangi tendentsiya shakllandi. Bunga qadar, arzon ishchi kuchidan foydalangan holda tabiiy resurslarni qayta ishlash bilan bog‘liq tarmoqlar ustunlik qilgan. Biroq, bugungi kunda O‘zbekiston tabiiy resurslaridan

foydalanishga tubdan yangicha yondashuvni maqsad qilgan. Buning yorqin namunasi yangi UzGTL zavodi tabiiy gazni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilganidir. Bu kabi yirik loyihalar tufayli O‘zbekiston bosqichma-bosqich tabiiy gaz xomashyosi eksportidan voz kechib, neft mahsulotlari importini kamaytirmoqda. Bu esa, energetik mustaqilligimizni mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shilayotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, innovatsion tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan va ishlab chiqarish jarayoniga xorij tajribasini qo‘llab, yangiliklar joriy etilgan zamonaviy korxonalarda, an’anaviy korxonalarга nisbatan ish haqi 2-3 barobar, ish unumdorligi 2 barobar oshganligi, ayniqsa ishchi xizmatchilar turmush darajasining ilgariga nisbatan sifati va farovonligi ta’minlanayotganligi bugungi innovatsion iqtisodiy islohotlarining ijobiy tomonlarini ko‘rsatmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гужин А.А., Гужина Г.Н. Материальные интересы в системе экономического роста// Московское научное обозрение. 2012. № 12-1. С. 6

2. Гужина Г.Н. Социально-экономическая сущность и принципы формирования системы стратегического управления//Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. 2009. № 6 (11). С. 141.

3. Иванов М.А., Гужина Г.Н. Особенности управления рисками в рыночных условиях//Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. 2009. № 7 (12). С. 198.

4. Назаршоев Н.М., Гужина Г.Н., Гужин А.А., Ежкова В.Г. Стратегия развития бизнеса как инструмент управления конкурентоспособностью// Инновации и инвестиции. 2016. № 4. С. 90-92.

5. Петрухина Е.В., Гужин А.А., Величко Н.Ю., Нижарадзе Л.Д., Волкова А.В., Овешникова Л.В. Современные теории менеджмента, Орёл, 2014

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YASHIL IQTISODIYOTDAGI O`RNI

Kuchkarova Maxliyo Rustambek qizi
“Ipoteka-bank” OTP group Ohangaron filiali yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya. Maqolada yashil iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan va ekotizimlarga salbiy ta'sirlarni kamaytirish orqali iqtisodiyotni barqaror o‘sishga erishishga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish modelidir. Yashil iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilishni hisobga olgan holda va ekotizimga salbiy ta'sirlarni minimallashtiradigan, barqaror o‘sishni ta'kidlaydigan iqtisodiy rivojlanish modeli sifatida belgilanadi. Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishga erishish uchun innovatsion tashabbus sifatida taklif qilingan. Ushbu tizim uchta muhim jihatni, ya'ni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarni qamrab oladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, iqtisodiy rivojlanish, atrof-muhit, ekologiya, tabiiy resurslar, raqamli texnologiyalar

Аннотатция. Зеленая экономика – это модель экономического развития, целью которой является защита окружающей среды и достижение устойчивого экономического роста за счет снижения негативного воздействия на экосистемы. Зеленая экономика определяется как модель экономического развития, которая делает упор на устойчивый рост, принимая во внимание защиту окружающей среды и минимизируя негативное воздействие на экосистему. Зеленая экономика была предложена как инновационная инициатива для достижения устойчивого развития. Эта система охватывает три важных аспекта: экономический, экологический и социальный.

Dunyo mamlakatlaridagi metallar korroziyasi bo‘yicha statistik ma’lumotlar Amerika korroziyaga qarshi muhandislar milliy assotsiatsiyasi tomonidan yuritiladi. Bu tashkilotning hisobiga ko‘ra 2013 yilda har bir mamlakatda korroziyadan ketirilgan zarar yalpi ishlab chiqarilgan maxsulotning 1-5 foizini "yeydi". Muayyan raqamlar uchun quyidagi grafikda keltirilgan[1. 1b].

Agar yalpi ichki maxsulotning 4 foizi ishonarli bo‘lmasa, bu ko‘rsatkichni pulga aylantiraylik. 2013 yilda Rossiya yalpi ichki mahsuloti deyarli 73 trillion rublni tashkil etdi. Ushbu summaning 4 foizi taxminan 3 trillion rublni tashkil qiladi. Qo‘shma Shtatlar korroziyaga qarshi kurash uchun 2013 yilda 470 milliard dollar sarfladi. Ushbu ro‘yxatda Yaponiya ajralib turadi. Korrziya tufayli yalpi ichki mahsulotning atigi 1 foizini yo‘qotdi. Va bu tendentsiya davom etmoqda. Buning siri oddiy: mamlakat navbatdagi neft quvurining ishdan chiqishini kutmaydi, balki metall konstruksiyalarni va metall buyumlarni muntazam ravishda profilaktika va tekshirishni amalga oshiradi.

Ayniqsa korroziya masalasi kimyo va neftni qayta ishlash sanoati korxonalariga katta zarar keltiradi. Neftni qayta ishlash, kimyo sanoati korxonalarida, shuningdek qurilish materiallari sanoati korxonalaridagi mashina va apparatlardagi korroziya ko‘plab faktorlarga bog‘liq: H_2S i CO_2 konsentratsiyasiga, eritmalarning to‘yinganlik darajasiga, haroratga, abraziv qo‘shimchalarning mavjudligiga, muhitning agressivlik darajasiga va boshqa shu kabi parametrlarga bog‘liq.[2. 12 b]

Mamlakatimiz bo‘yicha korroziyadan keladigan yillik zarar xaqidagi ma’lumotlar statistikasi yuritilmagani uchun bunday ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida topilmaydi. Lekin mamlakatimizdagi korroziyadan yo‘qotishni katta extimol bilan aytish mumkinki bizning mamlakatimizda korroziyadan keladigan zarar Xindiston, Xitoy, Arab davlatlari va Rossiyadagi yo‘qotishlardan kam emas, balki ortiq ham bo‘lishi mumkin.

Mamlakatimizdagi korroziyaga qarshi kurashishning bunday axvolga kelishining asosiy quyidagi sabablari mavjud.

1.Ko‘pchilik sanoat korxonalarida korroziyaga qarshi kurash xizmatining mavjud emasligi, bunday xizmat mavjud bo‘lgan korxonalarda ham bu xizmatning qoniqarli ishlamasligi.

2. Korxonalarda materiallar korroziyasi va korroziyadan himoyalash bo‘yicha malakali mutaxassislarni etishmasligi.

3. Oliy ta’lim muassasalari ta’lim yo‘nalishlari orasida yo‘nalishining kamligi yoki umuman yo‘qligi, shuningdek mexanika mashinasozlik yo‘nalishida mutaxassisliklarda “Materiallar korroziyasi va korroziyadan himoyalash” fanining yo‘qligi yoki borlarida ham o‘quv soatlarining o‘ta kamligi.

4. Magistraturada “Materiallar korroziyasi va korroziyadan himoyalash” fanini yo‘qligi va bu mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlanmasligi.

5. “Materiallar korroziyasi va korroziyadan himoyalash” fani bo‘yicha mamlakatimiz miqyosida ilmiy tadqiqot ishlarining etarli emasligi.

Yuqoridagi mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish mamlakatimiz xalq xo‘jaligida korroziyadan keladigan yo‘qotishlarni kamaytirishga samarali ta’sir qiladi. Bunga qanday erishish mumkin?

Xozirda mamlakatimiz xalq xo‘jaligi uchun yangi avlod muhandislik kadrlarini talab qilinadi, bizga qurilish, loyihalash va muhim muammolarni hal qiladigan muhandislar kerak. Xozirgi kunda dunyoning ilg‘or rivojlangan davlatlarida ilg‘or muxandislik maktablari tashkil qilinmoqda. Jumladan Rossiya Federatsiyasida 50 dan ortiq ilg‘or muxandislik maktablari tashkil qilingan.

O‘zbekistonda ham sanoat bilan hamkorlik qiladigan muxandislik maktablarini yaratish mavjud muammolarni samarali hal qilishga imkon beradi. Materiallar korroziyasi va korroziyadan himoyalash fani mexanika va kimyo mutaxassisliklari orasidagi fan bo‘lib hisoblanadi. Shu bois Farg‘ona politexnika instituti bazasida tarkibida mexanika mashinasozlik va kimyo-texnologiya fakultetlari, hamda Farg‘ona shaxrida joylashgan Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi, FARG‘ONAAZOT, Farg‘ona mexanika zavodi mutaxassislarini taklif qilgan xolda, institutning tegishli olimlari va iqtidorli talabalarini o‘z ichiga olgan muxandislik maktabini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bu maktabning faoliyati sanoat korxonalari bilan xamkorlikda mashinalar korroziyasi va undan ximoyalash yo‘nalishida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish, ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq qilish va uni tijoratlashtirish, raqobatbardosh

zamonaviy olimlarni etishtirish, pirovard natijada yuqorida aytilgan korroziyadan keladigan milliradlab so‘m, evro yoki dollorlardagi yo‘qotishlarni kamaytirishga imkon beradi. Injenerlik maktabi o‘z faoliyati davomida quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy ish olib borishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- yig‘ish birliklari, agregatlar va agregatlardagi qismlarning teng mustahkamligini ta’minlash;

- detallarga chidamli materiallarni tanlash va ularning ishqalanish juftliklaridagi oqilona kombinatsiyasini ta’minlash. Detallarga ta’sir qiluvchi kuchlarni, detal ishlaydigan muhitning agressivlik darajasini, material strukturasini, material tashkil topgan kimyoviy elementlarni, materialni muhitga nisbatan korroziya bardoshliligini ta’minlash;

- mashinalarning asosiy qismlarining etarli darajada qattiqligi va tebranishlariga chidamliligini ta’minlash. Mashinalar ishqalanuvchi qismlarining qattiqligi etarli darajada ta’minlash. Ishqalanuvchi muhitda ishlovchi detallarga yangi zamonaviy usullarda termik yoki kimyoviy termik ishlov berish usullarini tadqiqi qilish;

- mashina qismlarining harakatlanuvchi va qo‘zg‘almas uzellarining to‘g‘ri germetikligini ta’minlash. Mashina qismlari yoki apparatlarining germetikligining buzilishi portlashga va yong‘inga xavfli maxsulotlarni tashqariga chiqishi natijasida avariya (portlash, yong‘in, maxsulot yo‘qolishi va x.z.) xolatlariga olib kelishinitadqiq qilish.

- eng kam ishqalanish yo‘qotishlari bilan ishqalanish juftlari (yuk, tezlik) uchun optimal ish sharoitlarini yaratish;

- uzellar va agregatlarning ishlashi uchun optimal harorat rejimlarini, shuningdek, ishqalanish yuzalarini moylash uchun ishonchli sharoitlarni ta’minlash. Detallardagi xaroratlar farqini kamaytirish (ayniqsa issiqlik almashtirish qurilmalarida), bunday muhitlarga issiqlikdan kengayish koeffitsienti o‘zaro yaqin bo‘lgan materiallarni tanlash, ishqalanuvchi yuzalarni muxit talablariga javob beradigan moylar bilan moylash;

- mashina va mexanizmlardagi moy materiallarini sifatini doimiy ravishda nazorat qilish va yangi moy turlarini tadqiq qilish;

- mashina va mexanizmlarning alohida elementlarini rezervlash. Mashina va mexanizmlardagi detallarni resurslarini bir-biriga yaqinlashtirish. Barcha mashina va mexanizmlarda shunday detallar borki ularning resursi boshqa detallarga nisbatan kam, xatto bir necha barobarga.

Albatta bu tadbirlar katta mablag‘ va vaqt talab qiladi. Ilm-fanga kiritilgan investitsiya o‘z samarasini boshqa soxalarga qaraganda bir oz sekinlik bilan bersada, lekin bu keladigan samaradorlik uzoqt vaqt davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Internet sayti https://dzen.ru/a/Ybs7e6VmUGfBCvYu
2. Muxamadsodiqov K.D., Axunboev A.A. Korroziyabardosh konstruksion materiallar texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona 2020. 250 bet.

GIDROSIKLONNING GIDRAVLIK QARSHILIGINI TADQIQ ETISH

PhD, dotsent ,**A.S. Isomidinov**

Annotatsiya. Eksperimental tadqiqotlar uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda qurilmaga berilayotgan chiqindi oqava suv sarfi va tezligi, qurilma ishchi organlarining qarshilik koeffitsienti va gidravlik qarshiligi hamda uchinchi bosqichda esa gidravlik qarshilikning tozalash samaradorligiga ta’siri o‘rganildi.

Kalit sozlar. Suyuqlik sarfini, rotometr, shkala, eksperemental qiymatlar, menzurka, harorat, gaz, suv empirik, qarshilik koeffitsenti.

Abstract. Experimental studies were conducted in three stages. In the first stage, the consumption and speed of waste water supplied to the device, the coefficient of resistance and hydraulic resistance of the working bodies of the device, and the effect of hydraulic resistance on the cleaning efficiency were studied in the third stage.

Key words: Liquid consumption, rotometer, scale, experimental values, beaker, temperature, gas, water empirical, resistance coefficient.

Аннотация. Экспериментальные исследования проводились в три этапа. На первом этапе исследовались расход и скорость подачи сточной воды в устройство, коэффициент сопротивления и гидравлическое сопротивление рабочих органов устройства, на третьем этапе — влияние гидравлического сопротивления на эффективность очистки.

Ключевые слова: Расход жидкости, ротометр, шкала, экспериментальные значения, стакан, температура, газ, вода эмпирическая, коэффициент сопротивления.

Qurilmada chiqindi oqava suvni markazdan qochma nasos (PEDROLLA- Q_{max}=40 l/min; N_{dv}=0,37 kVt; H_{max}=40 m; V=220 V;

n_{ob}=3000 ayl/min GOST-2757030-91 bo‘yicha), rotometr (RS-5; shkala ko‘rsatkichlari 0-100 oralig‘ida; GOST-13045-81bo‘yicha) va menzurka idishi (to‘ltq xajmi 3.2 l) tanlandi. Suyuqlik sarfi va tezligi usuldan foydalanib aniqlandi. Buning uchun rotometrning 0÷90 ko‘rsatkichlari bo‘yicha menzurka idishining to‘lish vaqti aniqlandi [1,2,3]. Tajribalar ikki bosqichda olib borildi.



1-rasm. Suyuqlik sarfini rotometr shkala ko‘rsatgichlariga bog‘liqlik grafigi.

Birinchi bosqichda suyuqlik sarfi aniqlandi. Suyuqlik sarfini tajribaviy yo‘l bilan aniqlashda har bir o‘tkazilgan tajribalar 5 marotabadan takrorlangan holda olib borildi va har bir nuqtaning kvadrat o‘lchamlari xamda hosil bo‘lgan xatoliklari belgilandi. Rotometr shkala ko‘rsatkichlari 0-90 o‘zgarganda, suyuqlik sarfi Q_{suyu}=0,8-1,2 m^3/soatgacha o‘zgardi. Har bir ko‘rsatkichda sarf o‘zgarishi 0,05 m^3/soat qadam bilan ortib bordi. O‘tkazilgan tajribalarda tashqi harorat gaz va suv tizimi uchun 20±2ºS tanlandi. O‘tkazilgan tajriba natijalari 1 – rasmda keltirilgan.

Eksperemental qiymatlar qayta ishlandi va tajriba xatoligi 3.4 % dan oshmadi.

1– rasmda keltirilgan grafik bog‘liqlikga eng kichik kvadratlar usuli bilan aniqlangan quyidagi empirik formula bilan ifodalash mumkin [4,5];

$y = 0{,}005x + 0{,}8024 \qquad R^2 = 0{,}9927 \qquad (1)$

Ikkinchi bosqichda tajriba yo‘li bilan aniqlangan suyuqlik sarfining qiymatlaridan hamda suyuqlik sarfini aniqlash tenglamasidan foydalanib qurilmaga kirayotgan chiqindi oqava suvning tezligi aniqlandi.

Suyuqlik sarfi quyidagi tenglama bo‘yicha aniqlanadi, m^3/soat;

$$Q_{сую} = \omega \pi R^2 3600 \qquad (2)$$

bunda R–suyuqlik oqib chiqadigan quvir diametri, mm; ω-suyuqlik tezligi, m/s; π=3.14.

(2) tenglamadan suyuqlik tezligini aniqlaymiz. U xolda (2) tenglama quyidagi ko‘rinishga keladi, m/s;

$$\omega = \frac{Q_{сую}}{\omega\pi R^2 3600} \qquad (3)$$

Birinchi bosqichda olingan suyuqlik sarfi qiymatlarini (3.3) tenglamaga qo‘yib, qurilmaga kirayotgan chiqindi oqava suv tezligini aniqlaymiz. Chiqindi oqava suv tezligini nazariy hisoblash bo‘yicha olingan natijalar A ilovada keltirilgan. Olingan natijalarni hatoligini baholash uchun tezlikning sarfga bog‘liq holda o‘zgarish grafigi qurildi (2-rasm).

Eksperemental qiymatlar qayta ishlandi va tajriba xatoligi 3.4 % dan oshmadi.

2– rasmda keltirilgan grafik bog‘liqlikga eng kichik kvadratlar usuli bilan aniqlangan quyidagi empirik formula bilan ifodalash mumkin [4,5];

$y = 1{,}13x - 0{,}2267 \qquad R^2 = 0{,}9644 \qquad (4)$



2-rasm. Suyuqlik tezligining sarfga bog‘liq holda o‘zgarish grafigi.

U holda; $\omega = f(Q)$o‘zgarish grafigidan d_q=120 mm -const; bo‘lganda gidrotsikloninng qarshilik koeffitsenti ζ=3.75 teng bo‘ladi

Gidrotsiklonda gidravlik qarshilik oldin ko‘ringanidek chiqindi oqava suvni qurilmaga kirishida hosil bo‘ladi.

Biz tekshirayotgan obekta oddy suvda ishlovchi apparatning gidrodinamik qarshiligini Darsi-Veysbax tenglamasi orqali hisoblanadigan umumiy mahalliy qarshilik siftida ko‘rish mumkin.

Truba quvurlar va apparatning turli qismlaridan suyuqlik oqimi o‘tishi natijasida hosil bo‘lgan qarshilik koeffitsientini mahalliy qarshiliklar yig‘indisi sifatida aniqlanishi mumkin. Lekin, bu usulni amalda joriy etish yetarlicha qiyinchilik tug‘diradi, chunki apparat konstruksiyasi murakkab. Va bu hisoblash usulini oddiylashtirish uning

ishonchliligini kamaytiradi. Shuning uchun apparatda bosim yo‘qotilishini faqat tajriba usulida aniqlanadi.

Qurulmaning gidravlik qarshiligini aniqlashda o‘zgaruvchi omillarning quyidagi parametrlari, suyuqlik tezligi υ_g=0,7÷1,17 m/s gacha oraliq qadam o‘rtacha 0,05 m/s oshirib borildi, chiqindi oqava suv kiruvchi potrubka diametri d_q= 120 mm, suyuqlik sarfi Q_{suyu}=0,8;1 va 1,2 m^3/soat, chiqindi oqava suv zichligi ρ_g=1015; 1086 va 1163 kg/m^3 etib tanlandi. Tajribalarni o‘tkazishda tashqi muhit ta’siri hisobga olinib suv va gaz tizimi uchun harorat 20^0S±2 belgilandi.

O‘tkazilgan tajribadan olingan natijalar EXM yordamida qayta ishlanib qurulmaga suyuqlik berilmagan holatda, o‘zgaruvchi omillarning turli qiymatlariga gidravlik qarshilikning bog‘liqligi tadqiq etildi. Olingan tajriba natijalari asosida gidravlik qarshilikning gaz tezligiga bog‘liqligi bo‘yicha taqqoslash grafigi qurildi. (3; 4 va 5-rasmlar). Tajriba natijalari G-ilovada keltirilgan

3-5-rasmlarda berilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, o‘zgaruvchi omillar gaz tezligi υ_g=7÷25.6 m/s gacha oraliq qadam o‘rtacha 4,5 m/s oshirib borildi, gaz sarfi Q_g=150÷330 m^3/soat gacha oraliq qadam o‘rtacha 70 m^3/soat gacha ortib borganda d_t=4 mm uchun ΔP_{sb}=221 Pa dan ΔP_{sb}=2959 Pa gacha ortgani kuzatildi. Oraliq qadam o‘rtacha ΔP_{sb}=400 Pa ni tashkil etgan bo‘lsa, d_t=3 mm uchun ΔP_{sb}=252 Pa dan ΔP_{sb}=3381 Pa gacha ortgani kuzatildi. Oraliq qadam o‘rtacha ΔP_{sb}=450 Pa ni tashkil etdi hamda d_t=2 mm uchun ΔP_{sb}=316 Pa dan ΔP_{sb}=2427 Pa gacha ortgani kuzatildi. Oraliq qadam o‘rtacha ΔP_{sb}=600 Pa ni tashkil etdi.



ξ_{um}= 3,75 va ρ_g =1005kg/m^3–const bo‘lganda

3-rasm. Qurulma gidravlik qarshiligi ΔP_{cb} ning suyuqlik tezligi ω_s ga bog‘liqligi



ξ_{um}= 3,75 va ρ_g =1086 kg/m^3–const bo‘lganda

4-rasm. Qurulma gidravlik qarshiligi ΔP_{cb} ning suyuqlik tezligi ω_s ga bog‘liqligi



ξ_{um}= 3,75 va ρ_g =1163kg/m^3–const bo‘lganda

5-rasm. Qurulma gidravlik qarshiligi ΔP_{cb} ning suyuqlik tezligi ω_s ga bog‘liqligi

3-5-rasmda keltirilgan grafik bog‘liqliklarga eng kichik kvadratlar usulini qo‘llab quyidagi empirik formulalar olindi [4,5,6].

ξ_{um}= 4,6 va ρ_g =1,29 kg/m^3–const bo‘lganda

$y = 4{,}515x^2 - 0{,}0004x - 0{,}0391$ $R^2 = 0{,}9879$ (5)

ξ_{um}= 6 va ρ_g =1,29 kg/m^3–const bo‘lganda

$y = 5{,}1598x^2 + 0{,}0023x - 0{,}0056$ $R^2 = 0{,}9989$ (6)

ξ_{um}= 7,4 va ρ_g =1,29 kg/m^3–const bo‘lganda

$y = 7{,}2597x^2 + 0{,}0056x - 0{,}0079$ $R^2 = 0{,}9914$ (7)

Tavsiya etilayotgan gidrosiklnning turli konstuktiv parametrlarini qo‘llash va uning qurilma gidravlik qarshiligi hamda tozalash samaradorligiga ta’sirini baholash maqsadida o‘tkazilgan eksperemental tadqiqotlarda optimal parametrlar sifatida quyidagi qiymatlar qabul qilindi. Qiymatlarni qabul qilishda matematik rejalashtirish usulidan va PLANEX dasturidan foydalanildi [4,5,6].

-chiqindi suv kiruvchi potrubka diametri d_q=115 mm;

- qurilmaga kirayotgan chiqindi oqava suv sarfi Q_{suyu}=1.1 m^3/soat;

-qurilmaga berilayotgan chiqindi suv tezligi ω_s=1,25 m/s;

-qurilmaning gidravlik qarshiligi ΔP_s=2670 Pa;

Omillarning bu qimatlarida gidrasiklonning tozalash darajasi 87,9 % ni tashkil etishi aniqlandi.

Aniqlangan qiymat shuni ko‘rsatdiki mavjud qurilmaga nisbatan tozalash darajasi 13,7 % ga ko‘p.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Akhmadjonovich, E. N., Salomidinovich, I. A., & Aliyorovich, O. X. (2022). Experimental determination of the industrial application and determination efficiency of fluid gases cleaning apparatus by contact element method. American Journal of Technology and Applied Sciences, 7, 72-78.
2. Akhmadjonovich, E. N., Salomidinovich, I. A., & Bektoshevich, U. R. (2022). Intensification of dust gas cleaning process. American journal of technology and applied sciences, 7, 67-71.
3. Akhmadjonovich, e. N., salomidinovich, i. A., uktamovich, s. R., & bektoshevich, u. R. (2022). Liquid gases transmission medium tozalovchi inertial hydrodynamic scrubber. American journal of Business Management, Economics and Banking, 7, 1-7.

AVTOKLAVDA SUV BUG‘I BILAN ISHLOV BERISHDAN OLDIN MATERIALNI USHLAB TURISH VAQTINING MAHSULOT MUSTAHKAMLIGIGA TA’SIRI

Sadullayev Xamidullo Mansurovich,
Farg‘ona politexnika instituti

Annotasiya: Maqolada avtoklavda suv bug‘i bilan ishlov berishdan oldin materialni ushlab turish vaqtining mahsulot mustahkamligiga ta’sirini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari, yangi korxonalarni loyihalash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: texnologik rejim, bug‘ bilan ishlov berish, ikki kalsiyli silikat, komponent, germetik yopiq idish, harorat, parametr, dastlabki ushlab turish vaqti, mustahkamlik.

Abstract: The article presents the results of studies on determining the effect of the holding time of the material on product strength before steam treatment in an autoclave, and recommendations for the design of new enterprises.

Key words: technological mode, steam treatment, dicalcium silicate, component, hermetically sealed container, temperature, parameter, initial holding time, consistency.

Аннотация: В статье представлены результаты исследований по определению влияния времени выдержки материала на прочность изделия перед паровой обработкой в автоклаве, а также рекомендации по проектированию новых предприятий.

Ключевые слова: технологический режим, паровая обработка, дикальцийсиликат, компонент, герметичная емкость, температура, параметр, время начальной выдержки, консистенция.

Avtoklavda bug‘ bilan ishlov beriladigan materiallar toifasiga ohak va kvarts qumi aralashmasidan tayyorlanadigan silikatli (silikat g‘ishti, silikat betoni, gazosilikat va sh.o‘), portlandsement va turli to‘ldiruvchilar aralashmasidan tayyorlanadigan avtoklav betoni, shifer hamda shlakli, kulli, sementsiz (sanoat chiqindilari asosida tayyorlanadigan) materiallar mansub bo‘lib ushbu materiallarning mustahkamligini aynan avtoklavda ishlov berishning to‘g‘ri tanlangan texnologik rejimi hisobiga jiddiy oshirish mumkin.[1]

Odatda avtoklavda bug‘ bilan ishlov berish usuli nisbatan sekin qotadigan materiallarga nisbatan qo‘llaniladi.

Avtoklavda ikkikalsiyli silikatning keng tarqalgan β-modifikasiyasi $\beta - 2 \cdot CaO \cdot SiO_2$ ga ishlov berish amaliyotida keng tarqalgan. Faqat bunda shuni yodda tutish muhimki, bug‘ bilan ishlov berish jarayonida material tarkibidagi barcha komponentlar faol kimyoviy ta’sirga duch keladi. Bu holat ba’zan yangi mahsulotlar sintezi uchun qulay sharoit yaratib qo‘yishi, natijada ayrim komponentlar “yo‘qolib qolishi ” mumkin.[2]

Ma’lumki, qoliplangan mahsulotga germetik yopiq idish-avtoklavda 175-300^{0}C haroratda issiq par bilan ishlov beriladi. Ushbu jarayon juda murakkab bo‘lib boshlang‘ich materialni kerakli shakl va mustahkamlikka ega bo‘lgan sun’iy toshga aylantiradi. Avtoklavda ishlov berilgan materialning xossalari avtoklav rejimiga, suv bug‘i parametrlariga, materialning avtoklavga berilishdan oldin qancha vaqt davomida va qanday sharoitda saqlanganligiga, materialning avtoklavga qolipli yoki qolipsiz joylanishiga, o‘lchamlariga va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi.

Qorishmalarning mustahkamligi (avtoklavda ishlov berishdan oldin dastlabki ushlab turish vaqtiga bog‘liqligi)

1-jadval

Bug‘ bilan ishlov berishdan oldin dastlabki ushlab	Mahsulotning siqilishga mustahkamlik chegarasi, MPa	
		Ochiq havoda saqlangandan keyin

turish vaqti, (soat)	Avtoklavda ishlov bergandan keyin	28 kun	6 oy	1 yil
1	4,6	4,8	5,0	5,2
2	6,2	6,4	6,6	6,8
4	7,0	7,4	7,7	8,0
6	7,8	8,1	8,4	8,6
8	9,0	9,4	9,6	10,0
10	14,2	14,6	14,9	15,4
12	14,1	14,4	14,5	14,7
14	10,4	10,6	10,8	11,1
16	8,2	8,4	8,6	8,8

1-jadvalda sement-qum aralashmasidan tayyorlangan namunalar mustahkamligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilmoqda.

Avtoklavda ishlov berishning asosiy vazifasi suv bug‘inig tegishli parametrlari orqali jadal ravishda kalsiy va magniy gidrosilikatlari hosil qilish uchun sharoit yaratishdir. Bunda suv bug‘ining harorati gidrosilikatlar va gidroalyuminatlar hosil bo‘lishida asosiy parametr bo‘lib hisoblanadi. Suv bug‘ining bosimi esa katta ahamiyat kasb etmaydi. O‘tkazilgan tajribalar avtoklavda ishlov harorati 190-200^{0}C atrofida yaxshi samara berishni ko‘rsatadi. Yuqori sifatga va zarur xossalarga ega bo‘lgan qurilish materiallari olishda magniy gidrosilikatlariga ishlov berish 225-245^{0}C harorat (bunda bosim 2,5-4 MPa) ostida amalga oshirilishi eng yaxshi natija beradi.

Shuningdek, ko‘plab tadqiqotlarning ko‘rsatishicha qorishma va betonni avtoklavga ishlov berishdan oldin dastlabki ushlab turish vaqti avtoklav materiallari sifat ko‘rsatkichlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Dastlabki ushlab turish vaqti xom ashyoning tarkibiga bog‘liq bo‘ladi. Agar, qattiq qorishmadan tayyorlangan namunalarni avtoklavga kiritishdan oldingi ushlab turish vaqtini 1 soatdan 10 soatga oshirilsa, uning mustahkamligi taxminan 18-20% ga ortadi. Tajribalarning ko‘rsatishicha bundan ortiq ushlab turish mahsulot sifatiga deyarli ta’sir qilmaydi.

O‘tkazilgan tajribalar avtoklavga berishdan oldin mahsulotga ishlov berish tayyor mahsulot mustahkamligini 12-20% ga oshirishni tasdiqladi. Agar bloklar nefelinli sementdan tayyorlansa, bunday mahsulotlarga qolipsiz avtoklav ishlovi berish mumkin bo‘lar ekan. Chunki bunday

mahsulotlarning mustahkamligi silikat massasidan tayyorlangan bloklarga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi.

Qolipsiz bloklarni avtoklavga joylash ham ancha oson kechadi, avtoklavning mahsulot bilan to‘lish koeffisienti ham oshadi. Bu esa o‘z navbatida mahsulot tannarxining kamayishiga olib keladi.

Yuqoridagilarni e’tiborga olib avtoklav texnologiya asosida ishlaydigan yangi korxonalarni loyihalashda mahsulotlarni dastlabki ushlab turish maydonlarini ko‘zda tutish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Боженов П.И. Технология автоклавных материалов. Санкт-Петербург. “Стройиздат” 2011г.
2. Alimatov B.A., Sadullayev X.M. “Ishlab chiqarishdagi texnologik komplekslar”, Farg‘ona, “Klassik”, 2021, 264 b.

ФОРМА НАСАДКИ БАРАБАННОЙ СУШИЛКИ

к.т.н., доцент Ахунбаев А.А.
Ферганский политехнический институт, Узбекистан

Annotatsiya: Ushbu maqolada barabanli quritgichni loyihalash uchun ikki segmentli nasadkaning optimal shakli aniq. Geometrik modeldan foydalaniladi, nasadka segmentlari orasidagi istilgan burchakda nasadkani yuklanishi va undan materialni sochilishi o‘rganildi. Nasadka maksimal darajada olib boriladigan hajm, maksimal tushish burchagi va materialning tushishining O‘rtacha balandligi uchun tenglamalar taklif.

Kalit so‘zlar: quritish barabani, nasadka shakli, moyillik burchagi, material yuzasi, yuklanish koeffitsienti, tushish balandligi.

Аннотация: В данной статье проведен анализ оптимальной формы двухсегментной насадки для проектирования барабанной сушилки. С помощью геометрической модели исследованы загрузка и разгрузка насадки при любом угле между сегментами насадки. Были предложены уравнения для максимального объема, переносимого насадкой, максимального угла падения и средней высоты падения материала.

Ключевые слова: сушильный барабан, форма насадки, угол наклона, поверхность материала, коэффициент загрузки, длина падения.

Abstract: This article analyzes the optimal shape of a two-segment nozzle for designing a drum dryer. Using a geometric model, the loading and unloading of the nozzle was studied at any angle between the nozzle segments. Equations have been proposed for the maximum volume carried by the nozzle, the maximum angle of incidence, and the average height of the material fall.

Key words: drying drum, nozzle shape, angle of inclination, material surface, load factor, fall length.

Конвективная сушка является одним из многих методов сушки, которые широко применяются в различных отраслях промышленности. Наиболее часто используемые в промышленности вращающиеся барабанные сушилки прямого конвективного типа, основанные на методе теплопередачи между горячим воздухом и твердыми частицами [1-4]. Высушиваемый материал, каскадно выпадающие из насадок, активно контактируются с газовой фазой и находятся в активной зоне сушилки. Материал, находящиеся в насадках и на дне барабана, представляют собой плотную фазу и локализуются в пассивной зоне устройства [5-7]. Производительность вращающихся барабанных сушилок зависит, прежде всего, от эффективности контакта между каскадными частицами и сушильным газом по длине барабана. Высокая эксплуатационная эффективность может быть достигнута за счет оптимальной загрузки барабана, увеличения времени пребывания материала в аппарате, а также максимального нахождение материала в активной зоне, где сушка происходит в большей степени [8,9].

Совершенствование конструкции барабанной сушилки, снижение энергопотребления и повышение качества конечного продукта представляет большой интерес для тех, кто занимается таким оборудованием. Поэтому ротационные сушилки широко изучены теоретически [4]. Конструкция устройства имеет решающее значение для контроля эффективности процесса сушки. Тем не менее, учитывая разнообразие геометрических и физических параметров, влияние свойств материалов, сложно дать конкретные рекомендации по проектированию сушилки.

Некоторые исследования посвящены поведению материала внутри такого барабана [5–6]. Другие пытаются анализировать и моделировать тепловые эффекты во время такого процесса [7]. Геометрические соображения в основном основаны на оптимизации конструкции сушилки на основе таких параметров, как свойства

материала, например, естественный угол наклона. Среди этой группы исследователей одни больше сосредоточились на определении среднего времени пребывания внутри вращающегося барабана [5], других больше интересовало, как форма насадки влияет на количество материала в нем, а форма и высота завесы рассеяния материала [6].

C.G.J. Baker представлена геометрическая модель для оценки размера материала в зависимости от геометрии насадки и угла естественного откоса материала в двух типах насадки (угловая насадка и удлиненное круглая насадка) [8]. Затем он рассчитал с помощью своей модели максимальное количество насадки, которые можно было разместить внутри барабана, гарантируя, что насадка будет загружено на полную мощность.

J. Kelly рассчитал скорость выхода материала из насадок и разработал теоретическую геометрию насадок, которая обеспечивала бы равномерное распределение твердых частиц по всей сушилке. Этот профиль называется профилем «Равноуглового распределения» [9].

В этой статье рассматривается взаимодействие формы двухсегментного насадки и материала для оптимизации формы насадки. Мы исследуем материалоемкость насадки, диапазон угла распыления материала и высоты падения, угол между этими сегментами и угол между стенкой барабана и насадкой. Также учтем влияние соотношения размеров сегментов насадки на радиус барабана.

Объем материала на дне барабана. Материал внутри барабана будем рассматривать как непрерывный поток, состоящий из разлетающегося дисперсного материала. Уровень загрузки материала, находящегося в нижней части барабана, в зависимости от его объема и окружности барабана следующий:

$$K_{юк} = \frac{V_{мат}}{\pi R^2 L} = \frac{S_{мат}}{\pi R^2} \quad (1)$$

Здесь: Vмат – объем материала под барабаном, Sмат – поверхность, занимаемая материалом. Или углом b, образованным материалом на дне барабана:

$$K_{юк} = \frac{1}{2\pi}(\beta - \sin\beta) \quad (2)$$

Максимальная высота материала внизу барабана перпендикулярно измеряемой поверхности материала

$$h_{мат} = R(1-\cos\frac{\beta}{2}) \quad (3)$$

В [5] мы проанализировали три различных случая загрузки барабана. Если материал начинает растекаться, когда насадка находится в верхней половине барабана, его считают недогруженным и время нахождения материала в воздушной фазе значительно сокращается. Предполагалось, что сушилка работала при малой нагрузке, когда насадки не были полностью заполнены материалом. Если нагрузка на барабан увеличивается, выброс материала из насадки начинается быстрее. Предполагается, что барабан нормально нагружен в случае, когда начало разгрузки насадки равно Ɵ=0o. В этом нагруженном состоянии количество материала в фазе горячего воздуха предполагается максимальным [7]. Если коэффициент заполнения барабана еще больше увеличивается, барабан классифицируется как перегруженный. Твердых частиц больше, чем необходимо для полного заполнения насадки. В этом случае рассеяние из насадки начинается под углом Ɵ<0o от слоя материала. Однако объем загружаемых в насадка материалов не увеличивается. Материал, падающий из насадки до точки Ɵ=0o, рассыпается непосредственно в слой материала под барабаном и не увеличивает количество материала в воздушной фазе. Предположим, что барабан работает в нормальных условиях или в условиях перегрузки, т.е. полностью загружен насадкой (т.е. (R−R0)≤hmat). За счет вращения барабана форсунки проходят через слой материала под барабаном и полностью загружаются материалом. Исходя из вышеизложенных соображений, будем считать, что при положении насадки Ɵ=0o из насадки начинается распыление материала.

Высота падения материала. Если предположить вертикальное падение материала без учета влияния воздуха, движущегося внутри барабана, на движение частиц, то можно рассчитать высоту падения твердого тела, выходящего из насадки, по угловому положению насадки. Такое предположение оказалось обоснованным [8] и отклоняется от экспериментальных результатов только для больших чисел Фруда, поскольку в этом случае оно обусловлено диффузией материальных завес.

Насадка выходит из слоя материала под барабаном под углом Ɵ = Ɵo. Согласно нашему условию, частицы начинают рассеиваться при Ɵ = 0o и продолжаются до Ɵ = Ɵmax. В зависимости от углового

положения насадки, коэффициента наполнения барабана и угла естественного откоса материала, частицы, вылетающие из насадки, могут попадать на слой материала внизу барабана, на внутреннюю стенку барабана или на другую поверхность. Распыляемый из насадки материал рассеивается в диапазоне 0<Ө <Өmax и попадает под барабан:

$$\theta_{\max} = \pi - \arccos\left(\frac{R}{R_0}\sin\left(\frac{\beta}{2} - \gamma_f\right)\right) \qquad (4)$$

При этом высота падения материала:

$$\frac{h_f}{R} = \frac{R_0}{R}\left(\sin\delta - \cos\delta\tan\gamma_f\right) + \sin(\beta+\nu) + \cos(\beta+\nu)\tan\gamma_f = \frac{\cos\frac{\beta}{2}}{\cos\gamma_f} + \frac{R_0}{R}\left(\sin\delta - \cos\delta\tan\gamma_f\right) \qquad (5)$$

Максимальное количество насадок. Как правило, в барабанных сушилках количество насадки должно быть как можно большим, чтобы максимально эффективно использовать оборудование и увеличить количество материала [8]. Одним из способов уменьшения размеров открытых зон в сечении барабана является увеличение общей площади распыляемых из насадок материалов. Этого можно добиться, максимально установив насадки в барабан. Однако максимальное количество насадок ограничено. С одной стороны, угол между насадкими должен быть таким образом, чтобы соседние насадки не препятствовали полной выгрузке материала следующей насадки[1].

В соответствии с положением насадки в точке Ө = 0о насадка полностью заполняется материалом и материал касается стенки барабана в точке А. Максимальное количество насадки вдоль стенки барабана напрямую зависит от координат точки А. А.В.Алтухов предложил в своем уравнение для минимального значения угла между соседними насадкими [1]

$$\alpha_{\min} = arctg\left(\frac{l_1 tg\alpha_{ck}}{R_b}\right) + arctg\left(\frac{l_2}{R_b}\right) \qquad (6)$$

Однако оптимальное количество насадки не должно препятствовать загрузке материала в следующее насадка. Ф. Ломин предложил определять максимальное количество насадки следующим уравнением:

$$N_{f\max} = floor\left(2\pi\left[\arctg\left(\frac{Y_A}{X_A}\right)_{\delta=\delta_0} - \min\left[\delta;\arctg\left(\frac{Y_D}{X_D}\right);\theta\right]_{\delta=0}\right]^{-1}\right) \quad (7)$$

На основе приведенного выше анализа были представлены уравнения для расчета объема материала в барабане, объема материала в насадках, максимального количества насадки, конечного угла рассеяния и высоты материала в насадке. На основе приведенных уравнений можно определить оптимальную форму двухсегментного насадки для материала с определенными физико-химическими свойствами.

Использованная литература

1. Алтухов А.В., Балабеков О.С Барабанный сушильный агрегат. Основы теории и расчета. Алматы: Гылым, 1998.- 208 с.
2. D.V. Khakhar, J.J. McCarthy, T. Shinbrot, J.M. Ottino, Transverse flow and mixing of granular materials in a rotating cylinder, Phys. Fluids 9 (1) (1998)31.
3. M. Kwapinska, G. Saage, E. Tsotsas, Mixing of particles in rotary drums: A comparison of discrete element simulations with experimental results and penetration models for thermal processes, Powder Technol. 161 (1) (2006) 69–78.
4. X. Liu, Z. Hu, W. Wu, J. Zhan, F. Herz, E. Specht, DEM study on the surface mixing and whole mixing of granular materials in rotary drums, Powder Technol. 315 (2017) 438–444.
5. Тожиев Р.Ж., Миршарипов Р.Х., Ахунбаев А. А. Оптимизация конструкции сушильного барабана на основе системного анализа процесса // Universum: технические науки. 2020. №11-1 (80). URL:
6. L. Leguen, F. Huchet, P. Tamagny, Drying and heating modelling of granular flow:application to the mix-asphalt processes, J. Appl. Fluid Mech. 4 (2) (2011) 71–80.
7. A.I. Nafsun, F. Herz, E. Specht, V. Scherer, S. Wirtz, Heat transfer experiments in a rotary drum for a variety of granular materials, Exp. Heat Trans. 29 (4) (2016) 520–535.
8. C.G.J. Baker, The design of flights in cascading rotary dryers, Drying Technol. 6 (4) (1988) 631–653.
9. J. Kelly, Flight design in rotary dryers, Drying Technol. 10 (4) (1992) 979–993.

10. D. Revol, C.L. Briens, J.M. Chabagno, The design of flights in rotary dryers, Powder Technol. 121 (2001) 230–238.

CHANGLI VA TOKSIK ZAXARLI GAZLARNI TOZALOVCHI KONTAKT ELEMENTLI APPARATDA MODDAALMASHINUV JARAYONLARNI TAJRIBAVIY TADQIQ QILISH

Ergashev N.A.,
FarPi, (PhD) dots.

Annotatsiya. Maqolada kontakt elementli ho‘l usulda chang tozalovchi apparatda tozalash jarayoniga ta’sir qiluvchi asosiy ishchi faktorlar yordamida ishchi quvurda hosil qilingan suyuqlik plyonkasi orqali moddaalmashinuv jarayonlari orqali changli va toksik zaxarli gazlarni tozalash tajribalar asosida aniqlangan.

Kalit so‘zlar: ho‘l usul, suyuqlik va gaz sarfi, gaz oqimi, uyurmali oqim, kontakt element, suyuqlik plyonkasi, yo‘naltiruvchi burchak, oqim rejimi.

Аннотатция. В стате экспериментально определена длина жидкостной пленки, образующейся в рабочей трубе, с исползованием основных рабочих факторов, влияющих на протсесс очистки в мокром пылеуловителе.

Ключевые слова: мокрый способ, расход жидкости и газа, поток газа, выхровой поток, контактный элемент, пленка жидкости, опорный угол, режим потока

Annotation. The article experimentally determines the length of the liquid film formed in the working tube, using the main working factors that affect the cleaning process in a wet dust collector.

Keywords: wet method ,liquid and gas consumption, gas flow, vortex flow, contact element, liquid film, reference angle, flow regime

Ishlab chiqilgan kontakt elementli ho‘l usulda chang tozalovchi apparatning tajriba modelida tozalash jarayoniga ta’sir qiluvchi asosiy ishchi faktorlar belgilandi (1-rasm) [1]. Apparatda gaz tezligi, suyuqlik va gaz sarfi orqali suyuqlik plyonkasi uzunligi orqali ishchi yuzalari tajribalar asosida aniqlandi. Apparatga uyurmali oqim hosil qiluvchi turli qiyalikdagi parrakli kontakt elementlar tanlandi. O‘tkazilgan nazariy va eksperemental tadqiqotlar asosida apparatga dastlabki talablar va texnik topshiriqlar ishlab chiqildi.

Ho‘l usulda chang tozalovchi apparatda gaz tezligi, suyuqlik va gaz sarfi, oqim rejimi va gidravlik qarshilik koeffitsentlari orqali suyuqlik

plyonkasi uzunligini aniqlashda quyidagi kerakli qurilma va jihozlar tajriba modeliga tanlandi.



1-rasm. Kontakt elementli xo‘l usulda chang tozalovchi apparat umumiy ko‘rinishi.

Apparatning ishchi quvuriga suyuqlikni sochish maqsadida S32412 markali shtuser (teshigini diametri 2; 2,5 va 3 mm li shtuser GOST-384610 buyicha), markazdan kochma nasos (PEDRJLLA - Q_{max}=40 l/min; N_{dv}=0,37 kVt; N_{max}=38 m; V=220 V; n_{ay} =3000 ayl/min GOST-2757030-91 bo‘yicha), rotometr (PC-5; shkala ko‘rsatkichlari 0÷100 oralig‘ida; GOST-1304581 bo‘yicha) tanlandi. Suyuqlik va gaz sarfini o‘zgarishiga shtuser teshigi diametrlari va gaz tezliklariga bog‘liq holda suyuqlik plyonkasi uzunligi orqali ishchi yuzalarini aniqlash belgilandi. Apparatning ishchi quvuriga changli gazni berish maqsadida Ventliyator-VS-14-07 markazdan qochma tipdagi ventilyator; ish unumdorligi Q_{max}=400 m^3/soat; elektromotor quvvati N_{dv}=1,5 kVt; aylanishlar soni n=1200 ayl/min; Pito Prandl naychasi 100 mm o‘lchamli; Gosreestr №50123-12 bo‘yicha; Gaz tezligini aniqlovchi D=100 mm, L=1200 mm bo‘lgan metall quvurdan iborat. Quvurda statik va dinamik kuchlarni aniqlovchi 2 ta ichki diametri 7 mm li Prandl naychalari mos ravishda tajriba modeli sifatida tanlandi.

Apparatga berilayotgan suyuqlik va gaz sarflarini o‘zgarishiga bog‘liq holda gaz tezliklari va kontakt elementlarning (zavixritel) qiyalik

burchaklarini o‘zgarishiga bog‘liq holda hamda qarshilik koeffitsentlari orqali suyuqlik plyonkasi uzunligi orqali ishchi yuzalari aniqlandi.

Changli gazlarni ho‘l usulda tozalovchi apparatga suyuqlik berilgan holatidagi moddaalmashinuv jarayoni bo‘yicha tajribalar quyidagi tartibda olib borildi [2,3].

Suyuqlik berilgan apparatning moddaalmashinuv jarayonini aniqlash uchun shtuser teshigining diametri d_{sh}=2 mm; d_{sh}=2,5 mm; d_{sh}=3 mm, suyuqlik sarfi Q_s=0,07÷0,253 m^3/soat; Q_s=0,071÷0,295 m^3/soat; Q_s=0,072÷0,327 m^3/soat, gaz oqimiga uyurmali oqim hosil qiluvchi kontakt elementlarning ishchi organi qiyaligi α=30º; 45º va 60º ketma-ket o‘rnatilib, har bir o‘rnatilgan kontakt elementi yuzasiga υ_g=7,07÷28,3 m/s oraliq qadam 4 m/s bilan o‘zgartirilib tajribalar olib borildi. Tajribalarda kontakt elementning gaz oqimiga uyurmali oqim hosil qiluvchi parraklar soni n=12 ta, gaz zichligi ρ havo uchun 1,29 kg/m^3 etib tanlandi. Tajribalar suv va gaz tizimi uchun 20±2 ºS haroratda o‘tkazildi. Ishchi quvurda hosil qilingan suyuqlik plyonkasi uzunligi keltirilgan (1.2-rasm).



1.2-rasm. Apparatning ishchi quvurida hosil bo‘lgan suyuqlik plyonkasi uzunligini ko‘rinishii.

Apparatga berilayotgan suyuqlik va gaz sarflarini o‘zgarishiga bog‘liq holda gaz tezliklari, kontakt element parrakalari qiyalik burchagi (zavixritel) α=30º shtuser teshigi diametri d_{sh}=2,5 mm bo‘lganda ishchi quvurda hosil bo‘ladigan suyuqlik plyonkasining uzunligi hamda ishchi yuzasini aniqlash uchun tajribalar o‘tkazildi. O‘tkazilgan tajriba natijalariga ko‘ra suyuqlik sarfi rotometr shkalasi ko‘rsatkich 0÷100 bo‘lganda hamda gaz tezligi υ_g=7,07÷28,37 m/s gacha bo‘lganda apparatning ishchi quvurida hosil bo‘lgan suyuqlik plyonkasi uzunligi 96÷300 mm bo‘lganligi tajribalarda aniqlandi.

Apparatga berilayotgan suyuqlik va gaz sarflarini o‘zgarishiga bog‘liq holda gaz tezliklari, kontakt element parrakalari qiyalik burchagi (zavixritel) α=45º shtuser teshigi diametri d_{sh}=2,5 mm bo‘lganda ishchi quvurda hosil bo‘ladigan suyuqlik plyonkasining uzunligi hamda ishchi yuzasini aniqlash uchun tajribalar o‘tkazildi. O‘tkazilgan tajriba

natijalariga ko‘ra suyuqlik sarfi rotometr shkalasi ko‘rsatkich 0÷100 bo‘lganda hamda gaz tezligi υ_g=7,07÷28,37 m/s gacha bo‘lganda apparatning ishchi quvurida hosil bo‘lgan suyuqlik plyonkasi uzunligi 80÷258 mm bo‘lganligi tajribalarda aniqlandi.

Apparatga berilayotgan suyuqlik va gaz sarflarini o‘zgarishiga bog‘liq holda gaz tezliklari, kontakt element parrakalari qiyalik burchagi (zavixritel) α=60º shtuser teshigi diametri d_{sh}=2,5 mm bo‘lganda ishchi quvurda hosil bo‘ladigan suyuqlik plyonkasining uzunligi hamda ishchi yuzasini aniqlash uchun tajribalar o‘tkazildi. O‘tkazilgan tajriba natijalariga ko‘ra suyuqlik sarfi rotometr shkalasi ko‘rsatkich 0÷100 bo‘lganda hamda gaz tezligi υ_g=7,07÷28,37 m/s gacha bo‘lganda apparatning ishchi quvurida hosil bo‘lgan suyuqlik plyonkasi uzunligi 70÷236 mm bo‘lganligi tajribalarda aniqlandi.

1.1-jadval

R_{sh}	d_{sh}=2 mm					d_{sh}=2,5 mm					d_{sh}=3 mm				
	0º	30º	45º	60º	90º	0º	30º	45º	60º	90º	0º	30º	45º	60º	90º
10	73	110	130	150	180	80	132	156	165	198	88	145	171	181	217
20	83	120	140	160	190	90	142	166	175	208	98	155	181	191	227
30	93	130	150	170	200	100	152	176	185	218	108	165	191	201	237
40	103	140	160	180	210	110	162	186	195	228	118	175	201	211	247
50	113	150	170	190	220	120	172	196	205	238	128	185	211	221	257
0	23	60	80	00	30	30	82	06	15	48	38	95	21	31	67
0						40	92	16	25	58	48	05	31	41	77
0											58	15	41	51	87
0															
00															



1.1-rasm.α=30º bo‘lganda



1.2-rasm.α=45º bo‘lganda



1.3-rasm.α=60º bo‘lganda

1-Havo shiberi gradusi β=0º
2-Havo shiberi gradusi β=30º
3-Havo shiberi gradusi β=45º
4-Havo shiberi gradusi β=60º
5-Havo shiberi gradusi β=90º

1,1;1,2; 1.3-rasmlar. Shtuser teshigining diametri d_{sh}=2,5 mm bo‘lganda aniqlangan plyonka uzunligining suyuqlik sarfiga bog‘liqligi.

Apparatga berilayotgan gaz va suyuqlik sarflarini o‘zgarishiga bog‘liq holda gaz tezliklari, kontakt element parrakalari qiyalik burchagi va uning tozalash samaradorligiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalardan shunday hulosaga kelish mumkinki, apparatda gaz oqimiga uyurmali oqim hosil qiluvchi kontakt element yo‘naltiruvchi gaz oqimini yo‘naltiruvchi burchagining ortishi suyuqlik plyonkasi uzunligini kamayishiga, qatlamini qalinlashishini ta’minladi. Bu esa suyuqlik plyonkasini ishchi yuzasini kamayishiga olib keldi Aksincha, gaz oqimini yo‘naltiruvchi burchak kamayishi esa suyuqlik plyonkasi qatlamini yupqalashishini ta’minladi [4,5]. Bu esa ishchi yuzaning ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Bu bilan apparatning ishchi quvurida suyuqlik plyonkasi uzunligini ortish va ishchi yuzaning ko‘payishi bilan havo tarkibidagi

chang zarrachalari va toksik zaxarli gazlarni yuqori tozalash samaradorligiga erishildi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1.Ergashev N.A., Alimatov B.A., Karimov I.T. Kontakt elementi buralgan yo‘ldosh quyunli rejimda ishlovchi ho‘l usulda chang tozalovchi apparat // Farg‘ona politexnika institutining ilmiy-texnik jurnali. – Farg‘ona, 2019. – №2. – B. 147-152.

2.Эргашев Н.А., Алиматов Б.А., Ахунбаев А.А. Энергетическая эффективност абсорбсионной газоочистки // Фарғона политехника институтининг илмий-техник журнали. – Фарғона, 2017. – №4. – Б. 140-143.

3.Архипов В.А., Березиков А.П. Основы теории инженерно-физического эксперимента. – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2008. – 206 с.

4. Эргашев, Н. А., Маткаримов, Ш. А., Зияев, А. Т., Тожибоев, Б. Т., & Кучкаров, Б. У. (2019). Опытное определение расхода газа, подаваемое на пылеочищающую установку с контактным элементом, работающим в режиме спутникового вихря. Универсум: технические науки, (12-1 (69)).

5. Эргашев, Н. А. (2020). Исследование гидравлического сопротивления пылеулавливающего устройства мокрым способом. Универсум: технические науки, (4-2 (73)), 59-62.

KO‘MIR CHANGINI BRIKETLASHDA QURITISH JARAYONINING EKOLOGIYAGA TA’SIRI

Xakimov Akmaljon Axmedovich

FarPi, “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ko‘mir kukunidan briketlar olish jarayonida uning tarkibidagi namlikni maksimal darajada yo‘qotish usullari taxlil qilingan. Bu orqali istemol uchun chiqarilayotgan briketlarni yoqish jarayonida ajralib chiqayotgan zaxarli gazlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan.

Tayanch so‘zlar: ko‘mir tarkib, Briket, cho‘kindi, Antrasit, namlik, konsentratsiya, oltingugurt.

Аннотатсия: В протсессе получения брикетов из уголной пыли проанализированы способы максималной потери влаги в ее составе. Это направлено на уменшение количества токсичных газов, выделяемых при сжигании брикетов для потребления.

Ключевые слова: содержание угля, брикеты, осадок, антратсит, влажност, консентратсия, сера.

Annotation: In the process of obtaining briquettes from coal dust, methods of maximum moisture loss in its composition have been analyzed. This is aimed at reducing the amount of toxic gases emitted when burning briquettes for consumption

Keywords: coal content, briquettes, sediment, anthracite, moisture, concentration, sulfur.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida 3 ta yirik ko‘mir konlari mavjud bo‘lib, bulardan asosiy ko‘mir ta’minoti bo‘yicha Angren ko‘mir koni yetakchi hisoblanadi. Buning ulushi qattiq yoqilg‘ilar bilan ta’minlash bo‘yicha 85 % ni tashkil etadi. Bu yoqilg‘ilar tashqi muhit ta’siri natijasida turli xil xaroratlarda va namliklarda qazib olinadi. Ko‘mir - asosan uglerod va boshqa bir qator kimyoviy elementlardan tashkil topgan o‘simlikning vaqtlar o‘tishi bilan hosil bo‘lgan cho‘kindi jinsi hisoblanadi.

Ko‘mirning tarkibi uning qancha yillar saqlanganligiga bog‘liq xolatda uning yonish darajasi belgilanadi. Ko‘mirning sinflanishi bo‘yicha qo‘ng‘ir ko‘mir eng yosh ko‘mir hisoblanadi, keyingi o‘rinda tosh ko‘mir va nihoyat eng qadimgi ko‘mir antrasit hisoblanadi. Yer ostida ko‘mir maxsuloti qancha ko‘p saqlanishiga qarab uning tarkibidagi uglerod konsentratsiyasi, uchuvchan tarkibiy qismlar va tarkibidagi namlikning pasayishi kuzatiladi. Ushbu ko‘rsatkichlar qo‘ng‘ir ko‘mirlarda namligi 20-40% ni va uchuvchan tarkibiy qismlar 30% dan ortiqni tashkil etadi. Antrasit ko‘mirlarda ikkala ko‘rsatkichlar ham 5-7% ni tashkil qiladi. Bugungi kunda istemolchilar tomonidan ishlatib kelinayotgan ko‘mirning namlik ko‘rsatkichi 25% ni tashkil etadi. Ushbu namlik ostida yoqilayotgan ko‘mir bo‘laklari tarkibidan ko‘p miqdorda zaxarli gazlar ajralib chiqishi kuzatiladi[1].

Izlanishlar metodikasi: Istemolchilar tomonidan foydalanib kelinayotgan ko‘mir maxsulotlari xech qanday ishlov berilmagan xolatlarda yoqiladi. Ko‘mirning asosiy tarkibiy qismlardan tashqari, ko‘mir tarkibida har xil yonmaydigan kul hosil qiluvchi qo‘shimchalar mavjud. Ushbu holat atrof-muhitni ifloslanishiga va ko‘mirning to‘liq yonishiga qarshilik qiladi. Bundan tashqari, ko‘mir tarkibida toshning mavjudligi ko‘mirning o‘ziga xos yonish xaroratini pasaytiradi. Ko‘mirning sinflanishi va qazib olishda uning tarkibidagi mineral moddalar miqdori xilma-xil bo‘ladi. Ko‘mirlarning yer qarida saqlanganlik vaqt oralig‘iga qarab kul miqdori 6 dan 30% gacha bo‘ladi. Istemolchilar tomonidan foydalanish uchun mo‘ljallangan qo‘ng‘ir ko‘mirning maksimal kul miqdori 10% dan oshmasligi talab etiladi[2].

Briketlashdan oldin mayda ko‘mir bo‘laklari tarkibidagi namlikni chiqarib yuborish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bunda briket olish jarayoniga ajratib olingan mayda ko‘mir bo‘laklarini dastlab maydalagichda 5 mm dan kichik bo‘lgunga qadar maydalab olinadi. Briket tarkibdagi namlikni quritishga nisbatan kukun xolatida bo‘lgan ko‘mir tarkibidagi namlikni yo‘qotish qulay bo‘ladi. Biriketlashdan oldin ko‘mir kukunini quritilmasa, bu namlik briketlash jarayonida biriktiruvchi namligi bilan qo‘shilib, qorishma tarkibidagi namlikni ortib ketishiga va quritish jarayonidan keyin ham qoldiq namlikning hosil bo‘lishiga olib keladi. Ushbu usul orqali olingan briket to‘liq yonmay kul miqdorini ortib ketishiga va yonish jarayonida zaxarli gazlar hosil bo‘lishiga olib keladi. Ishlab chiqarilayotgan briketning sifat ko‘rsatkichi va eksportbopligini to‘liq taminlamaydi. Mavjud muammolarni aniqlash maqsadida tizimli taxlil usulidan foydalanib tadqiqotlar o‘tkazildi [3].

Tadqiqot natijalari: O‘rganilgan muammoni yo‘qotishning maqbul yechimi ko‘mir kukunini quritishga mos pechni tanlash va uning konstruksiyasni takomillashtirishdir. Hozirda ushbu yo‘nalishda ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, barabanli quritish apparatining konstruksiyasi istiqbolli variant sifatida ko‘rsatilmoqda.

Bunday qurilmalar atmosfera bosimi bilan uzluksiz ravishda turli sochiluvchan materiallarni quritish uchun ishlatiladi. Barabanli quritgich silindrsimon barabandan iborat bo‘lib, gorizontga nisbatan kichik og‘ish burchagi $3\div6^{o}$ da joylashtirilgan bo‘ladi (1–rasm). Baraban bandajlari va roliklar yordamida ushlab turilib, elektromotor va reduktor yordamida aylantiriladi. Qurilma uzunligining diametriga nisbati L/D=5-6. Barabanning aylanishlar soni $5\div6$ min^{-1} Nam material ta’minlagich orqali vintli qabul qiluvchi nasadkaga beriladi, bu erda material aralashtirish ta’sirida bir oz quriydi. So‘ngra material barabanning ichki qismiga o‘tadi. Barabanning material bilan to‘lish darajasi 25 **%** dan ortmaydi. Barabanning butun uzunligi bo‘yicha nasadkalar joylashtiriladi. Nasadkalar barabanning kesimi bo‘yicha materialni bir me`yorda tarqatish va aralashtirishni ta’minlaydi. Bunday sharoitda materil bilan qurituvchi agentning o‘zaro ta’siri samarali bo‘ladi [4].

Baraban ichida materialning o‘ta qizib ketishini oldini olish uchun material va qurituvchi agent (tutunli gazlar yoki qizdirilgan havo) bir - biriga nisbatan to‘g‘ri yo‘nalishda bo‘ladi, chunki bunday sharoitda yuqori temperaturali issiq gazlar katta namlikka ega bo‘lgan material bilan kontaktlaShadi. Mayda sochiluvchan materiallar uchun havoning baraban ichidagi tezligi 0,5–1,0 m/s, katta bo‘lakli materiallar uchun 3,5–

4,5 m/s dan ortmasligi kerak. Ishlatilgan gazlar atmosferaga chiqarilishidan oldin mayda changlardan tsiklonda tozalanadi. Quritilgan material barabandan tashqariga tushiruvchi qurilma orqali chiqariladi.

Barabanli quritgichlarda materiallarning yaxshi aralashishiga erishiladi, natijada qattiq va gaz fazalari oralig‘ida uzluksiz kontakt yuz beradi. Bunday quritgichlarda barabanning diametri 1200 ÷2800 mm bo‘ladi. Bu turdagi quritgichlardan ko‘p miqdordagi maxsulotlarni quritish uchun foydalaniladi. Issiqlik elitkich sifatida havo yoki tutun gazlaridan foydalaniladi [5].

Kalit so‘zlar: integral, integratsiya, integrativ yondashuv, kommunikativ va kasbiy kompetensiya, kasbiy terminologiya, nofilologik yo‘nalish.

Аннотация. В представленной статье подчеркивается важность преподавания английского языка в неофилологических высших учебных заведениях в настоящее время посредством

интегративного подхода к профессиональным наукам. В ходе исследования были учтены мнения мировых ученых, предложенные методы реализации интегративного подхода были изложены в статье.

Ключевые слова: интеграция, интегративный, интегративный подход, коммуникативная и профессиональная компетентность, профессиональная терминология, нефилологическое направление.

Annotation: The article highlights the importance of teaching English in non-philological higher education institutions at present through an integrative approach to professional sciences. During the research, the opinions of world scientists were taken into account, and the proposed methods for implementing the integrative approach were outlined in the article.

Keywords: integrative, integrative approach, communicative and professional competence, professional terminology, non-philological direction.

Integral ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va kasbga yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘qitish fanlararo aloqalarni majburiy ko‘rib chiqishni talab qiladi. Bunday sharoitda ingliz tilining ijtimoiy-iqtisodiy fanlar: matematika va tabiiy fanlar, umumiy texnik, umumiy kasbiy fanlar bilan integratsiyasi mustahkamlanib, bilimlarni uzatish ko‘nikmalarini, ularni qo‘llashni va ko‘p qirrali tushunishni yaxshilaydi. Shuning uchun, integrativ yondashuv bu o‘qitishning zamonavaiy tamoyili bo‘lib, qator fanlarning o‘quv dasturlari, o‘quv materiallar tarkibi va tuzilishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu bilan birga, integrativ yondashuv talabalarning tizimli bilimlari kuchaytiriladi, o‘qitish usullari faollashadi, o‘quv jarayonini tashkil etishning murakkab shakllaridan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar mustahkamlanadi, va o‘quv majmuasining birligini ta’minlaydi [1,3].

O‘tgan asrning 80-yillari boshlariga qadar fanlararo aloqalar asosan maktab fanlarida ko‘rib chiqilgan va qo‘llanilgan. Kasbiy oliy ta’lim tarmog‘ida fanlararo aloqalar bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Faqat so‘nggi yigirma yil ichida oliy ta’limga doir fanlarining fanlararo o‘zaro ta’sirini tavsiflovchi ishlar bo‘lib o‘tdi, V.V.Vasilkovskaya, N.I.Gorbacheva, A.I.Yeremkin talabalarni kelajakdagi o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishdagi rolini o‘rgangan bo‘lsalar, P.M.Burdin, V.G.Goncharenko A.N.Bogatiryovlar esa o‘z tadqiqodlarini talabalarning politexnik tayyorlash metodlarini o‘rganishga bag‘ishlagan[2,715-b].

Pedagogikada fanlararo aloqalar tarixini o‘rganish davomida bizga nofilologik, xususan, tabiiy fanlar fakutetlarida kasbiy ingliz tilini o‘qitish jarayonida zamonaviy ta’limning ayrim muammolarini fanlararo aloqalar tamoyilini amalga oshirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish zarurligini anglashga turtki berdi. Oliy ta’lim faoliyatida integrativ yondashuvning amalga oshirilishi juda zarur[3,127-b]. Bu mutaxassislar va o‘qituvchilarga yangi talablar qo‘yadigan ijtimoiy, tabiiy fanlar va texnik bilimlar birlashtirilgan fanning jadal sur’atlari va yuqori darajada rivojlanishi bilan bog‘liq. Integrativ yondashuv talabalarning o‘quv va kognitiv faoliyatiga bevosita ta’sir qilishi bilan birga, o‘qituvchilarning o‘qitish metodlariga singib boradi.

Talabalarning ingliz tilini kasbiy maqsadlarda o‘rganishida biz, albatta, turli nutq vaziyatlarini o‘z ichiga olgan maxsus matnlarga tayanamiz. Leksik materiallar va nutqiy faoliyat o‘z navbatida maxsus mavzularni bizga taqdim etadi. Mavzularning xilma-xil bo‘lishi esa fanlararo aloqalardan keng foydalanish imkonini yaratadi.

Ma’lumotlarni har tomonlama tahlil qilish, ularni taqqoslash va xulosalarni umumlashtirish qobiliyatini shakllantirish talabalar tomonidan turli xil mavzularlarni o‘rganishda amalga oshiriladi va fanlararo aloqa vaziyatlar darajasida o‘rnatiladi. V.N.Maksimovaning so‘zlariga ko‘ra: “Matematika va kimyo fanlarini o’qitishda o‘qituvchilar moddaning kimyoviy tarkibini hisoblash uchun matematikadan foydalanishlari mumkin”[4,123-b].

O‘quv jarayonini o‘rganish va uning mazmunini fanlararo aloqalar asosida tanlash bizga fanni muvofiqlashtirish, tizimli shakllantirish, motivatsion, kognitiv, diagnostik va kasbiy-prognostik kabi didaktik funktsiyalarini aniqlash imkoniyati beradi.

Aksariyat olimlar ingliz tili darslarida integrativ yondashuvni amalga oshirishning quyidagi usullarini taklif qilishadi:

1. Tushuncha va atamalarga tayanish.
2. Matnlar va nutq vaziyatlariga tayanish.

Kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili mashg‘ulotlarida integrativ yondashuvni amalga oshirish uchun, biz quyidagi shartlarni taklif qilamiz:

1. O‘quv jarayonida fan resurslari va ularni to‘g‘ri o‘zlashtirish uchun maxsus va texnik fan o‘qituvchilari bilan o‘zaro hamkorlikda bo‘lish.

2. Malakali ingliz tili o‘qituvchisining esa o‘z faoliyati davomida talabaning fanga bo‘lgan ehtiyojini e’tiborga olib, uning kelajakda sohasiga oid kerakli ma’lumotlarni yetkazib berish.

3. Ko‘rgazmali qurollardan samarali foydalanish va talabalarning ko‘nikma va malakalarini muntazam ravishda birlashtirish.

Bizga ayonki, talabaning oliy o‘quv yurtlarida olgan bilim sifati mutaxassislik va ikkinchi darajali fanlarni qay darajada o’zlashtira olgani va kasbiy faoliyatida murakkab masalalarni muammosiz hal qilishi davomida aniqlanadi[5,160-b]. Agarda biz maxsus tartibda fanlararo aloqalarni ingliz tili fani bilan integrallashtira olsak bo‘lajak kadrlarning kommunikativ va kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirishda kutilgan natijaga erishishimiz mumkin bo‘ladi.

Texnik oliy o‘quv muassasalarida olgan tajribamizga asoslanib, ingliz tilini kasbga yo‘naltirilgan o‘qitishning ba’zi mezonlarini eslatib o‘tishni joiz deb topdik:

1. O‘qitish resursining hajmi.

O‘qitish bo‘yicha kerakli resurslar keragidan ortiq ko‘p bo‘lmasligi lozim. Chunki mutaxassislikka yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘rganish jarayonida leksik materiallarni ortiqcha bo‘lishi talabalarning tilni o‘zlashtirish natijasini pasaytirishga olib keladi.

2. Leksik va grammatik materiallarning o‘quvchilarning bilim darajalari va qiziqishlariga muvofiqligi.

Grammatik mashqlarda leksik materiallardan foydalanish kasbiy ingliz tilini o‘qitishda samarali hisoblanib, talabaning bilimi va qiziqishi o‘qituvchining pedagogik faoliyatida yutuqli lahza bo‘lib xizmat qiladi.

3. Grammatik mavzularning takrorlanishi.

Jumlalarning to‘g‘ri tuzilishi yetarli grammatik bilimlarga asoslanadi, bu esa talabalar o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifoda eta oladigan to‘g‘ri aloqa muhitiga olib keladi.

4. Kasbiy terminologiyaning ustuvorligi.

Kasbiy ingliz tilini o‘qitish mutaxassislikka doir atamalarni o‘rganishni talab qilib, vaqti-vaqti bilan terminlar orqali talabalarning so‘z boyligini to‘ldirish uchun ijobiy natija beruvchi turli mashqlar va vazifalar tuziladi.

Talabalarni zamonaviy oliy o‘quv yurtining maqsad va vazifalariga yaqinlashtirish uchun kasbiy yo‘nalishni hisobga olish muhim. Umid qilamizki, integrativ yondashuvni hisobga olgan holda bunday "bosqichma-bosqich" yo‘nalishda kasbga yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha berilgan takliflar talabalarning kasbiy ingliz tilida

maxsus ko‘nikmalarni egallash uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kizi, T. M. A. (2021). Teaching natural sciences and english language on the basis of integrative approach in higher education. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(1), 126-129.
2. Tursunboyeva M.(2023). Nofilologik fakultet talabalarining ingliz tilini o‘rganishda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (11), 713-716.
3. Kizi, T. M. A. (2021). Teaching natural sciences and english language on the basis of integrative approach in higher education. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(1), 126-129.
4. Максимова В.Н. Межпредметные связи как дидактическая основа для формирования междисциплинарного практикума.– Москва, 2004.С123-124.
5. Гурьев А.И. Межпредметные связи в теории и практике современного образования инновационные процессы в системе современного образования.– Горно-Алтайск, 1999. – С.160.

MAXSUS YO‘NALISHLAR UCHUN TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINI O`RGATISHDA O`YINLARNING AHAMIYATI VA ULARNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Parpiyeva Moxiraxon
Farg`ona politexnika instituti o`qituvchisi
Hamidova Farangizbonu
Kimyo texnologiyalari fakulteti, OOT yo`nalishi 84-24 guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada ingliz tilini texnik yo`nalish talabalariga o`yinlar yordamida o`rgatish haqidagi ayrim fikr va mulohazalar keltirilgan. O`yin na’munalari kelitirib o`tilgan va ularning dars jarayoniga tadbiq etish yo`llari tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** ingliz tili, til o`rganish, o`rganuvchi, texnik yo`nalish, o`yinlar, vaziyatga moslik, darsga bog`liqlik, o`rganuvchiga bog`liqlik.

Аннотация: Статья содержит некоторые мысли и комментарии по поводу обучения английскому языку студентов технического направления с помощью игр. Были представлены образцы игры и проанализированы способы их применения в учебном процессе.

Ключевые слова: английский язык, изучение языка, обучаемый, техническое направление, игры, адаптация к ситуации, зависимость от урока, зависимость от обучаемого.

Abstract: The article contains some thoughts and comments about teaching English to students of technical direction with the help of games. Samples of the game were presented and ways of applying them to the teaching process were analyzed.

Key words: English language, language learning, learner, technical direction, games, adaptation to the situation, dependence on the lesson, dependence on the learner.

Texnik yo`nalish talabalariga ingliz tilini o`rgatishda turli yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda turli o`yinlardan foydalanish esa til o`rganuvchilarning ingliz tilini samaraliroq hamda qiziqish bilan o`rganishlariga turtki beradi. Quyida ingliz tilini texnik yo`nalish talabalariga o`rgatishda qo`llash mumkin bo`lgan o`yinlardan na’munalar keltirib o`tiladi.

**Tasodifiy hikoya tuzish o`yini.** Bu o`yinda talabalar bir guruh sifatida ishtirok etadilar yoki ikki guruhga ajralib kim qiziqarli, xatolarsiz va ma`noli hikoya tuzishlari mumkin bo`ladi. O`yin qoidasi juda ham oddiy : birinchi talaba ixtiyoriy bir gap aytadi. Navbatdagi talaba esa o`zining gapini unga qo`shimcha qiladi. O`yinni tez va to`xtalishlarsiz olib borish kerak. Oxirgi ishtirokchi esa hikoyani yakunlovchi gapni aytishi lozim. Agar o`yin ikki guruhda o`tkazilayotgan bo`lsa, raqiblar o`zaro hikoyaning mazmunli va qiziqarli ekanligiga, ishtirokchilarning to`xtalishlarsiz gapirishiga qarab aniqlanadi.

Quyida ehtimoliy misol keltiriladi:

Suddenly a thunderstorm came up.

A car stopped with squealing brakes.

At that moment, a baby was heard crying nearby.

Then someone shouted: "The pizza is ready!"

The newspaper vendor announced the latest headline.

The doorbell rang.

With sirens wailing, the fire engine was getting closer and closer.

The mother stuck her head in the door.

The zoo was closed that day.

"That was close now," the police woman moaned.

The circus came to town!

Suddenly it got dark; thick clouds covered the sun.

A tractor drove by; the peasants were on their way to the grape harvest.

The dog snatched the Sunday roast.

The sun burned down from the sky.

The school bell rang, and that was the end of class for the day.

The window pane shattered with a loud bang.

The football players ran one by one onto the field.

The bear turned and growled dangerously.

There was a five-kilometer traffic jam on the freeway.

The clock on the church tower read just before midnight.

Ushbu o`yin yordamida til o`rganuvchilarda ingliz tilida fikrlash va gapirish qobilyati oshishiga erishiladi.

Quyida tasvirlanadigan o`yin ham talabalarning og`zaki nutqlarini o`stirishga yordam beradi.

Tong sen uchun qanday bo`ldi? (How was your morning today?)

O`yin darsning boshlanish qismida, til muhitini shakllantirish uchun tashkil qilinadi. Har bir ishtirokchi o`zining tongini o`rnidan turib toki o`qishga yetib kelib, dars boshlanguniga qadar nimalar qilganini pantomima qilib ko`rsatib beradi. Qolgan talabalar esa uning nimalar qilgani ingliz tilida aytib berishlari kerak bo`ladi. O`yinda pantamima qilish uchun talabalar ixtiyoriy qatnashishlari mumkin, chunki barcha talabaar pantomimani ko`rsatishsa, ancha vaqt talab qiladi. O`yinni 2-3 daqiqa davom ettirish maqsadga muvofiq.

Navbatdagi o`yin esa til o`rganuvchilar uchun oddiy jumlalarni takrorlash va til o`rganish muhitini shakllantirish uchun xizmat qilishi mumkin. Bu mashqli o`yin savollar berishni o`rganishga yordam beradi va bu qobilyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Siz buni ozgina vaqt sarflab, tezlik bilan o`rganib olishingiz mumkin. Bunda albatta so`roq olmoshlarini qo`llash yoki so`roq so`zsiz so`roq gaplar tuzish kerak bo`ladi.

Bir ishtirokchi boshqa ishtirokchining qulog`iga pichirlab savol beradi (ammo savol tasdiq/inkor so`zlari bilan javob beriladigan savol bo`lmasligi kerak). Savolni eshitgan talaba esa baland ovozda javob berishi kerak. Qolganlar esa birinchi ishtirokchi qanday savol bilan sherigiga murojaat qilganligini tahmin qilib ko`radilar. Masalan:

Frage/savol (asta): What are you doing this weekend?

Antwort/javob (baland ovozda): I’m going to play football.

Boshqalar esa savollar quyidagicha bo`lgan bo`lishi mumkinligini tahmin qiladilar:

What is your favorite thing to do?

What are your hobbies?

Do you do sport?

What are you doing this afternoon?

What are you doing in the leisure?

Qo`shimcha sifatida aytadigan bo`lsak, buni faqat katta guruhlarda emas kichik guruhlarda tashkillab, o`yinni kichik guruhlarda birvarakayiga o`tkazishlari haqida topshiriq berish ham mumkin bo`ladi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, texnik yo`nalish talabalariga ingliz tilini o`rgatish jarayonida qo`llanadigan o`yinlar quyidagi ijobiy tomonlarga ega:

- Turli til o`rganuvchilar turlarini, ularning talablarini yaxshiroq ko`ra olish;
- O`qituvchi sinfda aylanib talabalarga yordam berib turishi mumkin, bu asnosida o`qituvchi qaysi talaba kuchli, qaysinisi kuchsizroq ekaniga shaxsan o`zi guvoh bo`lishi mumkin;
- Til o`rganuvchilar o`yin tempini o`zlari belgilashlari mumkin, bu bilan ular o`rganish uchun sarflayotgan vaqtlaridan tejaydilar hamda maqsadga asoslanib o`qishni o`rganadilar. Bundan tashqari uni amalda sinab ko`radilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Funk H. Koenig, M., Lehners, U., Panes, P. Grammatik lehren und lernen. – Langenscheidt, 1991.
2. Kleppin K. Fehler und Fehlerkorrektur. – Langenscheidt, 1998. – T. 19.
3. Bohnensteffen M. Fehler-Korrektur: lehrer-und lernerbezogene Untersuchungen zur Fehlerdidaktik im Englischunterricht der Sekundarstufe II. – Peter Lang, 2010. – T. 1001.
4. Huyen N. T. T., Nga K. T. T. Learning vocabulary through games //Asian EFL Journal. – 2003. – T. 5. – №. 4. – C. 90-105.
5. Chirandon A. et al. The effects of teaching English through games. – 2014.
6. Yaccob N. S., Yunus M. M. Language Games in Teaching and Learning English Grammar: A Literature Review //Arab World English Journal. – 2019. – T. 10. – №. 1. – C. 209-217.
7. Khudoyberdievna S. Z. Teaching English through games //Научный журнал. – 2017. – №. 3 (16). – C. 53-54.

8. Tuan L. T., Doan N. T. M. Teaching English grammar through games //Studies in literature and language. – 2010. – Т. 1. – №. 7. – С. 61-75.

9. Halim M. S. A. A., Hashim H., Yunus M. M. Pupils' Motivation and Perceptions on ESL Lessons through Online Quiz-Games //Journal of Education and E-Learning Research. – 2020. – Т. 7. – №. 3. – С. 229-234.

10. Хасанова О. К. К. Виды Мнемоники В Обучении Немецкому Языку //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 40 (124). – С. 21-24.

OG‘ZAKI NUTQNI O‘STIRISHDA PSIXOLINGVISTIKANING O‘RNI

Zulaypoyeva Gulmira Ubaydulloyevna,
FarPI, O‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrasi assistenti
g.zulaypoyeva@ferpi.uz
Adxamjonova Muxlisa Umidjon qizi,
KLT fakulteti 74-23 TT guruh talabasi

Annotatsiya: 1. Tadqiqot maqsadi: maqolada nutq og‘zaki nutqning rivojlanishini psixolingvistika bilan izohlash, uning asosiy belgilari bo‘yicha muallif qarashlarini bayon qilish; 2. Tadqiqot metodlari: tahlil, tarixiylik, umumlashtirish; 3. Tadqiqot natijalari: nutq egasining lisoniy o‘ziga xosligi; 4. Xulosa. Psixolingvistikani o‘rganish nuqtning amalga oshishida muhim ekanligini aniqlashdir.

Kalit so‘zlar: lingvistika, nutq, psixolingvistika, niyat, kodlash, transfer, bayonot, dekodlash, interpretatsiya, dessonans.

Аннотация: 1. Цель исследования: в статье объяснить развитие устной речи с помощью психолингвистики, изложить взгляды автора на ее основные особенности; 2. Методы исследования: анализ, историчность, обобщение; 3. Результаты исследования: языковая личность говорящего; 4. Резюме. Целью изучения психолингвистики является выяснение того, что важно для обоснования своей точки зрения.

Ключевые слова: лингвистика, дискурс, психолингвистика, интенция, кодирование, передача, высказывание, декодирование, интерпретация, диссонанс.

Annotation: 1. The purpose of the research: in the article to explain the development of oral speech with psycholinguistics, to state the views

of the author on its main features; 2. Research methods: analysis, historicity, generalization; 3. Research results: linguistic identity of the speaker; 4. Summary. Studying psycholinguistics is all about finding out what is important in making a point.

Keywords: linguistics, discourse, psycholinguistics, intention, encoding, transfer, statement, decoding, interpretation, dissonance.

Kirish. Respublikamizning mustaqillikka erishuvi tilimizning jamiyat a’zolari o‘rtasida qo‘llanish doirasini kengaytirdi, til va tilshunoslik fanida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi.

Muhtaram Prezidentimizning ona tilimizga bo‘lgan e’tiborini bir qancha islohotlari orqali ko‘rishimiz mumkin. “Ona tilimizning boyligini, unga hurmatingiz va muhabbatingizni tilimizni dunyoga tarannum etish bilan ko‘rsatishingiz kerak”,- degan edi Sh.Mirziyoyev Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchilari bilan bo‘lgan suhbatlaridan birida.[1] Ushbu uchrashuvda o‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish, o‘zbek adabiyoti namunalarini chet tillarga tarjima qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilgani ham hozirda o‘z samarasini bermoqda. Bundan tashqari, “o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish choralarini ko‘rish”[2] kelajakda ona tilimizning yanada yuksalishiga zamin vazifasini o‘taydi.

Adabiyotlar tahliliva metodlar. Tilshunoslik va psixologiya o‘rtasidagi aloqalar ayniqsa yaqin bo‘lib, bu XIX asrda tilshunoslikka psixologik usullar va g‘oyalarning kiritilishiga sabab bo‘ldi. Til fanida psixologik yo`nalish shunday paydo bo`lgan. XX asrning 50-yillarida tilshunoslik bilan chegaradosh yangi fan psixolingvistika shakllandi. Jahon tilshunosligida quyidagi olimlar psixolingvistika sohasi rivojiga o‘z hissalarini qo‘shgan: Ch.Osgud, J.Kerroll, T.Sibeok kabi olimlar psixolingvistika fanining birinchi avlodi hisoblanadilar. Keyingi avlod vakillari sifatida esa quyidagilar tilga olinadi: J.Piaje, I.Pavlov, P.Brok, N.Jinkin, L.Zankov.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida ham psixolingvistika sohasi bo‘yicha bir qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, I.Azimova, D.Lutfullayeva va boshqalarni misol qilishimiz mumkin.

Natijalar va muhokama. Nutqning o‘zaro ta’siri jarayonini bir necha bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Niyat. Bu bosqichda murojaat qiluvchi suhbatdoshiga (suhbatdoshlar guruhiga) nima deyishi (yozishi) haqida o‘ylaydi. Aynan

shu vaqtda nutqda muallifning niyatiga koʻra, adresat qabul qilinishi kerak boʻlgan mazmun qoʻyiladi.

2. Kodlash. Muallif oʻz fikrlarini soʻzlar, jumlalar, matnlar bilan oʻrab oladi. Aynan shu bosqichda murojaat qiluvchining niyatiga koʻra, uning bayonotini qabul qiluvchiga yanada qulayroq qilish mumkin boʻlgan lingvistik vositalarni tanlash amalga oshiriladi. Albatta, muallifning tanloviga koʻplab omillar ta’sir qiladi: yaratilayotgan matnning moʻljallangan uslubi, uning shakli - ogʻzaki yoki yozma.

3. Bayonot. Uchinchi bosqich ikkinchi bosqichda tanlangan lingvistik vositalar yordamida oʻylab topilgan narsalarni moddiylashtirishni oʻz ichiga oladi. Biz matnning ovozli yoki yozib olinganligi haqida gapiramiz. Agar matn ogʻzaki boʻlsa, muallif niyatining har qanday nuanslarini ifodalashi mumkin boʻlgan intonatsiyadan foydalanish mumkin. Agar matn yozilgan boʻlsa, uning savodli boʻlishi juda muhimdir. Notoʻgʻri yozilgan soʻz yoki notoʻgʻri qoʻyilgan vergul Niyatni sezilarli darajada buzishi mumkin.

4. Transfer. Muallif oʻz bayonotini qabul qiluvchiga yetkazadi. Bu ma’lum darajada fiziologik jarayondir, chunki. soʻzlovchining artikulyatsiya apparati ishini yoki matn yozish jarayonini nazarda tutadi. Shu bilan birga, savodxonlik kabi omil juda muhim, chunki quyida muhokama qilinadi.

5. Idrok. Bu bosqichda adresat nutqning oʻzaro ta’siri jarayoniga "qoʻshiladi". Matn ular tomonidan quloq orqali qabul qilinadi yoki oʻqiladi.

6. Dekodlash. Eshitilgan yoki oʻqilgan narsadan ma’lumot olinadi, bu, ehtimol, muallif tomonidan yaratilgan. Darhaqiqat, bu bosqichda qabul qiluvchi ikkinchi bosqichda muallif tanlagan til materiali bilan “ishlaydi”.

7. Interpretatsiya. Adresat eshitganini (oʻqiganini) tahlil qiladi va birinchi bosqichda qabul qiluvchi tomonidan matnga kiritilgan tarkibni chiqaradi.

Bunday murakkab jarayonning natijasi, ya’ni talqinning muallifning birinchi bosqichda shakllangan niyatiga qay darajada muhimligi adresat bayonotida amalga oshirilishi mumkin boʻlgan fikr-mulohaza deb ataladigan narsada namoyon boʻladi; va bu holatda u allaqachon bayonotning muallifi, ya’ni. yuqorida tavsiflangan butun jarayon takrorlanadi, lekin adreslovchi va qabul qiluvchi teskari. Fikr-mulohaza ogʻzaki boʻlmagan vositalar bilan ham ifodalanishi mumkin (masalan,

eshitilgan narsaga rozilik ifodasi sifatida bosh irg‘adi), bu esa mohiyatni o‘zgartirmaydi.

Yetti bosqichning har biri nutqiy o‘zaro ta’sirning samaradorligi nuqtai nazaridan juda muhimdir. Har qanday “muvaffaqiyatsizlik” nomaqbul oqibatlarga olib kelishi mumkin. Demak, muallifning o‘z maqsadini loyqa tushunishi, mavzuni, materialni bilmasligi o‘z-o‘zidan o‘z niyatini to‘liq anglamasligiga olib keladi, bu esa, o‘z navbatida, til materialini tanlash zarur bo‘lgan ikkinchi bosqichga ta’sir qiladi. Bularning barchasi birgalikda, albatta, talqin qilish bosqichida qabul qiluvchi tomonidan eshitilgan narsani noto‘g‘ri tushunishga olib keladi. Og‘zaki o‘zaro ta’sir jarayonining bunday istalmagan tugatilishiga imtihonga tayyorlanmagan talabaning javobi misol bo‘lishi mumkin.

Aytaylik, muallif o‘z suhbatdoshiga nima demoqchiligini aniq bilsa-da, lekin negadir u til materialini yetarli darajada bilmaydi, bu nafaqat til vositalarini tanlash jarayonini murakkablashtiradi, balki uni ham qiyinlashtiradi. xuddi shu mablag‘larni tanlash natijasi bo‘lgan bayonotning o‘zini shakllantirishga yo‘l qo‘ymaslik. Bunday holda, niyat to‘g‘ri rasmiylashtirilmaydi va adresatga buzilgan shaklda “yetib boradi”.

Niyatni buzish yetkazish bosqichida ham mumkin, bu so‘zlovchining nutq nuqsonlari, yozuvchining savodsizligi va boshqalarning natijasi bo‘lishi mumkin. Masalan, noto‘g‘ri qo‘yilgan vergul gapning mohiyatini butunlay o‘zgartirishi mumkin. Aloqadagi muvaffaqiyatsizliklar ko‘pincha ma’ruzachilar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot paytida, uy yoki ish suhbati kontekstida sodir bo‘ladi. Bunday faktlar xalq og‘zaki ijodida o‘z aksini topgan bo‘lib, ular latifada, badiiy adabiyotda hazilga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ko‘pincha noaniqlik manbai noto‘g‘ri ishlatilgan olmoshlardir. Olmoshlar o‘ziga xos leksik ma’noga ega emasligi va shuning uchun matndagi so‘zlarni almashtirish uchun chaqirilganligi sababli, ularga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish kerak. (Uyimiz baland panjara bilan o‘ralgan. Anchadan beri ta’mirlaganimiz yo‘q.) Taxmin qilish mumkinki, olmosh so‘nggi otga, bizning holimizda “panjara” so‘ziga mos keladi. Biroq, bayonotni noaniq bayonotlardan butunlay voz kechadigan tarzda tartibga solish yaxshiroqdir.

Idrok etish va izohlash qiyin bo‘lgan murakkab sintaktik konstruksiyalar. Masalan: “Tashkilotingiz tomonidan bajarilgan ishlar uchun berilgan 2007-yil 25-avgustdagi 17-sonli schyot-faktura haligacha to‘lanmaganligi sababli, biz o‘z manfaatlarimizni himoya qilish uchun sudga murojaat qilishga majburmiz” (tadbirkor yozishmalardan). Bunday

tuzilmalarning o‘ziga xosligi shundaki, ular amalda quloq bilan sezilmaydi. Ularning mohiyati ko‘pincha, agar matn yozilgan bo‘lsa, takroriy o‘qishdan keyin aniq bo‘ladi. Shuning uchun, katta hajmli dizaynlar o‘ziga xos stilistik xatodir.

Dissonans deb ataladigan narsa stilistik xatolarga ham tegishli. Dissonans - bu nutqda eshitish uchun yoqimsiz (baxtni izlash) yoki talaffuz qilish qiyin (she’r matni) tovush birikmalarining mavjudligi, shuning uchun dissonansning bunday turlariga mos keladigan akustik va artikulyatsiya turlari haqida gapirish mumkin. albatta, faqat og‘zaki) nutq faoliyati, tinglash va gapirish kabi. Bu ko‘pincha ikkilanishlar, zahiralar, asossiz pauzalarni keltirib chiqaradi. Dissonansni ma’ruzachining o‘zi aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin, chunki yuqorida aytib o‘tilganidek, u og‘zaki nutq bilan bog‘liq va og‘zaki nutq, siz bilganingizdek, ayniqsa spontan, har doim ham tahrirlanmaydi.

So‘zlovchi tilining qashshoqligi. Afsuski, yoqilgan jamiyatimiz rivojlanishi bilan bu hodisa juda sezilarli bo‘ldi. Tabiiyki, so‘zlovchining so‘z boyligining etarli emasligi o‘z niyatini shakllantirishda turli xil qiyinchiliklarga olib keladi va natijada har doim ham ushbu niyatga mos kelmaydigan bayonotning shakllanishiga olib keladi. Agar murojaat qiluvchi tomonidan kodlash bosqichida uning o‘zi o‘zining asl niyatidan chiqib ketgan bo‘lsa, unda qabul qilingan matnni qabul qiluvchi tomonidan talqin qilinishi ham matn muallifi xohlagan narsadan uzoqda bo‘ladi deb taxmin qilish mumkin.

Bundan tashqari, nutqning asosiy kommunikativ sifatlarining buzilishida ham bo‘lishi mumkin. Bu yerda biz lingvistik shaxs kabi tushunchaga murojaat qilishimiz kerak. Lingvistik shaxsning yagona ta’rifi mavjud emas, ma’lumki, bu tushunchani birinchi bo‘lib ishlatgan tilshunoslardan biri V.V. Vinogradov va Yu.N.Karaulov tomonidan berilgan ta’rifdan kelib chiqamiz. Karaulov: “Til shaxsi deganda men shaxsning nutq matnlarini yaratish va idrok etishni belgilaydigan, a) tarkibiy va lingvistik murakkablik darajasi bo‘yicha, b) o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan qobiliyat va xususiyatlarning yig‘indisini tushunaman. voqelikni aks ettirishning chuqurligi va aniqligi, v) ma’lum bir maqsad yo‘nalishida.”[3] Ushbu ta’rif insonning qobiliyatlarini u tomonidan yaratilgan matnlarning xususiyatlari bilan birlashtiradi. Matn tahlilining ta’rifida men alohida ta’kidlagan matn tahlilining uchta jihati har doim intralingvistik va mutlaqo mustaqil vazifalar sifatida alohida mavjud bo‘lgan. Til shaxsining tuzilishi uch darajadan iborat bo‘lib tuyuladi: va tadqiqotchi uchun - muayyan

ma’nolarni ifodalashning rasmiy vositalarining an’anaviy tavsifi; 2) kognitiv, ularning birliklari qadriyatlar ierarxiyasini aks ettiruvchi, har bir lisoniy individuallik tomonidan ko‘proq yoki kamroq tartibli, ko‘p yoki kamroq tizimlashtirilgan "dunyo tasviriga" shakllanadigan tushunchalar, g‘oyalar, tushunchalardir. Til shaxsi tuzilishining kognitiv darajasi va uning tahlili ma’noni kengaytirish va bilimga o‘tishni o‘z ichiga oladi, shuning uchun shaxsning intellektual sohasini qamrab oladi, tadqiqotchiga til, nutq va tushunish jarayonlari orqali chiqish imkoniyatini beradi. bilimga, ongga, inson bilish jarayonlariga; 3) maqsadlar, motivlar, manfaatlar, munosabatlar va niyatlarni o‘z ichiga olgan pragmatik. Ushbu daraja til shaxsini tahlil qilishda uning nutq faoliyatini baholashdan dunyodagi real faoliyatni tushunishga tabiiy va shartli o‘tishni ta’minlaydi.

Xulosa. Hozirgi zamon tilshunosligining grammatika sohasidagi tadqiqotlariga psixologiya katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan, til va nutq munosabatini o‘rganishda va ularning inson tafakkurida aks etishi hamda rivojlanishida psixologiyaning o‘rni katta ekanligi aniqlandi. Har bir inson yoshligidan fikrlash qobiliyatini, shuningdek, nutqini shakllantirib boradi. Bu jarayonda inson o‘z imkoniyatlari doirasida mashaqqatli mehnat qiladi. Psixolinglingvistlarning fikricha, inson bolaligidan to‘g‘ri va aniq ma’lumot olishi lozim, aks holda betartib va noaniq ma’lumot asosida shakllangan nutq insonning rivojlanishi va til qonuniyatlari bo‘yicha tegishli hukm chiqarishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shuning uchun ushbu sohadagi tadqiqotlar rivojlanib bormoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.M.Mirziyoyev. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchilari bilan bo‘lgan suhbatidan. 23.12.2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6084-sonli Farmoni. (“Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 21-oktabr, 221-son)
3. Rafiyev A. Mahmudov N. Yuldashev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. Toshkent, 2013.
4. И.Павлов. Об уме воопще, о русском уме в частности. - М,2014
5. http://library.ziyonet.uz/ - ta’lim portali

ASPECTS OF MODERN LINGUISTICS AND ITS ROLE IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Sofiyanur Madaminova
Fergana Polytechnnic Institute Fergana Uzbekistan
Email: sofianurrahmonova@gmail.com

Annotation: This paper provides a comprehensive exploration of how modern linguistics influences the teaching of foreign languages. It discusses theoretical frameworks such as structuralism, generative grammar, and cognitive linguistics, as well as practical applications in language pedagogy. Through a review of key research studies and methodologies, it demonstrates the significance of modern linguistic principles in enhancing language learning outcomes and promoting communicative competence among learners.

Key words: interconnected and multicultural, modern linguistics, traditional approaches, mental processes, comprehension

Аннотация: В данной статье представлено всестороннее исследование того, как современная лингвистика влияет на преподавание иностранных языков. В нем обсуждаются теоретические основы, такие как структурализм, генеративная грамматика и когнитивная лингвистика, а также практические приложения в языковой педагогике. Посредством обзора ключевых исследований и методологий он демонстрирует значимость современных лингвистических принципов для улучшения результатов изучения языка и развития коммуникативной компетентности среди учащихся.

Ключевые слова: взаимосвязанное и поликультурное, современная лингвистика, традиционные подходы, психические процессы, понимание.

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy tilshunoslikning chet tillarini o‘qitishga qanday ta'sir qilishini har tomonlama o‘rganish imkonini beradi. Unda strukturalizm, generativ grammatika va kognitiv lingvistika kabi nazariy asoslar hamda til pedagogikasining amaliy qo‘llanilishi muhokama qilinadi. Asosiy tadqiqot tadqiqotlari va metodologiyalarini ko‘rib chiqish orqali u zamonaviy lingvistik tamoyillarning tilni o‘rganish natijalarini oshirish va o‘quvchilar o‘rtasida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: o‘zaro bog‘liq va ko‘p madaniyatli, zamonaviy tilshunoslik, an'anaviy yondashuvlar, aqliy jarayonlar, tushunish

Introduction. Language is a fundamental aspect of human communication and interaction, serving as the primary vehicle for expressing thoughts, ideas, and emotions. As societies become increasingly interconnected and multicultural, the ability to communicate effectively in multiple languages has become essential for personal, professional, and academic success. In response to this global demand for language proficiency, the field of language teaching has evolved, drawing insights and methodologies from modern linguistics to enhance language learning outcomes.

This research paper explores the multifaceted relationship between modern linguistics and the teaching of foreign languages. It delves into the theoretical foundations of modern linguistics, its relevance to language pedagogy, and its practical implications for language teaching methodologies. By examining various aspects of modern linguistics, including linguistic analysis, second language acquisition theories, pedagogical approaches, technology integration, sociolinguistic perspectives, challenges, and future directions, this paper aims to provide a comprehensive understanding of the role of modern linguistics in teaching foreign languages.

1. Evolution of Linguistics: From Traditional to Modern

The study of language, or linguistics, has a rich and diverse history spanning centuries. Traditional approaches to linguistics were often prescriptive in nature, focusing on norms, rules, and standards of language usage. These approaches, exemplified by grammatical textbooks and language manuals, aimed to dictate how language should be spoken and written, based on perceived notions of correctness and propriety.

However, with the advent of modern linguistics in the 20th century, there was a paradigm shift towards descriptive approaches that sought to understand language as it is naturally used by speakers in real-life contexts. Influential figures such as Ferdinand de Saussure, Noam Chomsky, and William Labov paved the way for the emergence of contemporary linguistic theories and methodologies that revolutionized the field.

2. Theoretical Foundations of Modern Linguistics

Modern linguistics encompasses a wide range of theoretical frameworks and subfields, each offering unique insights into the structure, acquisition, and use of language. Structural linguistics, pioneered by

Saussure, focuses on the analysis of language systems and the relationships between linguistic elements. Generative grammar, developed by Chomsky, posits that language acquisition is governed by innate cognitive mechanisms, leading to the formulation of universal grammar principles. [1:56]

Cognitive linguistics explores the role of mental processes in language comprehension and production, emphasizing concepts such as metaphor, image schemas, and conceptual blending. Sociolinguistics investigates the social and cultural factors that influence language variation and change, including dialects, registers, and speech communities. Psycholinguistics examines the psychological processes involved in language processing, memory, and comprehension.

3. Linguistic Analysis in Language Teaching

One of the central tenets of modern linguistics is the systematic analysis of language structures and functions. Linguistic analysis involves breaking down language into its constituent elements, including sounds, words, grammar, and meaning, to uncover underlying patterns and principles. This analytical approach provides language teachers with valuable insights into the complexities of language systems and informs their instructional practices. [2:89]

By applying linguistic analysis to language teaching, educators can identify learners' linguistic strengths and weaknesses, diagnose language learning difficulties, and tailor instructional strategies to meet learners' individual needs. For example, an analysis of learners' pronunciation errors may inform targeted pronunciation practice activities, while an analysis of syntactic structures may guide the sequencing of grammar instruction.

Literature analysis. Modern linguistics has significantly influenced the field of language teaching, shaping pedagogical approaches, informing instructional practices, and enhancing learning outcomes for language learners worldwide. This literature analysis explores key research studies, theoretical frameworks, and practical applications related to the role of modern linguistics in teaching foreign languages.

1. Theoretical Foundations

a. Structuralism and Generative Grammar: Structuralism, introduced by Ferdinand de Saussure, emphasized the analysis of language structures and relationships between linguistic elements. Saussure's distinction between langue (the abstract system of language) and parole (individual instances of language use) laid the groundwork for

structural linguistics. Noam Chomsky's generative grammar further revolutionized linguistic theory by proposing the existence of a universal grammar and innate language acquisition mechanisms. Chomsky's theories have had profound implications for language teaching, particularly in understanding the underlying cognitive processes involved in language learning. [3;44]

b. Cognitive Linguistics: Cognitive linguistics focuses on the relationship between language and cognition, exploring how mental processes influence language comprehension, production, and acquisition. Concepts such as metaphor, image schemas, and conceptual blending provide insights into the conceptual underpinnings of language use. Researchers have applied cognitive linguistic principles to language teaching, designing instructional materials and activities that engage learners' cognitive abilities and foster deeper understanding of linguistic concepts.

2. Linguistic Analysis in Language Teaching

a. Phonetics and Phonology: Phonetics and phonology play a crucial role in language instruction, particularly in developing learners' pronunciation and listening skills. Studies have shown that explicit instruction in phonetic features, such as speech sounds, intonation patterns, and stress patterns, can improve learners' oral proficiency and intelligibility. Phonological awareness activities, such as minimal pairs exercises and phonemic awareness tasks, help learners develop phonological sensitivity and discrimination skills. [5;10]

b. Morphology and Syntax: Morphological and syntactic analysis is essential for understanding sentence structure and grammar rules in a target language. Research has demonstrated the effectiveness of explicit instruction in morphology and syntax, particularly in improving learners' grammatical accuracy and sentence construction abilities. Scaffolded activities, such as sentence combining tasks and syntactic parsing exercises, help learners develop syntactic awareness and proficiency.

3. Second Language Acquisition Theories

a. Behaviorism and Cognitivism: Behaviorist theories, such as the audiolingual method, focus on habit formation through stimulus-response reinforcement. While behaviorist approaches have been criticized for their limited focus on rote memorization and mechanical drills, they have contributed to our understanding of the role of practice and repetition in language learning. Cognitivist theories, such as the information processing model, emphasize the importance of cognitive processes such

as attention, memory, and problem-solving in language acquisition. These theories have informed instructional practices that promote meaningful learning experiences and cognitive engagement. [7:56]

4. Technology Integration

a. Computer-Assisted Language Learning (CALL): CALL encompasses a variety of digital tools and resources that enhance language learning and instruction. Research has shown that CALL facilitates individualized instruction, interactive practice, and multimedia-rich learning experiences. Mobile applications, online resources, and virtual reality simulations offer opportunities for anytime, anywhere language learning and cultural exploration.

5. Sociolinguistic Perspectives

a. Language Variation and Diversity: Sociolinguistics acknowledges the diversity of languages and dialects spoken by learners, recognizing the importance of linguistic variation in language teaching. Research on language attitudes, identity construction, and language policy informs language education practices that promote linguistic diversity and cultural inclusivity. By embracing learners' linguistic backgrounds and identities, educators create supportive learning environments that validate diverse linguistic repertoires.

b. Intercultural Communicative Competence: Intercultural communicative competence (ICC) encompasses the ability to communicate effectively and appropriately in intercultural contexts. Research on ICC emphasizes the importance of cultural sensitivity, empathy, and intercultural awareness in language education. Through cross-cultural exchanges, authentic interactions, and reflective activities, educators promote ICC development and foster global citizenship among language learners. [4:75]

Research methodology. The methodology employed in this research seeks to comprehensively examine the role of modern linguistics in teaching foreign languages. To achieve this, a mixed-methods approach combining qualitative and quantitative research techniques will be utilized. This section outlines the research design, data collection methods, and analysis procedures employed in this study.

1. Research Design:

The research design adopted for this study is exploratory in nature, aiming to investigate the multifaceted relationship between modern linguistics and language teaching. The study will employ a concurrent triangulation design, integrating both qualitative and quantitative data to

provide a holistic understanding of the research topic. Qualitative data will be collected through in-depth interviews and document analysis, while quantitative data will be gathered through surveys and language proficiency assessments.

2. Participants:

The participants in this study will include language educators, researchers, and students with expertise or experience in teaching and learning foreign languages. Purposive sampling will be utilized to select participants who can provide rich insights into the role of modern linguistics in language education. The sample size will be determined based on the principle of data saturation, ensuring that a diverse range of perspectives is represented in the study. [5:12]

4. Data Analysis:

a. **Qualitative Analysis:** Thematic analysis will be employed to analyze the qualitative data obtained from interviews and document analysis. Transcripts and textual data will be systematically coded and categorized to identify recurring themes, patterns, and relationships. Themes will be organized into meaningful clusters, and interpretations will be supported by illustrative quotations and examples. [7:9]

b.**Quantitative Analysis:** Descriptive statistics, such as frequencies, percentages, and measures of central tendency, will be used to analyze the quantitative data obtained from surveys. Statistical software, such as SPSS (Statistical Package for the Social Sciences), will be utilized to conduct data analysis and generate graphical representations of the findings. Inferential statistics, such as correlation analysis, may be employed to examine relationships between variables.

5. Ethical Considerations:

Ethical guidelines will be followed throughout the research process to ensure the protection of participants' rights and confidentiality. Informed consent will be obtained from all participants prior to their participation in the study, and they will be assured of their anonymity and the confidentiality of their responses. Participants will have the right to withdraw from the study at any time without penalty, and their data will be handled with care and stored securely.

Conclusions. In conclusion, modern linguistics significantly enhances the teaching of foreign languages by providing theoretical insights, informing pedagogical approaches, and guiding instructional practices. Through linguistic analysis, educators gain a deeper understanding of language structures and functions, enabling them to

tailor instruction to meet learners' needs effectively. Second language acquisition theories inform the design of language teaching methodologies that prioritize communicative competence and meaningful interaction. Pedagogical approaches grounded in modern linguistics, such as Communicative Language Teaching and Content-Based Instruction, promote language fluency, cultural awareness, and intercultural communicative competence. The integration of technology facilitates personalized learning experiences and expands access to language resources. Sociolinguistic perspectives underscore the importance of linguistic diversity and inclusive language education practices. By embracing modern linguistic principles, educators empower learners to become proficient, confident, and culturally competent communicators in today's globalized world.

Literature

1. Chomsky, N. (1957). Syntactic Structures. Mouton.
2. Ellis, R. (2008). The Study of Second Language Acquisition (2nd ed.). Oxford University Press.
3. Halliday, M. A. K., & Matthiessen, C. M. I. M. (2004). An Introduction to Functional Grammar (3rd ed.). Hodder Arnold.
4. Larsen-Freeman, D., & Cameron, L. (2008). Complex Systems and Applied Linguistics. Oxford University Press.
5. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). How Languages are Learned (4th ed.). Oxford University Press.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
7. Saville-Troike, M. (2012). Introducing Second Language Acquisition (2nd ed.). Cambridge University Press.

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH BOLA TARBIYASIDA ERTAKLAR MUHIM OMIL SIFATIDA

Teshebayeva Lolaxon Ravshanovna,
FarPI, O‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrasi assistenti
Muzaffarova Shahzodaxon Jamshid qizi,
ICHB fakulteti 68-24 BHr guruh talabasi

Annotatsiya: 1. Tadqiqot maqsadi: maqolada inson kapitalini rivojlantirishda ta’lim va tarbiya muhimligi hamda bolalarni tarbiyalashda ertaklar omil sifatida izohlash, uning asosiy belgilari

bo‘yicha muallif qarashlarini bayon qilish. 2. Tadqiqot metodlari: tahlil, qiyosiy chog‘ishtirma, umumlashtirish;

3. Tadqiqot natijalari: ertaklarning bola tarbiyasida o‘ziga xosligi;

4. Xulosa. Bolalarga ertaklarni aytib berish orqali tarbiyalash muhim ekanligini aniqlashdir.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, rivojlanish, ertaklar, tarbiya vositasi, g‘oyalar, porloq kelajak

Аннотация: 1. Цель исследования: объяснить значение образования и воспитания в развитии человеческого капитала и сказки как фактора воспитания детей, выразить взгляды автора на ее основные особенности.

2. Методы исследования: анализ, сравнительный анализ, обобщение;

3. Результаты исследования: своеобразие сказок в воспитании детей;

4. Резюме. Цель состоит в том, чтобы выяснить, насколько важно обучать детей, рассказывая им истории.

Ключевые слова: детская литература, развитие, сказки, образовательное средство, идеи, светлое будущее.

Abstract: 1. Purpose of the study: to explain the importance of education and upbringing in the development of human capital and fairy tales as a factor in raising children, to express the author’s views on its main features.

2. Research methods: analysis, comparative analysis, generalization;

3. Research results: the uniqueness of fairy tales in raising children;

4. Summary. The goal is to find out how important it is to teach children by telling those stories.

Key words: children's literature, development, fairy tales, educational tool, ideas, bright future.

Kirish. Til faqatgina kommunikativ maqsadlarda foydalanilibgina qolmay, ma’lum xalq, millatga xos tushunchalar, odatlar, umuman, tarix va ma’naviyat, madaniyatni avloddam avlodga yetkazuvchi vosita hamdir. Bu o‘rinda til va adabiyot fanlari o‘zaro kesishib, adabiy asarlar yordamida tilning tashuvchilik vazifasi yanada aniq namoyon bo‘ladi. Bolalar adabiyoti namunalari tili esa o‘ziga xosligi, lingvopoetik, lingvokulturologik jihatlari bilan ajralib turadi.

Bolalar adabiyoti so‘z san’ati va tarbiya vositasidir. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga,

saviyalariga mos, kitobxonlar qalbida o‘y-fikrlar uyg‘otadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak g‘oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan bo‘lishi zarur. Eng muhimi, mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi kerak.

Bolalar adabiyoti yoshlarni imon-e’tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mustaqil mamlakatimizning qudratli qurolidir. Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi. Ilm-fanga muhabbatini oshiradi.

Bolalar adabiyotining yana bir xususiyati uning harakatga boyligidir, undan bolalar adabiyotida syujetga bo‘lgan talab ham kelib chiqadi [10. 42-b]. Bolalar adabiyotiga xos asarlar tarbiyaviy ahamiyati, yosh xususiyatlari bilan bir qatorda, bunday asarlarga xos o‘zgacha til hamda lisoniy qurilmalar mavjudligi bilan ham xarakterlanadi.

Bolalar adabiyotiga xos asarlar folklor namunalari, ya’ni muallifi noma’lum, xalq vakillari tomonidan yaratilgan yoxud yozuvchi, shoirlar tomonidan maxsus yozilgan asarlarga ajratilishi mumkin. Har ikki turga mansub adabiyoti namunalari ham lisoniy o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi.

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo‘shiqlar, afsonalar, ertak va dostonlarda o‘zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu kurashlarini ifodalagan. Xalq og‘zaki ijodi o‘zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g‘oyalar bilan yo‘g‘rilganligi, xalq turmushi, mehnati, xullas, xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog‘liqligi bilan ham g‘oyatda e’tiborlidir. Bolalar folklori ko‘pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi (alla), ba’zi hollarda bolalar o‘z o‘yinchoqlari asosida o‘zlari ham alla, qo‘shiq va ovutmachoqlar to‘qiydilar. Bularning hammasi bir bo‘lib faqat yaxshi tarbiyani targ‘ib qiladi [5. 9-b].

Bolalar adabiyoti –bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui. Bularning asosiy qismini badiiy asarlar tashkil etadi. Jahon xalqlari, shu jumladan o‘zbek xalqi bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o’yin qo’shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, maqol, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo’ljallab yaratilgan og’zaki ijod namunalaridan boshlanadi. Bolalar adabiyotini bevosita bolalarga mo’ljallab yaratilgan va aslida bolalarga mo’ljallanmagan bo’lsa-da, keyinchalik bolalar adabiyotiga o’tib qolgan asarlarga ajratish mumkin [2]. Bolalar adabiyoti keng qamrovli va boy bo‘lishiga qaramay, ertaklar bolalar adabiyotiga xos markaziy janrlardan sanaladi.

Ertak –xalq ogʻzaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; toʻqima va uydirmaga asoslangan sehrli-sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. M. Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani ogʻzaki tarzda hikoya qilish maʼnosini bildiradi. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Fargʻona oʻzbeklari orasida matal, Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida choʻpchak deb ataladi [4]. Ertaklarda hayotiy voqealar xayoliy uydirmalarga yoʻgʻrilgan holda bayon etilishi ularning ravon oʻqilishi, kitobxonni ishontira olishini koʻzda tutadi.

Adabiyotlar tahliliva metodlar. Maʼlumki, oʻzbek tilida ertaklar syujet va kompozitsiyasi, mazmuni, tili, uslubiy xususiyatlariga koʻra hayotiy ertaklar, sehrli afsonaviy ertaklar, ijtimoiy-maishiy ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar kabi turlarga boʻlinadi [6. 10-b]. Sehrli afsonaviy ertaklar sehr-jodu, uydirmalar asosida yaratilgan boʻlib, ularda xayoliy qahramonlar, obrazlar, sehrli buyumlar, sehrgarlar keng uchraydi. Maishiy ertaklar turmush muammolariga bagʻishlanadi, hayvonlar haqidagi ertaklarda esa hayvonlar asosiy qahramonlar sanalib, majoziy maʼno aks ettiradi.

Ertaklar qadim zamonlardan beri ogʻizdan ogʻizga, avloddan avlodga oʻtib, saqlanib kelayotgan xalq ogʻzaki ijodiga xos keng tarqalgan janrlardan biridir. Ertaklar bolalar folkloristikasining alohida janri sanalib, oʻziga xos qator xususiyatlari bilan boshqa janrlardan farqlanadi. Shu bilan birga, turli xalqlarga xos ertaklar ham oʻz xususiyatlariga koʻra farqlanishi mumkin.

Tilshunoslar T.Kuznetsova va O.Orlovalar XX asr birinchi yarmi AQShda yaratilgan ertaklarni tahlil qilar ekanlar, fantaziya va realizmning oʻzaro uygʻunligi koʻplab AQSh yozuvchilari uchun xos ekanligini, bunda haqiqiy hayot va sehrli olam oʻzaro birlashishi, va bu xususiyat koʻproq oʻsmirlar adabiyotiga xos ekanini qayd etishadi. Shuningdek, mualliflar Yevropa, xususan, Buyuk Britaniya folkloriga asoslangan Yevropa adabiyotida ertaklarning fantaziya asosiga qurilishi, ularda realizm koʻzga tashlanmasligini ham qayd etib, shu orqali Yevropa va AQSh ertaklarini oʻzaro farqlaydilar [8]. Ertaklarning qurilishi, mazmuni, realizm yoxud fantaziyaga asoslangani, oʻz-oʻzidan, ertaklarda lisoniy lirliklar, sintaktik qurilmalar, onomastik birliklarning ham farqlanishiga sabab boʻladi.

Natijalar Va Muhokama. Ertaklardagi voqealar, odatda, o‘tmishda, o‘tgan zamonda qachonlardir sodir bo‘lgan bo‘ladi. Bu ham ertaklarga xos universal xususiyatlardan biridir.

Ertaklarda hamisha aniq ifodalangan ijobiy va salbiy qahramonlar mavjud bo‘ladi. Ma’lumki, real hayotda to‘liq yaxshi yoki to‘liq yomon insonlar bo‘lmaydi. Lekin ertaklarda ijobiy va salbiy qahramonlar aniq farqlanadi, bo‘rttirib ko‘rsatiladi, biror qahramon yo ijobiy yo salbiy bo‘ladi. Yana shunisi ahamiyatliki, ko‘pincha ertaklarda salbiy qahramonlar ertak so‘nggida afsus chekib, ijobiy qahramonga aylanadi. Bunday xususiyat ham barcha xalqlar ertaklariga xos.

Ertaklarga xos universal xususiyatlardan yana biri shuki, ularda odatda qandaydir yechilishi kerak bo‘lgan muammo, hal etilishi zarur bo‘lgan masala bo‘ladi, misol uchun, kimnidir yovuzlik changalidan qutqarish va hokazo.

Ertaklarda real haqiqatlar real bo‘lmagan, sehrli vositalar, voqea-hodisalar orqali ifodalanadi. Misol uchun, “Bo‘g‘irsoq” ertagida bo‘g‘irsoqning gapirishi, harakatlanishi, bobosi va buvisidan qochib ketishi, turli hayvonlar bilan so‘zlashishi aslida kundalik sodir bo‘ladigan, real voqeliklar emas. Lekin ertakdan anglashiladigan mazmun – oila a’zolaridan qochib ketib qolgan kichik bolakay yovuz insonlarning tuzog‘iga tushishi, ulardan zarar ko‘rishi mumkinligi real voqelik sanaladi. Demak, bunda real voqelik majoziy tarzda real bo‘lmagan holatlar orqali ifoda etilgan.

Ertaklar, bolalar auditoriyasini ko‘zda tutgan bo‘lsa ham, ularda jamiyatda uchrab turadigan holatlar, muammolar yoritiladi, yomon odatlar tanqid ostiga olinadi, yomon xulqli insonlar majoziy tarzda gavdalantiriladi va bular orqali o‘quvchilarni tarbiyalash vazifasi ham ko‘zda tutiladi.

Ertaklarning qiziq tomoni shundaki, an’anaviy xalq ertaklari turli davrlarda, turli sivilizatsiyalarda yaratilgan bo‘lsa ham, o‘zlarining mifologik mazmunida ko‘plab umumiy belgilarga ega. Hatto qo‘shni bo‘lmagan va bir-biridan uzoqda joylashgan mamlakatlarda ham o‘xshash ertaklar mavjud. Uzoq nemis qishlog‘idagi ertak Gretsiya yoki Hindistondagi ertak bilan deyarli bir xil. Misol uchun, “Qizil qalpoqcha” ertagini Fransiya, Eron, Xitoy va bir qancha Afrika mamlakatlarida 70 ta variantda topish mumkin. Bundan tashqari, afrikalik qabilalarda Shimoliy va Markaziy Amerikaning tub aholisi bilan o‘xshashliklarga ega ertaklar mavjud. Ertaklarga xos bunday universallikning diqqatga sazovor tomoni shundaki, ertaklar qadimgi savdo yo‘llari bo‘ylab juda katta masofalarda,

o‘sha paytda transport vositalarining yetishmasligi kuzatilgan bo‘lsa ham, qanday qilib turli xalqlarda tarqalganligini izohlash oson emas [3].

Rus olimi Propp ertaklarga xos yetti turdagi ishtirokchilarni tahlil qiladi. Bu ishtirokchilar quyidagilar: 1) yovuz – uning maqsadi oilaning, qahramonning tinchligini buzish (masalan, “Qizil qalpoqcha”da bo‘ri); 2) donor – uning vazifasi qahramonga foydali maslahat berish yoki yordam beruvchi vositani taqdim qilish; 3) bosh qahramonga yordamchi obraz, do‘st; 4) malika – odatda malikalar otalari bilan birga namoyon bo‘ladi; 5) dispetcher – vositachi. Uning asosiy maqsadi yarashtirish; 6) bosh qahramon. Ular 2 turli bo‘lishi mumkin. Qahramon-qurbon – biror qiyin vaziyatga tushib qolgan ijobiy obraz; qahramon-qutqaruvchi – qurbonni xalos etuvchi ijobiy obraz; 7) yolg‘on qahramon odatda o‘zini qahramondek ko‘rsatuvchi, mukofotga erishishni istovchi qahramon [9. 154-b]. Bular barcha xalqlar ertaklariga xos bo‘lgan universal obrazlar sanaladi. Bir ertakda barcha obrazlarning namoyon bo‘lishi shart emas, ulardan qaysilaridir ishtirok etishi mumkin.

Kitobxonlar ertaklarni tuzilishi va shakliga qarab taniy oladilar. Ular dastlabki vaziyatdan keyin turli xil to‘siqlar bo‘lishini, bu oxir-oqibat qahramonning baxtli yakunga erishishiga olib kelishini yaxshi biladilar. O‘quvchilar, shuningdek, qahramon uch xil to‘siq, muammo yoki hodisaga duch kelishidan oldin, bir nuqtada izolyatsiya qilinishini (o‘zi yakka holda bu to‘siqlarga ro‘para bo‘lishini – izoh bizniki) kutishadi. O‘quvchi ertaklarning chuqur ma’nolari haqida o‘ylamasdan, haqiqatdan qochib, sehrlangan ertak dunyosiga kirgan holda voqealar rivoji qanday bo‘lishini va (qahramonning) qanday qilib baxtli yakunga yetishlari haqida qandaydir tasavvurga ega bo‘lishi mumkin [1. 92-b]. O‘quvchilarning bunday tasavvurlari esa ertaklarning universal xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Ko‘p ertaklar universal xarakterga ega bo‘lganligi, ko‘p hollarda o‘xshash obrazlar, o‘xshash motivlarning uchrashi kitobxonlarda ertakning voqealar rivoji qanday kechishi va qanday yakun topishi haqida oson va asosli xulosa qila olishiga ko‘maklashadi.

“Ertaklarda “Sehrli narsa-buyumlar” konsepti mavjud bo‘lib, ular insonlarning fetishistik, totemistik qarashlari natijasida paydo bo‘lgan hamda quyidagi kognitiv xususiyatlarni ifodalagan: inson taqdiri yoki tabiat olami bilan bog‘liq biror bir sirni ochish, axborot berish (sehrli tosh, sehrli olma), yomonlik va yovuzlikni jazolash (taroq, sehrli oyna, ur to‘qmoq), farovon hayot kechirish umidi (ochil dasturxon, uchar gilam, ochil supra)”[11. 75-b].

Lekin, albatta, ertaklarda o‘xshashliklar bilan bir qatorda o‘ziga xosliklar ham namoyon bo‘ladiki, bunday farqlanishlar har bir millat va xalqning madaniyati va turmush tarzidan hikoya qiladi.

Xulosa. Har bir millatning, xalqning ertagi o‘sha yurtning tarixini, ma’naviy-madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, imon- e’tiqodini boshqa qardosh el-u elatlar bilan ijtimoiy munosabatlarini, urf-odatlarini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o‘rganishda muhim manba vazifasini o‘taydi. Inson kapitalini rivojlanishida dastlab bolalar tarbiyasidan boshlash hamda bu tarbiyada ertaklardan kengroq foydalanish orqali inson tafakkurini rivojlantirish hamda fikrlash dirasini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ana Neophytou. Why are Grimms' Fairy Tales so Mysteriously Enchanting?// https://academicworks.cuny.edu/
2. https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/bolalar-adabiyoti-uz/
3. https://tellusmind.com/blogs/news/universal-truths-hidden-in-fairy-tales
4. https://uztext.com/64318-text.html
5. Jumaboyev M. O‘zbek va chet el bolalar adabiyoti.–Toshkent, 2002. –B.8-9.
6. Jumaboyev M.Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent, 2006. – B.10.
7. Juraqulov R. Ertak janrining o‘ziga xos xususiyatlari// Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 5 | 2022. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-5-786-794
8. Kuznetsova T., Orlova O. Us fairytales of the first half of the 20th century: constructing the national (stylistic and plot peculiarities)//УДК 821.111(73)-343.4. DOI 10.26170/FK20-03-14. ББК Ш383(7Сое)-45. ГРНТИ 17.07.31. Код ВАК 10.01.03
9. Propp, Vladimir. Morphology of the Folktale. 1927. Ed. Louis A. Wagner. Austin: University of Texas Press, 1968. Print.
10. Элмуратова Н.Х. Болалар бадиий адабиётининг ривожланиши// https://cyberleninka.ru/article/n/bolalar-badiiy-adabiyotining-rivozhlanishi
11. Юлдашева Д. Ўзбек болаларига хос оғзаки ва ёзма матнларнинг антропоцентрик тадқиқи. Филол.фанлари док.дисс. – Фарғона, 2022. –Б.75.

THE IMPORTANCE OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

Urinov Rustambek Yoqubjonovich
Senior teacher of the Department of the Uzbek language and teaching languages
e-mail: Rustamsilver96@mail.ru
Tolipov Ergashali Jamoliddin ugli
Student of department Light Industry and Textiles group QXM 33-24

Annotation: The article illustrates the importance of using innovative technologies in education and the significance of their implementation in the educational process. The effectiveness of media education and training using innovative technologies is analyzed.

Key words: Innovative technologies, media education, modernization, internet resources, interactive methods, development.

Аннотация: В статье рассматривается важность использования инновационных технологий в образовании и их внедрения в учебный процесс. Проанализирована эффективность медиаобразования и подготовки кадров по использованию инновационных технологий.

Ключевые слова: Инновационные технологии, медиаобразование, модернизация, интернет-ресурсы, интерактивные методы, развитие.

Annotatsiya: Maqolada ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va ularni o‘quv jarayoniga joriy etilishi yoritib berilgan. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda media ta’lim va kadrlar tayyorlash samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion texnologiyalar, media ta’lim, modernizatsiya, internet resurslar, interfaol metodlar, taraqqiyot.

Introduction. The development of innovation technologies has brought about major changes in the field of education. As a result of globalization in the field of information and communication technologies, the processes of information exchange have accelerated. At present, information and communication technologies have contributed not only to the development and improvement of advanced innovative teaching methods, but also to the organization of new forms of classes with innovative technologies, improving the quality of materials provided to

students in classes and outside of class time, increasing their types, increasing the effectiveness of classes using Internet resources, interactive technologies, etc.

To interact with each student individually and discover a unique strategy for each, modern teachers should, at their core, be smart, but also a psychologist to assist educators in producing a substantial body of material that serves as a guide and aids in overcoming challenging circumstances.

Literature Analysis And Methodology. The need for innovative technologies is undeniable. Lessons with their use become more interesting and vivid. Students are interested in achieving certain learning outcomes, which ultimately allows for improving the quality of education.

The dictionary by S.I. Ozhegov provides the following definition: “new – created or made for the first time, appeared or emerged recently, replacing the previous one, newly discovered, relating to the recent past or the present time, insufficiently familiar, little known [2, p. 135].

Innovation is not any new thing or new development, but only one that significantly increases the efficiency of the current system [1, p.23]. Innovation is, on the one hand, a process of implementation, and on the other, it is an activity to introduce something new into a certain social activity [3, p.164].

Based on the above classification, we see a variety of innovations applied in various branches of science and technology, including education.

Innovative technologies are innovations and changes to the activities of teachers and students in the pedagogical process, which require the use of interactive methods in its implementation. Interactive methods are based on the activity of each student participating in the educational process, free and independent thinking. When using these methods, learning becomes an interesting activity for the student. When interactive methods are used, students acquire the skills and abilities to work independently with the help and cooperation of teachers. Pupils acquire new knowledge on the basis of scientific research, research, experimental tests. The principle of gaining knowledge through science is followed. Participants of the educational process work in small groups.

Discussion. Innovations are characteristic of any professional human activity and therefore, naturally, become the subject of study, analysis and implementation. Innovations do not arise by themselves, they are the result of scientific research, advanced pedagogical experience of

individual teachers and entire teams. This process cannot be spontaneous, it requires management. Therefore, there is a great interest in this topic, the topic of implementation and application of innovative technologies in the process of education in modern schools and obtaining high results from their use.

Preparing a future teacher for the implementation of innovative pedagogical technologies includes:

– familiarizing students with the theoretical foundations of innovative teaching technologies;

– practical mastery of innovative technologies, focusing students on pedagogical creativity, independence;

– studying the best practices in the use of modern pedagogical technologies;

– developing practical skills and abilities in using innovative technologies in the educational process of education institutions [2, c.260].

Assignments are not given to individual students, but to all members of a small group. The main form of organizing the teaching process is the lesson. Currently, various non-traditional forms of lessons are being introduced. Such lessons serve to develop the student's creative abilities, strengthen his intellectual potential, expand his scientific worldview, and develop the skills and abilities to accept every new thing quickly and fully. The use of innovative technologies during the lesson arouses interest in scientific research in students, develops creativity and creativity. As a result, acquired knowledge, skills and abilities are applied in practical activities, the quality of learning increases.

The priorities of the learning process are shifting, and teachers are increasingly responsible for fostering an environment where students can study subjects independently and express their creativity instead of just imparting knowledge. Information and communication technologies have already become an integral part of every lesson, and a teacher is a highly qualified worker who applies the achievements of modern science and technology in his work.

Table 1

Criterion	**Traditional form of Education**	**Innovative form of Education**
Objective	Learning the material set by the program	To teach how to learn (search, processing and analysis of data)

The Teacher's Place	The Teacher is a Source of Knowledge	The Teacher is a Consultant
Forms of knowledge provision	Ready information with a predominance of verbal and textual forms	Independent work, game forms, visual representation
Use of knowledge	Typical tasks	Application of acquired knowledge in real conditions
Predominant form of educational activity	Frontal and individual	Collective and/or group educational work

Using the example of analyzing the work of educational organizations, we see a colossal difference between the usual (traditional) and innovative teaching technologies.

From the analysis of the data in the table it is evident that all the main characteristics of the educational process have undergone changes when applying the innovative approach to the learning process. At present, the emphasis has shifted from the personality of the teacher to the personality of the students, and the main goal of the educational process is the education of a multidirectional personality capable of adapting to changes in the outside world.

We have mentioned above the variety of innovative technologies used in the educational process. Let us consider them in more detail.

Innovative technologies in subject teaching can be divided into two groups:

1. General technologies:

– information and communication technologies (ICT);

– information and analytical support for training and quality management of education;

– didactic;

– health-preserving.

2. Technologies based on a personal approach to training:

– personality-oriented;

– psychological and pedagogical support for the implementation of innovative technologies;

– monitoring of intellectual development;
– educational;
– technology of advanced learning.

As a measure of the effectiveness of pedagogical innovation, optimality requires that teachers and students spend effort to achieve a guaranteed result. Different teachers and students achieve different levels of effectiveness in the course of their personal pedagogical and educational activities. This is why it determines the level of optimality of pedagogical innovations. Effectiveness as the most important sign of innovative methods is manifested only when positive achievements are achieved in the teacher's work.

Conclusion. Practical teachers use innovative technologies and modern teaching methods in their daily work, which include active and interactive forms. Active methods involve direct participation of students, their active position in the educational process. Interactive forms allow for better assimilation of the acquired knowledge through auditory and visual perception. These methods refer to group forms of teaching, when students are offered to work as part of a team, to obtain group knowledge, but at the same time to bear individual responsibility.

Literature and internet sites:

1. Коростелева Е.Ю. Технология формирования у дошкольников и младших школьников умений и навыков, необходимых для развития речи // Вектор науки ТГУ. Серия: Педагогика, психология. 2011. № 1(4) С. 92-96.
2. Kolesnikova T.A., Kolokolnikova Z.U., Lobanova O.B. Application Of Innovative Technologies In The Educational Process Of A Modern School // Scientific Review. Pedagogical Sciences. - 2017. - No. 6-2. - P. 261-269;
3. Roenko L.N. The role of innovative technologies in the methodology of training primary school teachers to teach their native language.// Vector of Science TSU. 2012. No. 2 (9). P. 259-260
4. Urinova F. A., Usmonova S. Y. Q. In Continuous Education System
Humanistic Charakteristics Of Partnership Pedogogy //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 12. – С. 317-322.

ACCURACY AND FLUENCY IN TEACHING CLT

Dekhkonboy nabirasi Omongul Makhamadsoli kizi,

FerPI, assistant of Uzbek language and teaching languages department,
Tohirjonova Manzurakhon Yorkinjon Kizi,
Construction faculty, sallaytudent of 10-24 Architecture
Omongulxon@ferpi.uz

Annotatsiya: 1. Tadqiqot maqsadi: Maqolada kommunikativ usulda tillarni o`rgatishda aniqlik va ravonlikning ahamiyatini tushuntirish, uning asosiy xususiyatlari haqida muallifning fikrlarini bayon etish; 2. Tadqiqot usullari: tahlil qilish, tarixiylik, umumlashtirish; 3. Tadqiqot natijalari: so‘zlovchining lingvistik o‘ziga xosligi; 4. Xulosa. Kommunikativ usulda tillarni o`rgatishda aniqlik va ravonlikni o‘rganish - bu fikrni bayon qilishda nima muhimligini aniqlashdir.

Аннотация: 1. Цель исследования: в статье объяснить важность точности и беглости обучения коммуникативному языку, изложить взгляды автора на его основные особенности; 2. Методы исследования: анализ, историчность, обобщение; 3. Результаты исследования: языковая личность говорящего; 4. Резюме. Изучение точности и беглости преподавания. Обучение коммуникативному языку направлено на выяснение того, что важно при донесении своей мысли.

Annotation: 1. The purpose of the research: in the article to explain the importance accuracy and fluency in teaching Communicative Language Teaching, to state the views of the author on its main features; 2. Research methods: analysis, historicity, generalization; 3. Research results: linguistic identity of the speaker; 4. Summary. Studying accuracy and fluency in teaching Communicative Language Teaching is all about finding out what is important in making a point.

Kalit so‘zlar: Ravonlik va aniqlik, nutq, til, lug‘at, topshiriq.

Ключевые слова: Беглость и точность, разговорная речь, язык, словарный запас, выполнение заданий.

Keywords: Fluency and accuracy, speaking, language, vocabulary, assignment.

Introduction. Fluency and accuracy are closely related and are necessary for successful communication. According to Kumar’s research Encarta encyclopedia observes that fluency counts the percentage of how people understand what you say while accuracy in speaking counts how exactly/correctly you use grammar in your speech [5]. Two essential elements of learning a second language are fluency and accuracy. It appears that many language learners choose mastering grammatical usage

and accuracy over fluency in today's society. For many years, there has been debate over the contentious question of accuracy and fluency. Some activists hold a different perspective and assert that learning a language entails knowing how to use it, despite some formalists' contention that learning a language entails learning formals and norms [1, p. 12]. This article will so contend that fluency is not always more significant than correctness. It is dependent upon the demands of the students and the goal of the second language learning program.

Methodology. Fluency refers to the ease with which you express yourself, especially when speaking. The explanation may have a few grammar errors, but it should be delivered in a clear and understandable manner that demonstrates your command of the language. This is one of the abilities to focus on for an oral presentation or debate in an academic or even professional setting [3]. As crucial as the content of your presentation is how you explain your issue or illustrate your point - smooth, clear, and concise without too many pauses or hesitations. Fluency can help you socialize with native English speakers outside of the classroom and prevent misunderstandings.

Accuracy, on the other hand, indicates your ability to accurately employ required vocabulary, syntax, and punctuation, such as verb forms (past tense, present tense, etc.), articles (a, an, the), and prepositions (in, on, from, at). This ability is especially necessary for university written assignments such as essays and lab reports. It's also a must in the workplace, where an email or report littered with grammatical or punctuation errors could be perceived as unprofessional. Aside from taking a course, reading any form of English literature on a daily basis is a simple approach to improve your accuracy in English. Reading is an easy but efficient way to grasp the complexities of English language and punctuation, whether it's a novel, a nonfiction book, a newspaper, or a magazine.

So, it would not matter in which scenario do the learners find themselves, and what are their goals? Of course, having a good grasp on both fluency and accuracy is vital for being a well-rounded English speaker, but this is a learning path that takes time and attention.

In studying a foreign language, which is more important? fluency or accuracy? The answer may not be as simple as we think, because it all relies on our current circumstances as a language learner and our objectives [4]. In a class, it's critical to strike a balance between fluency and accuracy across the several phases and activities. Learners normally

obtain a significantly higher degree of prof iciency in the receptive skills than in the producing skills. Like any other form of skill, language proficiency comes from a great deal of practice. The student should gradually improve their proficiency throughout the teaching-learning development process [2, p. 78]. First and foremost, we mean that someone knows the language when we say that they can speak it and comprehend it. Communication was the primary purpose of language's creation.

In language learning, fluency refers to the ability to communicate successfully using the spoken or written form of the language. While fluency does necessitate a basic understanding of vocabulary and syntax, the language produced does not need to be perfect as long as you can be understood properly. Accuracy, on the other hand, relates to the ability to produce grammatically correct spoken or written language. While learning the right forms of the language is vital, accuracy does not ensure fluency in communication.

One might see someone speaking English fluently, and people can understand that person easily and clearly. But if you ask a native speaker or a teacher, he will point out several wrong things in grammar. Some other persons will be very good at grammar and vocabulary, but if their pronunciation is not good, people misunderstand him though he uses the sentences in standard and correct English. Therefore, the teacher has to combine fluency and accuracy and meticulously design certain language tasks that may help the learner to improve the speaking skill [5].

The best way to involve the learners in speaking activities is by giving them interesting topics. To do this, the teacher has to think first about what is interesting for the learner rather than to him, for instance, a topic like “How will end the war between Russia and Ukraine?.” Naturally, such topics arouse curiosity among the learners to say something on the topic.

When all the learners start getting involved in those activities, topic will become more difficult like “Are Russia’s actions good?.” At the same time, teacher gives them appropriate input on the topic. For example, what is democracy for you? How would it be good or bad for the country? In which areas democracy is necessary and is not necessary questions are supposed to be discussed. When learners start speaking spontaneously, teacher identifies the frequent mistakes which they commit during the activity, and stop the class momentarily to focus all the students on that mistake. No student should be singled out. This avoids embarrassment for

the individual who made the mistake, so they can participate willingly in the class. Language acquisition involves the active participation of the learner. Unlike acquiring knowledge in any field, which can be attained by listening to a lecture or reading a book, language learning requires the learner to ‘use’ the language.

Conclusion. To sum up it is important to give the learner as much exposure as possible to practise the language. Fluency is essential and accuracy will come later. Developing fluency might also benefit from these techniques. However, it is advised that you expose yourself to the foreign language through immersion methods or passive study in order to develop the latter skill. Being exposed to English through regular, non-academic activities like watching films, reading books, listening to music, or finding a language exchange partner is known as passive study. When we refer to immersion tactics, we imply situations when the learner is limited to speaking with native English speakers, such as during a stay in the language.

Reference:

1. Antunez B. Implementing Reading First with English language learners. New York: Directions in Language and Education, 15, 2002. p. 1.
2. Bailey K. M. & Savage, L. (Eds.). New ways in teaching speaking. Washington, DC: TESOL, 1994. p. 78.
3. The use of political euphemisms in English and Uzbek languages DNOM Qizi - International Journal of Advance Scientific Research, 2022
4. Hushmuomila murojaat shaklining turli darajalarda qo ‘llanilishi DI Ergashova, OM qizi Dexqonboyeva - Educational Research in Universal Sciences, 2023
5. Political Euphemisms in English and Uzbek Languages (A Comparative Analysis) UD Sotvoldiyevna - Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 2022
6. https://www.researchgate.net/publication/259974086_Teaching_Speaking_from_Fluency_to_Accuracy

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR SIYOSATINING O‘RNI

Ilyosov Asrorjon Axrorjon o‘g‘li,
Farg‘ona politexnika instituti, “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti v.b., PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlar siyosatining ahamiyati va inson kapitalini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Yoshlarning bilim, ko‘nikma va salohiyatlarini rivojlantirish, kasb-hunar ta’limini takomillashtirish, bandlik va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda davlat siyosatining o‘rni tahlil qilingan. Maqolada yoshlar siyosatining hududiy taraqqiyotga, xususan, iqtisodiy o‘sishga, innovatsiyalarni joriy etishga va jamiyatda barqarorlikni ta’minlashga qanday hissa qo‘shishi ko‘rsatib berilgan. SHuningdek, hududlarda yoshlar siyosatining samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat siyosati, inson kapitali, yoshlar siyosati, “erta demografik dividend”, yoshlar tadbirkorligi, Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari.

Аннотация. В данной статье анализируется значение молодежной политики в социально-экономическом развитии нашей страны и ее роль в развитии человеческого капитала. Анализируется роль государственной политики в развитии знаний, навыков и потенциала молодежи, совершенствовании профессионального образования, поддержке занятости и предпринимательства. В статье показано, как молодежная политика способствует развитию региона, в частности, экономическому росту, внедрению инноваций и обеспечению стабильности в обществе. Кроме того, разработаны практические предложения и рекомендации по повышению эффективности молодежной политики в регионах.

Ключевые слова: государственная политика, человеческий капитал, молодежная политика, «ранний демографический дивиденд», молодежное предпринимательство, Молодежные индустриально-предпринимательские зоны.

Abstract. This article analyzes the importance of youth policy in the socio-economic development of our country and its role in the development of human capital. It analyzes the role of state policy in developing knowledge, skills and potential of young people, improving vocational education, supporting employment and entrepreneurship. The article shows how youth policy contributes to the development of the region, in particular, economic growth, the introduction of innovations and ensuring stability in society. In addition, practical proposals and recommendations for improving the effectiveness of youth policy in the regions have been developed.

Keywords: state policy, human capital, youth policy, "early demographic dividend", youth entrepreneurship, Youth industrial and entrepreneurial zones.

Tarixiy taraqqiyot ko‘rsatmoqdaki, mamlakatning rivojlanishi, erishayotgan yutuqlari, xalqning farovon hayot kechirishi har qanday mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor, amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uzviy bog‘liqdir. Albatta, bunda asosiy e’tibor yoshlar qaratiladi desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri – yoshlar siyosatidir.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat[1].

Butun dunyo aholisining 16 %i, zamonaviy O‘zbekiston aholisining 60 % ini 30 yoshgacha bo‘lgan bolalar va yoshlar tashkil qiladi. Mamlakatimiz “erta demografik dividend” bosqichidagi davlatlardan biridir. Kelgusi 15-20 yil ichida ular O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan eng yirik ishchi kuchiga aylanib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi darajasiga ko‘tarish uchun noyob imkoniyat yaratadilar. Tadqiqotlar va yoshlarning qarashlari asosida yoshlarni rivojlantirish bo‘yicha strategik uzoq muddatli istiqbolni belgilash mavjud demografik potentsialdan samarali foydalanishga yordam beradi[2].

Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha 19-30 yoshdagilar orasida o‘qishni davom ettirmaydigan, kasb-hunar ta’limi va majburiy o‘rta ta’limni tugatgandan keyin ishlamaydiganlar 54,6 %, ya’ni ayollarda bu ko‘rsatkich 74,0 %, erkaklarda esa 24,8 % ni tashkil qilmoqda. Milliy, oilaviy, ma’naviy omillar va iqtisodiy imkoniyatlarni asosiy omillar qatoriga kiritish mumkin. SHahar yoshlariga qaraganda qishloqlardagi imkoniyatning sezilarli darajada farq qilishi, ularni ko‘proq tadbirkorlik faoliyati orqali o‘z kelajagini belgilashni taqozo qiladi. Oliy ta’lim bilan qamrov darajasi va boshqa bir qator bandlikka ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan tashqari qolayotgan yoshlar kelajagini belgilash, ular bandligini ta’minlash va munosib turmush sharoitlarini yaratish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Mamlakatimizda yoshlarni huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirokini ta’minlash, ularning jamiyat taraqqiyotida o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari, tadbirkorlik

faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun har tomonlama huquqiy kafolatlar yaratilgan. Fikrimizning dalili sifatida bugungi kunga qadar yoshlarga oid qabul qilingan 50 ga yaqin qonun hujjatlarini keltirib o‘tish mumkin. Shuningdek, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi Qonunga asosan yoshlar tadbirkorligiga quyidagicha ta’rif berilgan. Yoshlar tadbirkorligi – yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta’sischilari yosh fuqarolar bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati[3]. Shuningdek, Qonunga asosan yoshlarga oid davlat siyosatining printsiplari, yo‘nalishlari, davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlar mazmun mohiyati asoslab berilgan.

Qonunda yoshlar tadbirkorligi uchun shart-sharoitlar yaratish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan bo‘lib, bu borada keyingi yillarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. SHu bilan birga, “Yoshlar — kelajagimiz” Davlat dasturiga ko‘ra yoshlar tadbirkorligi bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish belgilab berildi:

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida «Yoshlar — kelajagimiz» jamg‘armasini (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma), shuningdek, uning tuman va shahar filiallarini tashkil etish, Jamg‘armaning mablag‘laridan Davlat dasturidagi tadbirlarni moliyalashtirish, jumladan quyidagilarni amalga oshirish uchun foydalanish:

– tijorat banklari orqali yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun 2019 yil 31 dekabrga qadar — yillik 7 foiz stavkada, 2020 yil 1 yanvardan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasida, 2021 yil 1 yanvardan esa tijorat banklari tomonidan bozor tamoyillari asosida mustaqil ravishda o‘rnatiladigan stavkalarda kredit va mol-mulkni lizingga berish;

– Davlat dasturi doirasida olinadigan kreditlar bo‘yicha kredit hajmining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda kafilliklar berish;

– Davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan tadbirkorlik loyihalarida ular qiymatining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda ishtirok etish, keyinchalik Jamg‘arma ulushini 5 yil davomida realizatsiya qilish;

– tegishli ko‘nikmalarga ega, band bo‘lmagan yoshlar yashaydigan uy xo‘jaliklari uchun 20 tagacha parranda va quyon bolasi, 5 ta mayda va 2 ta yirik qoramol sotib olish, ularning qiymatini kelishilgan

muddatlarda qaytargan holda ularni boqish va keyinchalik realizatsiya qilishda ko‘maklashish;

1-jadval.

Farg‘ona viloyati yoshlar balansi

t/r	Yoshlar soni		Oliy ta’lim muassasalari talabalari		Yo‘nalishlar kesimida bandligi ta’minlanadigan yoshlar		
	jami	Xotin-qizlar	soni	Ulushi, %	jami	Tadbirkorlik	
						soni	ulushi, %
	2	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*
	702192	357009	36740	5,2	74565	10123	13,6

Farg‘ona viloyatida ham yoshlarga oid davlat siyosatidan kelib chiqib, yoshlar bandligini ta’minlash hamda ularni tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha bir qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2021 yil iyulь oyi holatiga viloyatimizda 18-30 yosh orasidagi 702192 nafar yoshlar bo‘lib, ulardan 357009 nafari yoki qariyb 51,0 %ini xotin-qizlar tashkil etmoqda (1-jadval).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Viloyat yoshlarining 36740 nafari, ya’ni 5,2 %igina OTM talabalari hisoblanadi. Tadbirkorlik yo‘nalishida faoliyat yuritishi rejalashtirilganlar esa 10123 nafar yoki 13,6 %i bo‘lib, ushbu yo‘nalishda ularni o‘zlari tanlagan tadbirkorlik turlari bo‘yicha o‘qitish ishlari tashkil etilib, sertifikatlar asosida bank kreditlari ajratib berilmoqda. Statistika boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra viloyatimizda 81037 nafar (11,5 %) yoshlar “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoki bandligi ta’minlanmagan hisoblanadi.

2-jadval.

Respublika va viloyatlar kesimida YoSTZ haqida ma’lumot

	Joylashgan manzili	Jami ishga tushiriladigan YoSTZ		2021 yil 1 sentyabrga qadar ishga tushiriladigan YoSTZ	
		soni, dona	maydoni, ga	soni, dona	maydoni, ga
	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	18	44,2	1	2,0
	Andijon viloyati	20	93,4	20	89,4
	Buxoro viloyati	13	46,3	3	12,5
	Jizzax viloyati	14	65,1	4	20,1
	Qashqadaryo viloyati	15	26,85	1	1,09

	Navoiy viloyati	11	45,7	2	10,65
	Namangan viloyati	19	119,3	10	62,2
	Samarqand viloyati	16	43,1	4	12,0
	Sirdaryo viloyati	12	21,9	5	9,7
	Surxondaryo viloyati	16	50,05	5	15,45
	Toshkent viloyati	20	53,8	7	18,5
	Farg‘ona viloyati	22	113,7	7	48,5
	Xorazm viloyati	13	48,8	7	26,2
	Toshkent shahri	10	33,4	1	2,6
jami		**219**	**805,6**	**77**	**330,89**

SHu bilan birga, bandligi ta’minlanmagan yoshlar bandligini ta’minlashda ularni tadbirkorlikka jalb qilish maqsadida Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari (YoSTZ) lari tashkil etilishi rejalashtirilgan. 2021 yil davomida jami 219 ta YoSTZni tashkil etish rejalashtirilgan bo‘lib, shundan viloyatimizda 22 ta shunday zonalarni tashkil etish ko‘zda tutilgan (2-jadval).

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tayanchi bo‘lgan yirik demografik potentsial – yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish har birimizning vatanimiz taraqqiyoti, yorqin kelajagi oldidagi muqaddas vazifa va burchimizga aylanmog‘i lozim. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish yuzasidan quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- yoshlar tadbirkorligining huquqiy asoslarini yanada mustahamlash;
- har bir hududni chuqur ijtimoiy-iqtisodiy tahlil qilish asosida tadbirkorlik faoliyatining aniq yo‘nalishlari uchun mavjud shart-sharoit va imkoniyatlarni o‘rganish;
- “Yoshlar daftari” ga kirgan hudud yoshlarining tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan o‘quv kurslarini tashkil qilish va samaradorligini oshirish;
- Yosh tadbirkorlarning iqtisodiy tafakkurini oshirishga qaratilgan seminar-treninglar va yetakchi tadbirkorlar ishtirokida mahorat darslari tashkil qilish;
- Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan yoshlar faoliyatini doimiy tahlil qilish va erishilgan yutuqlarni yoritib borish. Bu

o‘z navbatida boshqa yoshlarga o‘ziga xos o‘rnak va motivatsiya vazifasini bajaradi va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan.

2. Молодежь Узбекистана: вызовы и перспективы. Отчёт Представительство Детского Фонда ООН (ЮНИСЕФ) в Узбекистане 2020 г. https://www.unicef .org/ uzbekistan /media/ 3696/file/RUS%20Youth%20of%20Uzbekistan%20Challenges%20and %20Prospects%20Final.pdf

3. O‘zbekiston Respublikasining Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi Qonuni. O‘RQ-406-son 14.09.2016 yil https://www.lex.uz/acts/3026246.

4. Бляхман Л.С. Перестройка экономического мышления. – М.: Политиздат. 1990.

5. Kurpayanidi, K. I., & Ilyosov, A. A. (2022). Sanoat mahsulotlari eksportining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (Farg‘ona viloyati sanoat tarmog‘i misolida)// Monografiya. Al-Ferganus, 2022. ISBN 978-9943-7707-5-1. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.6618980

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – TARAQQIYOTGA ERISHISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Tuxtasinova M.M.
FarPi, katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson kapitali, davlatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini shakllantirishda inson kapitalini roli, O‘zbekistonda inson kapitalini yuksaltirish, jumladan ta’lim va ilm-fanni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, innovatsion inson kapitali yaratish uchun mamlakatda olib borilayotgan islohotlar, inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosat haqida fikr yurinilgan va xulosalar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Inson kapitali, ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, inson kapitalini yuksaltirish, inson kapitalini rivoji, millat salohiyati, . turbulent ijtimoiy-iqtisodiy muhit.

Аннотация: В данной статье рассмотрен человеческий капитал, роль человеческого капитала в формировании

экономической и социальной политики государства, обсуждаются вопросы совершенствования человеческого капитала в Узбекистане, в том числе комплексная поддержка образования и науки, проводимые в стране реформы по созданию инновационного человеческого капитала направленную на улучшение перспектив социально –экономического развития, приводятся выводы.

Ключевые слова: Человеческий капитал, социально-экономическая политика, совершенствование человеческого капитала, потенциал нации, турбулентная социально-экономическая ситуация.

Annotation: In this article, human capital, the role of human capital in the formation of the economic and social policy of the state, the improvement of human capital in Uzbekistan, including comprehensive support for education and science, the reforms carried out in the country to create innovative human capital, human capital and social policy aimed at improving the prospects of socio-economic development is discussed and conclusions are presented.

Keywords: Human capital, social and economic politics, human capital, potential natsii, turbulent social and economic situation**.**

Inson kapitalini rivojlantirish loyihasi davlat rahbarlariga sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy muhofaza qilish salohiyatiga ega o‘zgarishlarni ta’minlaydigan siyosiy platforma yaratishga xizmat qiladi. Bugungi kunda jahonda inson kapitali rivoji nafaqat iqtisodiyot, balki butun jamiyatning yangi sifatini shakllantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Jahon bankining tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda o‘sishning 64 foizi inson kapitalining sifatiga bog‘liqligi qayd etilgan, AQSHda bu ko‘rsatkich 76 foizni, Yevropa davlatlarida esa 74,2 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotda, inson kapitali rivoji uchun sarflangan har bir dollar kelgusida mamlakatga 3-6 dollar foyda keltirishi ta’kidlab o‘tilgan. *[4]*

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ayniqsa so‘ngi 6 yilda Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi hisoblanmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida O‘zbekistonda inson kapitalini yuksaltirish, jumladan ta’lim va ilm-fanni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, aholini, ayniqsa yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari uchun sharoitlar yaratish va salomatligini mustahkamlash, madaniy va ma’rifiy ongini yuksaltirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilidi. Ushbu maqsadlar uchun davlat byudjetidan sarf etiladigan xarajatlar 4,3 baravarga oshirildi. *[1]*

Hozirgi vaqtda dunyoda yuz berayotgan shiddatli innovatsion o‘zgarishlar, raqamlashtirish jarayonlari, sun’iy intelektning joriy etilishi mamalakatimiz oldiga yangidan-yangi dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Bunday sharoitda davlatimizning xamkorlik borasida xali ishga solinmagan ulkan imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanishni taqozo etmoqda.

Mutaxassislarning fikricha, yaqin besh yil ichida jahon mexnat bozorida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Xususanb 83 million ish o‘rni yo‘q bo‘lishi hamda 69 million yangi ish o‘rni yaratilishi kutilmoqda. *[3]*

Zamonaviy sharoitda O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardosh afzalliklari va uni modernizatsiya qilish imkoniyati innovatsiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, asosan to‘plangan va amalga oshirilgan inson kapitali bilan belgilanadi. SHu jihatdan bilimga asoslangan iqtisodiètda barqaror iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va tabiiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan yuqori sifatli inson kapitalini yaratish juda muhimdir. Bu esa inson kapitali holatini o‘rganishni, ham baholashni talab qiladi.

Ta’kidlash kerakki, bugungi kunda jamiyatning inson kapitalining o‘sishi, asosan ilm-fan, ta’lim va sog‘liqni saqlashning inson salohiyatini rivojlantiradigan yuqori texnologiyalarni yaratish ustuvor ahamiyatga ega.

G.Bekerning so‘zlariga ko‘ra, «Inson kapitali - bu har bir insonda mavjud bo‘lgan bilim, ko‘nikma va motivatsiya zahirasi. U ta’limga, ishlab chiqarishga o‘qitishga, sog‘liqni saqlashga, migratsiyaga, narxlar va daromadlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plashga sarflash shaklida inson investitsiyalari (uzoq muddatli kapital qo‘yilmalar) orqali shakllanadi». *[1]* Darhaqiqat, ta’lim, sanoat tajribasini to‘plash, sog‘liqni saqlash, ma’lumot olish inson kapitaliga investitsiyalarni anglatadi. Shu sababli ham bugungi kunda inson va uning qobiliyatlari, bilimlari, ko‘nikmalari har qanday jamiyat ravnaqi va davlatning iqtisodiy rivojlanishining asosiy omiliga aylandi.

Jamiyat qanday bo‘lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui hisoblangan inson kapitali ham unga mos bo‘ladi. Inson kapitali shaxsning ongi, odob-ahloqi, ma’naviyati, dunyoqarashi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog‘liq. Inson aql-idrok sohibi bo‘lganligi bois, real dunyodagi voqealarni tushunadi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi. Inson kapitalini yuksalishiga uni o‘rab turgan ijtimoiy muhitda ro‘y berayotgan jamiki voqealar ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga ko‘tarish uchun ulkan qudrat, katta salohiyat kerak. Bu kuch nimada? Bu kuch va salohiyat millatimizning inson kapitalida. Har bir odamning nimalarnidir bilishida, nimalarni qanday o‘quv va malaka bilan bajara olishida, Vataniga, xalqiga nisbatan cheksiz sadoqatida. Fuqarolik jamiyatini qo‘llab-quvvatlashga kiritiladigan har bir investitsiya kishilarning kreativligini, qonunlarga bo‘ysunishini ta’minlaydi. Jamiyatda ko‘tarinkilik muhiti yuzaga keladi, konstruktiv va ratsional dunyoqarash shakllanadi. Hayot sifatini oshiruvchi nodavlat institutlar paydo bo‘ladi. Odamlar sog‘lom turmush tarziga o‘rganadi. Bularning barchasi xalqimizda kelajakka ishonch kayfiyatini paydo qiladi, hayot sifatini yuksaltiradi.

Innovatsion inson kapitali yaratish uchun mamlakatning har bir oilasi va unda tug‘ilgan farzandlarni kichik yoshidan boshlab bilim olishga yo‘naltirish, qalbida ilmga havas, mehnatga muhabbat uyg‘otish, ularni eng yangi texnologiyalar, jahon standartlari darajasidagi darslik va qo‘llanmalar bilan o‘qitish, o‘rgatish lozim *[5]*.

Inson kapitali darajasini bir nechta usulga asoslanib baholash mumkin. An’anaga ko‘ra, iqtisodchilar buni ko‘proq ta’lim olgan odamlarning daromadi bilan hisoblashadi. Tadqiqotlar har bir qo‘shimcha ta’lim yili inson daromadini o‘rtacha 10 foiz oshirishini isbotladi. Ta’limga kiritiladigan sarmoyalar ham jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kamaytiradi. Aksariyat mamlakatlarda nisbatan o‘ziga to‘q oilalarda tug‘ilgan farzandlar bolalikdanoq keng imkoniyatlardan foydalanishni boshlaydi va u butun umri davomida qator afzalliklarni, qulayliklarni qo‘lga kiritadi. Aksincha, nochor oilalar farzandi shunday imkoniyatlardan bebahra qoladi.

Inson kapitali uchun maxsus element sifatida ta’lim belgilanadi va uning asosiy qismlari to‘rt komponent birlashmasidan tashkil topadi:

- madaniy va etnik xususiyatlar;
- umumiy ta’lim;
- kasb-hunar ta’limi;
- asosiy malaka.



1-rasm. Inson kapitaliga investitsiyalar.

Ta’limga yo‘naltirilgan investitsiya nafaqat mamlakatni rivojlantirishning maxsus strategiyasi, balki inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitali takomillashib, moddiy farovonlik va sog‘lom turmush tarziga erishiladi. Inson kapitali har bir insonning individual kapital shaklidir. Qobiliyat, bilim, ko‘nikma va tajriba har bir yoshning shaxsiy mulkidir.

Shunday qilib, hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy voqelik yuqori daradjadagi o‘zgaruvchanlik va noaniqlik bilan tavsiflanadi, bu esa iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda sezilarli iz qoldiriladi. Ijtimoiy ishlab chiqarishda inson kapitalining tobora ortib borayotgan roli haqidagi tezis inkor etilmaydi va umum e’tirof etilgan. Turbulent ijtimoiy-iqtisodiy muhit inson kapitalini rivojlantirish va undan foydalanishga innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etishni talab qiladi:

1) ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik manfaatlar muvozanatiga erishishga qaratilgan inson ehtiyojlari tizimini yaratish;

2) xodimlarning innovatsion xulq-atvorini oshirishga va ularning tegishli vakolatlarini rivojlantirishga qaratilgan mehnatni rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish;

3) inson kapitalidan foydalanishning istiqbolli vositasi bo‘lgan tashkilotlar faoliyatiga bandlikning nostandart shakllarini joriy etish (masofiy bandlik, platformadagi bandlik, freelancing). Bizning fikrimizcha, taklif etilayotgan yondashuvlarni amaliy amalga oshirish

ijtimoiy sheriklik mexanizmiga asoslanishi va munosib mehnat konsepsiyasining asosiy qoidalarini hisobga olgan holda amalga oshirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2020. -B.10.
2. Беккер Г.С. Человеческое поведение: экономический подход: избранные труды по экономической теории. – М.: ГУ-ВЧЭ, 2003.
3. Erkaeva, G. P., & Ruziqulov, S. Z. (2022). Inson kapitalini shakllanishi, rivojlanish darajalari va inson kapitalini investitsiyalash. Gospodarka i Innowacje., 24, 225-229.
4. Kosimov F. Inson kapitalini rivojlantirishda ta’lim klasterining ahamiyati. Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar, Chirchik, Uzbekistan
5. Tuxtasinova M. Jahon iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy modellaridagi o‘xshashliklar va farqlari. Novыy Uzbekistan: nauka, obrazovanie i innovatsii, jurnal 2024/5/6
6. Тухтасинова М.М. Вопросы подготовки кадров нового поколения в условиях цифровой трансформации. Назарий ва амалий тадқиқотлар халқаро журнали, 2022, №4

TALIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: O‘QUV JARAYONINI MODERNIZATSIYA QILISH VA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI YANGILIKLAR

FarPi, assistant B.Ortiqaliyev
magistr A. Abdurayimov

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim sohasi jadal rivojlanib, texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib bormoqda. Innovatsion yondashuvlar ta'lim tizimiga integratsiya qilinishi nafaqat o‘quv jarayonini sifatli o‘zgartirishga, balki talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini ham sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Ushbu maqola ta'lim jarayonida qo‘llanilayotgan innovatsion yondashuvlarni tahlil qiladi va ularning ta'lim sifatiga ta’sirini o‘rganishni maqsad qiladi.

Kalit so‘zlar: ta'lim, innovatsiya, texnologiya, interaktiv metodlar, raqamli ta'lim.

Аннотация: В настоящее время сфера образования стремительно развивается и тесно переплетается с технологиями. Инновационные подходы, интегрированные в образовательную систему, не только повышают качество учебного процесса, но и значительно повышают успеваемость студентов. В данной статье анализируются инновационные подходы, применяемые в образовательном процессе, и рассматривается их влияние на качество образования.

Ключевые слова: образование, инновации, технологии, интерактивные методы, цифровое обучение

Abstract: Nowadays, the field of education is rapidly developing and is closely intertwined with technology. Innovative approaches integrated into the educational system not only improve the quality of the learning process but also significantly enhance students' academic performance. This article analyzes innovative approaches applied in the educational process and examines their impact on the quality of education.

Keywords: education, innovation, technology, interactive methods, digital learning

Innovatsiyalar ta'limda nafaqat texnologik rivojlanish bilan, balki metodik o‘zgarishlar bilan ham bog‘liq. Ta'lim tizimida keng miqyosda qo‘llanilayotgan innovatsiyalar ichida masofaviy ta'lim, aralash ta'lim (blended learning), adaptive learning (moslashuvchan o‘qitish) va STEM (science, technology, engineering, and mathematics) fanlari kiradi. Ushbu yondashuvlar nafaqat o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantiradi, balki ularni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar o‘qituvchilarni o‘qitish jarayonini boshqarishda yangi imkoniyatlar bilan ta'minlaydi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi ta'lim jarayonida yangi texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarning samaradorligini o‘rganish va ularning o‘quv natijalariga ta'sirini baholashdir[1].

Ushbu tadqiqotda aralash metodologiya qo‘llanildi. Dastlab, ta'limda innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi va anketalar yordamida o‘qituvchi hamda talabalardan ma'lumotlar yig‘ildi. Tadqiqot quyidagi usullar orqali amalga oshirildi:

Dastlabki bosqichda, 2015-2023 yillar oralig‘idagi ilmiy maqolalar, kitoblar va tahlillar ko‘rib chiqildi. Ayniqsa, ta'limda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha yirik xalqaro nashrlar va ilmiy

jurnallardan olingan ma'lumotlar asosida tadqiqot qilindi. Ushbu materiallar orqali innovatsion yondashuvlarning o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sirini ko‘rsatuvchi tahliliy ko‘rsatkichlar yig‘ildi.

So‘rovnomalar talabalarning texnologik innovatsiyalarni qabul qilish va o‘zlashtirish darajasini baholash maqsadida ishlab chiqilgan. O‘qituvchilar orasida esa innovatsion metodlar (masalan, onlayn platformalar, AR/VR texnologiyalari va gamifikatsiya) qanday qabul qilinayotgani o‘rganildi. Har bir ishtirokchidan texnologiyalarni qanchalik samarali deb bilishlari va ulardan foydalanish tajribasi haqida so‘raldi[2].

Tajriba davomida dars jarayoniga interaktiv vositalar, masalan, Kahoot, Google Classroom, Quizlet kabi o‘quv platformalari kiritildi. Talabalarning interaktiv vositalar yordamida o‘zlashtirish darajasi va motivatsiyasi nazorat qilindi. Shu bilan birga, VR va AR texnologiyalari bilan bog‘liq loyihalar ham sinovdan o‘tkazildi.

Tadqiqotning dastlabki natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar o‘quv jarayonida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi:

O‘zlashtirish darajasi: Innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ayniqsa, talabalarning o‘zlashtirish darajasini 25% ga oshirgan. Bu o‘quvchilarning ilg‘or bilim va ko‘nikmalarni tezroq va samarali egallashlarini tasdiqlaydi.

Interaktiv o‘quv vositalari: An'anaviy darslar bilan solishtirganda, interaktiv vositalardan foydalanish natijasida talabalar o‘quv jarayonida faolroq ishtirok eta boshladi. O‘quvchilarning savollarga to‘g‘ri javob berish foizi 35% ga ko‘paydi.

Masofaviy ta'lim: Pandemiya ta'siri ostida, masofaviy o‘qitishning texnologik yondashuvlari, ayniqsa, mobil va raqamli platformalar orqali ta'lim berish samarali bo‘lgan. 85% talabalar masofadan o‘rganishni qulay va interaktiv deb topishdi[3].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik va texnologik yondashuvlar ta'lim jarayoniga katta ta'sir ko‘rsatadi. Raqamli vositalar va interaktiv metodlar yordamida ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi, shuningdek, o‘quvchilarning bilim darajasini chuqurlashtirish imkoniyatlari kengayadi. Innovatsiyalarni joriy etishdagi asosiy qiyinchiliklar o‘qituvchilarning texnologik savodxonligini oshirish zarurligi va moddiy resurslarning yetarli emasligi bilan bog‘liqdir.

Innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi ko‘p jihatdan ijobiy ta'sir ko‘rsatadi, ammo bu jarayonda ayrim muammolar va qiyinchiliklar ham kuzatildi. Xususan:

Texnologik savodxonlik muammosi: Ba'zi o‘qituvchilar texnologiyalarni to‘g‘ri va samarali qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Innovatsiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun o‘qituvchilarni muntazam ravishda malaka oshirish va o‘qitish zarur.

Resurslar cheklovlari: Raqamli vositalar va innovatsion texnologiyalar har doim ham barcha ta'lim muassasalari uchun yetarli darajada mavjud emas. Ayniqsa, qishloq joylarda bu turdagi texnologiyalarni joriy etish qiyin bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy tengsizliklar: Innovatsion yondashuvlar bilan ishlashda turli oilalardagi talabalarning texnologiyalarga kirish imkoniyatlaridagi tafovutlar ham o‘z ta'sirini ko‘rsatmoqda. Masalan, ba'zi talabalarda zaruriy vositalar (kompyuter, internet) yo‘q bo‘lishi mumkin[4].

Xulosa: Innovatsion yondashuvlar ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni kengroq integratsiya qilish va o‘qituvchilarning professional malakasini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishda va o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ammo bu jarayonda innovatsiyalarni kengroq va teng darajada tarqatish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish hamda moliyaviy va texnologik resurslarni ta'minlashda davlat va nodavlat sektorlarining o‘zaro hamkorligi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, T., & Dron, J. (2011). Three Generations of Distance Education Pedagogy. *International Review of Research in Open and Distributed Learning, 12*(3), 80-97.

2. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. *Jossey-Bass Publishers*.

3. Mayer, R. E. (2014). Multimedia Learning. *Cambridge University Press*.

4. Salmon, G. (2013). E-moderating: The Key to Teaching and Learning Online. *Routledge*.

5. Schunk, D. H. (2012). Learning Theories: An Educational Perspective. *Pearson Education*.

6. Laurillard, D. (2012). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. *Routledge*.

TA’LIMDA INNOVASION YONDASHUVLAR: INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH - TARAQQIYOTGA ERISHISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA.

Uktamjonova Zulayxo Anvarjon qizi,
FarPi, assistenti.
Sodiqjonova Sug‘diyona,
FarPi, magistranti.

Annotatsiya: Inson kapitali tushunchasining markazida albatta har doim inson bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Ammo bugungi kunda bu tushunchaning zamirida yaxshi ta’lim olgan, ijodkor va tashabbuskor, yuqori professionalizmga ega inson yotmoqda. Binobarin, yuqori texnologiyalarga asoslangan va innovasion mahsulot ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotni faqat ana shunday professional ishchi, injener-texnik xodim, menejer va boshqaruvchilarning armiyasi vujudga keltirishi va boshqarishi mumkin. AQSH, Yaponiya va G‘arbiy Yevropadagi boshqa rivojlangan mamlakatlarning namunasi inson kapitali hozirgi davrda zamonaviy iqtisod va jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy ishlab chiqarish va ijtimoiy faktori ekanligini ko‘rsatmoqda. Ushbu maqolada inson kapitalini innovatsion yondashuvlar asosida o‘qitish samaradorligini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: zamonaviy iqtisod, injener-texnik, menejer, inson kapitali, o‘qitish samaradorlik, innovatsion yondashuvlar, ishbilarmonlik qobiliyati.

Abstract: In the center of the concept of human capital, a person has always been and always will be. But today, at the heart of this concept lies a well-educated, creative and enterprising person with high professionalism. Therefore, an economy based on high technologies and producing innovative products can be created and managed only by such an army of professional workers, engineers and technicians, managers and managers. The examples of the USA, Japan and other developed countries in Western Europe show that human capital is the main production and social factor in the formation and development of the modern economy and society. In this article, we consider the effectiveness of training human capital based on innovative approaches.

Key words: modern economy, engineer-technician, manager, human capital, training efficiency, innovative approaches, business ability.

Аннотация: В центре понятия человеческого капитала всегда был и всегда будет человек. Но сегодня в основе этого понятия

лежит образованный, творческий и предприимчивый человек, обладающий высоким профессионализмом. Поэтому экономику, основанную на высоких технологиях и производящую инновационную продукцию, может создать и управлять только такая армия профессиональных рабочих, инженеров и техников, управленцев и управленцев. Примеры США, Японии и других развитых стран Западной Европы показывают, что человеческий капитал является основным производственным и социальным фактором формирования и развития современной экономики и общества. В данной статье мы рассматриваем эффективность обучения человеческого капитала на основе инновационных подходов.

Ключевые слова: современная экономика, инженер-техник, менеджер, человеческий капитал, эффективность обучения, инновационные подходы, деловые способности.

Inson kapitali tushunchasi inson faktori va insonning imkoniyatlari (resurslari) tushunchalarining yig‘indisi bo‘lishdan tashqari endi uning iqtisodiy kategoriya ekanligi barcha tarafidan tan olinmoqda. Inson kapitali degan iqtisodiy kategoriyaning shakllanishi ham o‘z-o‘zidan yuz bergani yo‘q, u dastlab uzoq vaqt insonning bilim va mehnat qobiliyatini ifodalovchi bir tushuncha sifatida mavjud edi, xolos. Shu bilan birga, inson kapitalini dastlab faqat faqatgina xarajat talab etuvchi ijtimoiy faktor sifatida bilishar edi. Ta’lim va tarbiya uchun sarflangan mablag‘lar ishlab chiqarishga aloqasi bo‘lmagan xarajatlar, deb hisoblanar edi [1].

Zotan, inson kapitali har doim aholining ta’lim va turmush darajasini oshirish uchun sarflangan xarajatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Jumladan, tarbiya, ta’lim, bilimlar (fanlar), sog‘liqni saqlash, ishbilarmonlik qobiliyati va muhitini shakllantirish, mehnat jarayonini axborotlar bilan ta’minlash, fuqarolar va biznesning xavfsizligi, iqtisodiy hurriyat, madaniyat, san’at va boshqa inson uchun zaruriy sohalarga sarflangan investisiyalar pirovard natijada inson kapitalining shakllanishiga asos bo‘ladi va bu kapitalning saviyasi, sifati va qiymatiga ta’sir qiladi. Xullas, inson kapitali – mehnat qiluvchi kishilarning oddiy yig‘indisi emas. Inson kapitali bu professionalizm, bilimga intilish, axborot ta’minoti, sog‘liq, optimizm, tashabbus va mehnatsevarlik kabi tomonlar va xislatlardan yasalgan bir guldasta kabidir [2].

Yuqoridagi ta’riflar, albatta, inson kapitali kabi murakkab jarayonning mohiyatini to‘la ifodalashi qiyin. Chunki, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy fenomen kabi inson kapitalining har bir mamlakatning

asriy an’analarini va xalqning mentalitetini, boshqa mahalliy shart-sharoitlarni o‘zida aks ettiruvchi xususiyatlari mavjud. Shu sababli chet ellik olimlar va mutaxassislarning inson kapitaliga bergan ta’rifi bu murakkab fenomenning barcha qirralarini qamrab ololmaydi. Shu sababli inson kapitalining quyidagi ta’rifini taklif etamiz:

Inson kapitali – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-falsafiy tushuncha (atama) bo‘lib, bu shaxsning [3]:

– fundamental va amaliy bilimi, tajribasi, ko‘nikmalari, tabiat va jamiyatdagi voqea, hodisa va jarayonlarga ilmiy-mantiqiy yondashish, ularning innovasion yechimlarini topishdagi professionallik darajasi;

– intellektual mulki, moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish imkoniyatlari, inson va jamiyat taraqqiyotini kafolatlovchi kuch va vositalar majmuining mavjudligi;

– aqliy mehnati va yuksak innovasion tafakkuri, uning turmush darajasi va kasbiy karyerasining oshishi, jamiyatdagi mavqei va o‘rnini belgilovchi omil. Jamiyat, davlat tomonidan aholining barcha qatlamlariga va toifalariga ayni miqdor va shakllardagi inson kapitali investisiyasi sarflanishiga qaramay, inson kapitalining quyidagi turlari shakllanadi va hukm suradi:

1. Ijobiy (faol) inson kapitali;
2. Salbiy (nofaol) inson kapitali;
3. Manfiy inson kapitali.

1. Ijobiy (aktiv) inson kapitali – o‘zi uchun sarflangan investisiyani to‘la o‘zlashtirgan va uni jamiyatning rivojlanishi va takomillashuvi shaklida ro‘yobga chiqargan kreativ (yaratuvchi) va innovasion kapitaldir. Bu yaratuvchanlik va takomillashuv, jumladan, aholining turmush darajasining oshishi, innovasion salohiyatning yuksalishi, ta’lim tizimining rivoji, ilm-fanning taraqqiyoti, axborot almashinuvi va ta’minoti erkinligi, aholi salomatligining yaxshilanishi kabilarda namoyon bo‘ladi [4]. Chunki, inson kapitalining o‘lchamlari va sifati aholi / shaxsning mentaliteti, ta’lim darajasi, hayotiy tasavvurlari va sog‘liqni saqlash sohasidagi ahvol kabilar bilan o‘lchanadi. Aytish lozimki, ilm-fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabilarga sarflangan investisiyalar tarixan qisqa muddat ichida samara berishi mumkin, ammo asrlar davomida shakllangan mentalitetni qisqa vaqtda o‘zgartirish qiyin. Shu sababli dunyodagi ilg‘or tajriba va bilimlarni milliy / shaxs mentalitetining ijobiy xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish muhimdir. O‘zbekistonda rivojlangan G‘arb va Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi tajribasi o‘zlashtirilar ekan, ayni shu nuqtalarga

jiddiy e’tibor qaratilayotgani diqqatga sazovordir, ya’ni ilg‘or chet el tajribasining xalqimizning milliy mentalitetiga va ko‘p asrlik an’analariga mos keladigan shakllari olinmoqda yoki ular mahalliy shart-sharoitlarga moslashtirilmoqda. Shuningdek, milliy madaniyatimiz, an’analarimiz va yoshlarimizni chet ellardagi ba’zi oqim va harakatlarning zararli ta’siridan saqlash uchun olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar va profilaktik choralar aynan shu maqsadni ko‘zlagandir. Inson kapitali ham ayni konkret shaxs kabi ma’lum bir sivilizatsiya, mentalitet va an’analarning mahsulidir.

2. Salbiy (passiv) inson kapitali. Inson kapitalining bu turi mamlakat taraqqiyotiga va innovasion iqtisodiyotga aytarlik hissa qo‘shmaydi, uning butun mohiyati moddiy imkoniyatlarning iste’molchisi bo‘lishdan iboratdir. Passiv inson kapitalini yaxshi ta’lim olmagan, oddiy kustar (qo‘l mehnatiga asoslangan) sanoatda, tovar ayirboshlashga asoslangan tijoratda yoki mexanizatsiyalashmagan qishloq xo‘jaligida band kishilar tashkil etadi deyish mumkin. O‘zbekcha ta’bir bilan aytganda, «qora mehnat» qiluvchilar, ya’ni malaka talab qilmaydigan ishlarda ishlaydigan kishilar passiv inson kapitalini tashkil etadilar [2].

3. Inson kapitalining eng tahlil va bahs talab uchinchi turi manfiy inson kapitalidar. Manfiy inson kapitali deganda, nomidan ma’lum bo‘lganidek, o‘ziga sarflangan investisiyalardan jamiyat uchun hech qanday foyda keltirmagan, o‘zi yashaydigan jamiyat iqtisodiyotining rivojiga, na turmush darajasining yuksalishiga, na shaxs sifatida o‘zining rivojlanishiga hissa qo‘shishga yaramagan toifa tushuniladi[3].

O‘zbekcha ifoda bilan aytganda, «na o‘ziga, na boshqaga foydasi tegmaydigan» toifa manfiy inson kapitalini tashkil etadi. Ashaddiy jinoyatchilar, giyohvandlar, korrupsionerlar, ishyoqmaslar, ichkilikbozlar, tekinxo‘rlik bilan kun kechiruvchilar – bir so‘z bilan aytganda, jamiyat va oilasining sarflagan moddiy investisiyasi, bergan ta’lim-tarbiyasining samarasini yo‘qqa chiqargan kishilar manfiy inson kapitali sifatida namoyon bo‘ladilar. Ana shu toifadagi inson kapitali misolida ba’zi toifadagi kishilar uchun sarflangan investisiyalar hamisha ham o‘zining ijobiy samarasini beravermasligi ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson taraqqiyoti. Darslik. /I.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida T.: Iqtisodiyot, 2013. – B. 55; Mualliflar bu jadvalni o‘z navbatida quyidagi manbadan olganiga ishorat qiladilar: Odegov Yu.G. Upravleniye personalom v strukturno-logicheskix sxemax.-M.:

Akademicheskiy proyekt. 2005. – S.348. Yana qarang: Abdurahmonov Q.X.. Inson taraqqiyoti. (Darslik) T.: - Fan va texnologiya, 2013.-475b.

2. Veryaskina V. Dinamika razvitiya chelovecheskogo potensiala iprioritetы vыsshego obrazovaniya, Vыssheye obrazovaniye v Rossii. 2005.

3. Marshall A. Principles of Economics. - London, 1983.

4. Crawford R. In the Era of Human capital. N.Y.: Harper Business, 1991,P.10

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING INTELLEKTUAL-PEDAGOGIK TUZILMASI

Mamayusupov Jamshid Shoyunus o‘g‘li
FarPi tadqiqotchisi
Abdumannopov M.M.
Maktabgacha va boshlang‘ich ta'lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning intellektual-pedagogik tuzilmasi, uni tashkil etish usullari va bosqichlari o`rganilgan hamda tahlil qilingan.

Аннотация: В статье изучаются и анализируются интеллектуально-педагогическая структура развития аналитического мышления у будущих педагогов, методы и этапы ее организации.

Abstract: In the article, the intellectual-pedagogical structure of developing analytical thinking in future pedagogues, methods and stages of its organization are studied and analyzed.

Kalit so‘zlar: analitik tafakkur, tarkibiy tuzilish, mantiqiy, tanqidiy va analitik fikrlash, takomillashtirish, pedagog, intellektual-pedagogik tuzilma.

Ключевые слова: аналитическое мышление, структурная структура, логическое, критическое и аналитическое мышление, совершенствование, педагог, интеллектуально-педагогическая структура.

Key words: analytical thinking, structural structure, logical, critical and analytical thinking, improvement, pedagogue, intellectual-pedagogical structure.

Kirish. Bugungi kunda, o‘tmishdan farqli o‘laroq, yangicha mustaqil fikrlovchi, ijod qiluvchi pedagoglar avlodini tarbiyalash eng asosiy muammolarimizdan biri bo‘lib qolmoqda. «Darhaqiqat, talabalik yillarida yoshlar biologik jihatdan barkamollik, ijtimoiy nuqtai nazardan esa yetuklik, jismoniy barkamollik bosqichiga ko‘tariladi. Talabalarda o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish singari aql-zakovatning muhim jihatlari taraqqiyotning yangi yuksak bosqichiga ko‘tariladi. Talabalarda tafakkurning rivojlanishi, ilmiy dunyoqarashning shakllanishida umumkasbiy, ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlari muhim o‘rin tutadi» [1].

Analitik tafakkurni rivojlantiruvchi bunday sifatlar, ko‘nikma va malakalar bo‘lajak pedagogni raqobatbardosh mutaxassis bo‘lishi uchun juda muhimdir. Ushbu malaka va ko‘nikmalarsiz kuchli liderlarni yetishtirib bo‘lmaydi. Bunday sifatlarni kuchli davlatlarning ish beruvchilari ham yuksak qadrlaydilar. Bugungi kunda ushbu sifatlarning ahamiyati yuqorilab borayotganligini hisobga olsak, analitik tafakkurni bo‘lajak pedagoglar uchun amaliy jihatdan qanday naf keltirishi ma’lum bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Turli fanlar doirasida, xususan, falsafa, psixologiya va pedagogika fanlari doirasida analitik tafakkur ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham bu jarayon davob etmoqda. Jumladan, D.Sharipova, O.Musurmonova, M.Quronov, U.Mahkamov, R.Safarova, Sh.Mardonov, D.Ro‘ziyeva, N.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, O.Jamoldinova, V.Slastenin, I.Isayev, Y.Shiyanov Z.T.Soliyevalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida analitik tafakkurning falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf jtish omillari tadqiq etilgan.

Natijalar va muhokama. Tafakkur bevosita shaxsning yosh xususiyatlariga bog‘liq holda shakllanadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra tafakkurning mazmuni, tuzilishi, bosqichma-bosqich shakillanib, rivojlanib boradi. Tafakkurning yuqori darajasi sifatida intellektual ijodiy jarayon qayd etiladi. Bu jarayonning sifati va samaradorligi ta’lim va tarbiya sifati bilan bog‘liq. Shuning uchun ham bo‘lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishg alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

Inson nafaqat atrof-olamni idrok etadi, balki uni tushunishni ham istaydi. Tushunish narsa va hodisalarning mohiyatiga kirib borish, ulardagi eng muhim narsani ajrata bilish demakdir. «Shu ma’noda tafakkurni shakllantiruvchi omillar sirasiga kuzatuvchanlik, atrof-muhitni

idrok etish, tahlil qilish, baholash hamda ularga nisbatan shahsiy munosabat bildira olish kompitensiyasi tafakkur mazmunini boyituvchi tarkibiy komponent sifatida e’tirof etiladi» [3].

Buyuk nemis faylasufi I.Kant dunyoning mohiyati nimada ekanligini mushohada qilgan va uni hech qachon bilib bo‘lmaydi, deb ishongan. Bilimlarning asosiy manbai bu dunyo haqida ma’lum g‘oyalarni beradigan bizning hissiyotlarimizdir. Ilm-fan va amaliyotning rivojlanishi oqibatida bu qarashlarning noto‘g‘ri ekanligi aniqlandi. Aksariyat faylasuflar dunyoni bilish qobiliyatiga ega ekanligiga, bizning g‘oyalarimiz va nazariyalarimiz narsalarni taxminan mavjud bo‘lgan holda tasvirlashiga, ya’ni ular haqiqatni o‘z ichiga olganligiga ishonch hosil qilganlar. Analitik tafakkur hodisalarni ham mazmunan ham shaklan va albatta ham mohiyatan anglashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Fikrlash jarayonining harakatlantiruvchi kuchi – maqsad va subyekt ixtiyoridagi vositalar o‘rtasida paydo bo‘layotgan qarama-qarshiliklardan iborat bo‘ladi. Fikrlash jarayonlari doimo o‘ziga xos bo‘lishiga qaramay, ulardagi umumiy xususiyatlarni ta’kidlash mumkin. Bu omil muammoli vaziyatlarni hal qilish bosqichlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Muammoli vaziyat har doimgidek to‘siq, faoliyatdagi bo‘shliq sifatida paydo bo‘ladi. Muammoli vaziyatni hal qilishda bosqichlarga quyidagicha amal qilinadi:

– muammoli vaziyatdan xabardor bo‘lish;

– ma’lum va noma’lum narsalarni aniqlash (natijada, muammo vazifaga aylanadi);

– vazifa turi, tuzilmalari, vazifaga mos keladigan tajriba haqidagi g‘oyalar asosida qidiruv maydonini cheklash;

– gipotezaning paydo bo‘lishi;

– gipotezani tekshirish.

Analitik tafakkurning tarkibiy elementlarini umumlashtirilgan va bilvosita bilish jarayoni sifatida fikrlash har doim mahsuldorlik elementlarini o‘z ichiga olsa ham, aqliy faoliyat jarayonida nisbati har xil bo‘lishi mumkin. Muammoning yangiligi uni hal qilishning o‘ziga xos usulini belgilaydi. Ushbu jarayonda og‘zaki-mantiqiy, yaxshi o‘zlashtirilgan umumlashmalar bilan bir qatorda intuitiv-amaliy umumlashmalar juda muhimdir. Ular vizual vaziyatlarni tahlil qilish, aniq amaliy muammolarni, obyektlar yoki ularning modellari bilan haqiqiy harakatlarni hal qilish jarayonida paydo bo‘ladi, bu esa noma’lum narsalarni qidirishni juda osonlashtiradi, ammo bu qidiruv jarayoni intuitiv ravishda ong maydonidan tashqarida bo‘ladi.

Bo‘lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishda, avvalo, o‘z-o‘zini tashkil etish, aqliy faoliyatning texnikasi va qoidalari to‘g‘risida xabardor bo‘lishi talab etiladi. Talaba aqliy mehnatning mohiyatini yetarlicha aniqlik bilan tushunishi, hech bo‘lmaganda uning asosiy usullaridan xabardor bo‘lishi kerak. Agar uning aqliy faoliyatini tashkil etish istagi va qobiliyati bo‘lmasa, u odatda, eng qulay moyilliklar va yaxshi sharoitlar bilan ham tafakkur rivojlanishining yuqori darajasiga erisha olmaydi. Aqliy faoliyat samaradorligini oshirish uchun konsepsiyaning afzalliklaridan foydalanib, vazifani belgilash, maqbul motivatsiya yaratish, birlashmalar yo‘nalishini tartibga solish, ham majoziy, ham ramziy tarkibiy qismlarni maksimal darajada kiritish kabi fikrlash bosqichlarini boshqarish qobiliyatidan foydalanish mumkin. Fikrlash, shuningdek natijani baholashda keraksiz tanqidiylikni kamaytirish - bularning barchasi fikrlash jarayonini faollashtirishga, uni yanada samarali qilishga imkon beradi. Zero, analitik tafakkurni rivojlantirish uchun shunday mexanizm yaratish lozim bo‘ladi. Materialni mantiqiy qayta ishlash qobiliyati ko‘pincha o‘spirinlarda o‘z-o‘zidan rivojlanadi. Bunday ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘lajak pedagogning alohida vazifasi bo‘lishi kerak.

Fikrlashning to‘g‘ri rivojlanishi uchun bo‘lajak o‘qituvchi har qanday imkoniyatdan foydalanadi – narsalar va hodisalarni tahlil qilish, taqqoslash va farqlash, o‘z fikrlarini aniq va to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatish, mulohaza yuritish, xulosa chiqarish va umumlashtirish.

Yaxlit pedagogik tizimning tarkibiy qismlari kabi uning funksional komponentlari o‘zining muayyan texnologiyalariga ega. Muammoga texnologik yondashuv asosida o‘quv jarayonining muhim masalalarini yechish, pedagogik tizimning muayyan qismlari, bosqichlari, pedagogik jarayonda bo‘lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishga oid bilimlarga amal qilib va uni kuchaytirish, mazkur maqsadga bosqichma-bosqich erishish, shu tariqa bo‘lajak o‘qituvchining har tomonlama rivojlanishi, barkamol shaxsni shakllantirishga tayyor bo‘lishi ta’minlanadi. Shu maqsadda talabalarga muntazam pedagogik ta’sir ko‘rsatish ko‘zda tutiladi. Pedagogik jarayonda eng asosiy narsa bo‘lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishga tayyor bo‘lishlaridir. Buning uchun mazkur jarayonning maqsadi, mazmuni, shakllari va metodlari mutanosibligini ta’minlash lozim. Ularning analitik tafakkurini rivojlantirish jarayoniga mosligi, texnologik tizimda belgilangan imkonini berishida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik texnologiyalarning tuzilishi, tizimliligi, bosqichlari, tamoyillari, asosiy qismlari, aniq-o‘quv fani va ma’ruzalar mazmunini qamrab olishiga e’tibor beriladi. O‘quv jarayonining ma’ruzadan keyingi qismlari bo‘lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishga oid bilimlarini mustahkamlash, uning asosiy qismlarini takrorlash, ma’ruza asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonini yakunlashga e’tibor qaratiladi.

Tadqiqot davomida bo‘lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-ma’ruzalari jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratildi: o‘quv jarayoni maqsadini aniqlash; o‘quv jarayoniga nisbatan mayl hosil qilish; «talabalarning diqqatlari va idrok etishlarini faollashtirish; ma’ruza jarayoniga talabalarning ishtirokini kuchaytirish; talabalarga taqdim etilgan yangi o‘quv materiallarini takrorlab, mustahkamlashlariga erishish, ma’ruzalarga yakun yasash; talabalarga mavzu bo‘yicha topshiriqlar berish; ma’ruza materiallari yuzasidan zarur adabiyotlar va qo‘shimcha manbalarni tavsiya etish kabilar» [2].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, aniq-o‘quv birligi texnologiyasi, ma’ruza qilish, o‘quv mayllarini hisobga olish, maqsadga yo‘nalganlik, o‘quv materiali mazmunini bayon etish, jadvallar va sxemalar yordamida ma’ruzalar mazmunini talabalarga aniqlashtirgan holda yetkazish, o‘tilgan mavzuni umumlashtirish va mustahkamlash, darsga yakun yasash, talabalarga tavsiyalar, topshiriqlar berish, talabalar o‘quv faoliyatlari va o‘quv jarayonini tavsiflash, baho berish kabi qismlardan tashkil topadi. Ushbu o‘quv birligi texnologiyasini modifikatsiyalashtirish natijasida bo‘lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishda samarali natijalarga erishildi. Masalan, analitik tafakkurni rivojlantirishdada: bo‘lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishga nisbatan ijtimoiy-shaxsiy va kasbiy mayllari kuchaytirildi; analitik tafakkurni rivojlantirishda ilg‘or o‘qitish metodlaridan foydalanishlari, buning uchun ularni har tomonlama chuqur o‘zlashtirishlari va tahlil qila olishlari muhimligi uqtirilib bu sohada kafolatlangan natijalar qo‘lga kiritildi. O‘quv jarayoni oldiga maqsad qo‘yish orqali talabalarning fanlararo hamkorlik imkoniyatlarini kengroq o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari kuchaytirildi, ularga egallashlari zarur bo‘lgan bilimlar mazmuni, bo‘lajak pedagog faoliyatining qiziqarli va murakkab jihatlari ochib berildi. Shu asosda ko‘zlangan natijalar va bo‘lajak pedagogning kasbiy faoliyat maqsadlari belgilandi. Shunday qilib, bo‘lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirish

jarayonining maqsadlarini belgilash orqali ko‘zlangan natijaga erishish imkoniyatlari ochib berildi.

Ma’ruza materiallarini umumlashtirish ham o‘qituvchilar, ham talabalar tomonidan amalga oshiriladi. O‘quv jarayonining ma’ruzadan keyingi qismlari ham muayyan didaktik qurilishga ega. Mazkur qismlar o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, bunda ko‘p variantli savollardan foydalanish, o‘qituvchi yoki talabalar tomonidan mustaqil tarzda ma’ruza mashg‘ulotiga yakun yasash nazarda tutiladi. Bunday mashg‘ulotlarining pedagogik natijasi sifatida tanlangan o‘quv materialidan pedagogik amaliyotda foydalanish bo‘yicha tavsiyalar tuziladi. Bu tavsiyalarning asosiy qismi o‘qituvchilar tomonidan taklif etiladi, talabalar esa, o‘zlarining pedagogik, ijodiy tasavvurlarini faollashtirgan holda mazkur tavsiyalarga qo‘shimchalar qiladilar. Ma’ruzadan keyingi mustahkamlash-takrorlash daqiqalari quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi: savol-javoblar o‘tkazish, test topshiriqlarini bajarish, talabalarning yozgan ma’ruzalarini o‘qib berishlari va h.

Bo‘lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishda ma’ruzalar muayyan talablar asosida tuzilishi lozim: ularning asosiylari sifatida quyidagilarni e’tirof etish joiz: talabalarning hissiyotlari, kechinmalari; o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlari, mayllarini hisobga olish; ma’ruza matni bayonining tushunarliligi, izchilligi, dalillarga boyligi, ishonchliligini ta’minlash; ma’ruza matnining talabalar tomonidan tez idrok etilishiga erishish; ma’ruzalarni talabalarga taqdim etishning shakl, metod, usul va vositalarining turli-tumanligi va ko‘pvariantliligiga erishish; ma’ruzalar o‘qish davomida ko‘rgazmali vositalardan unumli foydalana olish; ma’ruzalar davomida talabalarni mustaqil fikrlash, ijodkorlikka, chuqur mulohaza qilishga undash; bo‘lajak o‘qituvchilarni voqea-hodisalarni idrok etish; bo‘lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishga oid bilimlaridan amaliyotda foydalanish imkoniyatlarini ochib berish kabilar [4,5].

Xulosa. Bo‘lajak pedagoglarning analitik tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ma’ruza materiallarini bayon etishda hikoya qilish, so‘zlab berish metodlaridan keng foydalaniladi. Buning uchun yorqin, mazmunli, talabalarning esida qoladigan, ko‘rgazmali vositalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Ma’ruza davomida talabalarni bahs-munozaraga chorlovchi savollar bilan qo‘yilgan masalaning yechimini izlash, talabalarni bahslashishga tayyor bo‘lishlarini ta’minlash, tasviriy san’at asarlariga bo‘lgan qiziqishlarini boyitish, ularda bu sohaga nisbatan yangi qiziqishlarni shakllantirish

alohida pedagogik ahamiyatga ega. Zero, ma’ruza jarayonida o‘qituvchi barcha talabalarga birday e’tiborli bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hakimova M.F., Yulchyeva G.T. Zamonaviy iqtisodchining shaxsi. – Toshkent.: Fan va texnologiyalar, 2014. – B.43.
2. Система инновационных образавательных технологий в вузе: цель, задачи, опыт внедрения. http://elebrery.ru/item.asp?id=35254916 (мурожаат санаси 16.12.2020)
3. Структура и особенности художественного мышления студентов. http://elibrery.ru/item.asp?id=17865470 (мурожаат санаси 20.02.2021)
4. www.pedagog.uz
5. www.google.com

THE IMPORTANCE OF THE TECHNOLOGICAL APPROACH IN THE PROCESS OF TEACHING

Hamidova Sayora Nurmatovna
FerPi, Senior teacher

Annotation: The article determines the importance of the technological approach in the process of teaching literature at school. Considering the models of a modern teacher available in didactics, the authors determine the use of pedagogical technologies as the most important component of professional teacher competence. Studying in detail the concept of “pedagogical technology”, the authors identify its features based on comparison with methodology, defend their own opinion in a discussion on the issue of technologization of literature as an educational subject, characterize the program for the use of technology in educational activities.

Keywords: Pedagogical technologies, professional competence, theory activity-based learning, model of teacher-technologist.

Annotatsiya: Maqolada maktabda adabiyotni o‘qitish jarayonida texnologik yondashuvning ahamiyati belgilanadi. Didaktikada mavjud bo‘lgan zamonaviy o‘qituvchi modellarini hisobga olgan holda, mualliflar pedagogik texnologiyalardan foydalanishni kasbiy faoliyatning eng muhim tarkibiy qismi sifatida belgilaydilar. o‘qituvchining malakasi. "Pedagogik texnologiya" tushunchasini batafsil o‘rganib, mualliflar taqqoslash asosida uning xususiyatlarini aniqlaydilar metodologiya bilan,

adabiyotni o‘quv predmeti sifatida texnologiyalashtirish masalasi bo‘yicha munozarada o‘z fikrini himoya qiladi, o‘quv faoliyatida texnologiyadan foydalanish dasturini tavsiflaydi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetentsiya, nazariya faoliyatga asoslangan ta'lim, o‘qituvchi-texnolog modeli.

Аннотация: Статья определяет значимость технологического подхода в процессе преподавания литературы в школе. Рассматривая имеющиеся в дидактике модели современного педагога, авторы определяют использование педагогических технологий важнейшей составляющей профессиональной компетентности учителя. Подробно исследуя понятие «педагогическая технология», авторы выявляют её особенности на основе сопоставления с методикой, отстаивают собственное мнение в дискуссии по вопросу технологизации литературы как учебного предмета, характеризуют программу по использованию технологий в учебной деятельности.

Ключевые слова: Педагогические технологии, профессиональная компетентность, теория деятельностного обучения, модель педагога-технолога.

Introduction. "Changing the content of teacher training programs and teaching technologies in order to ensure the implementation of a new professional standard for teachers and new standards of school education" is one of the primary responsibilities up until 2015. One may say that the modernization of Russian education involves major inventive changes, the most important of which being the prioritization of technological advancements in the educational process. The renewal of Russian education is centered on the implementation of efficient methods for guaranteeing its quality. The use of pedagogical technologies enhances teaching practice by fostering the development of new procedural skills, the ability to handle information, and innovative solutions to scientific problems with an emphasis on program individualization and learning environment differentiation, according to an analysis of the effectiveness of training.

Literature analysis. "Pedagogical technology is an integrated model of educational activities designed with meticulous attention to detail for the purpose of organizing, planning, and executing the learning process while guaranteeing teachers and students have comfortable surroundings to work in." "The goal of pedagogical technology is the optimization of educational forms through a systematic approach to

developing, implementing, and characterizing the entire process of teaching and learning knowledge while accounting for technical and human resources and their interactions." Organization of Eastern Africa Yet, M.V. Clarina defines "pedagogical technology" as "a systemic set and order of functioning of all personal, instrumental, and methodological means used to achieve pedagogical goals," regardless of the sense-forming components that support this idea. A framework proposed by G.K. Seleuko that comprises the following invariant elements is reflected in the understanding of pedagogical technology as a set of goals, content, forms, means, procedures, and processes necessary for a structured and intentional impact on the child's personality:

Educational technologies, like any innovations or changes, are applied at three interconnected levels, according to an analysis of educational practice: - general didactic (general pedagogical), which describes the entire educational process; - private methodological (specific subject), which enables the implementation of Pedagogical technologies within a single subject; - local (modular), exemplified by the technologies of specific learning modules.

Research methodology. The primary technological criteria were developed in Yu.K. Babansky's laboratory in the 1970s, but the terms "pedagogical technology" and "teaching methods," particularly at the local and individual subject levels, are frequently confused. The main distinction between the two is where the emphasis is placed. "solving didactic problems with precisely defined goals, each of which needs to have a clear description and definition in order to be achieved."

The goal-setting approach that pedagogical technology provides is marked by greater instrumentality, according to M.M. Potashnik's writings. According to didactics, objectives should be testable and repeatable in order to be considered diagnostic. Any pedagogical technology is characterized by its reproducibility, stability of results, lack of many "ifs," and certain "rigidity," which is the opposite of an intentional educational process that guarantees the ultimate result. Indicators of educational technologies, as emphasized by both foreign and local writers (e.g., B.S. Bloom, M.V. Clarin, G.K. Selevko, V.P. Bespalko, etc.), also relate to the categories of reproducibility and diagnosticity: The achievement of goals is ensured by diagnostic goal setting and efficacy (as indicators of technology); a collection of qualities, projectability, algorithmizability, systematicity, and controllability, represent different facets of the repeatability of educational technologies.

Conclusions. It is evident that a modern teacher must both grasp the system of technological knowledge and conceptually understand his own educational activities in order to successfully implement actions linked to the introduction of pedagogical technologies. As a technologist, a teacher can also be a researcher, organizer, mentor, consultant, practical psychologist, designer, methodologist, or didactician. Essential traits like knowledge, didactic self-awareness, intellectual activity, openness to new ideas, critical thinking, and a communication-oriented culture should all be present in his personality.

References:

1. Bogolyubov V.I. Innovative technologies in pedagogy // School
2. technologies. 2005. No. 1. P. 39-58.
3. Vlasov S.A. Axiology of the modern Russian education system //
4. Context and reflection: philosophy about the world and man. 2013. No. 3-4. pp. 52-57.
5. Vlashchenko V.I. Is a modern teacher an educator or a literary critic? //
6. Literature at school. 1990. No. 4.
7. Zinchenko V.P. Osip Mandelstam's Staff and Mamardashvili's Pipe. TO
8. the beginnings of organic psychology. M.: New School, 1997. 336 p.
9. Concept for supporting the development of teacher education for the period
10. until 2015 // Bulletin of Education. 2014. No. 5. URL: http://www.vestnik.edu.
11. ru/2014/03/vyishel-v-svet-novyiy-nomer-vestnika-obrazovaniya-5-mart-2014-god/.
12. Potashnik M.M., Moiseev A.M. Management of a modern school. M.: New School, 1997. 352 p.
13. Romanicheva E.S. On the conditions of spiritual and moral development of students
14. in the process of literary education // Literature at school. 2009. No. 10.
15. pp. 24-26.

16. Selevko G.K. Modern educational technologies. M.: Public Education, 1998. 256 p.

INSON KAPITALI VA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTGA TA’SIRI

Maxmudova Nodiraxon Jumaboy qizi,
FarPi, Menejment kafedrasi katta o‘qituvchisi PhD,
Naymanbayev Javohir Jahongirovich
FarPi, 81-23RI guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali inson kapitalini rivojlantirish masalalari muhokama qilingan. Inson kapitali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida asosiy rol o‘ynab, ta’lim va raqamli texnologiyalar yordamida samarali mehnat resurslarini shakllantirishga katta hissa qo‘shadi. Maqolada raqamli ta’limning afzalliklari, ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar orqali mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishiga erishish masalalari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so`zlar:** Inson kapitali, raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, ta`lim, innovatsion yo`ndashuvlar, raqamli texnologiyalar, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, sun’iy intellekt texnologiyasi, sog‘liqni saqlash, internet.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие человеческого капитала посредством использования интерактивных методов и инновационных технологий в современном образовательном процессе. Человеческий капитал играет ключевую роль в социально-экономическом развитии общества и вносит большой вклад в формирование эффективных трудовых ресурсов с помощью образования и цифровых технологий. В статье рассматриваются преимущества цифрового образования, вопросы повышения конкурентоспособности страны и достижения устойчивого развития за счет инновационных подходов в системе образования.

Ключевые слова: человеческий капитал, цифровая экономика, зеленая экономика, образование, инновационные подходы, цифровые технологии, Организация экономического

сотрудничества и развития, технологии искусственного интеллекта, здравоохранение, интернет.

Annotation: This article discusses the development of human capital through the use of interactive methods and innovative technologies in the modern education process. Human capital plays a key role in the socio-economic development of the society and makes a great contribution to the formation of effective labor resources with the help of education and digital technologies. The article examines the advantages of digital education, issues of increasing the country's competitiveness and achieving sustainable development through innovative approaches in the education system.

Keywords: Human capital, digital economy, green economy, education, innovative approaches, digital technologies, Organization for Economic Cooperation and Development, artificial intelligence technology, healthcare, internet.

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganinb, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi.

Dunyoda bo‘layotgan jadal rivojlanishlarga qarab jamiyatda zamonaviy metodlardan foydalangan holda sifatli ta’limni yo‘lga qo‘yish rad qilib bo‘lmaydigan bir qator barqaror rivojlanish yo‘nalishlarini aks ettiradi. Jumladan, iqtisodiy rivojlanishning intensiv ishlab chiqarish omili, jamiyat va oilani rivojlantirish, mehnat resurslarining bilimli qismi, intellektual va boshqaruv mehnati, yashash va ish joy muhitini inson kapitali tashkil etadi.

Mamlakatimizda joriy qilingan “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi”da 5 ta ustuvor yo‘nalish, 100 ta maqsad belgilangan bo‘lib, har bir inson o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlarni yaratish, barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash kabi muhim yo‘nalishlarning ijrosi inson kapitalini rivojlantirishda zamonaviy innovatsion metodlar orqali modernizatsiyalash muhim vazifa ekanligini isbotlaydi. [1-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi PF-214-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son)]

Shu o‘rinda inson kapitali qanday ta’riflanishi, inson kapitali davlat hamda iqtisodiyot uchun qanchalik muhim ekanligi, inson kapitalini rivojlantirish uchun qanday yo‘nalishlarda ustivor innovatsion metodlaridan foydalanish mumkinligi haqida to‘xtalib o‘tish muhim hisoblanadi. Faraz qilaylik, hukumat iqtisodiyotdagi umumiy ishlab chiqarishni ko‘paytirishni xohlaydi. Buning uchun hukumat umumiy byudjetining katta qismini ta’lim va kadrlar tayyorlash dasturlariga sarflaydi. Iqtisodiyotda inson kapitali salomatlik darajasini, ishchilarning ta’limi, malakasi va bu ishlab chiqarishning to‘rtta asosiy omillaridan biri bo‘lgan mehnat unumdorligi va samaradorligini asosiy belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. U ishchilarning ta’lim va malakasini o‘z ichiga olganligi sababli inson kapitalini ishlab chiqarishning tarkibiy qismi bo‘lgan ikkinchi omil – tadbirkorlik qobiliyati sifatida ham ko‘rib chiqish mumkin. Shuning uchun barcha jamiyatlarda inson kapitalini rivojlantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

1. Inson kapitalining har qanday o‘sishi ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan mahsulot taklifini ko‘paytirish deb hisoblanadi. Buning sababi shundaki, ko‘proq odamlar ishlayotgan va muayyan tovarlar hamda xizmatlarni ishlab chiqarish uchun zarur texnik ko‘nikmalarga ega korxonada ko‘proq mahsulot ishlab chiqariladi. Shunday qilib, inson kapitali ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liqdir. Iqtosodiyot bu ishlab chiqarish deganidir, ishlab chiqarish uchun mehnat resursi bu – inson kapitali hisoblanadi. [Abror Latipov, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Navoiy viloyati filiali bosh inspektori.]

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan jarayonlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar orasida nisbat o‘zgarayotganini yaqqol ko‘rsatmoqda. Jahon banki tadqiqotlarida “dunyodagi 141 ta davlati misolida global milliy boylik tarkibini tadqiq etish davomida inson kapitalining uning umumiy qiymatidagi ulushi 64 %ni tashkil etishi va so‘nggi 20 yil davomida uning hajmi 55% ga o‘sgani ma’lum bo‘lgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a’zo bo‘lgan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 70 %ni tashkil etgan bo‘lsa, quyi daromadli mamlakatlarda uning hissasi 41 %ga to‘g‘ri keldi. Aynan inson kapitalidagi farqlar mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, aholi turmush farovonligi va umuman, inson taraqqiyotidagi farqlarni belgilab bermoqda. Xususan, “mamlakatlar o‘rtasida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlardagi farqlarning

10-30 % aynan inson kapitali bilan izohlanishi" ma'lum bo'lmoqda. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda iqtisodiy o'sish omillari o'zgarmoqda. An'anaviy omillar (mehnat, er, kapital, tadbirkorlik qobiliyati) kabi omillar o'rniga fan va ta'lim, ya'ni umumlashtirib aytilganda millatning intellekti bo'lgan omillar birinchi o'ringa chiqmoqda. O'zbekistonda milliy boylik tarkibida inson kapitali ko'rsatkichining ulushi 62% ni tashkil qiligani holda, jahon banki mutaxassislarining fikriga ko'ra, dunyo mamlakatlari bo'yicha milliy boylik tarkibida jismoniy kapitalning ulushi o'rtacha 16% ni, tabiiy kapital - 20% ni, inson kapitali - 64% ni tashkil etadi (Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya singari taraqqiy etgan mamlakatlarda milliy boylik tarkibida inson kapitali ulushi 80% ga yetadi). [T.G.Muxin.-Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013.-97 p.] Bugungi kunda inson kapitalining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash borasidagi jarayonlarga ta'sirini o'rganishga qiziqish kun sayin ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bu borada tadqiqotchilar tomonidan ko'p sonli ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, "inson kapitali" kategoriyasini aniqlashtirishda muayyan noaniqliklar saqlanib qolmoqda, shu bilan birga, uning tashkil etuvchilariga hanuz to'liq oydinlik kiritilmagan, milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga inson kapitalining ta'siri miqdor jihatdan baholanmagan. Yangicha iqtisodiy munosabatlarning tarkib topishi sharoitida milliy iqtisodiyotda inson kapitalidan foydalanish va uning sifatini ta'minlash uslubiyoti borasida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining salmog'i yetarlicha emas.

Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa, ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashishiga imkon beradi. Bunda esa ta'lim tizimi vositilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo`llanilishi yaxshi samara berishi barchaga ma'lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'lim olishning bir turi deb hisoblash mumkin. Umumiy holda raqamli ta'limda quyidagi imkoniyatlar mavjud:

- istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim olish imkoni paydo bo'ladi;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi;
- vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi;

-“raqamli dunyo”da yo‘qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo‘lish mumkin.

Raqamli ta’lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta’lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o‘stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug‘iladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim beruvchilarni o‘z ustida ko‘proq ishlashi va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo‘lmoqda: bor-yo‘g‘i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ldi. Masalan, sog‘liqni saqlash sohasida sun’iy intellektdan foydalanishga asoslangan ilg‘or texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarni aniqlash va umr ko‘rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta’lim sohasida virtual o‘quv muhiti va masofaviy ta’limning ta’minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo‘lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo‘ladi, ularni ta’minlovchi institutlar mas’uliyatini oshiradi va sun’iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo‘ladi. Katta ma’lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin.

Inson kapitalini rivojlantirish – har qanday jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarga asoslangan raqamli texnologiyalarni faol joriy etish inson kapitalini rivojlantirish jarayonini tezlashtiradi va mamlakatlarning nafaqat ijtimoiy taraqqiyotiga, balki, iqtisodiy jihatdan rivojiga sezilarli hissa qo‘shadi. Shu boisdan, ta’lim sohasidagi innovatsiyalarni rivojlantirish va keng ko‘lamda joriy etish kelajakda raqobatbardosh va barqaror rivojlangan jamiyat yaratishning eng muhim yo‘llaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lange, Glenn-Marie, Quentin Wodon, and Kevin Carey, eds. 2018.
2. World Bank Group. Human Capital: A Project for the World, 2018. October.

3. https://educareforma.com.br/uz/inson-kapitali-ta-rif-amp-misollar
4. “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA https://lex.uz/uz/docs/-6600413
5. Oliy ta’limda faol va interaktiv ta’lim texnologiyalari (darslarni o‘tkazish shakllari): darslik / komp. T.G.Muxin.-Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013.-97 p.
6. Корицкий А. В. Введение в теорию человеческого капитала // http://sibupk.nsk.su/New /04/ chairs / c_ ectheory/ kapital/book1.htm
7. Abror Latipov, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Navoiy viloyati filiali bosh inspektori.

TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSIYALAR VA ULARNING MEHNAT BOZORI TALABLARIGA MOSLASHISHDAGI AHAMIYATI

Maxmudov Bobur Vali o`g`li
Farg‘ona politexnika instituti
“Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
boburbek1710@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda ta'lim tizimidagi innovatsiyalar va ularning mehnat bozori talablariga moslashishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, STEM yo‘nalishidagi ta'lim va hayot davomida o‘rganish konsepsiyalari zamonaviy ta'limning asosiy elementlariga aylangan. Tezisda innovatsion ta'limning mehnat bozorida talab qilinayotgan yangi ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi va ta'lim tizimi qanday qilib mehnat bozoriga moslashishi mumkinligi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: ta'lim innovatsiyalari, raqamli ta'lim, mehnat bozori, STEM ta'limi, moslashuvchan ta'lim.

Аннотация: В данном тезисе рассматриваются инновации в системе образования и их значение для адаптации к требованиям рынка труда. Сегодня цифровые технологии, образование в области STEM и концепции обучения на протяжении всей жизни становятся ключевыми элементами современного образования. В тезисе анализируется роль инновационного образования в развитии новых

навыков, востребованных на рынке труда, и обсуждаются возможности адаптации образовательной системы к требованиям рынка.

Ключевые слова: инновации в образовании, цифровое образование, рынок труда, STEM образование, адаптивное обучение.

Abstract: This thesis explores innovations in the education system and their importance in adapting to labor market demands. Today, digital technologies, STEM education, and lifelong learning concepts have become essential elements of modern education. The thesis analyzes the role of innovative education in developing the skills required in the labor market and discusses how the education system can adapt to these demands.

Key words: education innovations, digital education, labor market, STEM education, adaptive learning.

Zamonaviy dunyo mehnat bozorida yuz berayotgan keskin o‘zgarishlar ta'lim tizimining yangilanishi va zamon talablariga moslashishini talab qilmoqda. Ayniqsa, texnologik taraqqiyot, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, avtomatlashtirish va sun'iy intellektning keng tarqalishi global mehnat bozorida yangi ko‘nikmalar va kasblarni shakllantirmoqda. Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar nafaqat ta'limning sifatini oshirish, balki inson kapitalini samarali rivojlantirish uchun ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim tizimi mehnat bozorining dinamik talablari bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu tezisning asosiy maqsadi ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar va ularning mehnat bozori talablariga moslashishdagi ahamiyatini tahlil qilish, shuningdek, kelajakda ta'lim va mehnat bozori o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada mustahkamlash uchun tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga keng joriy etilishi bugungi kunda ta'limning barcha bosqichlarida sezilarli o‘zgarishlar kiritmoqda. Masofaviy ta'lim platformalari, onlayn kurslar, virtual va qo‘shma reallik (VR va AR) texnologiyalari ta'lim jarayonini samarali boshqarish va shaxsiylashtirish imkonini yaratmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali ta'lim jarayonini kengaytirish, o‘quvchilarga individual o‘qish strategiyalarini shakllantirish va ularga real hayotda qo‘llaniladigan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash imkoniyatlari yaratiladi.

Masalan, raqamli texnologiyalar yordamida yaratilgan interaktiv o‘quv dasturlari va simulatsiyalar o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy mashqlar bilan birlashtirish imkonini beradi. Bu esa, ta'lim jarayonining sifatini oshirib, o‘quvchilarni texnologik yangiliklarga mos ravishda tayyorlashga yordam beradi.

STEM (Science, Technology, Engineering, Math) yo‘nalishidagi ta'lim texnologik rivojlanayotgan dunyoda yuqori malakali mutaxassislarni yetishtirishda asosiy rol o‘ynamoqda. STEM ta'limining innovatsion jihatlari o‘quvchilarga texnik va ilmiy bilimlarni chuqur o‘rgatish bilan birga, ularning analitik fikrlash va ijodiy yechimlarni topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

STEM yondashuvi nafaqat texnologik rivojlanishning asosiy omillaridan biri, balki o‘quvchilarga raqamli iqtisodiyotda talab qilinadigan ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatini ham beradi. Misol uchun, robototexnika, sun'iy intellekt, kibernetika va ma'lumotlarni tahlil qilish sohalari bo‘yicha maxsus kurslar o‘quvchilarni yangi kasblarga tayyorlashda yordam beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning global mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo‘lishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda hayot davomida o‘rganish tamoyillari global ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Mehnat bozoridagi tezkor o‘zgarishlar va texnologik yangiliklar mutaxassislarning doimiy ravishda o‘z malakalarini oshirib borishlarini talab qilmoqda. Innovatsion ta'lim yondashuvlari orqali o‘quvchilar nafaqat bir marta olingan bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki mehnat jarayonida o‘z kasbiy mahoratlarini doimiy ravishda yangilash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Life-long Learning tamoyillari inson kapitalining uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi. Bu yondashuv, ayniqsa, texnologik yangiliklar va avtomatlashtirish jarayonlarining tezkor rivojlanishi fonida mehnat bozoriga moslashuvchanlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish orqali hayot davomida o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Zamonaviy mehnat bozorida nafaqat texnik bilimlarga ega bo‘lgan, balki kreativ fikrlash va muammolarni tezkor hal qilish qobiliyatiga ega mutaxassislar talab qilinmoqda. Innovatsion ta'lim yondashuvlari ushbu talablarni qondirish uchun zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilar amaliy ko‘nikmalarni

shakllantiradi, bu esa mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Ta'lim va mehnat bozorini bog‘laydigan muhim jihatlardan biri — bu ta'lim jarayonining dinamikligi va moslashuvchanligidir. Har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish, mehnat bozorining doimiy o‘zgarishlariga moslashish imkoniyatini beradi.

Innovatsion ta'lim nafaqat nazariy bilimlarni, balki real dunyo muammolariga yechim topishga qaratilgan kasbiy ko‘nikmalarni ham shakllantirishga qaratilgan. Mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish uchun mutaxassislar keng ko‘lamli kompetensiyalarni egallashlari zarur. Bular texnologik savodxonlik, ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyati va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalaridir.

Misol uchun, dasturlash tillari, sun'iy intellekt texnologiyalari va ma'lumotlarni tahlil qilish bo‘yicha maxsus kurslar va amaliy mashg‘ulotlar mehnat bozorida talab qilinadigan asosiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsion ta'lim orqali kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish mutaxassislarni o‘zgaruvchan bozor talablariga moslashtirish imkonini beradi.

Innovatsion ta'lim jarayonining yana bir muhim jihati — bu ta'lim dasturlarining moslashuvchanligi va shaxsiylashtirilgan yondashuvdir. Mehnat bozorida talab qilinadigan ko‘nikmalar va kasbiy ehtiyojlar tez o‘zgarib borayotganligi sababli, ta'lim tizimi ushbu ehtiyojlarga mos ravishda tezkor moslashishi lozim. Shuning uchun, ta'lim dasturlari modulli tizim asosida tashkil etilishi kerak, bunda har bir o‘quvchi o‘z qiziqishlari va kasbiy ehtiyojlariga ko‘ra ta'lim yo‘nalishlarini tanlay oladi.

Texnologik taraqqiyot mehnat bozorida yangi kasblarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Sun'iy intellekt, blokcheyn, ma'lumotlarni tahlil qilish, kiberxavfsizlik kabi yangi texnologiyalar hozirda jahon bozorida eng ko‘p talab qilinadigan kasblarga aylanmoqda. Shu sababli, innovatsion ta'lim tizimlari ushbu yangi kasb-korlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

Innovatsion ta'lim, zamonaviy texnologiyalarni o‘rgatish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va mehnat bozorida o‘z o‘rnini topish imkoniyatini yaratishda yordam beradi. O‘quvchilarni texnologik bilimlar bilan qurollantirish, ularni muammolarni hal qilishga va yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga tayyorlash, ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir.

Zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish uchun ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish zarur. Innovatsion ta'lim yondashuvlari o‘quvchilarga nafaqat texnik bilimlarni, balki kreativ fikrlash, jamoa bilan ishlash va etakchilik ko‘nikmalarini ham o‘rgatadi. Bu ko‘nikmalar mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lib, o‘quvchilarni kelajakda yanada raqobatbardosh qiladi.

Shuningdek, innovatsion ta'lim ta'lim oluvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish, o‘rganish va rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayon orqali o‘quvchilar o‘zlarining potentsialini to‘liq namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ta'lim tizimi va mehnat bozorining samarali hamkorligi innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Sanoat va ta'lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro aloqalarni rivojlantirish, ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda sanoat ekspertlarining fikrlarini inobatga olish o‘quvchilarning real mehnat sharoitlariga tayyorlanishini ta'minlaydi. Bu yondashuv, shuningdek, ta'lim jarayonining amaliyot bilan bog‘liq bo‘lishini kuchaytiradi.

Ushbu tezisda ta'lim tizimidagi innovatsiyalar va ularning mehnat bozori talablariga moslashishdagi ahamiyati chuqur tahlil qilindi. Raqamli texnologiyalar, STEM ta'limi, hayot davomida o‘rganish kabi innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va yangi kasblarning paydo bo‘lishi ta'lim tizimidan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab etadi.

Zamonaviy ta'lim tizimining o‘zgarishi nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini yangilash, balki ularning raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi. Ta'lim va mehnat bozori o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni kuchaytirish, ta'lim jarayonlarini amaliyot bilan bog‘lash va innovatsion yondashuvlarni joriy etish nafaqat o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi, balki mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda ta'lim tizimini innovatsiyalar bilan boyitish, texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, o‘quv jarayonlarini amaliyot bilan bog‘lash zarur. Shu yo‘l bilan innovatsion ta'lim tizimi mehnat bozorining rivojlanayotgan talablari va iqtisodiy o‘zgarishlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. Ta'lim tizimidagi yangiliklar, yangi usullar va yondashuvlar orqali nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki mehnat bozorining ehtiyojlariga mos malakali mutaxassislarni tayyorlash mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Murodov, A. (2022). Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga ta'siri. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
2. Karimova, D. (2021). Zamonaviy ta'limda STEMning o‘rni va ahamiyati. Toshkent: Innovatsiyalar Nashriyoti.
3. Smith, J. (2020). Lifelong Learning: The Future of Education and Work. London: Educational Press.
4. Williams, M. & Taylor, A. (2019). Innovative Education and Labor Market Dynamics. New York: Academic Publishing.
5. OECD (2020). Skills Outlook 2020: Thriving in a Digital World. OECD Publishing.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA TA‘LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

Poshokulova Mohigul Kaxramonovna
Xalqaro innovatsion universiteti o‘qituvchisi

Annotasiya. Maqolada raqamli texnologiyalarda O‘quv jarayonidan foydalanishning mohiyati va imkoniyatlari o‘rganilgan. Maqolada ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ayrim masalalari hamda, umumta‘lim maktablar muhokama qilingan. Muallif O‘zbekistonda ilm-fan va ta‘lim-tarbiyani yanada rivojlantirishning zamonaviy jihatlari, chuqur bilim, yuksak ma‘naviyat va madaniyatga ega yoshlarni tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va bu sohada kadrlar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratadi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, raqobatbardoshlik, ta‘lim, ta‘lim jarayoni, raqamli iqtisodiyot.

Annotation. The article examines the essence and possibilities of using the educational process in digital technologies. The article discusses some issues of using digital technologies to increase the effectiveness of the educational process, as well as general education schools. The author pays special attention to the modern aspects of the further development of science and education in Uzbekistan, the education of young people with deep knowledge, high spirituality and culture, the effective use of digital technologies in the formation of a competitive economy, and the training of personnel in this field.

Key words: innovation, competitiveness, education, educational process, digital economy.

Абстракт. В статье рассматривается сущность и возможности использования образовательного процесса в цифровых технологиях. В статье рассматриваются некоторые вопросы использования цифровых технологий для повышения эффективности образовательного процесса, а также общеобразовательной школы. Особое внимание автор уделяет современным аспектам дальнейшего развития науки и образования в Узбекистане, воспитанию молодых людей, обладающих глубокими знаниями, высокой духовностью и культурой, эффективному использованию цифровых технологий в формировании конкурентоспособной экономики, подготовка кадров в этой области.

Ключевые слова: инновации, конкурентоспособность, образование, образовательный процесс, цифровая экономика

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim tizimini rivojlantirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu sharoitida, shiddatli rivojlanish omili bo‘lib ta’lim –tarbiya va ta’lim tizimini transformatsiyalashdir. Ta‘lim tizimini transformatsiyalash, aynan raqamli texnologiyalar tarqqiyotining mevasidir. So‘nggi yetti yil ichida mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha katta qadam tashlandi, bu esa raqamli iqtisodiyotning ko‘plab sohalarida ta‘lim tizmini rivojlantirish jarayonlarini kengaytirish va uni transformatsiyalashga yordam berdi. Ta’lim tizimining tarkibiy qismlari ko‘p qirrali bo‘lib, ular bir-birini to‘ldirib, ta‘lim jarayonini tashkil etadi. Quyidagi asosiy tarkibiy qismlar ta‘lim tizimida mavjud:

-ta‘lim muassasalari;
-ta‘lim dasturlari va o‘quv rejalar;
-pedogogik xodimlar;
-ta‘lim usullari va metodikalar;
-ta‘lim resurslari;
-ta‘lim siyosati va boshqaruv;
-oilaviy va jamoat qo‘llab quvvatlash va boshqalar kiradi.

Ta‘lim tizimini rivojlantirish va u bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha samarador texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Yurtimizda ta‘lim-tarbiya va ta‘lim timini yanada ravnaq toptirish, kelajak avlodni chuqur bilim, ma‘naviyati va madaniyati yuksak etib tarbiyalash hamda raqobatbardosh ta‘lim tizimini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlis senati va Qonunchilik palatasiga qilgan murojotnomasida 2023-yil – “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” deb e‘lon qilindi. Albatta, buning

zamirida chuqur ma‘no va maqsad yotadi, chunki ilm-fan, ma‘naviyat-ma‘rifatga tikilgan bu sarmoyalar kelajagi buyuk yangi O‘zbekiston yoshlari uchun kiritilgan investitsiyadir.

Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o‘stirish, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham berish va korruptsiyani keskin kamaytirish imkonini berar ekan. Xalqaro amaliyotga yuzlanadigan bo‘lsak, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki hayotning har bir jabhasiga, xususan, sog‘liqni saqlash, fan-ta’lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda va ularning har birida o‘zining yuqori samaralarini bermoqda [1;2].

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologik rivojlanish sharoitida O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotsiz tasavvur qilish qiyin. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, 2022 yilga kelib global YaIMning chorak qismi raqamli sohada bo‘lishini taxmin qilinmoqda. Lekin, xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlantirish indeksi bo‘yicha (International Telecommunication Union: ICT Development Index 2017) O‘zbekiston 176-ta davlat ichida 95-o‘rinni egallab turishining o‘zi mamlakatimizda bu sohada hali o‘z yechimini kutayotgan masalalar va qilinishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘pligida dalolat beradi [3].

Xalqaro amaliyotga yuzlanadigan bo‘lsak, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki hayotning har bir jabhasiga, xususan, sog‘liqni saqlash, fan-ta’lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda va ularning har birida o‘zining yuqori samaralarini bermoqda. Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o‘stirish, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham berish va korruptsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi [4].

SHu bois ham ko‘pgina davlatlar hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot sohasiga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Masalan, 2019 yil 2 martda Rossiya Federatsiyasi hukumati Raqamli iqtisodiyot dasturini qabul qildi [5].

Estoniya, Belarusь Respublikasi va Ukraina raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirmoqda. Avstraliya hukumati fuqarolarga yuqori tezlikdagi raqamli aloqani taqdim etish choralarini ko‘rmoqda, ya’ni, Avstraliyadagi

milliy keng polosali tarmoq (National Broadband Network) Avstraliya aholisining 93 foizini 1 Gbit/s tezlikdagi internet bilan ta’minlash majburiyatini olgan [6]

Ko‘rinib turubdiki, Respublikamizda “Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ni amalda tadbiq etishda, eng avvalo, puxta va mukammal va huquqiy mexanizmlarni shakllantrish va amaliyotga tadbiq etish, “axborotlashgan jamiyat” muhitini yaratishga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Lekin yurtimizda, raqamli iqtisodiyot sharoitida ta‘lim tizimining samarali rivojlanishi uchun eng muhim shartlaridan biri - unga mos keluvchi sifatli raqamli infratuzilma yaratilishni shakllantirish hisoblanadi. Demak, shunday ekan O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasidagi asosiy yo‘nalishlar belgilab berilishi kerak deb hisoblaymiz:

- pedogoglarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- interaktiv va moslashuvchan ta‘lim platformalari yaratish;
- o‘quv dasturlarini raqamlashtirish va yangilash;
- maxfiylik va kiberxavfsizlikni ta‘minlash;
- ota-onalar va jamiyatni jalb qilish;
- moliyaviy va texnik qo‘llab-quvvatlash;
- raqamli sovodxonlik va raqamli tafovutni kamaytirish;
- o‘zaro hamkorlik va xalqaro tajribadan foydalanish;
- ta‘lim jarayonini monitoring qilish va baholash tizimlarini rivojlantirish

Umumta‘lim maktablari sonini ham raqamlarda ko‘rishimiz mumkin



1-rasm Qashqadaryo viloyatidagi so‘nggi besh yillikdagi umumta‘lim maktablar soni

2019-yilda umumta‘lim maktablari soni 1135 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib esa 1151 taga yetgan va ko‘rinib turibdiki o‘sish sur‘ati 1.4 % ni tashkil etadi. 2021-yilga kelib 1173 tani tashkil qilib o‘sishi 1.9 % ni, 2022-yilda 1220 taga yetgan va o‘sish eng katta ko‘rsatkich 3.9 % ga yetgan. 2023-yilda 1256 ta bo‘lib, bu o‘sish 2.9 % ni tashkil qiladi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatidagi umumta‘lim maktablarning so‘nggi besh yillik va kelgusi besh yillik prognozi

	Yillar	Umumta'lim maktablar soni
1	2019	1135
2	2020	1151
3	2021	1173
4	2022	1220
5	2023	1256
6	2024	1292
7	2025	1328
8	2026	1364
9	2027	1400
10	2028	1436

Hosil qilingan trend modellar asosida Qashqadaryo viloyatidagi umumta‘lim maktablar sonining 2030-yilgacha rivojlanish jarayonini prognoz natijasiga erishish mumkin ekanligini ko‘rdik. Olingan pragnoz natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, viloyat bo‘yicha 2023-yil bilan tahlil qilsak, 2024-yilda oldingi yilga nisbatan 2.9% ga, 2025-yilda 5.7% ga, 2026-yilda 8.6% ga, 2027-yilga 11.5% ga, 2028-yilda esa 14..3% ga oshadi.

Raqamlashtirish ilmi va ko‘nikmalarining yetishmasligi ta‘lim tizimi sifatini oshirishda turli yondashuvlarni transformatsiyalashga jiddiy to‘siq bo‘lishi mumkin.

Bu kabi muammolarning yechimi, qo‘yilgan vazifalarni bajarish, rivojlanish konsepsiyasining har bir yo‘nalishini samarali amalga oshirish yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashni va ularni sifatli natijalar beradigan darajadagi mehnatini, zamon talablariga mos yangicha yondashuvlarni va dunyoqarashni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Margianti E. S. et al. (2020). Role of goal orientation as a predictor of social capital: Practical suggestions for the development

of team cohesiveness in SME's. Monograph. Gunadarma Publisher, http://dx.doi.org/10.13140/RG.2.2.28953.44641

2. Курпаяниди, К.И. (2021). Миллий Indonesia. инновация Doi: тизимини шакллантиришнинг айрим муаммолари ва ечимлари. Логистика ва иқтисодиёт.(3). 110-121. https://www.researchgate.net/publication/ 353287736_LOGISTIKA_VA_IKTIS ODIET

3. Индекс развития информационно-коммуникационных технологий встранах мира. - International Telecommunication Union: ICT Development Index 2017. https://gtmarket.ru/ratings/ict-development-index

4. Конкуренция в цифровую эпоху. Доклад Международного банка реконструкции и развития и Всемирного банка. Вашингтон, 2018.

5. Постановление Правительства Российской Федерации от 2 марта 2019 г. №234 «О системе управления реализацией национальной программы «Цифровая экономика Российской Федерации». http://government.ru/docs/35964/ . https://www.nbnco.com.au/

7. Kurpayanidi, K., & Mamurov, D. (2019). Features of the Support of the Innovative Activity: Foreign Experience and Practice for Uzbekistan. Bulletin of Science and Practice, 5(11), 255-261. (in Russian). Doi: https://doi.org/10.33619/2414-2948/48/29

8. Abdullaev, A., & ets. (2020). The issue of a competitive national innovative system formation in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol.159,p.04024).EDP Sciences. Doi: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202015904024

9. Kurpayanidi, K. (2021). Актуальные вопросы цифровизации в индустриальном секторе экономики Узбекистана. Общество и инновации, 2(4/S), 201–212. Doi: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2 iss4/S-pp201-212

10. Kurpayanidi, K. (2021). National innovation system as a key factor in the sustainable development of the economy of Uzbekistan. E3S Web Conf., 258 (2021) 05026. Doi: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202125805026

11. Kurpayanidi, K. I. (2019). Theoretical basis of management of innovative activity of industrial corporation. ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (69), 714. Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2019.01.69.3

INSON KAPITALI - TA‘RIFLAR, AMALIY ISHLAR, DUNYO TAJRIBASI

Allayorov Isroil Xaykalovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
Xaqqulova Ra‘no Abdug‘aniyevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi assistenti

Annotasiya, Ushbu maqolada inson kapitaliga berilgan ta‘riflar, mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va jahonning ilg‘or mamlakatlarida inson kapitali tufayli erishilgan yutuqlar xaqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar, Inson kapitali, innovatsiyon iqtisodiyot, demografik dividend, “O‘zbekiston – 2030", individual investitsiyalar, texnologik taraqqiyot, Jon MakKloy.

Аннотация, В данной статье говорится об определениях, данных человеческому капиталу, о работе, проводимой по развитию человеческого капитала в нашей стране, а также о прогрессе, достигнутом за счет человеческого капитала в передовых странах мира.

Ключевые слова, Человеческий капитал, инновационная экономика, демографический дивиденд, «Узбекистан – 2030», индивидуальные инвестиции, технологическое развитие, Джон Макклой.

Abstract, This article talks about the definitions given to human capital, the work being done on the development of human capital in our country, and the progress achieved due to human capital in the advanced countries of the world.

Key words, Human capital, innovative economy, demographic dividend, "Uzbekistan - 2030", individual investments, technological development, John McCloy.

Insonlar va ularning qobiliyati, bilimi va malakasi har qanday jamiyat farovonligi va davlatlar iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omiliga aylanayotganligi mamlakatimizda ijtimoiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki inson kapitalini rivojlantirish — innovatsion iqtisodiyot, investitsiyalar, global axborot

tizimlari, eng yangi texnologiyalar va biznesning yangi shakllarini rivojlantirishning zarur sharti sanaladi.

Inson kapitali (inglizcha human capital) — bu inson va umuman jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatiladigan bilimlar, ko‘nikmalar to‘plamidir. Inson imkoniyatlarini tashkil etuvchi turli xususiyatlar ichida, inson kapitali aynan daromadlarning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi xususiyatlarni ifodalaydi, shu jihatdan inson kapitali ishchining maxsus ta’lim, kasb-hunarga tayyorlash va ishlab chiqarish tajribasi asosida to‘plangan bilimlari, ularni amalda qo‘llashi va mahoratini o‘z ichiga oladi. Inson kapitalini rivojlantirish – oson ish emas. Mazkur yo‘nalish kompleks yondashuv hamda uzoq muddatli, muhimi, aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni talab qiladi. [3]

Inson kapitali – kishilar o‘z hayoti mobaynida yig‘ib boradigan, ularga jamiyatning foydali a'zolari sifatida salohiyatini amalga oshirishiga imkon beradigan bilimlari, ko‘nikmalari va salomatligidir. Ovqatlanish va sog‘liqni saqlashni yaxshilash, sifatli ta'lim berish, ish o‘rinlarini yaratish va kasbiy ko‘nikmalarga o‘rgatish asosida insonlarga sarf qilinadigan davlat investitsiyalari inson kapitalining rivojlanishiga ko‘maklashadi. [3]

Mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida “Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish — strategiyaning bosh maqsadidir”, deb ta’kidlab o‘tilgan. [1]

Global dunyoda raqobatlashish dengizda suzishdek gap. CHo‘kib ketmaslik uchun kuch, shiddat va mahorat talab qilinadi. Xuddi shu kabi bugungi kunda har qaysi mamlakat, avvalo, inson kapitalini yuksaltirishga, ya'ni millatning intellektual salohiyatini oshirishga harakat qilmoqda. Mamlakatimiz aholisining 60 foizi yoshlardan iborat ekanligi va uning teng yarmini esa ayollar tashkil qilishi. ekspertlar tahliliga ko‘ra, 2048 yilga borib yurtimizda mehnatga layoqatli aholi soni hozirgidan ancha ko‘payishiga olib keladi. Natijada mamlakatimiz qimmatbaho demografik dividentni qo‘lga kiritadi.

Bunday sharoitda demografik divident iqtisodiy foyda ko‘rinishida o‘zimizga qaytishi uchun aholimizning asosiy tarkibi – yoshlar va ayollarni qo‘llab-quvvatlash zarur. Bu kelajakda nafaqat iqtisodiyotimizni yuksaltirish, balki ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtirish

— kambag‘allik va salohiyatli kadrlar migratsiyasini qisqartirish, ishsizlikni bartaraf etish, xalqimizning turmush darajasini oshirish imkonini beradi.

“O‘zbekiston – 2030" strategiyasida ijtimoiy sohalarni rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan.[2] Jumladan, joriy 2024 yilda inson kapitalini rivojlantirish uchun 102,5 trillion so‘m yo‘naltirish mo‘ljallangan. [3] Bu o‘tgan 2023 yilga nisbatan 15 foiz ko‘pligi bilan ahamiyatli.

Dunyo tajribasi va amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, aynan inson kapitaliga investitsiya yo‘naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlar yuksak taraqqiyotga erishmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda (Jumladan, AQSH va Janubiy Koreyada) ta’limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya’ni, bolalarni 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi. Mamlakatimizda ham inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va xalqimizga munosib turmush tarzini yaratib berishga kun tartibidagi asosiy masala sifatida qaralmoqda.

Soha mutaxassislarining fikriga ko‘ra, ilk bolalikda investitsiya kiritish boshqa dasturlarga qaraganda eng samaralidir. Chunki inson kapitalining rivojlanish jarayonining boshlanishi 3-4 yoshga to‘g‘ri keladi va ushbu nuqtadan boshlab bola kelajakda o‘z taqdirini o‘zi belgilash va o‘zini namoyon qilish qobiliyatiga ega bo‘la boshlaydi, mehnat bozorida o‘z qobiliyatiga murojaat qilishga o‘rganadi. Shu sababdan, yurtimizda maktabgacha ta’lim sohasida alohida e’tibor qaratilmoqda. [3]

Olimlar inson kapitalini rivojlantirishning afzalliklari haqida ko‘p narsalarni biladi. Biroq bu rivojlangan davlatlarning shu yo‘nalishdagi harakatlarini jadallashtirishga ishonchli da’vat bo‘la olmadi. So‘nggi o‘ttiz yilda boy va qashshoq mamlakatlarda hayot davomiyligi bir-biriga yaqinlasha boshladi. Ta’lim bilan qamrab olish ko‘rsatkichlari sezilarli ravishda ortdi. Biroq muammolar shu bilan barham topmadi. Besh yoshgacha bo‘lgan bolalarning qariyb to‘rtdan biri to‘yib ovqatlanmaydi, 260 milliondan ziyod bola va yosh maktabda o‘qimaydi, rivojlanayotgan mamlakatlarda maktab yoshidagi kichik bolalarning 60 foizida hamon minimal ta’lim olish imkoniyati mavjud emas.

Erta yoshdan inson kapitalini turli yo‘llar bilan o‘lchab borish yaxshi samara beradi. Bolani go‘dakligidan to‘g‘ri ovqatlantirish, sog‘lom rivojlanishini rag‘batlantirish keyinchalik uning jismoniy va ruhiy farovonligini yaxshilaydi. Inson kapitalini rivojlantirishning ayrim afzalliklari jamlanib, sarmoya kiritilayotgan avlod bilangina cheklanib

qolmaydi. Masalan, onaning farzandning prenatal parvarishi haqidagi bilimini boyitish bolalarning go‘dakligidanoq sog‘lig‘ini yaxshilashga xizmat qiladi. Iqtisodchilarning hisob-kitoblariga ko‘ra, inson kapitaliga individual investitsiyalar umumlashtirilganda, turli mamlakatlarda inson kapitaliga kiritilgan investitsiya bilan aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar o‘rtasidagi tafovut 10 foizdan 30 foizgacha bo‘lishini ko‘rsatdi.

Ta’limga kiritiladigan sarmoyalar ham jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishi mumkin. Aksariyat mamlakatlarda nisbatan o‘ziga to‘q oilalarda tug‘ilgan farzandlar bolalikdanoq keng imkoniyatlardan foydalanishni boshlaydi va bu butun umri davomida qator afzalliklarga olib keladi, aksincha, nochorroq oilalar farzandlari bunday imkoniyatlardan foydalana olmaydi. Bunday muammoni hukumat tomonidan hal etish bo‘yicha sa’y-harakatlar amalga oshirilganda iqtisodiy tengsizlikning qisqarish tendensiyasi kuzatiladi. Inson kapitaliga sarmoya kiritishdan jamiyat ham katta manfaat ko‘radi. Uzluksiz maktab ta’limi turli jinoyatlar sodir etilishi ehtimolini kamaytiradi.

Inson kapitali shaxsning jamiyat hayotida ishtirok etishi bilan bog‘liq. 1970-yillarning o‘rtalarida Nigeriyada umumiy boshlang‘ich ta’lim joriy etilib, bolalarning katta qismi boshlang‘ich maktablarga qamrab olindi. Bir necha yil o‘tib, bu yigit va qizlar yangiliklar bilan qiziqish, tengqurlari bilan siyosat haqida suhbat qurish, palata yig‘ilishlari va saylovlarda ishtirok etishni boshladi.

Inson kapitaliga investitsiya kiritish ishonch darajasini ham oshiradi. O‘qimishli insonlar boshqalarga ko‘proq ishonadi, ishonch darajasi baland bo‘lgan jamiyat odatda nisbatan yuqori iqtisodiy o‘sishga erishadi. Shuningdek, ular ancha sabrli ham bo‘ladi: tadqiqotlar yigirmanchi asr o‘rtalarida Yevropada amalga oshirilgan maktab islohotlari odamlarning migrantlarga nisbatan bag‘rikengroq bo‘lishiga xizmat qilgan.

Inson kapitali o‘z-o‘zidan yuzaga chiqmaydi, u davlat tomonidan rivojlantirilishi lozim. Xususan, ko‘pincha inson kamoloti uchun investitsiya kiritish va bu sarmoyaning boshqalarga ham tarqalishi omili inobatga olinmaydi. Ota-onalarning o‘g‘liga qiz farzandidan ko‘ra ko‘proq e’tibor qaratishi avvaldan ma’lum. Biroq ushbu kamsitish ta’siri kelgusida kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Boshqa holatlarda oilalar o‘z bolalariga sarmoya kiritishni istaydi, biroq bunga qurbi yetmaydi. Kambag‘al ota-onalarda iste’dodli bolalarini maktabda

o‘qitishga pul to‘lashi uchun kredit olish imkoni yo‘q. Hatto ta’lim bepul bo‘lgan taqdirda ham ular transport va maktab xarajatlari uchun pul topishi zarur. Bola oilaga qo‘shimcha daromad keltirishi uchun ishlashi va shu boisdan maktabda o‘qiy olmasligi bilan bog‘liq holatlarni aytmasa ham bo‘ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda tobora ko‘proq aholi sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarining yaxshilanishini talab qilmoqda.

Janubiy Osiyo mamlakatlarida surunkali to‘yib ovqatlanmaslik natijasida besh yoshgacha bo‘lgan bolalarning uchdan bir qismidan ko‘prog‘i o‘z yoshiga nisbatan past bo‘yli bo‘lib, bu miya rivojlanishiga putur yetkazadi va o‘qish layoqatiga jiddiy to‘sqinlik qiladi.

Singapurda o‘quvchilarning 98 foizi, Janubiy Afrikada 26 foizi o‘rta maktabda xalqaro bazaviy darajaga erishadi. Boshqacha aytganda, Singapurda o‘rta maktab o‘quvchilarining deyarli barchasi dunyoning istalgan joyida ishlash uchun yetarli malakaga ega. Janubiy afrikalik yoshlarning qariyb to‘rtdan uch qismi savodsiz. Bu inson salohiyatini yo‘qotish deganidir. Bolalar maktabni bitirar ekan, qaysi mamlakatda yashashiga qarab sog‘lig‘i borasida mutlaqo turli istiqbollarga duch keladi. Dunyoning eng badavlat mamlakatlarida 15 yoshli o‘smirlarning qariyb 5 foizi o‘zining 60 yoshligini qarshilay olmaydi. Qashshoq mamlakatlarda 15 yoshli o‘smirlarning 40 foizi 60 yoshgacha vafot etadi.

Ushbu raqamlar turli mamlakatlarda sog‘liqni saqlash va ta’lim sohasida ulkan tafovutlar borligini ko‘rsatadi. Inson kapitalining rivojlanishi odamlar, iqtisodiyotlar, jamiyatlar va butun dunyoda barqarorlik uchun ahamiyatga ega. Bu kelgusi avlodlar uchun ham muhimdir.

Mamlakatlar inson kapitaliga samarali investitsiya qila olmas ekan, ayniqsa, kambag‘allar uchun katta xarajatlar yuzaga keladi. Ushbu xarajatlar kelgusi avlodlarni og‘ir ahvolga solib qo‘yadi.

Katta xarajatlarni talab etuvchi texnologik taraqqiyot tufayli fuqarolari samarali turmush kechirishi uchun zamin yaratishga qodir emaslik, nafaqat yuqori xarajatlar bilan birga kechadi, balki jiddiy tengsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa xavfsizlikka ham tahdid soladi, zero, qondirilmagan talablar tartibsizliklar keltirib chiqarishi mumkin.

1949-yilda Jahon banki prezidenti Jon MakKloy shunday yozgan edi: “Taraqqiyot – bu taxtaga chizish, so‘ngra sehrli tayoqcha va dollar bilan hayotga joriy qilish mumkin bo‘lgan narsa emas”.

Xulosa o‘rnida yangi o‘lchovlar mamlakatlarni imkon qadar tezroq inson kapitaliga sarmoya qilishga ishontiradi. Bu barchani kelajak iqtisodiyotiga – u yerda uchrashi mumkin bo‘lgan barcha narsalarda

raqobatga va farovonlikka tayyorlaydi. Va bu global tizimga barcha birday amal qilishiga ko‘maklashadi. Inson kapitaliga investitsiya qilishga qodir bo‘lmaslik taraqqiyot uchun, butun insoniyat uchun nihoyatda qimmatga tushadi. [3]

Foydalanilgan adabiyotlar*:*

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 21-sentyabrdagi “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544 sonli farmoni. Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-158-sonli farmoni. Lex.uz.
3. Internet saytlari ma‘lumotlari.(Qalampir.uz, kun.uz, yuz.uz.daryo.uz)

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Рахмоназаров Пахлавон Йигиталиевич
Ферганский политехнический институт
Старший преподаватель кафедры «Экономика» Phd
Тел: +998 99 365 43 05 email; p.raxmonazarov @ferpi.uz

Аннотация: В статье рассматривается концепция человеческого капитала как ключевого ресурса для устойчивого экономического роста и социального развития. Анализируются основные теоретические подходы к его определению и оценке. Особое внимание уделяется роли образования, здравоохранения и профессиональной подготовки в формировании и увеличении человеческого капитала. Рассматриваются также современные тенденции, вызовы и стратегии его развития в условиях глобализации и цифровой трансформации. В статье предложены меры, направленные на эффективное использование человеческого капитала, включая инвестиции в образовательные программы, поддержку инноваций и создание благоприятных условий для профессиональной самореализации.

Ключевые слова: человеческий капитал, инновации, образование, экономическое и социальное развитие

Annotatsiya: Maqolada inson kapitali kontseptsiyasi barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishning asosiy resursi sifatida ko'rib chiqiladi. Uni aniqlash va baholashning asosiy nazariy yondashuvlari tahlil qilinadi. Inson kapitalini shakllantirish va yuksaltirishda ta’lim, sog‘liqni saqlash va kasb-hunar ta’limining o‘rniga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida uni rivojlantirishning joriy tendentsiyalari, muammolari va strategiyalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada inson kapitalidan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar, shu jumladan ta'lim dasturlariga investitsiyalar, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va kasbiy o'zini o'zi anglash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, innovatsiyalar, ta'lim, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish

Abstract: The article examines the concept of human capital as a key resource for sustainable economic growth and social development. The main theoretical approaches to its definition and assessment are analyzed. Particular attention is paid to the role of education, health care and vocational training in the formation and increase of human capital. Modern trends, challenges and strategies for its development in the context of globalization and digital transformation are also considered. The article proposes measures aimed at the effective use of human capital, including investments in educational programs, support for innovation and the creation of favorable conditions for professional self-realization.

Keywords: human capital, innovation, education, economic and social development

На сегодняшний день особую актуальность приобретают вопросы развития человеческого капитала. Инвестиции в человеческий капитал дают свои положительные результаты в том числе и на региональном уровне. Соответствующий уровень человеческого капитала и на предприятиях положительно воздействует на совершенствование механизма управления персоналом.

Развитие человеческого капитала на региональном уровне является ключевым элементом обеспечения устойчивого социально-экономического развития. Мы можем представить некоторые направления, которые могут способствовать улучшению человеческого капитала в регионах: Развитие системы образования, включая дошкольное, общее, профессиональное и высшее образование.

Так же необходимо обратить внимание на повышение доступности качественного образования для всех слоев населения. Создание программ подготовки и переподготовки кадров, соответствующих потребностям рынка труда.

Инновации в образовании: внедрение современных технологий и методов обучения, развитие онлайн-образования для увеличения гибкости и доступности образовательных ресурсов.

Эффективное управление производительностью вбирает в себя следующее:

Во первых: установка ясных стандартов оценки производительности.

Во вторых: проведение регулярных обзоров производительности и установка планов действий.

В третьих: предоставление обратной связи и поддержки для улучшения результатов.

Исследователи в этой области обращают внимание на вопросах адаптации к изменениям то есть:

- готовность к изменениям в организационной структуре и процессах;
- обучение сотрудников новым навыкам и технологиям;
- содействие созданию адаптивной культуры в организации;

Обратим внимание на технологии в управлении персоналом:

- внедрение современных систем управления персоналом и HR-технологии.
- использование аналитики для принятия более обоснованных решений в области управления персоналом.

Детализация по некоторым аспектам совершенствования механизма управления персоналом:

Лидерство и Развитие Руководителей:

Инвестировать целесообразно в развитие лидерских навыков у руководителей.

Предпочтительно создание программы менторства и коучинга для руководителей. Приоритетно развитие лидеров внутри компании, способствующее их росту из собственных рядов.

В разрезе гибкости и адаптивности:

Стимулирование гибкости и адаптивности в культуре организации. Обучение сотрудников управлению изменениями. Поощрение принятия новых идей и подходов.

В плане системы Вознаграждений и Льгот:

Регулярное обновление системы вознаграждений с учетом рыночных тенденций. Предоставление конкурентоспособных льгот и бонусов. Разработка индивидуальных программ мотивации для сотрудников.

Работа с Конфликтами:

Развитие навыков разрешения конфликтов среди сотрудников.

Создание открытых форумов для обсуждения проблем и нахождения решений. Обеспечение поддержки по решению профессиональных и межличностных конфликтов.

В ракурсе управления знаниями и инновациями:

- создание системы для сбора, хранения и передачи знаний внутри компании.

- способствование культуре инноваций и поощрение сотрудников за предложение новых идей.

В заключении подводя итоги можно отметить то, что развитие человеческого капитала на региональном уровне играет ключевую роль в обеспечении устойчивого экономического и социального развития. Выводы по данной теме могут включать следующие аспекты:

Во первых - акцент на образование и навыки: система образования является основой формирования человеческого капитала; региональные программы и инвестиции в образование способствуют повышению уровня квалификации населения. Важность разработки программ профессиональной подготовки и обучения, ориентированных на потребности рынка труда.

Во вторых – необходимо обратить внимание на забота о здоровье населения, что является неотъемлемой частью развития человеческого капитала. Инвестиции в медицинскую инфраструктуру и профилактические программы способствуют повышению продолжительности и качества жизни.

В третьих - развитие регионального рынка труда требует создания благоприятных условий для предпринимательства и инноваций, что в свою очередь способствует созданию новых рабочих мест и росту занятости. Привлечение и удержание квалифицированных специалистов через меры по улучшению условий труда и развитию профессиональных перспектив.

В четвёртых - инновации и технологии: развитие человеческого капитала тесно связано с внедрением новых технологий и инноваций; обучение населения работе с современными

технологиями способствует повышению производительности труда и конкурентоспособности региона.

В пятых: социальная инклюзия: важность создания условий для социальной инклюзии и равенства возможностей, что способствует максимальному использованию потенциала всего населения региона.

Разработка программ и мер, направленных на поддержку уязвимых групп населения, таких как молодежь, пенсионеры, инвалиды и мигранты.

Партнерство и сотрудничество:

Региональные власти, бизнес-структуры и образовательные учреждения должны взаимодействовать для совместных усилий по развитию человеческого капитала.

Поддержка государственных и частных партнерств для создания благоприятных условий для инвестиций и развития.

В целом, развитие человеческого капитала на региональном уровне требует комплексного подхода, включающего в себя образование, здравоохранение, трудовой рынок, инновации и социальную инклюзию. Эти усилия могут способствовать устойчивому и равномерному развитию региона, обеспечивая благосостояние его населения.

Литература:

1. Шлыгова, А. В. (2021). Анализ управленческой деятельности трех великих управленцев: александра македонского, наполеона бонапарта и дэвида паккарда. *Новые импульсы развития: вопросы научных исследований*, (2), 182-188.
2. Мау, В., & Клячко, Т. (Eds.). (2021). *Развитие человеческого капитала*. Litres.
3. Григорьев, С. Г., Лукин, В. В., & Лукин, Д. В. (2018). Развитие человеческого капитала в условиях цифровизации. *E-Management*, *1*(2), 13-19.

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA VIRTUAL MUZEYLARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

To‘ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi
Qo‘qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Texnologiyalar tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar ta'limni yanada malakali qilish uchun o‘quv jarayonlarida qo‘llaniladi. Texnologiyaga asoslangan dasturlardan biri virtual muzeylardir. Maqolada malaka oshirish tizimida virtual muzeylardan foydalanishning afzaliklari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Malaka oshirish, muzey, raqamli texnologiya, virtual muzey, tarix o‘qituvchilari, artifact, multimedia.

Аннотация. Возможности, предоставляемые технологиями, используются в образовательных процессах, чтобы сделать образование более компетентным. Одна из программ, основанных на технологиях, — это виртуальные музеи. В статье рассматриваются преимущества
использования виртуальных музеев в системе обучения.

Ключевые слова. Профессиональное развитие, музей, цифровые технологии, виртуальный музей, учителя истории, артефакт, мультимедиа.

Annotation. Opportunities provided by technologies are used in educational processes to make education more competent. One technology-based program is virtual museums. The article examines the advantages of using virtual museums in the training system.

Key words. Professional development, museum, digital technology, virtual museum, history teachers, artifact, multimedia.

O‘zbekistonda xalqaro miqyosda e’tirof etilayotgan O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi na-tijalari, uning kelgusi taraqqiyoti jaxon amaliyotida qo‘llanilayotgan yangi texnologiya va ilg‘or fan yutuqlaridan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Malaka oshirish tizimi faoliyatini modernizatsiyalash, nazariy va amaliy jixatdan o‘rganish ushbu tizimda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bir qator muhim vazifalar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Malaka oshirish tizimini takomillashtirishning o‘ziga xos ahamiyat kasb etishi va axborot texnologiyalardan foydalanish malakalarini shakllantirish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qarori ijrosini ta’minlash hamda oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2024 yil 11-iyuldagi 415-sonli “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini

oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorini qabul qildi[1]. Ushbu qarorda malaka oshirish institutlarining vazifalari aniq belgilab berildi.

Texnologiyalar tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar ta'limni yanada malakali qilish uchun o‘quv jarayonlarida qo‘llaniladi. Texnologiyaga asoslangan dasturlardan biri virtual muzeylardir. Virtual muzeylar muzeylardagi san'at asarlarini sinf muhitiga etkazish va darsni yanada aniq va tushunarli qilish uchun muhim hissa qo‘shadi. Ayniqsa, o‘tmish ko‘rgazmasini hisobga olgan holda, virtual muzeylardan tarix kurslari uchun foydalanish mumkin edi, ammo bu borada ko‘proq tadqiqotlar o‘tkazish kerak [2]. Virtual muzey texnologiyalaridan o‘qituvchilar turli maqsadlarda foydalanishlari mumkin: kommunikativ, madaniy-ma'rifiy, o‘quv, motivatsion va tadqiqot. Axborot texnologiyalari, muzey pedagogikasi va loyiha uslubining kombinatsiyasi barcha yoshdagi maktab o‘quvchilarida qobiliyatlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda virtual muzey pedagogikasini o‘quv amaliyotida, shu jumladan maktab o‘quvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyatida joriy etish tendentsiyasi mavjud. Bu jarayonning dolzarbligi aniq. Virtual muzey texnologiyalari sizga turli xil darslarni ishlab chiqishga imkon beradi: muammoli (muammoli vaziyatni yaratish), individual (mustaqil qidiruv va kognitiv faoliyat), guruh ijodiy vazifalari, sayohat darslari, ekskursiyalar, raqobatbardosh o‘yin dasturlari. Ularning barchasi talabaning qiziqishi va tadqiqot faoliyatini uyg‘otishga qaratilgan. Virtual muzey pedagogikasi istiqbolli yo‘nalish, innovatsion pedagogik texnologiyadir. Jadal rivojlanayotgan axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalari ijtimoiy-madaniy ob'ektlarning, shu jumladan virtual muzeylarning yangi modellarini shakllantirmoqda [3]. Jamiyat hayotining barcha jabhalarini global raqamlashtirish nuqtai nazaridan madaniy-tarixiy sohani, shu jumladan muzey faoliyatini virtualizatsiya qilish aniq va muqarrar bo‘lib tuyuladi, natijada muzeyning sifat jihatidan yangi turi-"raqamli muzey" shakllanib, muzey ishini rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar va istiqbollarni ochib beradi [4]. Raqamli muzeylarni ta’lim sohasida aynan malaka oshirish tizimida qo‘llash bizga nimalar beradi? Ushbu maqolada bunga javob topishga harakat qilinadi.

So‘nggi yillarda virtual muzeylar innovatsion ta'lim vositasi sifatida paydo bo‘lib, tarixni o‘qitish va o‘rganish usullarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim sohasiga integratsiyalashuvi ham o‘quvchilar, ham pedagoglar uchun, ayniqsa,

tarix fani o‘qituvchilarining malakasini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratdi. Virtual muzeylar o‘zlarining immersiv va interaktiv muhitlari bilan o‘qituvchilarning malakasi va o‘qitish usullarini oshirishga yordam beradigan noyob resurslarni taklif etadilar. Ushbu maqolada virtual muzeylarning tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishdagi o‘rni o‘rganilib, ularning tarixiy bilimlarni boyitish, pedagogika va faollik imkoniyatlarini yoritib beradi.

Virtual muzeylar an'anaviy muzeylarning raqamli ko‘rinishlari bo‘lib, kolleksiyalar, ko‘rgazmalar va tarixiy ashyolarga onlayn kirishni ta'minlaydi. Geografik yaqinlik va cheklangan tashrif soatlarini talab qiladigan jismoniy muzeylardan farqli o‘laroq, virtual muzeylarga istalgan vaqtda istalgan joydan kirish mumkin. Bu ularni muayyan tarixiy davrlar, madaniyatlar yoki voqealar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga intilayotgan tarix o‘qituvchilari uchun ko‘p qirrali vositaga aylantiradi. Tarix o‘qituvchilari uchun virtual muzeylar quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- Turli tarixiy manbalarni o‘rganish: Virtual muzeylar keng qamrovli artefaktlar, hujjatlar va multimedia kontentiga ega. O‘qituvchilar ushbu manbalardan tarix haqidagi tushunchalarini yaxshilash va eng so‘nggi tarixiy topilmalar va talqinlardan xabardor bo‘lish uchun foydalanishlari mumkin. Misol uchun, o‘qituvchilar raqamli arxivlarga, tarixiy joylarning virtual rekonstruktsiyasiga va interaktiv ko‘rgazmalarga kirishlari mumkin, aks holda ularga jismoniy kirish mumkin emas.
- Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Turli tarixiy talqinlar va manbalar bilan shug‘ullanish orqali o‘qituvchilar tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. Virtual muzeylar o‘qituvchilarga turli nuqtai nazarlarni solishtirish, asosiy va ikkinchi darajali manbalarni tahlil qilish, tarixshunoslik bilan shug‘ullanish, tahliliy imkoniyatlarini mustahkamlash imkonini beradi.
- Madaniy merosga global kirish: Virtual muzeylar ko‘pincha butun dunyo bo‘ylab eksponatlarni o‘z ichiga oladi, bu mahalliy joylarda mavjud bo‘lmagan tarixiy va madaniy materiallarning keng doirasiga kirish imkonini beradi. Bu esa tarix fani o‘qituvchilarining o‘rgatadigan bilim doirasini kengaytiradi va ularning jahon tarixi haqidagi tushunchalarini boyitadi.

Virtual muzeylar nafaqat tarixiy mazmun uchun resurs, balki o‘qitish amaliyotini yaxshilaydigan pedagogik vosita hamdir. Virtual muzeylarning interfaol va multimedia xususiyati tarix o‘qituvchilari tomonidan yanada qiziqarli va samarali dars rejalarini ishlab chiqish

uchun foydalanishi mumkin. Virtual muzeylarning pedagogik rivojlanishga hissa qo‘shishining ba'zi asosiy usullari quyidagilardan iborat:

- Interaktiv ta'lim vositalari: Ko‘pgina virtual muzeylar 3D modellar, virtual sayohatlar va interaktiv vaqt jadvallari kabi xususiyatlarni taklif qiladi. O‘qituvchilar ushbu vositalardan o‘quvchilar e'tiborini tortadigan va tarixiy voqealarni yanada aniqroq qiladigan dinamik darslarni loyihalashda foydalanishlari mumkin. Misol uchun, Misr piramidalari bo‘ylab virtual sayohat talabalarni qadimgi davrlarga olib borishi mumkin, bu ularning tarixiy arxitektura va jamiyat haqidagi tushunchalarini oshiradi.
- Raqamli savodxonlik: Texnologiya sinfga tobora ko‘proq integratsiyalashgani sababli, tarix o‘qituvchilari raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Virtual muzeylar bilan shug‘ullanish o‘qituvchilarga raqamli platformalar, ta'limni boshqarish tizimlari va multimedia kontentidan foydalanishda qulayroq bo‘lishga yordam beradi. Ushbu ko‘nikmalar raqamli kontent yaratish, onlayn resurslarni boshqarish va talabalar uchun virtual o‘rganish tajribasini osonlashtirish uchun juda muhimdir.
- Hamkorlikdagi ta'lim imkoniyatlari: Virtual muzeylar ko‘pincha forumlar, munozara taxtalari va ijtimoiy media integratsiyasini o‘z ichiga oladi, ularda o‘qituvchilar o‘zaro fikr almashishlari, o‘qitish strategiyalari va hamkorlik qilishlari mumkin.

Virtual muzeylar tarix o‘qituvchilarining malakasini oshirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, mazmunga boy resurslar va innovatsion pedagogik vositalarni taklif etadi. Turli tarixiy materiallardan foydalanishni ta'minlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va raqamli savodxonlikni oshirish orqali virtual muzeylar tarix ta'limining doimiy takomillashuviga sezilarli hissa qo‘shishi mumkin. Biroq, ushbu imtiyozlarni to‘liq amalga oshirish uchun texnologik kirish, o‘qitish va kontentning dolzarbligi bilan bog‘liq muammolarni hal qilish juda muhimdir. Tegishli ko‘mak bilan virtual muzeylar tarix o‘qituvchilari uchun kasbiy rivojlanishning asosiga aylanishi mumkin va ularga o‘z talabalari uchun yanada dinamik, qiziqarli va samarali o‘rganish tajribasini rivojlantirishga yordam beradi.Ta'lim texnologiyalari rivojlanishda davom etar ekan, virtual muzeylarning tarix ta'limidagi o‘rni kengayadi va bu o‘qituvchilar va talabalarni boyitish uchun yangi imkoniyatlarni taklif qiladi .

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori. 11.07.2024 yil 415-son.
2. Osman OKUMUŞ, Ahmet Vurgan. Pre-Service History Teacher’s Opinions About the Use of Virtual Museum Applications in History Courses. Education Quarterly Reviews, Vol.4 No.2 (2021)
3. Dronova, N. A. (2021). Virtual Museum Technologies In The Development Of Research Activities In Schoolchildren. In D. K. Bataev, S. A. Gapurov, A. D. Osmaev, V. K. Akaev, L. M. Idigova, M. R. Ovhadov, A. R. Salgiriev, & M. M. Betilmerzaeva (Eds.), Social and Cultural Transformations in The Context of Modern Globalism, vol 117.European Proceedings of Social and Behavioural Sciences (pp. 445-450). European Publisher. https://doi.org/10.15405/ epsbs. 2021. 11.59
4. Коровникова Н.А. Цифровой музей: особенности и перспективы развития // Социальные новации и социальные науки. Москва : ИНИОН РАН, 2021. - №1. - С. 145-154

IQTISODIY O‘SISH VA INNOVATSION RIVOJLANISH NAZARIYALARI EVOLYUTSIYASI

Mamatova Feruza Xolbekovna, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 1-bosqich doktoranti

Iqtisodiy o‘sish tushunchasi aholi farovonligini yaxshilash, ularning turmush sifati darajasini oshirishni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy o‘sish har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish siyosatining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanib borish sharoitida (YAIMning o‘sishi hisobidan) aholi ehtiyojlarini to‘liqroq qondirish, ilmiy-texnik ishlanmalarni kengaytirish, yangi innovatsion, ijtimoiy, siyosiy va strategik dasturlarni hayotga tatbiq etishni kengaytirish mumkin. Iqtisodiy o‘sish natijasida fanning rivojlanishi, texnologiyalarning uzluksiz modernizatsiya qilinishi va ularning yangi innovatsion rivojlanishi yuz beradi. Iqtisodiy o‘sish sharoitida mamlakat iqtisodiyotining hamma tuzilmalarida muhim evolyutsion o‘zgarishlar bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Inson sha’ni va qadr-qimmati yo‘lida»gi asosiy tamoyil xalq farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyotni transformatsiya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish, inson huquq va manfaatlarini ta’minlash va faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga, 2030 yilga borib, aholi jon boshiga daromadlarning 4 000 AQSH dollarigacha o‘sishini ta’minlash orqali o‘rta daromadli mamlakatlarning yuqori guruhiga kirish maqsadini o‘z oldiga qo‘yadi [1]. Horijiy hamda mamlakatimiz olimlarining uzoq vaqt davri mobaynidagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish natijalariga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, iqtisodiy o‘sish butun jahonda hozirgi rivojlanishning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Shu bilan birga ta’kidlash joizki, iqtisodiy o‘sish muammolari qadimdan butun jahonda iqtisodchilar fikrini band etgan. Buning natijasida ko‘plab iqtisodiy o‘sishning o‘ziga hos xususiyatlarini hisobga oluvchi nazariyalar paydo bo‘ldi.

Iqtisodiy o‘sish nazariyalarining metodologik ahamiyati omillar, tadqiq etish usullari yig‘indisi, o‘zaro bog‘liqliklar, qonuniyatlar va iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendensiyalari to‘g‘risidagi bilimlarni tizimlashtirishdan iborat hisoblanadi.

Iqtisodiy o‘sish nazariyasining dastlabki shart-sharoitlari fransuz iqtisodchisi Fransua Kenening (1694-1774) “Iqtisodiy jadval” nomli ishida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, unda olim takror ishlab chiqarish va sotish jarayoni xalq xo‘jaligini rivojlantirishning muayyan ulushlari saqlangan taqdirdagina uzluksiz ravishda kechishi mumkinligini isbotlab berdi [2].

Adam Smit o‘zining “Xalqlar tabiati va boyligining sabablari haqidagi tadqiqot” nomli ishida milliy boylikning oshishi sabablarini ko‘rib chiqqan. Klassiklarning fikriga ko‘ra, “boylikning oshishi ishlab chiqarish omillari va ular unumdorligining hajmi bilan belgilanadi” [3]. Smit mehnat taqsimoti o‘sishning eng muhim omili degan g‘oyani ilgari surib, kapitalni jamg‘arishning ahamiyatliligini ajratgan, bu uning fikriga ko‘ra, mehnat unumdorligining oshishiga xizmat qiladi.

Uning nazarida, mehnat taqsimoti va texnikani takomillashtirish mehnat unumdorligini oshirishning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. A.Smitning fikriga ko‘ra, ishlab chiqarish jarayonlari o‘rtasidagi farqning qisqarishi, xodimlar mahoratining oshishi, mashinalarning qo‘llanilishi kabi omillar mehnat taqsimoti natijasida yuzaga keldi [4]. Hozirgi talqinda, aytish mumkinki, Adam Smit ishlab chiqarishni texnologiyalarni qo‘llash, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, mashinalarni qo‘llash, yuqori malakali ishchi kuchidan foydalanish yo‘li

bilan modernizatsiya qilishni taklif etgan. O‘z ishida olim jamiyatning boyligiga kapital zaxiraning bir qismi hisoblangan mashinalarning ijobiy ta’siri haqidagi fikrni bildirgan [4]. A.Smit asosiy urg‘uni mehnat taqsimotiga berganiga qaramay, uning ishida ilmiy-texnik taraqqiyot, modernizatsiya g‘oyalari kuzatiladi.

Oxirgi yigirma yil mobaynida iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiy o‘sishni yanada chuqurroq tadqiq etishga alohida e’tibor qaratgan. Ko‘p sonli yangi nazariy va empirik tadqiqotlar o‘tkazilgan. Ayni paytda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy mexanizmlarida iqtisodiy o‘sish xususiyatiga katta o‘zgarishlar kiritgan yangi jarayonlar kechdi [5]. Iqtisodiy o‘sishning hozirgi nazariyalarida asosiy e’tibor dinamik modellarga, iqtisodiy o‘sishning muvazanatli sur’atiga erishish shartlariga, alohida mamlakatlar uchun universal modellarni ishlab chiqishga ko‘chmoqda. Robert Merton Solouning muvazanatli iqtisodiy o‘sish neoklassik modelini alohida ta’kidlash lozim (1987 yilda olimga “uning iqtisodiy o‘sish nazariyasiga qo‘shgan hissasi uchun” Nobel mukofoti berilgan). Solou modeli omillar to‘liq band bo‘lganda muvazanat holatida uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish mexanizmini taqdim etadi [6].

Ushbu modelga muvofiq aholi farovonligining barqaror oshirishning asosini texnik taraqqiyot tashkil qiladi. AQShda iqtisodiyot o‘sishining 40 yillik davrini tadqiq etish natijasida olim shunday xulosaga keldiki, shu vaqt oralig‘ida ishlab chiqarish o‘sishining 80 foizidan ko‘pi fan-texnika taraqqiyoti natijasi yoki, hozirgi til bilan aytganda, innovatsiyalarning rivojlanishi hisoblanadi. Bu model uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o‘sish mexanizmini ko‘rib chiqish imkonini beradi.

M.Solouning iqtisodiy o‘sish borasida o‘tkazgan tadqiqotlari natijasida iqtisodiy nazariyadan endogen iqtisodiy o‘sish modeli sifatida joy olgan yangi muqobil modellar ishlab chiqildi. Iqtisodiy o‘sish nazariyasini ko‘rib chiqishda tadqiqotlar empirik ishlanmalar o‘zaro bog‘liq ekanligini ta’kidlash lozim.

Iqtisodiy o‘sishning keynsian (neokeynsian) modellari shunday fikrga asoslanadiki, investitsiyalar strategik o‘zgaruvchan bo‘lib, ular yordamida iqtisodiy o‘sishni boshqarish mumkin. Ko‘plab iqtisodchilarning baholariga ko‘ra, Jon Meynar Keynsning (1883-1946) “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” nomli kitobi (1936) XX asr iqtisodiyot fanida burilish nuqtasi bo‘ldi va Yevropaning bir qator davlatlari hamda AQShda hukumatlar darajasida iqtisodiyotni barqarorlashtirish dasturlarining nazariy-metodologik bazasi bo‘lib

xizmat qiladi va hatto hozir ham mamlakatlarning iqtisodiy siyosatini belgilab beradi.

Neokeynsianchilik Keyns rivojlanish nazariyasining keyingi mantiqiy bosqichi hisoblanadi. Neokeynsianchilik metodologiyasi (ko‘p jihatdan) J.M.Keyns nazariyasining asosiy qoidalarini takrorlaydi. Biroq, mazkur nazariya davomchilari J.M.Keyns nazariyasidagi ayrim kamchiliklarni ta’kidlaydi. Ularning fikriga ko‘ra, J.M.Keyns nazariyasidagi asosiy kamchilik – tahlilning statikligi, iqtisodiyot hamisha harakatda va rivojlanishda bo‘lishini hisobga olgan holda iqtisodiy hodisalarga nisbatan dinamik yondashuvning mavjud emasligi. Yevsey D.Domar (1914-1997) va Roy F.Xarrod (1900-1978) modellari mashhur neokeynsiancha modellar hisoblanadi. Ular qarashlarining yaqinligi tufayli ko‘plab iqtisodchilar iqtisodiy o‘sishning yagona modelini Xarrod-Domar modeli deb atashadi.

XX asr 40-yillarining oxirida YE.D.Domar iqtisodiy o‘sish modelining o‘z variantini taklif qildi. YE.D.Domarning iqtisodiy o‘sish nazariyasiga qo‘shgan asosiy hissasi shundan iboratki, u investitsiyalarning ikkita samarasi: multiplikator va akseleratorni hisobga olish zarurligini ta’kidladi.

Ta’kidlash lozimki, Xarrod-Domar konsepsiyalarining Erik Lundberg (1907-1987) va Erik Lindal (1891-1960) kabi shved iqtisodchilarining bir qator ishlanmalari bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlash lozim [4]. Shved ilmiy maktabining metodologiyasini rivojlantirgan holda, E.Lundberg iqtisodiyotni rivojlantirishning bir necha variantlarini taklif etgan. E.Lundbergning nazarida, iqtisodiy nazariyaning maqsadi ushbu tizim ichki mexanizmining bir qismi sifatida vaqtga ko‘ra yuz beradigan o‘zgarishlarni tahlil qilishdan iborat. Bundan kelib chiqadiki, makroiqtisodiy nazariya iqtisodiy o‘sishning ichki omillarini aniqlashi kerak.

Ingliz iqtisodchisi Joan Robinsonning iqtisodiy o‘sish nazariyasi keynsian nazariyasidan keyingi yo‘nalishidagi eng qiziqarli nazariya hisoblanadi. J.Robinsonning hisoblashicha, iqtisodiy o‘sishning asosida yettita asosiy omil yotadi: ishlab chiqarish texnik sharoitlari, investitsiya siyosati, jamg‘armalarni shakllantirish shartlari, bozorning raqobat parametrlari, ish haqi stavkasining shakllanishi, davlatning moliyaviy siyosati, avvalgi ishlab chiqarish yo‘nalishidagi tovarlarning boshlang‘ich zaxirasi va tajribaga asoslangan kutishlar. J.Robinsonning fikriga ko‘ra, ushbu omillarning o‘zaro uyg‘unlashuvi iqtisodiy o‘sishga olib keladi [6].

J.Robinson tomonidan yaratilgan jamg‘arish nazariyasida investitsiyalar omiliga e’tibor qaratgan. Turli tarmoqlarda kapital qo‘yilmalar sur’atlari turlicha ekanligini hisobga olgan holda, J.Robinsonning nazarida, ijtimoiy ishlab chiqarish ikkita bo‘linmaga ega: investitsiya tovarlari ishlab chiqarish va iste’mol tovarlari ishlab chiqarish. Nazariya muallifining fikriga ko‘ra, kapital ishlab chiqarish vositalarining yig‘indisi hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sish ularga bog‘liq bo‘lgan asosiy parametrlar jumlasiga J.Robinson texnik taraqqiyot, foyda normasi va real ish haqini kiritadi. Foydaning barqaror normasida jamg‘arish jarayoni texnik taraqqiyot sur’atlariga va xodimlar soniga bevosita bog‘liq [3]. J.Robinson tomonidan taklif etilgan yettita iqtisodiy o‘sish omilidan investitsiya siyosati va bozorning raqobatbardoshligi omillarini alohida ajratish lozim. Ilgari ko‘rib chiqilgan barcha modellar ichida investitsiyalar iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

N.Kaldor, L.Pazinetti kabi Keynsdan keyingi iqtisodiy tafakkur vakillari J.Robinson yo‘nalishidagi muvozanatli iqtisodiy o‘sishni tadqiq etish davomchilari hisoblanishadi [4]. Muvozanatli iqtisodiy o‘sish modellarini real voqelikka imkon qadar yaqinlashtirish maqsadida ular ushbu modellarga takomillashmagan raqobat, inflyatsiya, milliy daromadning foyda bilan ish haqi o‘rtasida taqsimlanishi, mahsulotni iste’mol va ishlab chiqarish ne’matlariga bo‘lish va h.k. omillarni kiritadi.

Institutsional yo‘nalishning ko‘zga ko‘ringan vakili, shved iqtisodchisi, 1974 yilgi Nobel mukofotining laureati Gunnar Myurdal rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini ko‘rib chiqdi. Olimning fikriga ko‘ra, aholi katta qismining turmush sharoiti yaxshilanishi bilan kuzatilmaydigan iqtisodiy o‘sish haqiqiy o‘sish sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin emas, chunki u aynan aholining ushbu qismi tomonidan amalga oshiriladi.

Iqtisodiy o‘sish jarayonining tarixiy istiqbollarini tadqiq etish natijasida amerikalik iqtisodchi Saymon Kuznets ayrim mamlakatlar uchun bir qator empirik qonuniyatlarni aniqladi. Jumladan:

1) rivojlangan mamlakatlarda aholi soni va aholi jon boshiga daromadning yuqori o‘sish sur’atlari. Oxirgi 20 yil mobaynida aholi soni bir yilda 1 foizga o‘sgani holda aholi jon boshiga daromadning o‘rtacha o‘sish sur’atlari bir yilda 2 foizni tashkil qilgan;

2) ishlab chiqarish omillari unumdorligi o‘sishining yuqori sur’atlari. Rivojlangan mamlakatlarda industrial davrda aholi jon boshiga daromadning turli baholarga ko‘ra 50 foizdan 75 foizgacha o‘sishi omillar

unumdorligi o‘sishining natijasi bo‘ldi. Aholi jon boshiga YAIM o‘sishining asosiy qismiga texnik taraqqiyot hisobidan erishilgan;

3) iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirishning yuqori sur’atlari. U ishchi kuchining qishloq xo‘jaligidan sanoatga, oxirgi vaqtda esa sanoatdan xizmatlar ko‘rsatish sohasiga ko‘chishini o‘z ichiga oladi;

4) ijtimoiy, siyosiy va institutsional transformatsiyaning yuqori sur’atlari. Jiddiy tarkibiy o‘zgartirishlar hamma vaqt ijtimoiy institutlar, insonlar xatti-harakati va mafkuradagi institutsional o‘zgarishlar bilan kuzatiladi;

5) iqtisodiy o‘sishning xalqaro ko‘lamlari rivojlangan mamlakatlarning o‘tmishda va hozirda chet elda sotish bozorlari, xomashyo va arzon ishchi kuchi manbalarini topishga qodirligi bilan shartlangan, bu kambag‘al mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy bo‘ysundirilishiga olib keladi.

6) iqtisodiy o‘sish natijalarini taqsimlashning cheklanishi. Jahonda oxirgi 20 yil mobaynida ishlab chiqarish hajmining yuqori darajada o‘sishiga qaramay, yer yuzi aholisining faqatgina to‘rtdan bir qismi mazkur jarayonda ishtirok etdi. Mana shu kamchilikka jahon daromadining 80 foizi to‘g‘ri keladi.

S.Kuznetsning ishlarida jamg‘armalar va investitsiyalar, kapital qo‘yilmalar va iqtisodiy o‘sish jarayonidagi texnologik o‘zgarishlar roliga katta e’tibor qaratildi. U iqtisodiyotda kapital qo‘yilmalarning ulushi uzoq muddatli davrda jamg‘arish jarayonining barqarorligi bilan aniqlanishini isbotlab berdi. U tomonidan ishlab chiqilgan eng yuqori kapital sig‘imini o‘lchash tizimi iqtisodiy rivojlanish jarayonida aksidorlik kapitalining nisbiy hajmi o‘sishini, biroq, aksidorlik kapitalining foydadagi ulushi asta-sekin kamayishini ko‘rsatdi [7].

1939 yilda Yozef Aloiz Shumpeter o‘zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” nomli ishida iqtisodiy fanga “innovatsiya” tushunchasini kiritib, innovatsion jarayonga ta’rif berdi. “Innovatsiya” tushunchasining o‘zi keng doirada talqin etiladi. “Innovatsiya” atamasi “novatio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, lotin tilidan tarjima qilinganda “o‘zgartirish (“yangilash”)ni anglatadi, qo‘shilgan “in” (lot.) old qo‘shimcha tarjimada “yo‘nalishda”ni anglatadi, demak, “innovatio” so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “yo‘nalishdagi o‘zgartirishlar” hosil bo‘ladi [8]. Inglizcha “innovation” so‘zi rus tiliga tarjima qilinganda “innovatsiya”ni anglatadi [9]. O‘zbek tilida bu so‘z “yangi o‘zgartirish” ni bildiradi.

Y.A.Shumpeter, mutlaqo yangicha yondashuvni qo‘llagan holda, o‘z fikriga ko‘ra, iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi harakatlantiruvchi kuch

hisoblangan tadbirkorlik novatsiyasiga urg‘u beradi. Y.A.Shumpeterning fikricha, barqaror iqtisodiyot sharoitida tashabbuskor tavakkal qilishga moyil bo‘lgan novator-tadbirkor iqtisodiy rivojlanishni ilgari suruvchi vosita bo‘lishga qodir. Innovatsion faoliyat natijasida erishiladigan monopol foyda, Y.A.Shumpeter nazariyasiga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantiruvchi omili hisoblanadi.

Maykl Porter tomonidan taklif etilgan iqtisodiy rivojlanishning klaster nazariyasi ham katta qiziqish uyg‘otadi. M.Porterning fikriga ko‘ra, “klaster – bu jug‘rofiy qo‘shni sanalgan o‘zaro bog‘liq kompaniyalar (yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va b.) va ular bilan bog‘langan, muayyan sohada faoliyat ko‘rsatuvchi va bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi tashkilotlar (ta’lim muassasalari, davlat boshqaruvi organlari, infratuzilmaviy kompaniyalar) guruhi” [10]. O‘z nazariyasida M.Porter mamlakatning raqobatbardoshligini klaster tushunchasi orqali ko‘rib chiqadi. Olim mamlakatlarning raqobat jihatdan ustunligi determinantlari tizimini (“raqobat rombi”) joriy etdi. Bunda asosiy ustunliklar quyidagilardan iborat: omiliy shart-sharoitlar (inson va tabiiy resurslar, kapital, ilmiy-axborot salohiyati, turmush sifati va b.), ichki talab sharoitlari (talab hajmining rivojlanishi, talabning sifati), tarmoqlar klasterlari (asbob-uskunalar, xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar kelib tushishi, xomashyo va texnologiyalardan foydalanish sohalari), firmalar strategiyasi va tashkiliy tuzilishi (strategiyalar, maqsadlar, tarmoq ichidagi raqobat) [11].

Alohida klasterlarning kuchli tomonlari mamlakatning raqobatbardoshligini saqlab turadi. Muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatuvchi klasterlar katta hajmdagi kapital qo‘yilmalar obyektiga aylanadi. Ta’kidlash lozimki, tashkil etishning klaster shakli innovatsiyaning yangi shaklini – “umumiy innovatsion mahsulotni” yaratishga xizmat qiladi. Klaster ishtirokchilari o‘rtasida barqaror aloqalarning o‘rnatilishi ixtirolarning innovatsiyalarga o‘tishiga, keyingi bosqichda esa innovatsiyalarning raqobat ustunliklariga aylanishiga yordam beradi, innovatsiyaga yo‘naltirilganlik – klasterning eng muhim farqli belgisi hisoblanadi [12].

Shunday qilib, iqtisodiy o‘sish va innovatsion rivojlanishning asosiy konsepsiyalarini ko‘rib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, iqtisodiy o‘sishning ko‘p sonli nazariyalari o‘z omillarini ajratadi, lekin iqtisodiy o‘sish uchun ham ichki, ham xorijiy investitsiyalar zarur, buning natijasida iqtisodiyot innovatsiyaga yo‘naltirilganlikni qo‘lga kiritish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

a) Iqtisodiy nazariyada mamlakatlar rivojlanishida iqtisodiy o‘sishni uchta bosqichini ajratish mumkin. Birinchi bosqich iqtisodiy o‘sishning miqdoriy o‘zgarishi, ikkinchi bosqich – iqtisodiy o‘sishning samaradorligi va nihoyat iqtisodiy o‘sishning sifat jihatda o‘rganish bosqichi.

b) Olimlar ta’kidlashicha texnik taraqqiyot, investitsiya siyosati, jamg‘armalar shakllanishi, raqobat, ish haqi stavkalari, davlatning moliyaviy siyosati omillarining o‘zaro uyg‘unlashuvi iqtisodiy o‘sishni miqdoriy hamda sifat ko‘rsatkichlariga olib keladi.

v) Tahlil qilingan barcha nazariyalarda davlatning investitsiya siyosati, investitsiyalar hamda bandlik iqtisodiy o‘sishini ta’minlashning zaruriy sharti sifatida qaralgan.

g) Iqtisodiy nazariyada muvozanatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qarashlar muhim o‘ringa egadir. Ularga ko‘ra takomiliga yetmagan raqobat muhiti, inflyatsiya, milliy daromad taqsimlanishi va boshqalar muvozanatli iqtisodiy o‘sish omillari hisoblanadi.

d) Iqtisodiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra (Y.Shumpeter) innovatsiyalar va innovatsion faoliyat (tadbirkor) iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi omillar bo‘lib xizmat qiladi va buning muhim sharti, rivojlangan kredit bozoriga ega bo‘lish hisoblanadi.

e) Iqtisodiy rivojlanishning klaster nazariyasi, (M.Porter) iqtisodiy o‘sishda raqobat muhitini kuchaytiradi va shu jihatdan mamlakat raqobat ustunligini ta’minlaydi, tarmoqlarda klaster (shu jumladan erkin iqtisodiy zonalar) iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtalari hisoblanadi.

j) Rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o‘sishda muhim natijalarga erishishda institutsional mexanizmlarga tayanishgan, ularni yangilab borish tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiy o‘sishning omili bo‘lib hizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekistonning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish to‘g‘risida ixtiyoriy milliy hisoboti (ikkinchi).

2. Лавров Е.И., Капогузов Е.А. Экономический рост: теория и проблемы: учебное пособие. [Текст] / Е.И. Лавров, Е. А. Капогузов //– Омск: Изд-во ОмГУ, 2006.

3. История экономических учений: учебное пособие [текст] //Под пред. В. Автономова, О. Аноньина, Н. Машковой, // - М.: ИНФРА – М, 2006.

4. Сутырин С.Ф., Шишкин М.В., Борисов Г.В. История экономических учений: учебное пособие [Текст] / С.Ф.Сутырин, М.В.Шишкин, Г.В.Борисов // – М.: Эксмо, 2010.
5. Шараев Ю.В. Теория экономического роста. [Текст] / Ю.В.Шараев // - Издательский дом ГУ ВШЭ, Москва, 2006.
6. Экономическая теория. [Текст] / Под редакцией Белокрыловой О.С. // Ростов н/Д, «Феникс», 2002.
7. Голиченко О. Модернизация и реформирование инновационной стратегии России: проблемы и решения [Текст] / О. Голиченко // «Вопросы экономики» №8, 2010.
8. http://www.m-economy.ru/art.php3?artid=23985. Инновация. [Электронный источник]
9. Инновационная экономика, «Проблемы и перспективы инновационного развития экономики России», [Электронный источник] / Н. В. Бекетов //http://www.m-economy.ru/art.php3?artid=23985
10. Основные направления развития инновационной теории. [Электронный источник] / В.Ю. Гусарова // Академия управления «ТИСБИ», http://www.tisbi.org/science/vestnik/2004/issue3/Econom3.html
11. M. Porter, Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990 (2nd. ed. — New York: Free Press, 1998.
12. Байзакова С.Б. Прикладные инструменты системного анализа динамики индикатеров. Под общ-ред. А.Р.Жусупбековой – караганда: Изд. КарГу, 2008., - 87 с.

EFFECTIVE ORGANIZATION OF MODERN ENGLISH LESSONS

Niyozov Asatulla Abdurakhimovich.
School 33 Rishtan district

Everyone knows that English is one of the world languages. This language is studied in more than one hundred and fifty countries of the world. Every fourth person in the world learns English as a foreign language. Great importance is attached to learning English in our country. In particular, the decision of the President of the Republic of Uzbekistan on December 10, 2012 "On measures to further improve the system of

learning foreign languages" paved the way for more perfect learning of foreign languages. Taking into account that knowing a language is the guarantee of all success, foreign languages, especially English, are being given more importance for the spiritual maturity of the young generation. In fact, language learning is being organized in kindergartens, and their levels are increasing. Young language learners are trying to get B2 and C1 language levels. This requires a lot of hard work. A student who is interested in learning a language will never turn back. They have already started language learning for 4 skills. This requires high experience and classroom management from the teacher. It is necessary for the teacher to be regularly aware of the changes and innovations in the world education system.

One of the most important requirements of the present time is the proper organization of classes. As we learned in the TESOL courses, in order to organize the lesson effectively, the teacher should use the time wisely, effectively use various methods to make the lesson interesting, objectively evaluate, give importance to practice in the lessons, that is, to further strengthen each learned word or grammar rule quality use of exercises and activities is required. In the lessons, not only the teacher, but also the students should take the main place. Here, the teacher only supervises, the students themselves organize the lesson in a wonderful way, that is, they actively participate in the lesson based on games, dialogue, and debate, particularly monologues, by making a presentation. The teacher periodically increases their activities, it just guides them, providing them with free and independent thinking. The way he grows up is the result of the relationship and education of adults. Realization of students' abilities and talents is a responsible task for every teacher. A teacher who loves his subject uses various methods and games to increase the interest of students and enliven the lessons. Because the main issue in teaching children is not what they are taught, but how they are taught. Themes based on the game will remain in the memory for a long time. In addition, students also like non-traditional lessons. Some of the shy students can participate actively under these methods.

As for the discipline, the student should not just sit quietly saying that he will follow it. In this case, the correct organization of discipline is important, because it is the basis of a successful lesson. If students are not free and independent, the goal of the lesson will never be achieved. One of the main tasks of the reforms carried out in the field of modern education is to organize each lesson in accordance with the period

according to changes, because the identical lesson leads to boredom of the student. Therefore, we, the teachers, should be able to organize the class at a high level, give motivation to the students, and keep their interest even more. Then we can achieve our goals.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY ISHLAR JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

NamDU tadqiqotchisi Dadaqo‘ziev Muzaffar Raxnomonovich
https://orcid.org/0000-0002-5108-2208

Annotatsiya: Bu maqolada oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar jarayonlari va boshqarish mexanizmlaridagi mavjud muammolar tahlili keltirilgan. Maqola oliy ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar jarayonlarini mustahkamlash uchun foydali bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion, oliy ta'lim muassasalari, tarbiyaviy ishlar, pedagogik texnologiya, ta’lim-tarbiya.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ОРГАНИЗАЦИИ И УПРАВЛЕНИЯ УЧЕБНЫМИ ПРОЦЕССАМИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Музаффар Рахномонович Дадакузиев, исследователь НамГУ

Аннотация: В данной статье представлен анализ существующих проблем в процессах учебной работы и механизмах управления в высших учебных заведениях. Статья будет полезна для усиления процессов воспитательной работы в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: инновационные, высшие учебные заведения, воспитательная работа, педагогические технологии, образование.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE MECHANISMS OF ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Muzaffar Rakhnomonovich Dadakuziev, researcher at NamSU

Abstract: This article presents an analysis of existing problems in educational processes and management mechanisms in higher educational

